



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2 / 2022

TAHRIR HAY'ATI:

N. SALAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

I. ERGASHEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

U. MUXAMEDOV

Toshkent shahar adliya boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari – Toshkent shahar yuridik texnikumi direktori, yuridik fanlar doktori, professor

S. GULYAMOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro xususiy huquq" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

O. OKYULOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik huquqi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

M. AXMEDSHAYEVA

Toshkent davlat yuridik universiteti "Davlat va huquq nazariyasi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

U. TUXTASHEVA

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

SH. SAYDULLAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ommaviy huquq" fakulteti dekani, yuridik fanlar nomzodi, professor

X. XAYITOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

SH. XO'JAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Intellektual mulk" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

D. XABIBULLAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

SH. ISMOILOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Mehnat huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

G. TULAGANOVA

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat-protsessual huquqi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

N. RAXMONKULOVA

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti "Xalqaro xususiy huquq va fuqarolik huquqi fanlari" kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

J. NEMATOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ma'muriy va moliya huquqi" kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

G. UZAKOVA

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ekologiya huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

A. MUXAMEDJANOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro huquq va inson huquqlari" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

R. KUCHKAROV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Umumta'lim fanlar va madaniyat" kafedrasida dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

SH. XAYDAROV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish" kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

SH. ASADOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari" kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

D. XUDOYNAZAROV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrasida o'qituvchisi – mas'ul muharrir

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali

"Юриспруденция" правовой научно-практический журнал

"Jurisprudence" legal scientific-practical journal

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-1938
© Toshkent davlat yuridik universiteti

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY
HUQUQ. MA’MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

**6 HOSHIMXONOV AHRORXON
MO’MINOVICH**

Xorijiy mamlakatlarda hukumatni
shakllantirishning parlamentar usuli:
qiyosiy-huquqiy tahlil

14 ABDULLAYEVA MAFTUNA MUROD QIZI

O‘zbekistonda konstitutsiyaviy sudlov
institutining takomillashish bosqichlari hamda
uning o‘ziga xos xususiyatlari

23 YULDASHEVA FERUZA ULUG‘BEKOVNA

Davlat fuqarolik xizmatchilarini attestatsiyadan
o‘tkazishning tashkiliy-huquqiy masalalari

32 MAHMUDOV FIRUZ BAXTIYOR O‘G‘LI

Korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining
oldini olishda komplayens nazorat tizimining
o‘rni (davlat va xususiy sektor misolida)

**42 RAKHIMOV DILMURODJON
GULOMJON UGLI**

Discussion of the draft of the law “on state civil
service” for the purpose of its improvement

**53 XUDOYBERGANOVA MAVJUDA
HAMROQULOVNA**

Aholini dori vositalari bilan ta’minlashning
nazariy-huquqiy asoslari

61 AZIZOV BUNYOD MAVLONOVICH

O‘zbekistonda ma’muriy nizolarni hal qilish
jarayonlarini soddalashtirish va takomillashtirish
masalalari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

**71 YULDASHOV ABDUMO‘MIN
ABDUGOPIROVICH**

O‘zbekistonda mualliflik huquqi himoyasini
ta’minlashda mulkiy huquqlarni jamoaviy
asosda boshqaruvchi tashkilotlarning tutgan o‘rni

12.00.04 – FUQAROLIK
PROTSESSUAL HUQUQI.
XO‘JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA
MEDIATSIYA

82 IBRATOVA FERUZA BOBOQULOVNA

Bankrotlik to‘g‘risidagi ishlarda kelishuv bitimi tuzishda davlat organlari ishtiroki: muammo va yechimlar

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

90 NIYOZOVA SALOMAT SAPAROVNA

Oiladagi zo‘ravonliklarning oldini olish masalalari

**101 XUDOYQULOV FERUZBEK
XURRAMOVICH**

Jinoyat tarkibi to‘g‘risidagi ta‘limotning shakllanishi va rivojlanishida jinoyat obyektiv tomoni belgilarining o‘rni: qiyosiy tahlil

116 BOBOJONOV BOBOXON PO‘LATOVICH

Davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlarning oldini olishning ayrim masalalari

**125 TO‘XTASHEV HIKMATILLA
ISMATILLAYEVICH**

Qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish va muhofaza qilish tartibini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik

133 JUMANAZAROVA MARJONA BOTIR QIZI

Oxirgi zarurat holatida sodir etilgan qilmishni baholashning jinoyat-huquqiy jihatlari

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA.
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

143 HAMIDOV BAXTIYOR HAMIDOVICH

NOSIROV AMIRXON BAHODIR O‘G‘LI

Bank kartalaridan foydalanish bilan bog‘liq firibgarlik jinoyatlarining kriminalistik tahlili

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

152 ЮСУВАЛИЕВА РАХИМА ЮСУПОВНА

Формирование принципа равенства
как общего принципа права

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA
NAZARIYASI VA METODIKASI
(SOHALAR BO'YICHA)**166 AZIMOV HAKIMALI IMOMOVICH**

Buyuk g'alaba yo'lida O'zbekistonliklarning
front ortidagi matonati

UDC: 343.53(045)(575.1)

XORIY MAMLAKATLARDA HUKUMATNI SHAKLLANTIRISHNING PARLAMENTAR USULI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL

Hoshimxonov Ahrorxon Mo'minovich,
TDYU Yoshlar masalalari va
ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori
ORCID: 0000-0002-2705-950X
e-mail: hoshimxonov@tsul.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada hukumatni shakllantirishning zamonaviy usullaridan biri bo'lgan parlamentar usul to'g'risida fikr yuritilib, huquqshunos mutaxassislarning ushbu yo'nalishdagi mulohazalari va xorijiy parlamentar mamlakatlarning ijro etuvchi hokimiyat oliy organini shakllantirishga oid konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini o'rganish asnosida uning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hukumatini tashkil etishga doir huquqiy hujjatlar tahlili natijasiga ko'ra, uning muhim jihatlari ko'rsatib o'tildi va nazariy jihatdan O'zbekiston Respublikasi hukumatini shakllantirish parlamentar usul orqali amalga oshirilishi to'g'risida xulosaga kelindi. Xorijiy mamlakatlarda hukumatni shakllantirishga oid konstitutsiyaviy-huquqiy normalar va amaliyotning tahlili xorijiy mamlakatlarda hukumatni shakllantirishning ikki, ya'ni parlamentar va noparlamentar usullari amal qilishi; hukumatni shakllantirish tartibi va ijro etuvchi hokimiyatning tegishliligi, avvalo, muayyan davlatning boshqaruv shakliga bog'liq bo'lishi; hukumatni shakllantirishga oid muhim qoidalarning bevosita konstitutsiyada belgilanishi; hukumatning parlament va davlat rahbari oldidagi hisobdorligi; parlamentar davlatlarda hukumat va uning a'zolari iste'fosi yuzasidan konstitutsiyaviy tartib va tamoyillarning belgilanishi hamda amal qilishi yuzasidan xulosalarga kelishimizga asos bo'ladi.

Kalit so'zlar: hukumat, parlamentar usul, bosh vazir, hukumat a'zolari, parlament roziligi, ishonch.

ПАРЛАМЕНТСКИЙ СПОСОБ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВИТЕЛЬСТВА В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

Хошимхонов Ахрорхон Муминович,
проректор по делам молодежи и
духовно-просветительской работе
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье рассматривается парламентский метод, который является одним из современных методов формирования правительства. Выявлены взгляды ученых-правоведов в этой области и изучены конституционно-правовые основы формирования высшего исполнительного органа зарубежных парламентских стран, его специфические особенности. Также благодаря анализу нормативно-правовых документов по формированию правительства Республики Узбекистан выявлены его важные аспекты. Сделан теоретический вывод о том, что формирование правительства Республики Узбекистан должно осуществляться на основе парламентского подхода. Выводы автора об установлении и реализации конституционных

процедур и принципов отставки правительства и его членов в парламентских государствах основаны на следующем: применение двух способов формирования правительства в зарубежных странах, а именно парламентского и непарламентского; порядок формирования правительства и принадлежность исполнительной власти зависят прежде всего от формы правления того или иного государства; закрепление в конституции важных положений по формированию правительства; подотчетность правительства парламенту и главе государства.

Ключевые слова: правительство, парламентский метод, премьер-министр, члены правительства, парламентское согласие, доверие.

PARLIAMENTARY WAY OF FORMING GOVERNMENT IN FOREIGN COUNTRIES: COMPARATIVE AND LEGAL ANALYSIS

Hoshimkhonov Ahrorhon Muminovich,
Vice-Rector for Youth Affairs and
Spiritual-Educational matters of TSULr

Abstract. This article discusses the parliamentary method, which is one of the modern methods of government formation. The views of legal scholars in this area are revealed and the constitutional and legal foundations for the formation of the highest executive body of foreign parliamentary countries, and its specific features are studied. Also, thanks to the analysis of legal documents on the formation of the government of the Republic of Uzbekistan, its important aspects are identified. A theoretical conclusion is made that the formation of the government of the Republic of Uzbekistan should be carried out on the basis of a parliamentary approach. The author's conclusions about the establishment and implementation of constitutional procedures and principles for the resignation of the government and its members in parliamentary states are based on the following: the use of two methods of forming a government in foreign countries, namely parliamentary and non-parliamentary; the order of formation of the government and the ownership of the executive power depends primarily on the form of government of a particular state; fixing in the constitution important provisions for the formation of the government; government accountability to parliament and the head of state.

Keywords: government, parliamentary method, prime minister, government members, parliamentary consent, trust.

Kirish

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi-da amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar davlat hokimiyati ijro etuvchi organlari faoliyatini yanada shaffof tarzda tashkil etish hamda fuqarolarning huquq va manfaatlarini to'liq ta'minlash orqali ularni davlat organlaridan rozi qilishni bosh maqsad sifatida belgiladi. Bunda demokratik rivojlangan davlatlar boy konstitutsiyaviy-huquqiy amaliyotini tahlil qilish orqali tegishli taklif va mulohazalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat hayotida hukumatning davlat hokimiyati tarmoqlari bilan o'zaro alo-

qalari tabiati, uni shakllantirish tartibi va uning faoliyati asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat bo'lishi kerakligini qiyosiy usulda aniqlashimiz va buning uchun, albatta, xorijiy davlatlarning hukumat faoliyatini belgilab beruvchi qonun hujjatlarini tahlil qilishimiz zarur.

Tarixda hukumat, ya'ni ijro etuvchi hokimiyatni ifoda etuvchi alohida muayyan apparat (organ) mavjud bo'lmagan bo'lsa-da, lekin hozirgi kundagi hukumat vakolatlari ni amalga oshiruvchi mansab va lavozimlar amal qilgan hamda ularning davlat hamda jamiyat hayotidagi roli yuqori bo'lgan. Chunki

har qanday davlatdagi asosiy kuch (politsiya, armiya, soliq tizimi va boshqalar) hukumat qo'lida jamlanib, ijro hokimiyatining harakati orqali amalga oshirilgan. Davlatlarning normal mavjud bo'lishini ta'minlash hamda kafo-latlovchi usul va vositalar mexanizmi ijrochilari ham aynan ular hisoblangan. Bu, o'z navbatida, jamiyat va fuqarolar hayotida ham o'ta muhim hisoblangan voqelikdir. Ushbu organlarning o'z faoliyatida suiiste'mollik va sovuqqonlikka yo'l qo'ymasliklari uchun ular mansabdor shaxslarining davlat hokimiyati tizimida qaysi o'rin hamda qanday pog'ona-da joylashganligi va albatta, ularning javobgarligiga oid huquqiy asoslari belgilanganligi muhim ahamiyatga ega.

Hukumatning davlat hokimiyati organlari tizimidagi tutgan o'rni, uning vazifa va vakolatlari, javobgarlik asoslari mazmuni hamda uning faoliyati tarixini bilish uchun hokimiyatlarning bo'linishi to'g'risidagi ta'limotlarini tahlil qilishimiz lozim.

Miloddan avvalgi V asrda Yunonistonda yashab o'tgan Aristotel davlat to'g'risida so'z yuritib, birinchidan, davlatda maslahatlashuv asosida qonun qabul qiluvchi organ bo'lishi; ikkinchidan, davlatda qanday mansablar bo'lishi va ular qaysi vazifalarni amalga oshirishi, ularni almashtirish tartibi; uchinchidan, sud organlari to'g'risidagi g'oyalari ilgari surgan [1, 282-b.]. Ushbu g'oyalar keyingi ikki ming yil mobaynida unutilib, XVII asrga kelibgina qayta topilganday bo'ldi. Bunda ingliz mutafakkiri Jon Lokk o'zining "Boshqaruv to'g'risida ikki traktat" nomli asarida hokimiyatlarning bo'linishi masalasiga to'xtalib o'tdi. Jon Lokk hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va ittifoq (federal) hokimiyatlarga bo'lib, sud hokimiyatini ijro hokimiyati tarkibiga kiritib yubordi.

Hokimiyatlarning bo'linishi to'g'risidagi g'oyalar o'z-o'zidan vujudga kelmagan. Feodal davlatlarda inqiloblarning yuz berishi va absolyutizmning barham topishi munosabati bilan hokimiyatlarning bo'linishi to'g'risidagi qarashlar yaqqol namoyon bo'la boshladi.

Yagona Xudo tomonidan taqdim etilgan qirol hokimiyati barham topa boshladi. Xalqning demokratiya va o'zini anglash borasidagi qarashlari rivojlana bordi.

XVII–XVIII asrlarda burjua revolyutsiyalari deb nom olgan inqiloblar Angliya, Gollandiya va Fransiyada sodir bo'ldi. Shu davrda Yevropada bir qator ilg'or fikrli, faylasuf va mutafakkirlar yetishib chiqdi. Volter, J.J. Russo, Sh.L. Monteskelar shular jumlasidan.

Ulardan Sharl Lui Monteske o'zining "Qonunlar ruhi" (1748) nomli asarida hokimiyatlar bo'linishi prinsipi to'g'risida to'xtalgan. U hokimiyatlarni uchga – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'lgan. Sud hokimiyatini Jon Lokka o'xshab ijro hokimiyatiga kiritmagan va uning ta'limotida federal hokimiyat ham yo'q. U hokimiyatlarning teng bo'lishi, bir-birini to'ldirib turishi va muvozanatda saqlashini maqsadga muvofiq hisoblab, shundagina siyosiy erkinlik ta'minlanadi va hokimiyatning zulmi yo'qoladi, deb hisoblagan [1, 288-b.].

Hokimiyatlarning bo'linishi to'g'risidagi ushbu doktrinal ta'limotlar ilk bor Amerika Qo'shma Shtatlarining 1787-yilgi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topdi. Amerika Qo'shma Shtatlari Konstitutsiyasining dastlabki uch moddasi davlat hokimiyati asoslarini belgilovchi moddalar bo'lib, unda quyidagilar belgilandi, ya'ni [2]:

1-modda – "Butun qonunchilik hokimiyatini Senat va Vakillar palatasidan tashkil topadigan Amerika Qo'shma Shtatlari Kongressi amalga oshiradi";

2-modda – "Ijro etuvchi hokimiyat Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti tomonidan amalga oshiriladi";

3-modda – "Sud hokimiyati Qo'shma Shtatlar Oliy sudi va quyi turuvchi sudlarga bo'linadi".

Keyinchalik dunyoning ko'pchilik davlatlari konstitutsiyalarida hokimiyatlarning bo'linishi to'g'risidagi qarashlar konstitutsiyaviy qoidalar sifatida o'z ifodasini topa bor-

di. Shu qatorda davlat hokimiyatining ijro etuvchi tarmog'i bo'lgan hukumat ham dunyo konstitutsiyalarida alohida konstitutsiyaviy asosda belgilanadigan bo'ldi.

Ijro hokimiyatini amalga oshiruvchi hukumat kollegial organ sifatida faoliyat yuritarkan, jahonning turli mamlakatlarida davlatning tuzilishi, boshqaruvi shakli hamda milliy va tarixiy omillarga ko'ra turli xil nomlar bilan ataladi. Masalan, Italiyada – Vazirlar Kengashi [3, 92-b.], Ukrainada Vazirlar Mahkamasi [4], Xitoyda – Davlat Kengashi yoki Markaziy xalq hukumati [3, 85-b.], Shveysariyada – Federal Kengash, Fransiya, Litva, Chexiya [5], Rossiya [6] va Qozog'istonda Hukumat [7], Qirg'izistonda Vazirlar Mahkamasi [8] va hokazo.

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida uchta savolga javob berishga harakat qilindi: birinchi – xorijiy mamlakatlarda Hukumatni shakllantirishning qanday shakl va usullari mavjud; ikkinchi – Hukumatni shakllantirish parlamentar usulining o'ziga xosliklari nimalardan iborat; uchinchi – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini shakllantirish tartibi qaysi usulga mansub?

Mazkur savollarga javob tariqasida mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqilib, Hukumatni shakllantirishning parlamentar usulining bir qator muhim xususiyatlari alohida ta'kidlandi. Demak, ushbu maqola xorijiy mamlakatlarda keng tarqalgan hukumatni shakllantirishning parlamentar usulini konseptual, nazariy, konstitutsiyaviy-huquqiy va amaliy tushunishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Hukumatni shakllantirish jarayoni, qoida tariqasida, mamlakatning boshqaruv shakli bilan belgilanadi va u, asosan, parlamentar va noparlamentar usullarda amalga oshirilishi mumkin.

Hukumatning shakllanishiga oid munosabatlarni xorijlik olimlardan, M. Loyer [9], O. Xaffen [10], L.V. Martin va R.T. Stevenson [11], D. Diyermyer, X. Eraslan, A. Merlo [12] va D.P. Baron [13]lar tadqiq qilishgan.

Hukumatni shakllantirishning parlamentar usuli, asosan, parlamentar va aralash boshqaruv shaklidagi mamlakatlarda qo'llaniladi. Hukumatni shakllantirishning parlamentar usuli turli xil ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin. Mazkur usulda hukumatni parlamentda yoki uning quyi palatasiga (ikki palatali parlament amalda bo'lgan mamlakatlarda) bo'lgan saylovlarda g'olib chiqqan va parlament tarkibida ko'pchilik o'rinni egalagan partiya, koalitsiya yoki blokning lideri shakllantiradi. Hukumatni mazkur usulda shakllantiriladigan mamlakatlarga, odatda, mavjud bo'lgan o'ziga xos xususiyat, bu yangi prezident saylovining o'tkazilishi hukumatni qaytadan shakllantirishni talab etmaydi.

O.V. Afanaseva, Ye.V. Kolesnikov, G.N. Komkova, A.V. Malkolarning fikriga ko'ra, hukumatni shakllantirishning parlamentar usuli parlamentarizm sharoitlarida va qisman aralash respublikalarda qo'llaniladi. Unga ko'ra, parlament quyi palatasi ko'pchilik o'ringa ega bo'lgan siyosiy partiya yoki partiyalar koalitsiyasi hukumatni shakllantirish huquqini qo'lga kiritadi. Boshqacha aytganda, parlament usulida hukumatni shakllantirish parlament saylovlari natijasiga qarab amalga oshiriladi [14].

M.V. Baglay, Y.I. Leybo va L.M. Entinalar esa, odatda, parlamentda ko'pchilik o'rinni egallagan partiya lideri davlat boshlig'i tomonidan rasmiyatchilik nuqtayi nazaridan hukumat rahbari etib tayinlanadi. Hukumat rahbari etib tayinlangan shaxs hukumatning tarkibi va uning faoliyat dasturini parlament tasdig'iga taqdim etadi. Hukumat tarkibi parlament "tasdig'ini" olgandan so'ng davlat boshlig'i partiya liderini hukumat rahbari – bosh vazir (premer ministr) etib tayinlanganligi to'g'risida rasmiy qaror qabul qiladi. Agarda qaysidir partiya yoki partiyalar bloki

deputatlik mandatlarining mutlaq ko'pchiligiga ega bo'lsa, premer ministr lavozimiga avtomatik tarzda g'olib chiqqan partiya rahbari tayinlanadi. Hukumatni shakllantirishning bunday uslubi Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Hindiston, Malayziya va boshqalarda qo'llaniladi [15], deyilar.

Agar parlamentda biron-bir partiya ko'pchilik o'rinni egallamagan bo'lsa, hukumatni shakllantirish jarayoni birmuncha murakkablashadi. Bu holatda davlat boshlig'i partiya liderlari bilan koalitsion hukumat tuzish hamda kim unga rahbarlik qilishi mumkinligi xususida muzokaralar olib boradi.

Hukumat rahbari sifatida parlamentga muayyan shaxs nomzodi taqdim etiladi va agar uning tarafdorlari parlamentda ko'pchilikni tashkil qilsa, u mazkur lavozimga tasdiqlangan hisoblanadi. Hukumat rahbarining parlament tomonidan aniqlanishi va federal prezident tomonidan tasdiqlanishi Germaniya [16, 155-b.] Federativ Respublikasi (asosiy qonunning 63-moddasi) yoki monarx tomonidan tayinlanishi Yaponiya [16, 37-b.] (konstitutsiyaning 6-moddasi) va boshqa parlamentar boshqaruv shaklida bo'lgan mamlakatlarda qo'llaniladi. Bunda, ta'bir joiz bo'lsa, prezident yoki monarxning hukumat rahbarini tayinlash to'g'risidagi qarori "ramziy" ahamiyatga ega bo'ladi.

Portugaliya konstitutsiyasining 187-moddasiga ko'ra, Respublika Prezidentining saylov natijalarini inobatga olgan holda, Respublika Assambleyasidagi siyosiy partiyalar bilan maslahatlashuvlaridan so'ng premer-ministr tayinlanadi [17].

Tadqiqot natijalari va tahlili

Hukumati parlamentar uslubda shakllantiriladigan mamlakatlarda hukumatni o'z vakolatlarini amalga oshirishga kirishishi, qonuniy va legitim bo'lishi uchun u parlament ko'pchilik qismining qo'llab-quvvatlashiga erishishi lozim. Bu holat yuridik adabiyotlarda pozitiv parlamentarizm tushunchasi orqali ham qo'llaniladi. Qo'llab-quvvatlash hukumat

rahbari, uning tarkibi va faoliyat dasturiga ishonch votumi shaklida rasmiylashishi mumkin. Bunday model belgilari Gretsiya [16, 153-b.] (konstitutsiyaning 84-moddasi), Italiya (konstitutsiyaning 94-moddasi), Polsha [18] (konstitutsiyaning 60-moddasi) va boshqa mamlakatlarda amal qiladi.

Odatda, parlamentning bunday "ishonchi"ni olish uchun hukumatga birmuncha muddat belgilanadi. Ba'zida hukumat shakllangandan so'ng darhol o'z vazifalarini bajarishga kirishadi, lekin u muayyan vaqt oralig'ida parlamentning ishonch votumini olishi shart hisoblanadi.

Yevropaning boshqa bir qator mamlakatlarda negativ parlamentarizm prinsipi ham qo'llaniladi. Negativ parlamentarizm shuni bildiradiki, hukumat shakllangandan so'ng, agar unga ishonchsizlik votumi e'lon qilinmasa, doimiy ravishda o'z faoliyatini amalga oshirishga kirishadi. Bunday tizim Daniya da amal qiladi [16, 152-b.] (Daniya qirolligi konstitutsiyasi 3-qism 15-modda). Bu mamlakatda hukumat davlat boshlig'i (monarx) tomonidan tasdiqlangandan so'ng o'z funksiyalarini ijro etishga kirishadi. Bunday tartibda hukumat parlamentda kam sonli tarafdorlari mavjud bo'lganda ham barqaror bo'lishi mumkin va unga parlamentdagi ko'pchilik o'rinni egallagan siyosiy kuchlar tomonidan ishonchsizlik votumi e'lon qilinmaguncha o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Ba'zi mamlakatlarda konstitutsiya (Portugaliya) hukumatning tarkibi an'anaviy Bosh vazir, vazirlar va vazirlardan tashqari davlat kotibi va davlat kotiblarining o'rinbosarlari dan iborat tarkibda ekanligini ham belgilab beradi [16, 141-b.].

Germaniya singari parlamentar davlatda parlament faqat hukumat boshlig'inigina tasdiqlaydi, vazirlarni esa hukumat boshlig'inig taqdimiga binoan federal prezident tayinlaydi [19].

Ayrim mamlakatlarda hukumatning barcha a'zolarini faqatgina parlament tomonidan saylanishi amaliyoti ham mavjud. Ma-

salan, Shveysariyada mamlakat hukumati (Ittifoq kengashi) Ittifoq yig'inining ikkala palatasi tomonidan yettita a'zodan iborat tarkibda saylansa (Shvetsariya konstitutsiyasi 175-moddasi 2-qismi) [20], Urugvay davlatida ijro etuvchi hokimiyatni Milliy hukumat kengashi amalga oshirib, u to'qqiz nafar a'zodan iborat tarkibda bo'lib, ayni paytda ushbu tarkibdan ikki baravar ko'p bo'lgan o'rinbosarlaridan iborat tarkibda bevosita xalq tomonidan to'rt yil muddatga saylanadi (Urugvay Konstitutsiyasi 150-moddasi) [16, 3-b.].

Ta'kidlash joizki, parlamentar boshqaruv shaklidagi mamlakatlarda hukumatni shakllantirish tartibidagi bunday xilma-xillik, albatta, o'ziga xos yuridik ahamiyatga ega. Hukumatni shakllantirishdagi bosh omil – bu mamlakatdagi siyosiy kuchlarning parlamentdagi mutanosibligidir. Shuning uchun, agar partiyalar hukumat tarkibi masalasida oldindan kelishuvga erisha olsalar, qolgan tadbirlar faqat rasmiy xarakterga ega bo'lib qoladi.

Endi Hukumat rahbarining shakllanishiga oid tartib to'g'risida fikr yuritsak. Hukumat boshlig'i lavozimini egallash tartibining parlamentar monarxiya va parlamentar respublikalardagi tartibiga ko'ra, ushbu mansabni egallash parlamentga bo'lgan saylovlar natijasiga bevosita bog'liq. Parlamentga bo'lgan har bir saylovdan keyin (parlament muddatidan ilgari tarqatilgan taqdirda ham), hatto saylovlarda oldin hokimiyat tepasida turgan partiya yana g'alaba qilgan bo'lsa ham, hukumat tarkibi qaytadan shakllantiriladi. Ammo ushbu parlamentar boshqaruvdagi davlatlarda yangi prezident saylanishi hech qanday huquqiy oqibat keltirib chiqarmaydi. Chunki davlat va jamiyat hayotida hukumat rahbarining o'zni prezidentga nisbatan birmuncha yuqori ahamiyat kasb etadi. Ushbu usulda tashkil etiladigan hukumat parlamentning "ishonchi"ni olgandan so'ng faktik jihatdan shakllangan hisoblanadi, yuridik jihatdan esa

shakllanib bo'lganlik ifodasini davlat boshlig'ining shu munosabat bilan qabul qilgan huquqiy hujjatida topadi.

Odatda, parlamentar usulda hukumatni shakllantirishda davlat boshlig'i premer-ministr etib, qoida tariqasida, parlamentda ko'pchilik o'rinni egallagan partiyaning lideri tayinlanadi. Biroq parlamentda partiyalar ko'p sonli bo'lib, ular orasidan hech biri ko'pchilik o'rinni egallamagan taqdirda, mazkur jarayon ancha murakkablashadi, chunki davlat boshlig'i premer ministrni tayinlagandan so'ng (albatta, bu rasmiyatchilik uchungi-na, xolos, aslida, "tayinlash" emas, balki "tanlash") u premer ministr tuzgan hukumatning parlament tomonidan "ishonch votumi"ni olishiga ishonch hosil qilmog'i lozim. Hukumat rahbari lavozimiga tayinlanayotgan shaxs, odatda, parlament quyi palatasining ko'pchilik ovozini olgan taqdidagina hukumatga boshchilik qilishi mumkin. Xususan, Yaponiyada bosh vazir tayinlanishida, parlamentning ikkala palatasi ilgari surilayotgan nomzodni qo'llab-quvvatlashi lozim, agar palatalar o'rtasida mazkur masala yuzasidan kelishmovchilik yuz bersa, unda quyi palataning qarori hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, butun parlament qarori sifatida baholanadi (Yaponiya konstitutsiyasining 67-moddasi) [22].

Xulosalar

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqqanidan keyin o'n kun muddat ichida uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi.

Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazirning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi ma'qullaganidan keyin kiritilgan taqdimiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Demak, xulosa o'rnida aytish mumkin, O'zbekiston Respublikasi Hukumati ham parlamentar usul orqali shakllanadi, deyish uchun barcha konstitutsiyaviy-huquqiy asoslar mavjud. Milliy qonunchiligimizning o'ziga xos jihati shundaki, bunda Bosh vazir lavozimiga nomzod partiyalar tomonidan mamlakat prezidentiga taqdim etiladi. O'z navbatida, prezident ushbu nomzodni ko'rib chiqqach, uni parlament palatalari tasdig'iga taqdim etadi.

Shuningdek, milliy qonunchiligimizga binoan, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda, Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasi-ga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi.

Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi. Bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqadi.

Yangi Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalar bilan tegishli maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ko'rib chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi.

Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi.

Demak, O'zbekiston Respublikasi Hukumatini shakllantirish va uni ishonchsizlik votumi orqali iste'foga chiqarish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faol ishtirok etar ekan.

Xorijiy mamlakatlarda hukumatni shakllantirishga oid konstitutsiyaviy-huquqiy normalar va amaliyotning tahlili xorijiy mamlakatlarda hukumatni shakllantirishning ikki, ya'ni parlamentar va noparlamentar usullari amal qilishi; hukumatni shakllantirish tartibi va ijro etuvchi hokimiyatning tegishliligi, avvalo, muayyan davlatning boshqaruv shakliga bog'liq bo'lishi; hukumatni shakllantirishga oid muhim qoidalarining bevosita konstitutsiyada belgilanishi; hukumatning parlament va davlat rahbari oldidagi hisobdorligi; parlamentar davlatlarda hukumat va uning a'zolari iste'fosi yuzasidan konstitutsiyaviy tartib va tamoyillarning belgilanishi hamda amal qilishi yuzasidan xulosalarga kelishimizga asos bo'ladi.

Hukumatni shakllantirishning parlamentar usuli, asosan, Yevropa davlatlari amaliyotiga xos xususiyat bo'lib, bunda mazkur davlatlar rivojlanishiga oid tarixiy jarayonlar, shuningdek, asosan, saylanadigan vakillik organining roli jamiyat hayotida yuksak ahamiyatga egaligi bilan ahamiyatlidir.

REFERENCES

1. Istorija politicheskikh i pravovykh uchenij [History of political and legal doctrines]. Ed. V.S. Nersesjanca. Moscow, Norma-Infra, 1999.
2. AQSh Konstituciyasi [U.S. Constitution]. Tashkent, Adolat Publ., 2004, p. 16.
3. Konstitutsii mira: Sbornik konstitutsii gosudarstv mira [Constitutions of the world: Collection of constitutions of the states of the world]. Comp. and the authors of the introductory article U. Tajikhanov, A.Kh. Saidov. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 1998, vol. 2
4. Konstitutsii Ukrainy [Constitution of Ukraine]. Available at: <https://meget.kiev.ua/zakon/konstitutsia-ukraini/razdel-6/>.
5. Maklakov V.V. Konstitucii zarubezhnykh gosudarstv [Constitutions of foreign states]. 2nd ed., revise. and add. Moscow, 1999, pp. 98, 20.
6. Baglaj M.V. Konstitucionnoe pravo Rossijskoj Federacii [Constitutional law of the Russian Federation]. Moscow, Norma-Infra, 1999, p. 178.
7. O Pravitel'stve Respubliki Kazahstan. Konstitucionnyj zakon Respubliki Kazahstan ot 18 dekabrja 1995 goda № 2688 (s izmenenijami i dopolnenijami po sostojaniju na 30.12.2020 g.) [About the Government of the Republic of Kazakhstan. Konstitucionnyj zakon of the Republic of Kazakhstan dated December 18, 1995, No. 2688]. Available at: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=1003973/.
8. O Kabinete Ministrov Kyrgyzskoj Respubliki. Konstitucionnyj zakon Kyrgyzskoj Respubliki ot 11 oktjabrja 2021 goda № 122 [About the Cabinet of Ministers of the Kyrgyz Republic. Constitutional Law of the Kyrgyz Republic dated October 11, 2021, no. 122]. Available at: <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/112301?cl=ru-ru/>.
9. Laver M. Models of government formation. *Annual Review of Political Science*, 1998, vol. 1, no. 1, pp. 1-25.
10. Van Heffen O., Kickert W.J.M., Thomassen J.J.A., eds. Governance in modern society: Effects, change and formation of government institutions. Springer Science & Business Media, 2013, vol. 4.
11. Lanny W.M., Stevenson R.T. Government formation in parliamentary democracies. *American Journal of Political Science*, 2001, pp. 33-50.
12. Diermeier D., Eraslan H., Merlo A. A structural model of government formation. *Econometrica*, 2003, no. 71.1, pp. 27-70.
13. Baron D. Government Formation and Endogenous Parties. *American Political Science Review*, 1993, no. 87 (1), pp. 34-47. DOI: 10.2307/2938954/.
14. Afanas'eva O.V., Kolesnikov E.V., Komkova G.N., Mal'ko A.V. Konstitucionnoe pravo zarubezhnykh stran [Constitutional law of foreign countries]. Ed. A.V. Malko. Moscow, Norma, 2004, p. 189.
15. Konstitucionnoe pravo zarubezhnykh stran [Constitutional law of foreign countries SCH. Ed. M.V. Baglaia, Y.I. Leibo, L.M. Antin. 3rd ed., revised. Moscow, Norma, Infra-M, 2010, p. 271.
16. Konstitutsii gosudarstv (stran) mira [Constitutions of states (countries) of the world]. Available at: <https://worldconstitutions.ru/>.
17. Konstitucija Portugal'skoj Respubliki [Constitution of the Portuguese Republic]. Available at: <https://docs.google.com/viewerng/viewer?url=http://legalns.com/download/books/cons/portugal.pdf/>.
18. Konstitucija Ital'janskoj Respubliki [Constitution of the Italian Republic]. Available at: <https://legalns.com/download/books/cons/italy.pdf/>.
19. Konstitucija Germanii [German constitution]. Available at: <https://legalns.com/kompetentnye-juristy/pravovaja-biblioteka/konstitucii-stran-mira/konstitucija-Germanii/>.
20. Osnovnoj zakon Federativnoj Respubliki Germanii, 23 maja 1949 g. [Basic Law of the Federal Republic of Germany, 23 May 1949]. Available at: https://www.1000dokumente.de/?c=dokument_de&dokument=0014_gru&l=ru&object=translation/.
21. Konstitucija Shvejcarii [Swiss constitution]. Available at: <https://legalns.com/download/books/cons/switzerland.pdf/>.
22. Konstitucija Japonii [Constitution of Japan]. Available at: <https://docs.google.com/viewerng/viewer?url=http://legalns.com/download/books/cons/japan.pdf/>.

UDC: 347.9:342 (042)(575.1)

O'ZBEKISTONDA KONSTITUSIYAVIY SUDLOV INSTITUTINING TAKOMILLASHISH BOSQICHLARI HAMDA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdullayeva Maftuna Murod qizi,

Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0002-4083-3176

e-mail: Mary.Lennox.92@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda konstitutsiyaviy nazorat institutining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari tadrijiy tahlil qilingan. Muallif mamlakatimizda konstitutsiyaviy sudlov rivojini to'rt bosqichga bo'lib o'rganish mumkinligini qayd etadi. Mamlakatimizda konstitutsiyaviy odil sudlov milliy huquqiy tizimda nisbatan yangi va rivojlanayotgan yo'nalish ekanligi, yangi yo'nalishning rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi, konstitutsiyaviy nazorat institutini kuchaytirish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo qiluvchi masalalar keng tahlil qilingan. Birinchi bosqichda Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasining vakolatlari tegishli qonun hujjati asosida tahlil etilgan. Ushbu bosqichda konstitutsiyaviy nazorat organi to'liq mustaqil emas edi hamda uning faoliyati konstitutsiyaviy nazorat sohasidagi xalqaro standartlarga javob bermas edi. Ikkinchi bosqichda konstitutsiyaviy nazorat sohasida xalqaro standartlar asosida bir qator islohotlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramay, mazkur organning inson huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi roli sust edi. Uchinchi bosqichda Konstitutsiyaviy sud faoliyatida muhim hamda tub o'zgarishlar davri bo'ldi. Bu davr konstitutsiyaviy shikoyat institutining joriy etilishi bilan ahamiyatlidir. Muallif joriy qonunchilikni tahlil qilgan holda, mazkur organ faoliyatida takomillashtirilishi lozim bo'lgan ustuvor yo'nalishlarni ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: konstitutsiyaviy nazorat, konstitutsiyaviy sudlov, Konstitutsiyaviy sud, konstitutsiyaviy shikoyat, Konstitutsiyaviy sud ish yurituv.

ЭВОЛЮЦИЯ ИНСТИТУТА КОНСТИТУЦИОННОГО ПРАВОСУДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕГО ОСОБЕННОСТИ

Абдуллаева Мафтуна Мурод кизи,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

докторант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье проводится полный анализ этапов становления и развития института конституционного контроля в Республике Узбекистан. Автор отмечает, что развитие конституционного правосудия в нашей стране можно изучать в четыре этапа. В национальной правовой системе Узбекистана вопросы конституционного правосудия являются относительно новым и развивающимся направлением и имеют некоторые особенности развития – необходимость укрепления института конституционного контроля и совершенствования механизмов реализации. Так, в первую очередь, анализируются полномочия Комитета по конституционному контролю на основе соответствующего законодательства. На данном этапе орган конституционного контроля был не полностью независимым и его деятельность не соответствовала международным стандартам

в области конституционного контроля. На втором этапе, несмотря на ряд реформ в сфере конституционного контроля на основе международных стандартов, роль этого органа в обеспечении прав и свобод человека была слабой. Третий этап характеризовался существенными и коренными изменениями в деятельности Конституционного суда. Этот период знаменателен введением института конституционного обжалования. Анализируя действующее законодательство, автор выделяет приоритеты в деятельности данного органа, которые нуждаются в совершенствовании.

Ключевые слова: конституционный контроль, конституционное правосудие, Конституционный суд, конституционное обращение, конституционное судопроизводство.

EVOLUTION OF THE INSTITUTION OF CONSTITUTIONAL JUSTICE IN UZBEKISTAN AND ITS FEATURES

Abdullaeva Maftuna Murod kizi,

Doctoral Student of Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. This article provides a complete analysis of the stages of establishment and development of the institution of constitutional control in Uzbekistan. The author notes that the development of constitutional justice in our country can be studied in four stages. The issues of constitutional justice in our country are a relatively new and developing direction in the national legal system, there are some peculiarities in the development of the new direction, the need to strengthen the institution of constitutional control and improve the implementation mechanisms. In the first stage, the powers of the Constitutional Review Committee are analyzed on the basis of the relevant legislation. At this stage, the constitutional review body was not fully independent and its activities did not meet international standards in the field of constitutional review. In the second phase, despite a number of reforms in the field of constitutional review based on international standards, the role of this body in ensuring human rights and freedoms was weak. In the third stage, there was a period of significant and radical changes in the activities of the Constitutional Court. This period is significant with the introduction of the institution of constitutional appeal. Analyzing the current legislation, the author identifies priorities in the activities of this body that need to be improved

Keywords: constitutional review, Constitutional court, constitutional appeal, constitutional court proceedings.

Kirish

Konstitutsiyaviy sudlov demokratik huquqiy davlatning muhim belgisidir. Konstitutsiyaviy nazorat organlari konstitutsiyaviy tuzum asoslari, inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish, konstitutsiyaning ustunligi va uning to'g'ridan to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash, ya'ni Konstitutsiyada e'lon qilingan hamda kafolatlangan asosiy qadriyatlarga rioya etish va ta'minlash maqsadida ixtisoslashgan maxsus konstitutsiyaviy sudlovni amalga oshiruvchi oliy organ hisoblanadi. O'zbekistonda davlat hokimiyati funksional tushunish jihatidan, hokimiyatlar

bo'linishi prinsipidan kelib chiqqan holda, o'ziga xos demokratik model asosida shakllantirilgan [1, 14-b.]. Shu jihatdan O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaviy sudning rivojlanish tarixi o'ziga xos bosqichlarga ega.

A.B. Gafurovning fikricha, O'zbekistonda konstitutsiyaviy nazorat instituti rivojlanishi to'rt bosqichga bo'linadi: birinchi bosqich – 1990-yilda konstitutsion nazorat institutining tashkil etilishi; ikkinchi bosqich – 1993-yil 6-mayda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi; uchinchi bosqich – 1995-yil 30-avgustda "O'zbekiston Res-

publikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi va Konstitutsiyaviy sudning birinchi tarkibi faoliyat yuritishi; to'rtinchi bosqich – "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi [2, 11-b.].

Bizningcha, yurtimizda konstitutsiyaviy sudlov huquqiy asoslari shakllanishining tarixiy, konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan tahlili konstitutsiyaviy sudlov rivojlanishini uch bosqichga bo'lib o'rganish mumkinligini ko'rsatadi. Birinchi bosqich 1990–1995-yillarni o'z ichiga oladi. Dastlab 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasi O'zbekistonda demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi. Unga ko'ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat sanaladi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinishi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasining 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan "O'zbekiston SSRda Konstitutsion nazorat to'g'risida"gi Qonunida mamlakat tarixida birinchi bor konstitutsiyaviy nazorat organi va uning maqsadi yoritib berildi [3].

Material va metodlar

A.Z. Muxamedjanovning fikricha, postsovet mamlakatlarida bo'lgani singari O'zbekistonda ham konstitutsiyaviy nazoratning markazlashgan – Yevropa modeli qabul qilindi hamda konstitutsiyaviy nazorat organi tashkil etildi. Konstitutsiyaviy nazoratning Yevropa modelini tanlashga bir qator omillar sabab bo'lgan edi [4, 151-b.].

Birinchidan, XX asrning oxiridagi o'zgarishlar va islohotlar davrida barcha hokimiyat tarmoqlarining roli va hokimiyatlar bo'linishi prinsipini amalga oshirish zaruriyatining o'sishi. Ikkinchidan, Sobiq SSSRda qonunga asoslangan yangi davlatchilikni shakllantirish uchun ijtimoiy rivojlanish dinamikasi, siyosiy jarayonlar barqarorligini ta'minlash va milliy huquqiy tizimlarni shakl-

lantirish sa'y-harakatlarni birlashtirishni talab qildi. Uchinchidan, konstitutsiyaviy vakolatlarga ega bo'lgan maxsus konstitutsiyaviy nazorat organining (Konstitutsiyaviy sud) tashkil etilishi uning konstitutsiya "qo'riqchisi" sifatidagi rolini belgilab berdi.

Mazkur qonunda O'zbekistonda konstitutsion nazoratning maqsadlari davlat organlari va jamoat tashkilotlari hujjatlarining O'zbekiston Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'istonda esa Qoraqalpog'iston Konstitutsiyasiga mos bo'lishini ta'minlash, shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari O'zbekiston xalqlari huquqlarini muhofaza qilish ekanligi, O'zbekistonda konstitutsion nazoratni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komiteti, Qoraqalpog'istonda esa Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsion nazorat komiteti amalga oshirishi nazarda tutildi. Shuningdek, qonunda konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirishning asosiy prinsiplari belgilangan. Qonuniylik, kollegiallik va ochiqlik mazkur organ faoliyatining asosiy prinsiplari sifatida belgilangan. 31 ta moddadan iborat mazkur qonunda umumiy qoidalar, konstitutsion nazorat komitetining hay'ati, uni saylash va faoliyat tartibi, vakolatlari, komitetga saylangan shaxslarning huquqiy holati, komitetni tashkil etish masalalari mustahkamlangan.

Konstitutsiyaviy nazorat organining ta'sis etilishi yuzasidan A.X. Saidov quyidagilarni qayd etadi: "Konstitutsiyaviy mustaqillik yo'lidagi uchinchi huquqiy qadam Konstitutsiyaviy nazorat komissiyasining tashkil etilishidir. Prezidentlik institutini joriy etish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sessiyada tasdiqlangan Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga doir qonun loyihasida Konstitutsion nazorat komitetining tuzilishi ham nazarda tutilgan edi. Bunda deputatlar tomonidan ushbu oliy davlat organining Prezidentlik hokimiyatini muvozanatga keltirib turuvchi o'ziga xos huquqiy vosita vazifasini bajarishiga alohida urg'u berildi. Shu tariqa bugun amalda bo'lgan yana bir konsti-

tutsiyaviy institut – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga istiqlool arafasidayoq asos solindi" [5].

Konstitutsion nazorat komiteti O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti muhokamasiga kiritilgan qonunlar va boshqa hujjatlarning loyihalari; Oliy Sovet tomonidan qabul qilingan qonunlar va boshqa hujjatlar; Qoraqalpog'iston Konstitutsiyasining O'zbekiston Konstitutsiyasiga mosligini o'rganib chiqishi ko'zda tutilgan edi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Konstitutsion nazorat komitetining qonunchilik tashabbusi hamda O'zbekiston Konstitutsiyasi qoidalari rioya etilishiga tegishli qonun hujjatlarining yo'qligi to'sqinlik qilayotgani aniqlansa, shuningdek, boshqa hollarda uning O'zbekiston Oliy Sovetiga ana shunday hujjatni tayyorlash va qabul qilish zarurligi to'g'risida taqdimnoma kiritish singari vakolatlari mustahkamlangan edi.

"O'zbekiston SSRda Konstitutsion nazorat to'g'risida"gi qonunning 6-moddasida ko'zda tutilgan Konstitutsion nazorat komiteti tarkibini yangilab turish prinsipini amalga oshirish maqsadida komitetning raisi komitetning birinchi hay'ati saylanishi bilan oq besh yildan so'ng komitetning vakolat muddati tugaydigan 5 nafar a'zosini qur'a tashlash yo'li bilan aniqlashi belgilab qo'yildi. Shundan keyingi saylovlarda komitetning har bir a'zosi o'n yil muddatga saylanadigan bo'ldi.

O'shanda O'zbekiston Oliy Soveti tomonidan O'zbekiston Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi raisi, rais o'rinbosari, Qoraqalpog'iston Respublikasi vakilini qo'shib hisoblaganda, to'qqiz a'zodan iborat tarkibda saylangan edi [6, 11-b.].

Tadqiqot natijalari

Ta'kidlash joizki, mazkur bosqichda konstitutsiyani muhofaza qiluvchi organ faoliyatini samarali deb baholash qiyin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komiteti xulosasi barcha hollarda bu xulosa qaysi

hujjat xususida chiqarilgan bo'lsa, shu hujjatni qabul qilgan organga yuborilishi belgilangan edi ("O'zbekiston Respublikasida Konstitutsion nazorat to'g'risida"gi Qonunning 20-moddasi). Aynan shu organlarga Konstitutsiyaviy nazorat komiteti tomonidan konstitutsiyaga nomuvofiq deb topilgan holatlarni bartaraf etish yuklatilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komitetining O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti qabul qilgan hujjat, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi yoki uning ayrim qoidalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mos emasligi to'g'risidagi xulosasi O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlari umumiy soni uchdan ikki qismining ovozi bilan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining qarori bilan rad etilishi mumkinligi mazmunidagi qoidalarining mavjudligi muqarrar ravishda Konstitutsiyaviy nazorat komiteti tomonidan chiqarilgan qarorlarning ijro etish muammosini keltirib chiqarar edi. Mazkur bosqichda konstitutsiyaviy nazorat organi to'liq mustaqil emas edi hamda uning faoliyati konstitutsiyaviy nazorat sohasidagi xalqaro standartlarga javob bermas edi. Bu masala yuzasidan huquqshunos olim A. Rahimov obyektiv va subyektiv sabablar sifatida quyidagilarni qayd etadi: "Birinchi-dan, O'zbekistonda konstitutsiyaviy nazorat institutining tarixi o'tgan asrning 90-yillariga borib taqalsa-da, biroq Konstitutsiyaviy sud tomonidan fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish, qolaversa, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rniga lozim darajada e'tibor qaratilmadi".

Mustaqillikning birinchi kunlaridan, aniqrog'i, 1990-yil boshida dastlab Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi, keyinchalik esa Konstitutsiyaviy sud sifatida faoliyat yuritgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining huquqiy asosi hisoblangan "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonun o'tgan 25 yil davo-

mida umuman takomillashtirilmadi. Vaholanki, bu davr oralig'ida sud-huquq sohasida katta islohotlar amalga oshirilib, sud tizimi (umumiy yurisdiksiya sudlari) faoliyati va uning huquqiy asoslari muntazam ravishda takomillashtirib borildi [7].

Ikkinchi bosqich 1995-yilning dekabridan 2017-yilga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Oliy Kengashning 1993-yil 6-maydagi "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonunini amalga kiritish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, yuqorida qayd etilgan 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan qonun o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblandi.

1992-yil 8-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini amalga kiritish tartibi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risidagi Qonun qabul qilinib, Konstitutsiyaviy sud saylangunga qadar o'z vakolatlarini saqlab qolishi belgilangan edi. Konstitutsiyaviy sud raisi sifatida faoliyat yuritgan B.A. Eshonov Konstitutsiyaviy nazorat komitetini "Bu konstitutsiyaviy sudlovga o'tish davridagi organ edi", deb ta'kidlagan edi [8, 89-b.].

1995-yilda Konstitutsiyaviy sud va sudyalarning huquqiy holati, konstitutsiyaviy ishlarni ko'rib chiqish asoslarini belgilab beruvchi "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi alohida Qonun qabul qilindi [9].

Konstitutsiyaviy sud tashkil etilmasdan uning vakolatlari Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasiga yuklandimi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Chunki O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq, Konstitutsiyaviy sudning Oliy Majlis tomonidan saylanishi belgilab qo'yilgan edi.

Birinchi chaqiriq Oliy Majlis saylovi esa 1994-yilning dekabrda o'tkazildi. Boshqacha aytganda, 1993-yilning mayida Konstitutsiyaviy sudni saylashi lozim bo'lgan Oliy Majlisning o'zi shakllanmagan edi. Shuning uchun ham O'zbekistonda Konstitutsiyaviy

sudning vakolatlarini vaqtincha amalga oshirish Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasiga yuklandi [10].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi [11] Qonun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining reglamenti edi [12] va yuqorida qayd etilgan hujjatda Konstitutsiyaviy sudning vakolatlari sifatida quyidagilar belgilangan edi:

O'zbekiston Respublikasi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatasi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari, O'zbekiston Respublikasining davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonun normalariga sharh beradi;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni ham ko'rib chiqadi.

"O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radigan sud hokimiyati organi hisoblanishi qayd etilgan edi.

Dastlab Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan, Oliy Majlis tomonidan saylanishi belgilangan edi. 2003-yildagi konstitutsiyaviy islohot edi [13], 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan referendum natijalari bo'yicha bir palatali parlamentning ikki palatali parlamentga o'zgartirilishi natijasida Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasi

Prezidentning taqdimiga binoan, Oliy Majlis Senati tomonidan sud raisi, rais o'rinbosari va Qoraqalpog'iston Respublikasidan saylanadigan sudyani qo'shgan holda, Konstitutsiyaviy sudning besh a'zosidan iborat tarkibda saylanishi, Konstitutsiyaviy sudning har bir sudyasi yakka tartibda saylanishi, Oliy Majlis Senati a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi oigan shaxs saylangan hisoblanishi masalalari ko'zda tutilgan edi.

Mazkur bosqichda Konstitutsiyaviy sud faoliyati mamlakatni rivojlantirishning zamonaviy talablari va strategik ustuvor vazifalariga javob bermas edi, shuningdek faoliyatining huquqiy asoslarini ham yanada takomillashtirishni taqozo etar edi. Konstitutsiyaviy sud tomonidan qabul qilingan qarorlar, asosan, soliq, mehnat munosabatlari, tadbirkorlik faoliyati, litsenziyalash, ijtimoiy sug'urta, chet el investitsiyalari, advokatlik faoliyati, Konstitutsiyaviy sud vakolatlari va fuqarolikni yo'qotish masalalari bo'yicha bo'lib, bevosita fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish yuzasidan deyarli qaror qabul qilinmagan.

Tadqiqot natijalari va uning tahlili

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan sud-huquq sohasini isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kengaytirishga oid vazifalar, shuningdek davlat hokimiyati tizimini izchillik bilan takomillashtirish va mazkur hokimiyatning muntazam o'zgarayotgan ijtimoiy munosabatlar bilan uyg'unlashib borishi Konstitutsiyaviy sudning rivojlanish tarixining uchinchi bosqichini boshlab berdi.

Sud-huquq tizimidagi islohotlar mustaqillikning dastlabki yillaridanoq kun tartibidan o'rin oldi, zero, har qanday demokratik davlatda sud tizimi inson huquqlari himoyasiga qaratilgan mexanizmning asosini tashkil etadi. Shuning uchun Harakatlar strategiyasida o'z ifodasini topgan sud-huquq islohotlarini

dastlabki islohotlarning mantiqiy davomi deyish mumkin edi [14, 23-b.].

2017-yilning 1-iyunida e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" (80-, 93-, 108- va 109-moddalariga) va "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunlar Konstitutsiyaviy sud faoliyati samaradorligi va nufuzini oshirish, mustaqilligini mustahkamlash va vakolatlari kengaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash vakolati ham mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaviy sudning yurisdiksiyasi rasman qabul qilingan va yuridik kuchga kirgan normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatangina tatbiq etilar edi. Qonunga "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi qonunlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshiradi" mazmunidagi normaning kiritilishi Konstitutsiyaviy sud amaliyotida hali imzolanmagan, kuchga kirmagan hujjatlar ustidan qo'llaniladigan "ex-ante", ya'ni dastlabki nazoratni tatbiq etish imkonini berdi. Bu jahondagi juda ko'plab konstitutsiyaviy sudlar tajribasida (Fransiya, Polsha, Portugaliya, Ruminiya, Xorvatiya, Belarus) mavjud bo'lib, konstitutsiyaga nomuvofiqlikning oldini olishda ahamiyatlidir [15]. Bu o'zgartirish sud faoliyatida konstitutsiyaviy tartibot, konstitutsiyaviy qonuniylilikni kuchaytirish uchun imkoniyatlar berdi.

Mazkur bosqichda Konstitutsiyaviy sud sudyalari nisbatan minimal yosh chegarasi 35 yosh va yuqori yosh chegarasi 70 yosh deb belgilab qo'yildi.

Qayd etish joizki, Yevropa Kengashining Venetsiya komissiyasi ekspertlari aynan 70 yoshni ko'p davlatlar amaliy tajribasida o'zini oqlagan, konstitutsiyaviy sudlar sudyalari-ning lavozimda bo'lishining eng yuqori yoshi sifatida baholagan edi [16].

Shuningdek, avval sudyalar Prezidentning taqdimiga binoan, Senat tomonidan sud raisi, rais o'rinbosari va Konstitutsiyaviy sudning a'zolaridan iborat tarkibda saylangan bo'lsa-lar, mazkur bosqichda Konstitutsiyaviy sud Prezidentning taqdimiga binoan, Senat tomonidan Sudyalar oliy kengashi tavsiya etgan shaxslar orasidan saylanishi hamda Konstitutsiyaviy sud raisi va uning o'rinbosari Konstitutsiyaviy sud majlisida uning sudyalari orasidan saylanishi tartibi belgilandi.

Ushbu bosqichda qonun Konstitutsiyaviy qonun maqomiga ega bo'lgan bo'lsa-da, ammo sud faoliyati samaradorligida sezilarli o'zgarishlar bo'lmadi.

Bugungi kunda yurtimizda sud hokimiyatining chinakam mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysungan holda ish yuritishlarni ta'minlash dolzarb ahamiyatga ega. Sud mustaqilligi – bu boshqa hokimiyat tarmoqlari suiiste'molliklarining oldini olishga harakat qiladiganlar tomonidan o'ylab topilgan qotib qolgan tushuncha emas. Bu atama san'at – hokimiyatlar bo'linishining asosiy maqsadi bo'lgan adolatga qo'rquv va xurofot hamda noto'g'ri talqinlarsiz erishishni anglatadi [17, 571-b.]. Bu borada Konstitutsiyaviy sudning mustaqilligi, faoliyatining ochiqqligi va shaffofligi hamda inson huquq va erkinliklarining samarali va o'z vaqtida himoyalinishini to'liq ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Matbuotda e'lon qilingan 2021-yil 27-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi yangi Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda konstitutsiyaviy sudlov

taraqqiyotida muhim bosqich bo'ldi. Mazkur davrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi M.Abdusalomov qayd etganidek, "Yangi O'zbekiston sharoitida konstitutsiyaviy nazorat institutini kuchaytirish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo qiluvchi masalalar, o'z yechimini kutayotgan muammolar yig'ilib qolgan edi [18]". Ushbu Konstitutsiyaviy qonun avvalgidan farqli ravishda Konstitutsiyaviy sudda ish yuritishning barcha protsessual bosqichlar, ya'ni murojaatlarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va o'rganish, ishni ko'rish uchun qabul qilish, sud ishlarini yuritish ishtirokchilari hamda ularning huquq va majburiyatlari, sud muhokamasi, sud qarorlari, sud majlisi bayonnomasi va boshqa harakatlarni tartibga soldi. Mazkur qonun orqali fuqarolar va yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlari buzilganligi ustidan shikoyatlar bo'yicha muayyan ishda qo'llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash to'g'risidagi ishlarni yuritish – konstitutsiyaviy shikoyat instituti kiritildi. Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolat muddati birinchi marta saylanganda, besh yil, navbatdagi saylanganda, o'n yilni tashkil etishiga oid normalar belgilandi. Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat qiluvchi subyektlar doirasi ham kengaytirildi.

Xulosalar

Mazkur bosqichda qonun bilan bir qator o'zgartirishlar kiritilishi ko'zda tutilgan bo'lishiga qaramay, konstitutsiyaviy sudlovni amalga oshirishdagi ayrim protsessual masalalar, shu bilan birga, fuqarolar va yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlari buzilganligi ustidan shikoyatlar bo'yicha muayyan ishda qo'llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash, Konstitutsiyaviy sud huquqiy hujjatlarining yuridik ahamiyati, uni ijro etish masalalari mazkur organning siyosiy nizolarni hal qilishdagi ishtiroki, qonun loyihalarini tayyorlash va ekspertiza jarayonida sifatni ta'minlash va ayrim ishlarni ko'rib

chiqishning muddatlari to'liq yoritilmagan. Shuningdek, qonun loyihalarini tayyorlash va ekspertiza jarayonida sifatni ta'minlash masalasi ham dolzarb bo'lib, bugungi kunda bir qator yangiliklar joriy etildi [19]. Mazkur faoliyatda muayyan ma'noda Konstitutsiyaviy sud ham ishtirok etadi.

Ma'lumki, klassik hokimiyatlar bo'linishi nazariyasi bo'yicha sud hokimiyati konstitutsiya va qonunlarni sharhlash hamda ularning talqinlari bo'yicha turli nizolarga nisbatan qo'llash uchun javobgardir [20]. So'nggi yillarda konstitutsiyaviy sudlov sohasida bir qator islohotlar amalga oshirilganiga qaramay, hozirgi zamon tendensiyalari demokratik

qadriyatlarni muhofaza qilishda Konstitutsiyaviy sud faoliyatini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Buning uchun ustuvor yo'nalishlar sifatida Konstitutsiyaviy sudning davlat hokimiyati tizimidagi huquqiy maqomini yanada aniqlashtirish, mazkur organ faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, Konstitutsiyaviy sud vakolatlarini yanada kengaytirish, Konstitutsiyaviy sudning boshqa davlat organlari bilan munosabatlarini aniq yoritish, Konstitutsiyaviy sud qarorlari ijro etilishini ta'minlash, konstitutsiyaviy shikoyat institutini amaliyotda samarali qo'llash mexanizmini ishlab chiqish zarur.

REFERENCES

1. Xamedov I.A. Nekotorie voprosi dalneyshey demokratizatsii i modernizatsii gosudarstvennoy vlasti i upravleniya i administrativno-pravovogo obespecheniya etix protsessov v Respubliki Uzbekistan [Some questions and further democratization and modernization of state power and administration and administrative and legal support of these processes in the Republic of Uzbekistan]. *Society and governance*, 2013, no. 1, p. 14.
2. Gafurov A.B. O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy nazorat institutining rivojlanishi [Development of the institute of constitutional control in the Republic of Uzbekistan]. *Bulletin of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan*, 2017, spec. iss., p. 11.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi [Bulletin of the Supreme Council of the Republic of Uzbekistan]. 1990, no. 16-18, art. 289; 1991, no. 11, art. 273; 1993, no. 5, art. 205.
4. Mukhamedzhanov O.Z. Constitutional Justice in the Republic of Uzbekistan. Constitutional Courts in Post-Soviet States. between the model of a state of law and its local application. No. 2016/23/B/HS5/03648. The chief of the project J. Zalesny. Peter Lang GmbH. 2019, vol. 25, p. 519.
5. Saidov A. Islom Karimov Konstitutsiyani yetti marta tahrir qilgan [Islam Karimov has amended the Constitution seven times]. Available at: <https://archive.qalampir.uz/news/akmal-saidov-%E2%80%9Cislom-karimov-konstitutsiyani-etti-marta-taxrir-qilgan%E2%80%9D-5759/>.
6. Gafurov A.B. O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy nazorat institutining rivojlanishi [Development of the institute of constitutional control in the Republic of Uzbekistan]. *Bulletin of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan*, 2017, spec. iss., p. 11.
7. Rahimov A. Sud faoliyatida tub o'zgarishlar davri yoxud "Konstitutsiyaviy sud nima ish qiladi?" [A period of radical change in the judiciary or "What does the Constitutional Court do?"]. Available at: https://uza.uz/uz/posts/sud-faoliyatida-tub-ozgarishlar-davri-yoxud-konstituciaviy-sud-nima-ish-qiladi_278791/.
8. Eshonov B. Konstitutsionnoe pravosudie na rubezhe vekov [Constitutional Justice at the Turn of the Century]. Topical Issues of the Formation and Development of Constitutional Justice in Uzbekistan. Proceedings of the International Conference (In Russ.). Moscow, 2001, November 1–2. Moscow, Norma, 2002, pp. 89–92.

9. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi [Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan]. 1995, no. 9, art. 178; 2003, no. 1, art. 8, no. 9–10, art. 149.
10. Mirbabayev B. O'zbekistonda Konstitutsiyaviy nazorat: uning amalga oshirilishi tarixi [Constitutional control in Uzbekistan: history of its implementation]. Available at: <http://huquqburch.uz/uz/article/4745/>.
11. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami [Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan]. 2017, no. 22, article 407, no. 37, article 978; National Database of Legislation, 18.03.2020, no. 03/20/612/0326.
12. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining reglamenti [Regulations of the Constitutional Court of the Republic of Uzbekistan]. Available at: <http://www.ksu.uz/uz/page/index/id/9/>.
13. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. [Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan]. 2003, no. 3-4, article 27.
14. Malikova G. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash [Ensuring reliable protection of citizens' rights and freedoms]. *Society and Management*, 2017, no. 3, p. 23. Available at: https://constitution.uz/uz/pages/Konstitutsiya_poydevori/.
15. Mirakulov M. Konstitutsiya ustunligini ta'minlashning muhim huquqiy poydevori [An important legal basis for ensuring the supremacy of the Constitution]. Available at: https://constitution.uz/uz/pages/Konstitutsiya_poydevori/.
16. Kaufman I.R. The Essence of Judicial Independence. *Columbia Law Review*, 1980, May, vol. 80, no. 4, pp. 671-701. Available at: <https://www.jstor.org/stable/1122136/>.
17. Levinson S. Identifying "Independence". *86 B.U. L. Rev.*, 2006, p. 1297.
18. Abdusalomov M. Konstitutsiya ustunligini ta'minlashda Konstitutsiyaviy sudning o'rni [The role of the Constitutional Court in ensuring the supremacy of the Constitution].
19. Khayitov K.S. Public expertise of draft laws: theoretical-legal analysis. *Theoretical & Applied Science*, 2020, no. 12, pp. 335–338.
20. Ugli T.K.U. The features of the principle of separation of power in state governance. *International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses*, 2022, pp. 88–90.

UDC: 342/35

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISHNING TASHKILIY-HUQUQIY MASALALARI

Yuldasheva Feruza Ulug'bekovna,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi doktoranti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0001-7129-9984
e-mail: f.yuldasheva@dba.uz

Annotatsiya. Maqolada davlat fuqarolik xizmatchilarini baholash usullaridan biri bo'lgan attestatsiya jarayoni tahlil qilingan. Shuningdek, ilmiy qarashlar o'rganilgan holda, davlat fuqarolik xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish jarayonining o'ziga xos belgilari yoritilgan va xususiy sektorda ishlovchi xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish jarayonidan farqli jihatlari keltirilgan. "Davlat fuqarolik xizmatchisining attestatsiyasi" tushunchasiga mualliflik ta'rifi berilgan. Bundan tashqari, davlat fuqarolik xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazishning maqsad va vazifalari, bosqichlari, attestatsiya jarayonida rasmiylashtiriladigan hujjatlar, attestatsiyadan o'tmaydigan shaxslar doirasi keltirib o'tilgan. Davlat fuqarolik xizmatining natijadorlikka yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshirishini malakali, mas'uliyatli, zamonaviy fikrlaydigan, tashabbuskor kadrlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'z navbatida, bu kabi kadrlarni jamlash hamda ular salohiyatidan unumli foydalanish aniq mexanizm va huquqiy asoslarni talab etadi. Davlat fuqarolik xizmatida attestatsiya jarayonining to'g'ri tashkil etilishi faoliyatning malakali kadrlar tomonidan uzluksiz amalga oshirilishiga asos bo'ladi. Muallif mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatini tartibga soladigan qonun mavjud emasligi, xizmatchilar doirasi aniq belgilanmaganligi, klassifikator yo'qligi va davlat fuqarolik xizmati lavozimlar ro'yxati e'lon qilinmaganligi sababli davlat fuqarolik xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish mexanizmi aniq emasligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: davlat fuqarolik xizmati, davlat fuqarolik xizmatchilari attestatsiyasi, kadrlar, baholash, Davlat fuqarolik xizmatini o'tash, Kadrlar siyosati, inson resurslarini boshqarish, navbatdan tashqari attestatsiya.

ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ АТТЕСТАЦИИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ГРАЖДАНСКИХ СЛУЖАЩИХ

Юлдашева Феруза Улугбековна,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
докторант Академии государственного
управления при Президенте Республики Узбекистан

Аннотация. В статье анализируется процесс аттестации, которая является одним из методов оценки профессиональной деятельности государственных гражданских служащих. Так, исходя из анализа научных взглядов, выделены особенности процесса аттестации государственных гражданских служащих и представлены их отличия от процесса аттестации работников частного сектора. Автором определено понятие "аттестация государственного гражданского служащего". Кроме того, упоминаются цели, задачи, этапы, документы,

формализуемые в процессе аттестации, и круг лиц, который не проходит аттестацию государственных гражданских служащих. Осуществление результативной деятельности государственной гражданской службы невозможно представить без квалифицированных, ответственных, современно мыслящих, предприимчивых кадров. В свою очередь, накопление таких кадров и продуктивное использование их потенциала требуют конкретных механизмов и правовых оснований. Правильная организация процесса аттестации на государственной гражданской службе является основой для непрерывного осуществления своей профессиональной деятельности квалифицированными специалистами. Автор утверждает, что механизм аттестации государственных гражданских служащих четко не урегулирован из-за того, что в стране отсутствует закон регулирующий государственную гражданскую службу, не определен круг гражданских служащих, отсутствует классификатор и не опубликован перечень должностей государственной гражданской службы.

Ключевые слова: государственная гражданская служба, аттестация государственных гражданских служащих, кадры, оценка, Прохождение государственной гражданской службы, кадровая политика, управление человеческими ресурсами, внеочередная аттестация.

ORGANIZATIONAL AND LEGAL ISSUES OF ATTESTATION OF CIVIL SERVANTS

Yuldasheva Feruza Ulugbekovna,

Researcher of Academy of Public Administration under the President
of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. The article analyzes the attestation process, which is one of the methods for evaluating civil servants. Also, based on the analysis of scientific views, the features of the attestation process of civil servants are highlighted and their differences from the attestation process of employees working in the private sector are presented. The author defines the concept of "attestation of a civil servant". In addition, the goals and objectives, stages, and documents formalized in the attestation process, the circle of persons who do not pass the attestation of civil servants are mentioned. The implementation of the effective activities of the civil service cannot be imagined without qualified, responsible, modern-minded, enterprising personnel. In turn, the accumulation of such personnel and the productive use of their potential require specific mechanisms and legal foundations. The correct organization of the attestation process in the civil service is the basis for the continuous implementation of activities by qualified specialists of this service. The author argues that the mechanism for attestation of civil servants is not regulated, due to the fact that the country has no law regulating the civil service, the circle of civil servants has not been defined, there is no classifier and the list of civil service positions has not been published.

Keywords: Civil service, attestation of civil servants, employees, evaluate, Passage of the state civil service, personnel policy, human resource management, extraordinary attestation.

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatini isloh qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan "2022–2026-yil-larga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-sonli Farmonida "Davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tash-

kil etish" maqsadi belgilangan. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, "Davlat xizmatchilari va davlat organlari faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholash tizimi bo'yicha "Milliy reyting" tizimini joriy etish" vazifasi belgilandi. Mazkur tizim davlat fuqarolik xizmatchilari natijadorligi va bajargan ishiga qarab xolisona baho berishni ko'zda tutadi. Hozirgi kunda davlat organlari va tashkilotlarida ishlovchi davlat fuqarolik

xizmatchilarini baholashda attestatsiyadan foydalanilmoqda.

Milliy qonunchiligimizda davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini tartibga soladigan maxsus qonun mavjud emas. Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy maqomi, klassifikatori, davlat fuqarolik xizmati lavozimlar ro'yxati qonunchilikda belgilanmagan. Lekin davlat fuqarolik xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazishning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va faroyishlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari, Xizmatchilar va ishchi kasblarning asosiy lavozimlari klassifikatori, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish standartlari tizimi, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha normalar, qoidalar va yo'riqnomalar, boshqa qonun hujjatlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 22-sentabrdagi "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'RQ-410-sonli Qonunining 25-moddasida: "Tashkilotlarning xodimlari, shu jumladan, rahbarlari o'z kasblari va ish turlari uchun mehnatni muhofaza qilishning davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda hamda muddatlarda mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha o'quvdan o'tishi, yo'l-yo'riqlar olishi, bilimlari tekshirilishi va attestatsiyadan o'tishi kerak", deb belgilangan.

Mamlakatimizda "davlat fuqarolik xizmati" tushunchasi rasman huquqiy hujjatlarda qo'llanila boshlaganiga ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsa-da, uning tashkiliy va qonunchilik asoslarini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki mamlakatimizning yaqin va uzoq istiqbolga mo'ljallangan rivojlantirish strategiyasida davlat xizmatini kompleks rivojlantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan [1]. Davlat fuqarolik xizmatini

tartibga soladigan qonun qabul qilinmagan bo'lsa ham, so'nggi yillarda davlat fuqarolik xizmati tizimining huquqiy, tashkiliy va uslubiy asoslarini belgilash, sohaga doir qonun hujjatlari ishlab chiqish va takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlarning olib borilishi natijasida quyidagilarga erishildi:

- davlat organlari va tashkilotlarida xodimlarni boshqarish va inson resurslarini rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi, davlat fuqarolik xizmati talablarini to'g'ri qo'llash maqsadida ularga huquqiy va uslubiy jihatdan ko'mak beradigan hamda davlat fuqarolik xizmati talablari-ning to'g'ri tatbiq etilishini nazorat qiladigan vakolatli organ – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etildi;

- davlat fuqarolik xizmati sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish maqsadida "Davlat fuqarolik xizmati yagona elektron axborot-tahlil tizimi" dasturiy-apparat kompleksi ishga tushirilib, davlat fuqarolik xizmatchilari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasi shakllantirildi;

- davlat fuqarolik xizmatiga munosib kadrlarni ochiq mustaqil tanlov asosida qabul qilish tizimi joriy qilindi. Tanlovlarning ochiq va shaffofligini ta'minlash maqsadida "Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portali" (vacancy.argos.uz) [2] axborot tizimi ishga tushirildi;

- davlat xizmatida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas'ul bo'lgan maxsus vakolatli davlat organi – O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi;

- davlat fuqarolik xizmatchilarining bilimini aniqlaydigan hamda ularning psixologik portretini yaratishga xizmat qiladigan "Davlat xizmatchilarini sinovdan o'tkazish moduli" (test.argos.uz) [3] elektron axborot tizimi ishga tushirildi. Sinov natijalaridan kelib

chiqib, malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv dasturlarini ishlab chiqish tizimi joriy etildi;

– davlat fuqarolik xizmatiga iqtidorli yoshlarni keng jalb etish maqsadida ilm-fan, sport, axborot texnologiyalari va boshqa sohalarida yuqori natijalarga erishayotgan, faol va tashabbuskor yoshlar orasida “Liderlar klubi” tashkil etildi, “Kelajak liderlari” o'quv kurslari yo'lga qo'yildi;

– davlat tomonidan davlat xizmatchilari va mutaxassislarining xorijdagi nufuzli ta'lim, ilmiy va boshqa muassasalarda ta'lim olishini tashkil etishga ko'maklashishning mutlaqo yangi tizimi joriy etildi.

Amalga oshirilgan ishlarga qaramay sohada hanuzgacha bir qancha muammolar saqlanib qolmoqda.

Material va metodlar

Mazkur tadqiqot ishi bir qancha muammo va masalalarga yechim izlash hamda ularni tadqiq etishni talab qiladi. Birinchidan, attestatsiya tushunchasini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish va uning davlat fuqarolik xizmatchilarini baholashda tutgan o'rnini belgilash; ikkinchidan, mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish jarayonidagi mavjud muammolarni tahlil qilish lozim.

Mazkur masalalarga mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqilib, milliy qonunchilikdagi bo'shliqlarni to'ldirish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Tadqiqotni olib borishda tizimlashtirish, qiyosiy-huquqiy tahlil, normativ-huquqiy tahlil, umumlashtirish, mantiqiylik kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili

Attestatsiya – bu davlat xizmatini o'tash davomida davlat organi xizmatchisi faoliyatini baholash usulidir. Fikrimizcha, “davlat xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish” tushunchasining huquqiy ta'rifga ega emasligi ushbu ma'muriy tartibni amalga oshirish amaliyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Attestatsiya – davlat fuqarolik xizmatida inson

resurslarini boshqarishda katta ahamiyatga ega jarayon hisoblanadi.

A.B. Kurakin va A.A. Savostinlar fikricha, davlat fuqarolik xizmatida attestatsiya deganda, “davlat fuqarolik xizmatchisining davlat lavozimiga loyiqqligini baholaydigan, davlat xizmatini takomillashtirish va attestatsiya qilinayotgan shaxsning salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan, natijada ma'muriy-huquqiy choralar ko'rilishi belgilangan, kadrlarning kasbiy va shaxsiy salohiyatini samarali rivojlantirishga hissa qo'shadigan ma'muriy-huquqiy protsedura tushuniladi” [4].

U. Xusainovning fikricha, “xodimni kompleks baholashning asosiy shaklini kadrlar attestatsiyasi tashkil etadi. U barcha lavozimdagi xizmatchilar faoliyatini har tomonlama baholashga imkon beradi, ularning o'z malakasini oshirish va ijodiy o'sishidagi intilishlarini rag'batlantiradi hamda olib borayotgan faoliyatini yaxshilashga yordam beradi. Uning natijalari bo'yicha xodimning egallab turgan lavozimiga mosligi va xizmat vazifalarida professionalligining o'sishi borasida qaror qabul qilinadi” [5]. Olimlarning fikriga qo'shilgan holda, attestatsiyaning maqsadi – kadrlar salohiyatini tekshirish va kadrlarning o'z malakasini oshirishga turtki bo'ladigan usuldir, deya fikr bildiramiz.

V.I. Kurilovning fikricha, attestatsiya keng ma'noda “xodim, talaba, fuqaroning malakasi, bilim darajasi ularning ishbilarmonlik va siyosiy fazilatlari egallagan lavozimga, malakaga, kasbga, mutaxassislikka mosligini aniqlashdir” [6]. Tor ma'noda – “bu korxona, muassasa, tashkilot tomonidan attestatsiya komissiyasi yordamida maxsus tashkiliy shaklda amalga oshiriladigan, xodimlarning ish malakasi va siyosiy saviyasini doimiy ravishda oshirish, ularni tanlash va joy-joyiga qo'yishni yaxshilash maqsadida xodimlarning ishbilarmonlik, siyosiy, tashkiliy, axloqiy va shaxsiy fazilatlarini muntazam tekshirishdir” [6].

A.P. Jirov attestatsiyaga shunday ta'rif beradi: “Muayyan toifadagi xodimlarning

mehnat salohiyati va attestatsiya qilinayotgan xodimlarning egallagan lavozimiga muvofiqligini aniqlash maqsadida ularning o'z ish funksiyalarini lozim darajada bajarayotganini davriy tekshirish bo'lib, ularning kasbiy, ishbiarmonlik, axloqiy va siyosiy darajasini yaxshilash, shuningdek, xodimlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda ma'muriyatga yordam beradigan davlat tomonidan belgilangan shakldir" [7].

Yuqoridagi tushunchalardan kelib chiqib, davlat fuqarolik xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazishning quyidagi belgilarini keltirib o'tamiz:

1) attestatsiyadan o'tish har bir davlat xizmatchisi uchun majburiy tartibdir (qonun bilan belgilangan ayrim toifadagi xodimlar bundan mustasno), ya'ni belgilangan muddatda attestatsiya o'tishdan bosh tortish mansab intizomini buzish hisoblanadi va xizmatchiga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo'llanishiga sabab bo'ladi;

2) davlat tomonidan belgilangan ma'muriy tartib hisoblanadi, ya'ni attestatsiya davlat xizmatchisi bilan mehnat shartnomasi tuzgan davlat organida yoki qoida tariqasida shu maqsadda ixtisoslashgan boshqa tashkilotda amalga oshiriladi. V.M. Manoxinning fikricha, attestatsiya xulosasi davlat organi, ya'ni davlat tomonidan chiqariladi. Ular davlat xizmatchisi va davlat uchun ham huquqiy, ya'ni majburiy ahamiyatga ega bo'ladi [8];

3) attestatsiyaning tekshirish obyekti xizmatchining o'z lavozimidagi nazariy, amaliy bilim va ko'nikmalari, shuningdek, uning davlat xizmati uchun muhim bo'lgan shaxsiy fazilatlarini hisoblanadi;

4) attestatsiya davriy ravishda – har uch yilda bir marta (muntazam) va navbatdan tashqari – boshqa davrlarda o'tkaziladi;

5) attestatsiya maxsus tuzilgan komissiya tomonidan o'tkaziladi;

6) attestatsiyaning turli shakllari qo'llaniladi. "Davlat fuqarolik xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizom bo'lmaganligi tufayli xizmatchilarni

attestatsiyadan o'tkazish shakllari chegarasi belgilanmagan. Odatda, attestatsiya uch shaklda: suhbat, yozma imtihon va test shakllarida o'tkaziladi;

7) davlat fuqarolik xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish shartlari – davlat fuqarolik xizmatchilarining maqomi davlat fuqarolik xizmati lavozimlar ro'yxatida qaysi lavozimni egallashi bilan chambarchas bog'liq. Ba'zi xorijiy davlatlarda davlat organlari va tashkilotlarining yuqori turuvchi rahbarlari attestatsiyadan o'tmaydi [9];

8) attestatsiya natijasi – davlat xizmatchisining o'z lavozimiga loyiq emasligi to'g'risida xulosa chiqariladi. Xorijiy mamlakatlardan farqli o'laroq, attestatsiya xulosasiga binoan, davlat xizmatchisini qayta tayyorlash, malakasini oshirish, stajirovka yoki qo'shimcha ta'lim sharti bilan xizmat shartnomasini davom ettirish, o'zgartirish yoki bekor qilish, shuningdek uning mehnatiga haq to'lash shartlarini o'zgartirish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bizning fikrimizcha, *davlat fuqarolik xizmatchisining attestatsiyasi – davlat organining attestatsiya komissiyasi tomonidan o'tkaziladigan, davlat xizmatchisining egallagan lavozimiga loyiq-ligini tekshirish, yuqori yoki quyi lavozimga o'tkazish, malaka-martaba berish, shuningdek uning professional ko'nikmalari va bilimini baholashga qaratilgan, davriy ravishda o'tkaziladigan va ma'muriy huquqiy akt bilan rasmiylashtiriladigan faoliyatdir.*

Davlat xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish huquqiy instituti davlat xizmatini tashkil etish, turli davlat organlari vakolatlarini amalga oshirish hamda ta'minlash bo'yicha vazifa va majburiyatlarni bajarish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisidan iboratdir [10].

Davlat fuqarolik xizmatchisini attestatsiyadan o'tkazish jarayonini xizmatchining malaka imtihoni topshirish jarayonidan farqlash lozim. Malaka imtihoni davlat xizmatchisining malakasini tekshiradi. Aksari-

yat hollarda malaka imtihoni xizmatchi bir lavozimda ma'lum muddat ishlagandan, stajirovka o'tagandan yoki ishga kirmoqchi bo'lgan sohasida bir necha yil ishlagandan keyin o'tkazilishi mumkin.

Attestatsiya quyidagi vazifalarni amalga oshiradi [11]:

- amaliyotda davlat xizmati prinsiplariga rioya etish;
- davlat xizmati tizimida qonuniyligni ta'minlash;
- davlat organlarining professional kadrlar majmuasini tashkil etish;
- davlat xizmatchisining xizmat bo'yicha harakatlanishi maqsadida ularning potensial imkoniyatlarini aniqlash;
- davlat xizmatchisiga javobgarlik choralari qo'llash;
- intizom va javobgarlikni oshirish;
- xizmatchilarning xizmat pillapoyasi bo'yicha harakatlanishini ta'minlash;
- davlat xizmati muvozanatini ta'minlash;
- davlat xizmatchilarining malakasini oshirishni tartibga solish;
- davlat xizmati tizimida huquqbuzarliklar va korrupsiyaga qarshi kurash, ogohlantirish va boshqalar.

Davlat fuqarolik xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish davlat organlari va tashkilotlarining nizomlari hamda ichki mehnat tartib-qoidalarida belgilangan bo'ladi. Aksariyat hollarda xodimlarni attestatsiyadan o'tkazishni tashkil etish organlar rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.

Mamlakatimizda Sobiq Ittifoqdan meros bo'lib qolgan attestatsiya tizimi shakllangan. Binobarin, attestatsiyaning maqsadi xodimlarning egallab turgan lavozimiga loyiq yoki noloyiqligini tekshirish, ba'zi hollarda navbatdagi martaba darajasi berilishidan oldin o'tkaziladigan usuldir.

Attestatsiya bosqichlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: attestatsiyani o'tkazish to'g'risida buyruq tayyorlash va qabul qilish; attestatsiya muddatlari va xususiyatlari bo'yicha ma'lumot berish; attestatsiya

komissiyasini shakllantirish; attestatsiya komissiyasi ishini tashkil qilish; kadrlar kompetensiyalarini baholash; attestatsiya natijasida xulosa chiqarish; kadrlar bilimi o'sishi uchun ularni malaka oshirishga yuborish; attestatsiyadan o'tmagan kadrlarni lavozimga loyiq, noloyiq yoki qayta attestatsiya qilinishi bo'yicha qarorlar qabul qilish.

Quyidagi shaxslar toifasi attestatsiyadan o'tmaydi: ilk bor ishga qabul qilingan, lavozimda kam muddat ishlagan, mehnat ta'tilida bo'lgan, vaqtincha mehnatga layoqatsizligi tufayli davolanishda bo'lgan, homilador yoki uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar, shuningdek, homiladorlik va tug'ish ta'tili hamda bolani parvarishlash ta'tilida bo'lgan shaxslar.

Odatda, attestatsiya komissiyasi rais, rais o'rinbosari, kotib va komissiya a'zolaridan (mutaxassis, o'qituvchi, jamoatchilik nazorati vakili) iborat bo'ladi. Qaror qabul qilishda attestatsiya komissiyasining barcha a'zolari teng huquqqa ega. Attestatsiya komissiyasi shakllanganligi to'g'risidagi huquqiy hujjat qabul qilingan kundan e'tiboran komissiya o'z ishini boshlaydi.

Davlat fuqarolik xizmatchisini attestatsiyadan o'tkazishda Attestatsiya komissiyasiga uning o'z lavozimi doirasidagi vazifalarni bajarishligi, bunda qonunchilik, xizmat va ijro intizomiga rioya qilganligi haqidagi tavsifnomasi taqdim etiladi.

Odatda, attestatsiyadan o'tkazilayotgan xodimning xizmat yuzasidan va shaxsiy fazilatlarini aniqlash maqsadida suhbat o'tkaziladi. Ayrim holatlarda u test ko'rinishida ham o'tkazilishi mumkin.

Attestatsiya komissiyasi yig'ilishining bayonnomasi attestatsiya jarayoni va natijalari haqidagi axborotga ega asosiy hujjat hisoblanadi. Bayonnomaning yurituvchi belgilangan tartibda komissiya kotibi tomonidan olib boriladi. Unda quyidagilar qayd etiladi:

- komissiya yig'ilishi sanasi;
- ishtirok etgan komissiya a'zolari;

– attestatsiyadan o'tkazilayotgan xizmatchining ismi, familiyasi, otasining ismi, ish joyi va egallab turgan lavozimi.

Komissiya yig'ilishi bayonnomasiga attestatsiya davomida xizmatchiga berilgan savollar va uning javoblari, tegishli qaydlar ham kiritiladi. Bayonnomada, shuningdek, attestatsiyadan o'tayotgan xizmatchiga berilgan baho, faoliyati yuzasidan ovoz berish natijalari hamda attestatsiya komissiyasi tavsiyalari ham aks etadi. Rasmiylashtirilgan bayonnomani rais, uning o'rinbosari, kotib va yig'ilishda ishtirok etgan attestatsiya komissiyasi a'zolari imzolaydilar. Imzolangan bayonnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish taqiqlanadi. Shuningdek, u xatosiz yozilgan bo'lishi lozim.

Attestatsiya natijalariga ko'ra, davlat fuqarolik xizmatchilariga quyidagi uch turdagi baho berilishi mumkin:

- egallagan davlat lavozimiga loyqligi;
- xizmat faoliyati yuzasidan attestatsiya komissiyasi ko'rsatmalarini bajargan taqdirda, egallagan lavozimiga loyqligi;
- egallagan davlat lavozimiga loyiq emasligi [12].

Agar davlat fuqarolik xizmatchisi egallab turgan davlat lavozimiga noloyiq deb topilgan bo'lsa, istisno tariqasida u malakasini oshirish yoki qayta tayyorlanish yoxud boshqa davlat lavozimiga o'tkazilishi mumkin.

Attestatsiya komissiyasi qarori yakuniy yuridik hujjat hisoblanib, unda davlat fuqarolik xizmatchisining attestatsiyadan o'tkazilishi natijalari va qarorlari aks etadi.

Attestatsiya natijalari ovoz berish ishlari yakunlangandan so'ng attestatsiyadan o'tayotgan xizmatchiga e'lon qilinadi. Attestatsiya natijalariga ko'ra, davlat fuqarolik xizmatchisi sud yoki boshqa tegishli davlat organlariga murojaat etishga haqli. Attestatsiya natijalari davlat xizmatchisining shaxsiy varaqaqasida saqlanishi lozim.

Yuqorida keltirilgan attestatsiya komissiyasining davlat fuqarolik xizmatchisi lavozimiga loyiq emasligi to'g'risidagi qarori

tegishli davlat fuqarolik xizmatchisi bilan mehnat shartnomasining bekor qilinishiga sabab bo'ladi.

Huquqshunos olim M.Y. Gasanovning fikricha, "Attestatsiya faqat shunday qarorlar qabul qilishga qaratilmasligi kerak. Uning natijasiga ko'ra, davlat xizmatchisi xizmat bo'yicha bir pog'ona ko'tarilishi lozim" [13].

Amaliyotdan kelib chiqqan holda, aksariyat bunday qarorlar xodimga nisbatan subyektiv qarash natijasida qabul qilinadi. Ya'ni hozirgi kunda attestatsiya – bu xizmatchini jazolash va rahbar o'ziga raqib deb bilgan shaxsni yo'ldan olish usuli sifatida keng qo'llaniladi. Bu esa davlat organi va tashkilot ish faoliyati samaradorligining pasayishiga sabab bo'lib, kadrlar qo'nimsizligiga olib keladi. Davlat organi tomonidan xizmatchining huquqlari buzilishining oldini oladigan hech qanday kafolat sezmagani kadr xususiy sektorga o'tib ketadi.

Olimlarning fikricha, xizmatchi faoliyatini baholash uchun uning bajarayotgan ishi egallagan mansab-lavozimiga qo'yilgan talablarga mos kelish-kelmasligi, davlat organi oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda uning ishtiroki darajasi, amalga oshirilayotgan ishning qiyinligi, natijalari va boshqalarga asoslanadi. Bundan tashqari, attestatsiya vaqtida xizmatchining professional bilimi, ish tajribasi, malaka oshirganligi va qayta tayyorlanganligi, tashkilotchilik qobiliyatlari inobatga olinishi lozim [14].

Sh. Asadov o'zining ilmiy ishida davlat xizmatiga kirishda "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish asoslari qatoriga hamda davlat xizmatiga oid qonun hujjatlariga "davlat xizmatchilarini ishga qabul qilish sharti sifatida davlat tilini bilish talabini kiritish" [15]ni tavsiya etadi. Fikrimizcha, ushbu talab davlat fuqarolik xizmati sohalaridan kelib chiqib, faqat davlat xizmatiga kirishda emas, balki attestatsiya jarayonida ham qo'llanilishi kerak.

Xulosalar

Attestatsiya jarayonida beriladigan savollar uni o'tayotgan xizmatchining lavozim yo'riqnomasida belgilangan vazifa va funksiyalar doirasida tuzilishi kerak. Shuningdek, attestatsiya o'tayotgan shaxsning aqliy qobiliyati va egallagan kompetensiyalarini tekshirish maqsadida muammoli vaziyatli (situatsion) keyslar tuzilishi hamda ushbu berilgan savol va keyslarning namunaviy javoblari attestatsiya komissiya a'zolariga oldindan tarqatib berilishi lozim. Bunday tartibni amalga oshirish uchun xizmatchining lavozim yo'riqnomasidagi belgilangan vazifa va funksiyalar uning egallagan davlat organidagi lavozimiga mutanosib bo'lishi zarur.

Davlat organlari va tashkilotlarda davlat fuqarolik xizmatchilarining lavozim yo'riqnomalarida belgilangan vazifa va funksiyalar aniq va maqsadli ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Ya'ni namunaviy (shablon) asosda emas, tashkilot vazifa va funksiyasi, yo'naltirilgan faoliyati, siyosati, maqsadi, shuningdek xodimning egallagan lavozim va bajarayotgan ish faoliyatining xususiyatiga asoslanib tuzilgan bo'lishi darkor.

Mamlakatimizda attestatsiya jarayoni kadrlar bilimini baholash, lavozimga loyiq kadrlarni olib qolish maqsadida emas, balki rahbar tomonidan o'z raqibi deb bilgan, shaxsiy adovati bo'lgan kadrlarni ishdan chetlashtirish usuli sifatida ishlatilmoqda. Shuningdek, ma'lum bir lavozimga boshqa shaxs ishga olinmoqchi bo'lganda, attestatsiya o'tkazilishi holatlari ham uchrab turibdi.

Qonunchilikda *navbatdan tashqari attestatsiya o'tkazish* shartlari belgilanmagan.

Agar davlat organi yoki tashkilotga yangi rahbar tayinlansa, o'sha organda ishlovchi kadrlarni navbatdan tashqari attestatsiyadan o'tkazish holatlari amaliyotda kuzatilmoqda. Attestatsiya jazolovchi chora sifatida qo'llanilmasligi kerak, aksincha, davlat xizmatchisi malakasini oshirish vaqti kelganligidan darak beruvchi belgi sifatida ko'rilishi lozim.

Bunday holatlarning oldini olish va davlat xizmatida munosib kadrlarni saqlab qolish, subyektivlikdan uzoqlashib, obyektiv baholash maqsadida kadrlar faoliyati samaradorligini baholashning yangicha usullarini joriy etish kerak. Attestatsiya o'tkazish jarayonida davlat xizmatchisini to'g'ri baholash juda muhimdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, davlat fuqarolik xizmatchisini attestatsiyadan o'tkazish muhim va murakkab jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon aniq baholash mezonlari, vaqt va mablag' talab etadi. Davlat fuqarolik xizmatchisini noto'g'ri attestatsiya qilish butun davlat xizmati tizimi ishiga salbiy ta'sir qiladi. Davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatini baholash tizimini joriy etishdan oldin davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlardagi ishlovchi xizmatchilar klassifikatorini yaratish kerak. Bunga binoan: "Davlat fuqarolik xizmatchilarini baholash va attestatsiyadan o'tkazish to'g'risida"gi nizom ishlab chiqilishi darkor. Unda baholash tamoyillari, qoidalari, mezonlari, tartibi qonuniy belgilanishi zarur. Bunday choralar davlat xizmatchisi faoliyati to'g'ri baholanib, xizmatchi lozim tarzda rag'batlantirilishi uchun asos bo'ladi.

REFERENCES

1. Hayitov H. Davlat fuqarolik xizmati huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari [Issues of improving the legal framework of the civil service]. *Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari – Current issues of social sciences and humanities*,

2020, p. 139. Available at: https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=FSO8DqIAAAAJ&citation_for_view=FSO8DqIAAAAJ:UebtZRa9Y70C/.

2. Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portali [The open portal for vacancies of civil servants]. Available at: <https://vacancy.argos.uz/> (accessed 07.03.2022).

3. Davlat xizmatchilarini sinovdan o'tkazish moduli [Module for testing civil servants]. Available at: <https://test.argos.uz/uz/> (accessed 07.03.2022).

4. Kurakin A.B., Savotin A.A. Protseduri, obuslovlenniyem proxojdeniyem gosudarstvennoy grajdanskoy slujbi Rossiyskoy Federatsii [Procedures due to the passage of the State civil service of the Russian Federation]. *Pravo i politika – Law and politics*, 2004, no. 8, p. 32.

5. Xusainov U. Davlat hokimiyati faoliyatida rotatsiya institutining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari [Constitutional and legal bases of the institute of rotation in the activity of the state]. PhD thesis. Tashkent, 2010, 121 p.

6. Kurilov V.I. Attestatsiya spetsialistov narodnogo xozyaystva [Certification of specialists of the national economy]. Moscow, Yuridicheskaya literatura Publ., 1981, p. 8.

7. Jirov A.P. Pravovie aspekti attestatsii rukovodyashix rabotnikov i spetsialistov v promishlennosti [Legal Aspects of Certification of Managers and Specialists in Industry]. PhD thesis. Moscow, 1979, 7 p.

8. Manoxin V.M., Adushkin Y.S., Bagishayev Z.A., Rossiyskoye administrativnoye pravo [Russian Administrative law]. Moscow, 1996, 101 p.

9. Yezekyan A. The Legal Procedure of Attestation of Public Servants. *World Academy of Science, Engineering and Technology International Journal of Social, Education, Economics and Management Engineering*, 2015, vol. 9, no. 1, 157 p.

10. Xojiyev E.T., Ismailova G.S., Raximova M.A. Davlat xizmati [Civil service]. Tashkent, Baktريا press Publ., 2015, 73 p.

11. Xojiyev E., Xojiyev T. Ma'muriy huquq [Administrative law]. Tashkent, Fan va texnologiya Publ., 2008, 236 p.

12. Azizov X., Yo'ldoshev A., Asadov Sh., Xayitov X., Bekchanov D., Yuldasheva F., O'zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirish masalalari [Issues of improving the civil service in the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 2020, 138 p.

13. Gasanov M.Yu. Osobennosti pravovogo regulirovaniya truda gosudarstvennix slujashix [Features of the legal regulation of the labor of civil servant]. *Vestnik Konstitutsionnogo suda Respubliki Uzbekistan – Bulletin of the Constitutional Court of the Republic of Uzbekistan*, 2008, no. 16, 25 p.

14. Mualliflar jamoasi. O'zbekistonda davlat boshqaruvini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari [The main directions of improving public administration in Uzbekistan]. Tashkent, TSUL Publ., 2016, 266 p.

15. Asadov Sh. O'zbekiston Respublikasi davlat suverenitetini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish [Improving the legal framework for ensuring state sovereignty of the Republic of Uzbekistan]. Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2019, p. 25. Available at: https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=osgom58AAAAJ&citation_for_view=osgom58AAAAJ:qjMakFHDy7sC/ (accessed 07.03.2022).

UDC: 343.3 (045)(5751)

KORRUPSIYA VA MANFAATLAR TO'QNASHUVINING OLDINI OLIHDA KOMPLAENS NAZORAT TIZIMINING O'RNI (DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR MISOLIDA)

Mahmudov Firuz Baxtiyor o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi
Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha
professional o'qitish markazi direktori o'rinbosari,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0001-9036-0277
e-mail: firuzbek2015@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy davlat xizmatchilariga qo'yiladigan talablar asosida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish bo'yicha ijobiy yutuq va mexanizmlar xususida fikr yuritilib, ichki nazorat tizimlarini faoliyatga tatbiq etish masalalari atroflicha tahlil qilingan. Komplaens nazorat tizimi va uning imkoniyatlari, tarixiy rivojlanishi hamda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi holatlarining oldini olishdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Komplaens nazorat tizimining xorijiy mamlakatlarda, xalqaro tashkilot va nodavlat muassasalarda joriy etilishiga oid ijobiy tajriba va imkoniyatlari milliy va xorijiy adabiyotlar orqali tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari tahlili orqali ularda komplaens nazorat tizimini joriy etishga oid belgilangan vazifalar, bugungi kundagi mavjud holatlar va huquqiy bo'shliqlar davlat va xususiy sektor misolida tadqiq etilgan. Komplaens nazorat tizimini joriy etishda inobatga olinadigan tashqi omillar, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar ilmiy manbalar asosida tadqiq etilgan. Milliy va xorijiy tajriba, olimlarning ilmiy taklif va xulosalari asosida mamlakatda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi holatlarining oldini olishda komplaens nazorat tizimini samarali tashkil etish bo'yicha fikrlar, taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: davlat xizmatchisi, korrupsiya, komplaens nazorat, manfaatlar to'qnashuvi, xususiy sektor, shaxsiy manfaat, daromad va mol-mulkni deklaratsiyalash, qimmatli qog'ozlar, davlat xususiy sherikligi.

РОЛЬ СИСТЕМЫ КОМПЛАЕНС-КОНТРОЛЯ В ПРЕДОТВРАЩЕНИИ КОРРУПЦИИ И КОНФЛИКТА ИНТЕРЕСОВ (НА ПРИМЕРЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО И ЧАСТНОГО СЕКТОРА)

Махмудов Фируз Бахтиёр угли,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),
заместитель директора Центра профессионального
обучения юридических кадров по международным стандартам
при Ташкентском государственном юридическом университете

Аннотация. В данной статье рассматриваются положительные достижения и механизмы преодоления коррупции, а также конфликта интересов, исходя из требований, предъявляемых к современным государственным служащим. Дан подробный анализ внедрения систем

внутреннего контроля. Научно обоснованы сама система комплаенс-контроля, ее возможности, историческое развитие и роль в предотвращении коррупции и конфликта интересов. На основе отечественной и зарубежной литературы проанализирован положительный зарубежный опыт внедрения комплексной системы управления в международных неправительственных организациях. Путем анализа нормативно-правовых актов Республики Узбекистан, поставленных задач по внедрению комплексной системы контроля на примере государственного и частного секторов изучены текущая ситуация и правовые пробелы. На основе научных источников изучены внешние факторы, которые необходимо учитывать при внедрении комплексной системы управления, и возможные риски. Исходя из отечественного и зарубежного опыта, научных мнений, сделанных учеными, выдвинуты предложения и рекомендации по эффективной организации системы комплаенс-контроля в стране в целях предотвращения коррупции и конфликта интересов.

Ключевые слова: государственный служащий, коррупция, комплаенс-контроль, конфликт интересов, частный сектор, личная заинтересованность, декларирование доходов и имущества, ценные бумаги, государственно-частное партнерство.

THE ROLE OF COMPLIANCE CONTROL SYSTEM IN PREVENTING CORRUPTION AND CONFLICT OF INTERESTS (EXAMPLE OF PUBLIC AND PRIVATE SECTORS)

Makhmudov Firuz Baxtiyor ugli,
Deputy Director of Center for Professional
Training of Lawyers by International Standards
under Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. This article discusses the positive achievements and mechanisms for overcoming corruption and conflicts of interest based on the requirements for modern civil servants and provides a detailed analysis of the implementation of internal control systems. The system of complex control and its capabilities, its historical development and its role in preventing corruption and conflicts of interest are scientifically investigated. The positive experience and opportunities for the implementation of the complex control system in foreign countries, international organizations, and non-governmental organizations have been analyzed through national and foreign literature. Through the analysis of normative and legal acts of the Republic of Uzbekistan, the tasks set for the introduction of a comprehensive control system, the current situation and legal gaps are studied on the example of the public and private sectors. The external factors to be taken into account in the implementation of the complex control system, and the possible risks have been studied on the basis of scientific sources. Based on national and foreign experience, scientific proposals and conclusions of scientists, opinions, suggestions, and recommendations on the effective organization of a comprehensive control system in the prevention of corruption and conflicts of interest in the country were put forward.

Keywords: civil servant, corruption, compliance control, conflict of interest, private sector, personal interest, declaration of income and property, actives, public-private partnership.

Kirish

Bugungi kunda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini takomillashtirish, korrupsiya va uning turli ko'rinishlaridan xoli shaffof tizimni yaratish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat organlari va tashkilotlarida samarali

mehnat faoliyatini olib boradigan zamonaviy davlat xizmatchilarini tayyorlash, ularning yangi avlodini yaratishga davlat oldida turgan asosiy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

E'tibor berish kerakki, xalqaro iqtisodiyotga korrupsiyaga oid jinoyatlarning sodir eti-

lishi oqibatida yetkazilayotgan zararining tobora ortib borayotganligi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasini yanada kengroq o'rganish va tahlil qilishni talab etmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi A. Gutterish tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, jahon hamjamiyatida har yili 1 trillion AQSh dollari hajmida pora berish va olish jinoyatlari sodir etilmoqda. Dunyo iqtisodiyotiga har yili korrupsiya tufayli 2,6 trillion AQSh dollaridan ortiq zarar yetkazilmoqda, bu esa jahon yalpi ichki mahsulotining 5 foizini tashkil etadi [1].

Korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlar bugungi kunda nafaqat davlat boshqaruvi sohasida, balki xususiy sektorda ham ko'p uchramoqda, iqtisodiyot tarmoqlarida turli zamonaviy ko'rinishlari yuzaga kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat iqtisodiy salohiyati, erkin raqobat muhiti cheklanishi va boshqa bozor iqtisodiyoti qonunlariga zid bo'lgan holatlarning yuzaga kelishiga olib keladi.

Bugungi xalqaro hamjamiyat davlat va nodavlat sektorda korrupsion risklarning oldini olish, ularning yuzaga kelish ehtimollarini oldindan aniqlash va tegishli chora va mexanizmlarni joriy etishda komplaens nazorat tizimiga keng ahamiyat bermoqda. Statistik manbalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Baker McKenzie xalqaro tashkilotining 2019-yilda bayon qilgan ma'lumotlarida mazkur davrga kelib, 180 dan ortiq mamlakatlarga korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi tatbiq etilganligi qayd qilingan [2].

Turli yillarda olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, komplaens nazorat organlari korrupsiyaga qarshi muhim agentlik sifatida tavsiflangan bo'lsa-da [3, 1320-b.], bu nazariyani rad etadigan tadqiqotlar ham amalga oshirilgan [4].

Shu nuqtayi nazardan, avvalo, o'zining huquqiy asoslariga ega bo'lgan korrupsiyaga qarshi mexanizmlar, jumladan, komplaens nazorat tizimini faoliyatga samarali tatbiq etish bo'yicha ilmiy amaliyotlarni o'rganish,

bu borada ilmiy-fundamental asoslar ishlab chiqish va xulosalar shakllantirish, shundan so'ng ichki nazorat tizimlari faoliyatini takomillashtirish orqali davlat sektori va iqtisodiyot tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash lozim.

Material va metodlar

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish davomida o'rganiladigan va tadqiq etiladigan soha sifatida davlat va nodavlat sektor tanlanib, ularda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha mavjud real amaliyotni o'rganish, xorijiy-qiyosiy tahlilini amalga oshirish, mavjud huquqiy asoslarini tahlil qilish va takliflar shakllantirish asosiy vazifa sifatida belgilab olindi.

Tadqiqot ishida tizimli tahlil qilish, tarixiy, holatlarni xalqaro manbalar asosida taqqoslash, ilmiy asoslantirish va isbotlash, tizimli-mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya, statistik ma'lumotlar tahlili kabi metodlar qo'llanilgan. Xususan, mavzu predmeti va tadqiqot obyekti milliy huquqiy normalar asosida tizimli tahlil etilgan.

Mavjud holatlar va komplaens nazorat tizimining rivojlanishi tarixiy metod asosida asoslab berilgan. Ilgari surilgan g'oya va tendensiyalar milliy va xorijiy manbalar asosida ilmiy isbotlangan. Qiyosiy nuqtayi nazardan o'zaro taqqoslanib, kompleks tahlil etilgan. Tadqiqot ishida ko'tarilgan masalalar real amaliyotdan kelib chiqib, statistik manbalar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalari

Rivojlangan mamlakatlar amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat va xususiy sektor ishtirokchilari, xo'jalik yurituvchi subyektlarning qonun hujjatlari va belgilangan standartlarga muvofiq faoliyat yuritishini ta'minlovchi samarali ichki nazorat tizimlaridan biri bu – korrupsiyaga qarshi kurashishda komplaens nazorat (compliance control) tizimining yo'lga qo'yilganligidir [5].

Mazkur tizimning tarixan yuzaga kelishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tizim ilk bor 1906-yilda AQShda oziq-ovqat mahsulotlari va dori vositalarini ishlab chiqaruvchi kompaniyalar faoliyatini nazorat qilish federal xizmati – FDA (Food and Drug Administration) tashkil etilishi bilan yuzaga kelgan [6, 54-b.].

Korrupsiyaga qarshi komplaens nazorat tizimi – bu davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar va ularning xodimlari faoliyatidagi korrupsiyaviy faoliyat sohaslarini aniqlash va bartaraf etish, ularning faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashishga oid xalqaro standart va tavsiyalar, milliy qonunchilik hujjatlari va ichki me'yorlarga muvofiqligini nazorat qilish hamda ta'minlashga qaratilgan universal profilaktik tizimdir [7].

2022-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni bilan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. Unda davlat va jamiyat hayotini yanada rivojlantirishga qaratilgan 100 ta ustuvor maqsadlar belgilanib, 83-maqsad sifatida davlat xizmatida halollik standartlarini joriy etish nazarda tutildi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 4-maqsadi sifatida davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi vujudga kelishini bartaraf etish, mazkur jarayonga keng jamoatchilikni jalb qilish, 84-maqsadi sifatida esa korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimi samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan muhosabat munosabatni shakllantirish nazarda tutildi, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga olib boradigan sohalar oldindan aniqlandi, ularni bartaraf etish bo'yicha preventiv choralar belgilandi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Xalq davlat idoralariga emas, davlat

idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan tamoyil davlat-huquqiy islohotlarda bosh g'oya bo'lib xizmat qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, davlat fuqarolik xizmatida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish va munosib hal qilishda komplaens nazorat mexanizmining o'rni kattadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6098-son Farmonida ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tashkilotlarda "komplaens nazorat tizimi"ni yo'lga qo'yish bo'yicha vazifalar belgilangan. Dunyo miqyosida 180 dan ortiq davlatlardagi (Janubiy Koreya, Latviya, Gongkong va Sloveniya h.k.) 50 000 dan ortiq xalqaro tashkilot va kompaniyalarda mazkur tizim joriy etilgan. Shuningdek, hozirda mamlakatimizning 26 ta vazirlik va idoralariga ham ushbu tizim tatbiq etilmoqda. Komplaens nazorat tizimida davlat organi faoliyatidan kelib chiqib, unda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsion xavflar aniqlanib, unga qarshi kurashish ichki nazorat tizimlari orqali amalga oshiriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini boshlash, faoliyat xususiyatlarini baholash, aniq vazifa va vakolatlar, shaxslar doirasi ni belgilash, monitoring qilish, korrupsiyani bartaraf etishning aniq tartib-taomillarini belgilash, ichki audit va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish mazkur tizimning asosiy xususiyatlarini tashkil etadi. Bu chora-tadbirlar davlat organi xususiyatidan kelib chiqib, ularning har birida alohida-alohida amalga oshiriladi. Bu tizim ko'plab rivojlangan davlatlarda, xususan, AQSh, Xitoy, Germaniya kabi davlatlarda ijobiy qo'llanilib, korrupsion xavflarga oldindan kurashish imkonini bergan.

Ilmiy adabiyotlarda komplaens nazorat tizimining davlat organlarida joriy etilishi ularning yaxlitlik, oshkoralik, ochiqlik va qonuniylik kabi umumiy prinsiplarga ko'ra faoliyat yuritishiga xizmat qilishi, shuning-

dek, davlat tashkilotlarida korrupsiya natijasida kelib chiqadigan ortiqcha xarajatlar, xavf-xatarlar, zarar va ziyonlarning oldini olish, shu bilan bir qatorda, fuqarolarda davlat organlariga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam berishi qayd etib o'tilgan [8, 236-b.].

Hozirda mazkur tizimni O'zbekiston Respublikasida, asosan, davlat organlariga tatbiq etish bo'yicha amaliy harakatlar boshlangan. Masalan, 2020-yilda Bosh prokuratura tomonidan 9 ta davlat idoralari (Transport, Maktabgacha ta'lim, Ichki ishlar, Energetika hamda boshqa vazirlik va idoralar) bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan Yo'l xaritasida aynan ichki nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kelishib olingan.

Lekin bugungi kunda mamlakatimizda mazkur tizimni qo'llash bo'yicha bevosita amal qiluvchi huquqiy asos va mexanizmlar to'liq yaratilmaganligi, monitoring va nazoratini olib boruvchi maxsus organning belgilanmaganligi hamda tizim faoliyatini yuritish uchun xodimlarni o'z tashkilotidan lavozimga qo'yilishi borasida kamchiliklar mavjud. Bu borada, fikrimizcha, komplaens nazorat tizimini samarali joriy etishda, avvalo, normativ-huquqiy bazani shakllantirish va amalga oshirish mexanizmlarini belgilash maqsadga muvofiq. Fikrimizning tasdig'i sifatida bu tizim samara bergan davlatlarda normativ asoslar, masalan, Xorijiy korrupsiya amaliyoti Akti (Foreign Corrupt Practices Act, 1977), Sarbeynz-Oksli Aktlari (Sarbanes-Oxley Act of 2002 – AQSh), Poraxo'rlikka qarshi kurashish to'g'risidagi Qonunni qo'llash yuzasidan uslubiy tavsiyalar (Guidelines for the application of the Law on Combating Corruption – Buyuk Britaniya) ishlab chiqilganligini keltirib o'tishimiz mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, mutaxassis va olimlar tomonidan qayd etilganidek, davlat idoralari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi komplaens nazorat xizmati faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini ishlab chiqish, bunda komplaens nazorat xizmati

faoliyatini muvofiqlashtirish, tizimda faoliyat yurituvchi xodimlar malakasini oshirishda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini va-kolatli organ sifatida belgilash ham kun tartibidagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi [9, 20-b.].

Bu borada xorijlik olimlarning fikrlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Rose-Akerman korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchasiga, avvalo, davlat va xususiy sektorda kelib chiqadigan moliyaviy huquqbuzarliklarni institutsional jihatdan aniqlash va bartaraf etish faoliyati sifatida baho berib, bu mexanizmini amalga oshirishni korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va keyinchalik jazoga tortish faoliyati orqali tartibga solish mumkinligini qayd etib o'tadi [10]. Yana bir olim Vito Tanzi esa korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini byurokratik tashkilotlarda ichki kuzatuv bo'linmalarini tuzish, xabar beruvchilarni himoya qilish hamda korrupsiyaga yo'l qo'yayotgan shaxslarni ta'qib qilish orqali samarali amalga oshirish mumkin [11], deb hisoblaydi.

Fikrimizcha, aynan davlat fuqarolik xizmatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha faoliyatni huquqiy tartibga solishda komplaens nazorat tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada, huquqshunos olim to'g'ri ta'kidlaganidek, korrupsiyaga qarshi kurash va uning oldini olish bo'yicha aniq maqsad va vazifalarni nazarda tutgan komplaens nazorat bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish lozim. Hatto mehnat shartnomalarida manfaatlar to'qnashuvi borasida korrupsiyaga qarshi qoidalarini kiritish, korrupsiyaning oldini olish bilan bog'liq majburiyatlarni aks ettirish maqsadga muvofiq [12, 125-b.].

Davlat va nodavlat sektorda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining eng minimal darajada bo'lishi, avvalo, kadrlar salohiyati va holatiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tizimni takomillashtirishda shaxsning individual kasbiy sifatlarini obyektiv baholash, ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish

tizimini kuchaytirish, tanlov jarayonlarida jamoatchilik vakillari, ommaviy axborot vositalarini jalb etish va barcha jarayonlarni Internet tarmog'ida translyatsiya qilish lozim. Bu jarayonda, albatta, komplaens nazorat organlari subyektlari ishtirokini ta'minlash, mehnat faoliyatini boshlagan davlat xizmatchilari faoliyatini monitoring qilish funksiyasini ham komplaens nazorat organlari xodimlarining asosiy xizmat vazifasi sifatida belgilash zarur.

Qayd etish kerakki, komplaens nazorat organlari faoliyati ham davlat xizmatini amalga oshirish jarayonidagi masalalar bilan bir qatorda, har bir fuqaro, jamoatchilik nazorati ostida bo'lishi kerak. Fuqarolarning siyosiy faolligi oshishi, sohada kuzatilayotgan noqonuniy xatti-harakatlarga beparvo bo'lmaslik, Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi markaziy o'ringa chiqishi lozim. Bu borada komplaens nazorat organlari murojaatlar bilan ishlash va ularni hal qilishda, shuningdek, ular faoliyati ustidan kelgan shikoyatlarni ham mustaqil organ tomonidan ko'rib, adolatli hal qilinishi tizim rivojiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari

Bundan tashqari, jahon ilmiy manbalari tahliliga e'tibor qaratilsa, xalqaro adabiyotlar korrupsiyaning ko'p qirrali hodisa ekanligini tobora ko'p ta'kidlamog'da. Bu bir qancha mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi qat'iy va jiddiy qoidalar qabul qilinganiga qaramay, mazkur illat hali ham mavjud. Ilm-fan va dunyo amaliyotida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining butunlay oldini oladigan hamda ijobiy yutuqlarga olib keladigan yagona konsepsiya, taksonomiyalar va nazorat organlari nomalari qayd etilmagan [13, 250-b.]. Bunga asosiy sabab sifatida esa ularning turli ko'rinishlari mavjudligi ko'rsatiladi.

Masalan, ayrim olimlar guruhi [14] korrupsiya elementlariga asosiy e'tibor qaratib, uning asosiy xususiyati sifatida shaxsiy

daromad olish uchun qoidalar va normalarni buzish ekanligini ta'kidlasa, boshqa olimlar guruhi ikkinchi darajali korrupsiya sifatida tavsiflangan shaxsiy manfaatlar uchun nafaqat daromad, balki turli ko'rinishlardagi manfaatdorlik ham umumiy obyekt bo'lishi mumkinligi, unga qarshi audit tizimlarini joriy etish zarurligini keltirib o'tadi [15, 445-b.].

Shaxsiy manfaatlar uchun hokimiyatni suiiste'mol qilish sifatida ta'riflangan korrupsiya turli davlat tashkilotlari, notijorat agentliklar, xususi kompaniyalar va hatto diniy tashkilotlarda ham keng tarqalgan [16, 130-b.].

Boshqa olimlar guruhi esa [17, 10-b.] korrupsiyaning sabablari va ildizlari, uning turli shakllarining (masalan, poraxo'rlik, tovlamachilik, ta'sir o'tkazish, qarindosh-urug'chilik, mulkni o'g'irlash va boshqa) oldini olish institutsional, tashkiliy va individual darajada amalga oshiriladigan mexanizm hisoblanishini aytib o'tadi. Mazkur fikrlarni davom ettirgan olimlar guruhi esa institutsional tizimda turli audit tashkilotlari va ichki nazorat mexanizmlarini tashkil etishni taklif etadilar [18, 15-b.].

Xorijlik olimlarning ilmiy adabiyotlarini tahlil qilgan holda aytadigan bo'lsak, davlat sektorida komplaens nazorat tizimi korrupsiyani nazorat qilish va to'xtatishni hal qilishda sezilarli hissa qo'shgan [19]. Yana bir guruh olimlar esa komplaens nazorat tizimi tashkilotlarining tergov idoralari bilan hamkorlik qilishi va audit natijalari haqida jamoatchilikni xabardor qilishi, bu borada ommaviy axborot vositalari bilan aloqalarni mustahkamlashi korrupsiyaga qarshi kurashda muhim rol o'ynashini aytib o'tadilar [20, 513-b.].

Yana bir olimlar guruhi ham komplaens nazorat tizimi tashkilotlari markaziy va mahalliy hokimiyat organlarining mansabdor shaxslari va davlat xizmatchilari qonunga muvofiq harakat qilishlarini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi, deb baholaydi [21, 10-b.].


Ikkinchi guruh olimlari tomonidan olib borilgan boshqa tadqiqotlar esa nodavlat sek-

tordagi komplaens nazorat tizimining korrupsiyaga qarshi kurashishda samaradorligi bilan bog'liq jiddiy xavotirlarni ko'rsatadi.

Sikka va Lehman ma'lumotlariga ko'ra, auditorlik tashkilotlari foydaga yo'naltirilgan korporatsiyalar va yirik xalqaro biznesning tizimli tabiati nuqtayi nazaridan korrupsiyaning to'liq oldini olmaydi [22, 66-b.]. Bu bora da olimning fikrlariga qisman qo'shilish mum-

kin, daromad va asosiy masala foyda olishga qaratilgan faoliyatda tashqi xavflar e'tibordan chetda qolishi va asosiy masala biznesni takomillashtirishga yo'naltirilishi mumkin.

Aynan mazkur masala yuzasidan MDH mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagi faoliyat sohalarida komplaens nazoratni joriy etish samarali ekanligi aytib o'tiladi.



1-rasm. MDH mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, komplaens nazoratni joriy etish samarali ekanligi qayd etilgan faoliyat sohalar

Ta'kidlash kerakki, avvalo, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat va no-davlat tashkilotlari faoliyatida komplaens nazorat tizimini samarali tashkil etishda uning huquqiy asoslarini mustahkamlash

muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, davlat va jamiyat hayotini takomillashtirish jarayonida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ularda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini bar-

taraf etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilab berilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda alohida ahamiyat kasb etadigan komplaens nazorat tizimi milliy huquq tizimiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-sonli Farmoni asosida kirib kelgan. Mazkur Farmon bilan tasdiqlangan "2019–2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturi"ning 21-bandida ustav jamg'armasida davlat ulushi bo'lgan tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish choralari kuchaytirish maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashish komplaens nazorat tizimini joriy etish va uning samaradorligining tizimli monitoringini amalga oshirish vazifasi belgilandi. Korrupsiyaga qarshi kurashish komplaens nazorat tizimi aynan shu nom bilan mazkur hujjatda birinchi marta aks etdi.

Mazkur hujjat asosida 2019-yildan boshlab BMT Taraqqiyot dasturining "O'zbekistonda samarali, hisob beruvchi va oshkora boshqaruv institutlari orqali korrupsiyaga qarshi kurashish" loyihasini amalga oshirish doirasida mas'ul idoralar bilan hamkorlikda va faoliyatlarining o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqib, ustav jamg'armasida 100% yoki 50% dan yuqori bo'lgan davlat ulushi mavjud bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va davlat tashkilotlari, shuningdek, tashqi bozorlarda faoliyat yuritadigan yoki chet ellik sheriklari bo'lgan yirik kompaniyalarda tajriba loyiha tariqasida korrupsiya xavflarini aniqlash va ularning oldini olish bo'yicha komplaens nazorat tizimini joriy etish vazifasi belgilandi.

Umuman olganda, xususiy sektorda komplaens nazorat tizimini samarali tashkil etishda kadrlar masalasi alohida o'rin tutadi. Bugungi kunda aksariyat tashkilotlarda joriy etilgan mazkur tizimda shu tashkilot xodimlari ishga qabul qilinadi. Bu faoliyatning ochiq va shaffof bo'lishini real xavf ostiga qo'yishi mumkin. Shu sababli boshqa tashkilot vakil-

lari, jamoatchilik vakillari xalqaro kuzatuvchi va ekspertlarni ham faoliyatga jalb etish hamda monitoringini olib borish lozim.

Bundan tashqari, xususiy sektorda tanlovlar, auksion va davlat xaridlari, tenderlar o'tkazishda korrupsion huquqbuzarlik va manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlar yuzaga kelishi mumkin. Shartnomalar, konteragentlarni tanlashda tanish-bilishchilik holatlari yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli komplaens nazorat tizimining bir faoliyat yo'nalishi sifatida yuqorida sanab o'tilgan holatlarni ham belgilash, tizimni raqamlashtirish va inson omili aralashuvini qisqartirish lozim.

Qayd etish kerakki, komplaens nazorat tizimi faoliyatida raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada xorijiy amaliyotga e'tibor qaratadigan bo'lsak, davlat boshqaruvida raqamlashtirishni tatbiq etish borasida har bir davlat o'zining strategik loyihalarini amalga oshirmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada – UK Digital Strategy, Fransiya – France Digitale, Qozog'istonda – Digital Kazakstan, Rossiyada – Sifrovaya Rossiya kabi qator loyihalar olib borilmoqda [23, 42-b.].

Shu sababli kelajakdagi norma ijodkorligi faoliyatida mamlakatimizda "Raqamlashtirishning minimum talabi"ni ishlab chiqish va faoliyatni raqamlashtirish funksiyalarini inson omilidan xoli ravishda amalga oshirish lozim va bu, o'z navbatida, korrupsiya ko'rinishlarining oldini olishga imkon beradi.

Xulosalar

Xulosa qilishimiz mumkinki, butun dunyo tajribasida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, barvaqt aniqlash, sohalar kesimida muammoga yondashish nuqtayi nazaridan komplaens nazorat tizimi asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Lekin tadqiqot natijasida aniq bo'ldiki, bugungi kunga qadar qabul qilingan normativ asoslar faqat komplaens nazorat tizimini joriy etishga qaratilgan rahbariy ko'rsatma va vazifalarni belgilash xususiyatiga ega bo'lib, bevosita faoliyatni tartibga solish masalalarini belgilamaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda komplaens nazorat tizimini joriy etish bo'yicha normativ asoslar va mexanizmlar to'liq yaratilmaganligi, bu sohada vakolatli organning belgilanmaganligi va tizim faoliyatini yuritish uchun xodimlarni o'z tashkilotidan lavozimga qo'yilishi borasida kamchiliklar mavjudligi aniqlanib, bu borada maxsus normativ hujjat loyihasini ishlab chiqish va barcha davlat organlarida komplaens-nazorat tizimini yo'lga qo'yish lozim.

Komplaens nazorati organlari tomonidan mustaqil agentliklar, auditorlar va xoriy mamlakatlar tashkilotlari ekspertlarini jalb etgan holda, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq xavf-xatarlarga eng ko'p duch keladigan davlat xizmatchilari faoliyat sohalari va lavozimlari ro'yxatini shakllantirish, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashishning joriy holati bo'yicha ichki audit tekshiruvlarini o'tkazib borish amaliyotini joriy etish, bugungi kunga qadar "komplaens-nazorat" tizimi faqat ayrim davlat organlarining markaziy apparatida joriy etilayotganligidan kelib chiqib, barcha davlat xizmati organlarida ham mazkur tizimni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tashkilotning vazifa va vakolatlari xususiyatidan kelib chiqib, faoliyatni elektronlashtirish, xususan, mobil dastur va platformalar yaratish, onlayn davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini kuchaytirish, tartiblarni soddalashtirish asosida inson omili va byurokratik to'siqlarni kamaytirish, sun'iy intellektga asoslangan dasturlar orqali davlat xizmatchilarining vazifalarini optimallashtirish, shuningdek, internet saytlari, maxsus bot va messenjerlar orqali xodimlarga baho berish tizimini yo'lga qo'yish lozim.

Zamonaviy davlat xizmatchilarini tayyorlashda uning shaxsiy fazilatlari (odob-axloqi, etikasi, lavozim va mansab yo'riqnomalari, shuningdek davlat xizmati organining ichki tartiblariga amal qilishi) muhim ahamiyatga ega. Shu bois kasbiy faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llagan holda, vazifa va funksiyalarni optimallashtirishi, ortiqcha mablag'larni tejash hamda vakolatlarni inson omilidan xoli tarzda amalga oshirish bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarini inobatga olish lozim. Shu jumladan, davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholash yuzasidan belgilanadigan indikatorlarda yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlarni ham qayd etish maqsadga muvofiq.

REFERENCES

1. Corruption is costing the global economy \$3.6 trillion dollars every year. 2018. Available at: <https://www.weforum.org/agenda/2018/12/the-global-economy-loses-3-6-trillion-to-corruption-each-year/>.
2. Korrupsiyaga qarshi kurashishda ichki nazorat tizimi [Internal control system in the fight against corruption]. «Huquq» gazetasi – Huquq newspaper. Available at: <https://www.huquq.uz/2020/07/23/korrupsiyaga-arshi-kurashishda-ichki-nazorat-tizimi/>.
3. Gustavson M., Sundstrom A. Organizing the audit society: Does good auditing generate less public sector corruption? *Administration & Society*, 2016, no. 50 (10), pp. 1508-1532.
4. Reichborn-Kjennerud K., Gonzalez Díaz B., Bracci E., Carrington T., Hathaway J., Jeppesen K.K., Steccolini I. Sais work against corruption in Scandinavian. *South-European and African countries: An institutional analysis The British Accounting Review*, 2019, no. 51 (5), p. 100842.
5. Johnston M. Syndromes of compliance. Colgate University, New York, Cambridge University Press, 2009, September. Available at: <https://www.cambridge.org/>.
6. Martin Kling History of Compliance–Part one, from Adam to Sarbanes Oxley History of Compliance–Part one, from Adam to Sarbanes Oxley ey. 2017, p. 54. Available at: <https://www.ariscommunity.com/>.

7. Shukurov R. Korrupsiyaga qarshi komplaens nazorat nima? [What is the compliance control against corruption?]. Available at: <https://zarnews.uz/post/korruciyaga-qarshi-komplaens-nazorat-tizimi-nima/>.
8. Safarov T. Davlat organlarida korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish – soha taraqqiyotining muhim omili [Elimination of corruption in government authorities is an important factor in the development of activity]. *Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Legal Sciences*, Tashkent, 2020, p. 236.
9. Burxonov A., Xayitov X. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi islohotlar yangi bosqichda [Anti-corruption reforms in Uzbekistan are at a new stage]. *Jamiyat va boshqaruv jurnali – Journal of Society and Management*, Tashkent, 2021, no. 4, p. 20. Available at: https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=FS08DqIAAAJ&citation_for_view=FS08DqIAAAJ:Y0pCki6q_DkC/.
10. Rose-Ackerman S. Democracy and Grand Corruption. The Conference on Democracy and Corruption, Shelby Cullom Davis Center for Historical Studies Princeton University, Princeton, NJ, 1999, March 12.
11. Tanzi V. Corruption around the World: Causes, Consequences, Scope, and Cures, in Governance, Corruption & Economic Performance. Ed. G.T. Abed, G. Sanjeev. Washington, DC, International Monetary Fund, 2002.
12. Muqimova M.Z. Komplaens nazorat – korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining yo'nalishlaridan biri sifatida [Compliance control as one of the directions of the anti-corruption system]. *Introduction of anti-corruption and compliance control system: problems and prospects of development. Collection of materials of the international online scientific-practical seminar*, Tashkent, TSUL, 2020, p. 125.
13. Johnston M. Syndromes of corruption: Wealth, power, and democracy. Cambridge University Press, 2005.
14. Zyglidopoulos S., Hirsch P., Martin de Holan P., Phillips N. Expanding research on corporate corruption, management, and organizations. *Journal of Management Inquiry*, 2017, no. 26 (3), pp. 247-253.
15. Cooper D.J., Dacin T., Palmer D. Fraud in accounting, organizations and society: Extending the boundaries of research. *Accounting, Organizations and Society*, 2013, no. 38 (6), pp. 440-457.
16. Nielsen R.P. Corruption networks and implications for ethical corruption reform *Journal of Business Ethics*, 2003, no. 42 (2), pp. 125-149.
17. Rodrigues C.C., Barros A. From caciques and godfathers to second-order corruption. *Journal of Management Inquiry*, 2020, pp. 1-15.
18. Rose-Ackerman S. Judicial independence and corruption. *Transparency International, Global Corruption Report*, 2007, pp. 15-24.
19. Jeppesen K.K. The role of auditing in the fight against corruption. *British Accounting Review*, 2018, no. 51 (5), p. 100798.
20. Everett J., Neu D., Rahaman A.S. Accounting and the global fight against corruption. *Accounting, Organizations and Society*, 2007, no. 32 (6), pp. 513-542.
21. Hay D., Cordery C. The value of public sector audit: Literature and history. *Journal of Accounting Literature*, 2018, no. 40, pp. 1-15.
22. Sikka P., Lehman G. The supply-side of corruption and limits to preventing corruption within government procurement and constructing ethical subjects. *Critical Perspectives on Accounting*, 2015, no. 28, pp. 62-70.
23. Muhammadiyev U.I., Xayitov X.S. Qonun ustuvorligini ta'minlashda zamonaviy mexanizmlarning yaratilishi [Creation of modern mechanisms to ensure the rule of law]. *Yurisprudensiya – Jurisprudence*, Tashkent, TSUL, 2021, no. 6, p. 42. Available at: https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=FS08DqIAAAJ&citation_for_view=FS08DqIAAAJ:qjMakFHDy7sC/.
24. Johnston M. Corruption and Democratic Consolidation. *The Conference on Democracy and Corruption*, Shelby Cullom Davis Center for Historical Studies Princeton University, Princeton, NJ, 1999, March 12.

UDC: 351.342

DISCUSSION OF THE DRAFT OF THE LAW “ON STATE CIVIL SERVICE” FOR THE PURPOSE OF ITS IMPROVEMENT

Rakhimov Dilmurodjon Gulomjon ugli,

Doctoral Student of Academy of Public Administration
under the President of the Republic of Uzbekistan

ORCID: 0000-0002-9788-5698

e-mail: drakhimov95@gmail.com

Abstract. In the Republic of Uzbekistan, the public service is functionally divided into the special service of the state and the civil service. The special service of the state is regulated by laws that apply to each area. However, the activities of civil servants are not regulated by a single law. The Agency for Development of Public Service under the President of the Republic of Uzbekistan has developed a draft of the law “On Civil Service” in 2020, which is currently being discussed by the chambers of Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. Therefore, the main purpose of the article is to analyze the draft law of the Republic of Uzbekistan “On Civil Service” in detail and recommend proposals for its improvement. The need to regulate the legal status of civil servants in the Republic of Uzbekistan by law is based on the views of scientists, government programs and the views of the head of state. The draft of the law “On Civil Service” was analysed item by item in accordance with the provisions of the Labor Code and other legislation of the Republic of Uzbekistan. The experience of countries such as Russia and Kazakhstan in the legal regulation of the civil service was studied. The study developed a number of practical proposals and recommendations based on the theories of local and foreign scientists, the analysis and interaction of the legislation of the Republic as well as the experience of foreign countries.

Keywords: civil service, state civil service, civil servant, law, bill, legal status, special service, civil service classification.

“DAVLAT FUQAROLIK XIZMATI TO‘G‘RISIDA”GI QONUN LOYIHASINI TAKOMILLASHTIRISH MUHOKAMASI

Rahimov Dilmurodjon G‘ulomjon o‘g‘li,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat boshqaruvi akademiyasi tayanch doktoranti

Annotatsiya. O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmati funksional jihatdan davlatning maxsus xizmati va davlat fuqarolik xizmatiga bo‘lingan. Davlatning maxsus xizmati har bir sohaga taalluqli bo‘lgan qonunlar asosida tartibga solinadi. Ammo davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati yagona qonun bilan tartibga solinmagan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan 2020-yilda “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, bugungi kunda mazkur qonun loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari tomonidan muhokama qilinmoqda. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun loyihasini batafsil tahlil qilish va uni takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ilgari surish maqolaning asosiy maqsadi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy maqomini qonun bilan tartibga solishning zaruriyati olimlarning qarashlari, davlat dasturlari va davlat rahbari

fikrlariga ko'ra asoslantirilgan. "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun loyihasi O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi va boshqa qonun hujjatlari normalariga moslashtirilishi moddama-modda ko'rib chiqilgan. Davlat xizmatini huquqiy tartibga solish bo'yicha Rossiya, Qozog'iston kabi mamlakatlar tajribasi o'rganilgan. Tadqiqotda mahalliy va xorijiy olimlarning nazariyalari, respublikamiz qonunchiligi tahlili va o'zaro nisbati hamda xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, bir qancha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat xizmati, davlat fuqarolik xizmati, davlat xizmatchisi, qonun, qonun loyihasi, huquqiy maqom, maxsus xizmat, davlat xizmati tasnifi.

ОБСУЖДЕНИЕ ПРОЕКТА ЗАКОНА «О ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАЖДАНСКОЙ СЛУЖБЕ» В ЦЕЛЯХ ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Рахимов Дилмуроджон Гуломжон угли,
базовый докторант Академии государственного
управления при Президенте Республики Узбекистан

Аннотация. В Республике Узбекистан государственная служба функционально подразделяется на государственную специальную службу и государственную гражданскую службу. Государственная специальная служба регулируется законами, применимыми к каждой сфере. Однако деятельность государственных гражданских служащих не регулируется единым законом. В 2020 году Агентство по развитию государственной службы при Президенте Республики Узбекистан разработало проект Закона «О государственной гражданской службе», который в настоящее время находится на рассмотрении палат Олий Мажлиса Республики Узбекистан. Поэтому основной целью статьи является подробный анализ проекта Закона Республики Узбекистан «О государственной гражданской службе» и выдвижение предложений по его совершенствованию. Необходимость законодательного регулирования правового положения государственных гражданских служащих в Республике Узбекистан основывается на мнениях ученых, государственных программах и взглядах главы государства. Проект Закона «О государственной гражданской службе» рассмотрен постатейно в соответствии с положениями Трудового кодекса и другого законодательства Республики Узбекистан. Изучен опыт таких стран, как Россия и Казахстан, в правовом регулировании государственной службы. В ходе исследования разработан ряд практических предложений и рекомендаций на основе теорий отечественных и зарубежных ученых, анализа и взаимодействия законодательства республики, а также опыта зарубежных стран.

Ключевые слова: государственная служба, государственная гражданская служба, государственный служащий, закон, законопроект, правовой статус, специальная служба, классификация государственной службы.

Introduction

In the process of improving public administration in Uzbekistan, special attention is paid to the reform of the civil service. After all, public administration will improve only if the civil service is provided with qualified, honest, patriotic and loyal personnel. The main living force that drives public administration is civil servants. In this regard, it is important to create and improve the legal framework of the civil service.

President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev in his speech at the VIII Congress of the Liberal Democratic Party of Uzbekistan on October 19, 2016, said: "It is no secret that despite the fact that many civil servants have a great responsibility, their working day and workweek are not clearly defined. World experience shows that before setting high standards for civil servants, it is necessary to strengthen their rights with a system of guarantees and protection. Given

the urgency of the issue, it is time to pass a law on the civil service" [1].

The Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-4947 on February 7, 2017 "On the Strategy for further development of the Republic of Uzbekistan" and the "Concept of Administrative Reforms in the Republic of Uzbekistan" approved on September 8, 2017, identified public service reform as a priority.

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 3, 2019 PD-5843 "On measures to radically improve the personnel policy and the system of civil service in the Republic of Uzbekistan" identified areas for development of the civil service. The decree stipulates that military service in the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan and service in law enforcement agencies are special services of the state and are regulated by separate legislation. In order to fundamentally regulate the civil service, it is planned to adopt a law "On Civil Service".

Presidential Decree No. PR-4472 "On measures to organize the activities of the Agency for Development of Public Service Development under the President of the Republic of Uzbekistan" established a body responsible for the implementation of a unified state personnel policy.

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-60 of January 28, 2022 "On the Development Strategy of the New Uzbekistan for 2022-2026" was adopted. The number of priorities in the Development Strategy, which is a logical continuation of the Action Strategy, has been increased to 7, and a program for the development of our country until 2026 has been created within the framework of 100 goals. 10th goal of the Development Strategy is defined as "Organization of the civil service system on the basis of modern standards".

It should be noted that the Agency for Development of Public Service Development under the President of the Republic of

Uzbekistan has developed a draft of the law "On Civil Service" [2], which is currently being further improved by the chambers of the Oliy Majlis.

The scientist Sh. Ismoilov considers the development of the draft of the law "On Civil Service" and its discussion by the Oliy Majlis as an important result [3].

According to J.Nematov, the law should provide for the recruitment of civil servants on the basis of a single selection system, clear criteria for growth, rotation, disciplinary action and dismissal, clear terms and mechanisms of remuneration free from various subjective factors. The system should be such that all legal guarantees are established for the correct, fair and quality work of civil servants within the law [4].

It is in this process that the purpose of the study is to serve to improve the bill by making suggestions and recommendations.

In most foreign countries, service contracts are concluded with civil servants. In our country, the practice of "service contract" is used in the field of special services of the state. According to Article 18 of the Labor Code of the Republic of Uzbekistan, "the features of the regulation of labor of civil servants are determined by law". If the sectoral legislation does not take the regulation of all labor relations into account, then it can be concluded that the Labor Code of the Republic of Uzbekistan is applied. If we pay attention to the content of the bill, it is stipulated that civil servants work on the basis of an employment contract. This is because Article 28 of the draft law deals with the issue of employment contracts with civil servants. In this regard, it is proposed to include in Article 2 "Legislation on civil service" of the draft law a provision that "labor relations of civil servants not provided for in this law are regulated by the Labor Code and labor legislation of the Republic of Uzbekistan". The views of scientists Kh. Khayitov and B. Alimov are also

important in this regard. According to them, the special legislation on the civil service reflects the specifics of the organization of labor of civil servants. It is also possible to ensure an integral connection between labor relations that are not covered by a specific law by referring to labor law [5, p. 23].

It is advisable to conclude a service contract with civil servants in the political sphere. According to the law, when the executive government changes, the entire composition resigns. It includes ministers, chairmen of state committees, directors of agencies and centers. It is expedient to conclude a service contract with them, not an employment contract. The scientist Kh. Khayitov also proposes to include the concept of "service contract" in the bill. In his opinion, depending on the position held by civil servants, it is necessary to include norms governing their contractual relations, which reflect the rights and obligations, duties and functions within the position, oath, privileges, social protection, liability [6].

Article 3 of the bill deals with the application of the law. It is known that Decree No. 5843 of October 3, 2019 "On measures to radically improve the system of personnel policy and civil service in the Republic of Uzbekistan" stipulates that the civil service consists of special state service and a state civil service. The decree states that service in law enforcement agencies and military service in the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan is a special service of the state and is regulated by separate legislation. For this reason, it is advisable to clearly define the scope of "law enforcement agencies" in law. The reason is that no legal document specifies which types of public services are included in the "law enforcement agencies". From a scientific and theoretical point of view, the following state bodies can be included in the system of law enforcement agencies of the Republic of Uzbekistan today: prosecutor's

office, judiciary, internal affairs bodies, state customs service, state security service, National Guard, fight against economic crimes under the General Prosecutor's Office and the Bureau of Enforcement under the General Prosecutor's Office. For this reason, it is expedient to include in the list of "law enforcement agencies" the proposed state security agencies, customs, and tax services. All of these areas are regulated by sectoral laws that apply to them.

In the "Basic Concepts" section of the draft law, the concept of "public service" should be explained. It should be noted that no normative legal document defines the concept of "public service". Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 3, 2019 No 5843 "On measures to radically improve the personnel policy and the system of civil service in the Republic of Uzbekistan" stipulates that the civil service consists of special service and civil service. But when this classification makes sense, it does not cover the activities of employees of representative bodies of state power. For this reason, it is proposed to include the type of public political service in the classification of public service. It is expedient that the state political service consists of positions in the representative bodies of state power and positions included in the nomenclature of the President of the Republic of Uzbekistan. In our opinion, the concept of "public service" in the law can be interpreted as follows: "public service is a professional activity in public bodies aimed at the implementation of the tasks and functions of the state by citizens who receive payment for their work and services from the state budget. The civil service in the Republic of Uzbekistan consists of the following types: political service, special service, civil service". Doctor of Law, Professor Sh. Asadov points to the separation of powers in Uzbekistan as one of the hallmarks of a multi-level government. Naturally, the civil service can

also be classified based on the principle of separation of powers [7, p. 9]. At this point, it is possible to propose the introduction of a political service of the state. It should consist of the positions appointed and dismissed by the President and the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, as well as the deputies of the representative bodies.

The concept of “civil service” explained in the “Basic Concepts” section of the draft law logically implies the concept of “public service”. Therefore, it is appropriate to reinterpret the concept of “civil service”: “civil service is a type of public service, a professional activity aimed at the implementation of the tasks and functions defined in the positions included in the state register of civil service positions by citizens who receive payment for their labor and services from the state budget”.

Also, the concept of “qualification requirements” should be used in the “Basic Concepts” section of the project. It is also advisable to include in the concept the phrase “civil service position and civil service qualification.” In addition, the word “competence” in the concept should be replaced by the word “skill”. From a scientific and theoretical point of view, competence is a set of knowledge, skills and abilities. Therefore, it is appropriate to interpret the concept of “qualification requirements” as “requirements for education, work experience and knowledge and skills of candidates to hold a position in a particular civil service or to obtain a qualification level in the civil service.”

Article 5 of the bill is entitled “Basic principles of civil service”. It is proposed to expand the basic principles of civil service, based on scientific and theoretical views on the civil service, the Law of the Russian Federation “On Civil Service” (Article 4) [8] and the Law of Kazakhstan “On Civil Service” (Article 4) [9], the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan

dated March 2, 2016 “On approval of the standard rules of conduct for employees of executive authorities”. It should be noted that Article 4 of the Law of the Republic of Kazakhstan “On Civil Service” contains 20 principles as the main principles of public service. This article can be further expanded by the following principles:

- openness and transparency;
- collegialism;
- patriotism and devotion to duty;
- the commitment to the interests of the state and society;
- justice, fairness and impartiality;
- avoid conflicts of interest.
- accountability and responsibility of civil servants;
- the openness of information on the state civil service;
- protection of civil servants from illegal interference in their official activities.

Doctor of Law, Professor Sh. Asadov emphasizes that the exercise of state power and sovereignty depends directly on the capacity of personnel and the effective organization of the civil service. He proposes to include a number of important principles in the draft law “On Civil Service”. These are the unity of public service, patriotism and service to the people, legitimacy, proportionality, priority of rights and legitimate interests of individuals and legal entities, political neutrality, professionalism and competence, conscientiousness and devotion to duty, reasonable refusal of career opportunities, accountability of public service, equality of access to public service, social and legal protection of civil servants [10, p. 385].

Article 8 of the draft law lists the main functions of the authorized body for civil service. The Regulations of the Agency Development of Public Service under the President of the Republic of Uzbekistan, approved by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 3,

2019, No. PD-4472, define the main tasks of the Agency. At the same time, in accordance with the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 11, 2021, No. PD-6168 "On measures to radically improve the system of training and further capacity building of civil servants and specialists abroad", one of the main tasks of the Agency is to "assist in the organization of training of civil servants and specialists in prestigious educational, scientific and other institutions abroad". It is expedient that this function is reflected in the Law.

The eighth paragraph of the first part of Article 11 of the draft law defines the issue of maintaining public office and salary in case of sending for training by a state body and organization, as well as in other cases provided by law. This norm should be supplemented with the word "retraining". It should be noted that in accordance with the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated August 8, 2017, No. PD-5139 "On measures to further develop the system of training, retraining and advanced training of management staff at the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan", retraining of management staff is carried out on the basis of grants and payment-contract programs lasting up to one year, including without separation from production, and a diploma of the established form is issued.

Article 11 of the draft law is entitled "Rights of a Civil Servant" and lists 14 rights. However, the rights of a civil servant can be reflected more fully. Therefore, based on the scientific and theoretical views on the civil service, the Law of the Russian Federation "On Civil Service" (Article 14) [8] and the Law of Kazakhstan "On Civil Service" (Article 9) [9], it is proposed to expand the rights of civil servants by:

- to use of rights and freedoms guaranteed by the Constitution and laws of the Republic of Uzbekistan;

- incentives and remuneration of labor depending on the public position held, the quality of work (Key Performance Indicators), experience, level of qualifications and other grounds established by this Law;

- to demand an inspection of the civil servant in the presence of unfounded accusations in order to deny information that could damage their honor and reputation;

- determination of the normal duration of working hours, weekly days off, non-working holidays, as well as holidays provided with the provision of annual paid basic and additional leave;

- to receive in the prescribed manner information constituting a state secret, if the performance of official duties is associated with the use of such information;

- access to state bodies, local state authorities, public associations and other organizations in the prescribed manner in connection with the performance of official duties;

- protection of information on civil servants;

- to be a member of a trade union in order to protect their rights and socio-economic interests;

- to protect their rights and legitimate interests in the civil service, including appealing to the court on their violation;

- protection of the life and health of a civil servant, the life and health of family members, as well as property belonging to him by the state.

Also, in accordance with the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 31, 2020 No. 829 "On approval of the Regulation on the procedure for incentives for people who reported corruption offenses or otherwise assisted in the fight against corruption", it is proposed to include in the rights of a civil servant "legal protection and encouragement of a civil servant who reported a corruption

offense or otherwise assisted in the fight against corruption”.

It should be noted that the Law of the Russian Federation “On Civil Service” (Article 14) [8] and the Law of Kazakhstan “On Civil Service” (Article 9) [9] contain 18 rights as a civil servant.

Article 12 of the draft law deals with the issue of “obligations of a civil servant”. The article contains 12 obligations. For comparison, the Law of the Republic of Kazakhstan “On Civil Service” (Article 10) contains 16 obligations of a civil servant [9]. According to the Russian scientist S.Pchelinsev, the level of civil servants, the procedure for their appointment, the powers and responsibilities of the position will be systematized. The moral and professional competencies of a civil servant are described on the basis of general and individual requirements and standards set by the state [11].

Lawyer D. Bekchanov suggests that one of the important responsibilities of civil servants is to support the economy and entrepreneurship. According to him, it is the high entrepreneurial culture among entrepreneurs and civil servants that ensures the effective implementation of public policies aimed at supporting entrepreneurship [12, p. 231].

Based on scientific and theoretical views on the civil service, the experience of foreign countries such as Russia, Kazakhstan, it is proposed to expand this article with the following responsibilities of a civil servant:

- not to disclose and not require them to provide information related to the privacy, honor and dignity of citizens in the exercise of official powers, except as provided by the laws of the Republic of Uzbekistan;

- to immediately inform the higher management of the state body in which he/she operates or the competent state bodies about the corruption offenses committed or expected to be committed;

- prevention of corruption offenses by civil servants of subordinate state;

- maintaining and enhancing the professional competencies required for the effective performance of service duties;

- to inform the higher management of the state body in which he/she operates or the competent state bodies about personal interest in the performance of official duties that may lead to a conflict of interest, to take measures to prevent such a conflict;

- timely consideration of various appeals (applications, proposals and complaints of government agencies, citizens and legal entities) within its competence;

- strict adherence to the principles and requirements of the state in the performance of official duties;

- to perform their duties conscientiously, at a high professional level;

- to eliminate actions related to the influence of any personal property or other interests that impede the performance of their official duties;

- to comply with the restrictions and prohibitions established by normative legal acts and departmental documents, to perform their official duties without deviation;

- eliminate the possibility of any influence on their service activities;

- respect for the customs and traditions of the peoples of the Republic of Uzbekistan and other countries, taking into account the cultural and other characteristics of different ethnic, social groups and religions, promoting social stability, interethnic and interfaith harmony;

- to refrain from conduct that may arouse suspicion in the conscientious performance of their official duties, as well as to avoid situations that could damage their reputation or the authority of a public body;

- compliance with the established rules for the submission of messages and service information in a public body.

It can be said that the civil service system determines the scope of the law. Therefore, it is expedient to include in the concept of "Civil Service System" (Article 19) the processes of remuneration, incentives, certification, and performance appraisal of civil servants. Because they are also important stages of the civil service system. Therefore, this article can be worded as follows: "The system of civil service is a single set of centralized organizational and legal mechanisms including selection, registration, placement, remuneration, incentives, certification, performance appraisal, retraining, training and promotion of civil servants".

Article 24 of the draft law is entitled "Access to the civil service", which stipulates that access to the civil service is carried out through the appointment of a candidate to public office on the basis of open and independent competition. According to the law, heads of state bodies and their deputies are appointed and dismissed by the President and the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. In view of this practice, the second paragraph of Article 24 should be supplemented with the following paragraph: "No competition shall be held for public positions appointed and dismissed by the President and the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, as well as elected".

Lawyer F.Yuldasheva considers it expedient to add the following to Article 24: "The following people shall not pass the competition when entering the civil service: 1) appointed by the President of the Republic of Uzbekistan and the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan; 2) citizens with disabilities within the mandatory quota established by law; 3) graduates of "The El-Yurt Umidi" Foundation, who were purposefully educated on the basis of a tripartite agreement" [13, p. 152].

The law should define the issue of foreign citizens occupying the civil service of the Republic of Uzbekistan. In practice, it can be

observed that qualified, highly experienced foreign nationals work in the civil service of the Republic of Uzbekistan. Chapter 17 of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Employment" of October 10, 2020 is entitled "Labor activity of foreign citizens in the Republic of Uzbekistan", which defines the procedures for the employment of foreign citizens in the Republic of Uzbekistan. Article 15 of the Law of the Republic of Uzbekistan "On the legal status of foreign citizens and stateless people in the Republic of Uzbekistan" of June 4, 2021 is devoted to the labor rights of foreign citizens and stateless people. However, both laws do not specify the employment of foreign nationals in the civil service of the Republic of Uzbekistan. Therefore, the second paragraph of Article 25, entitled "Conditions for entry into the civil service" is proposed to be supplemented with the following norm: "Appointment of foreign citizens to certain positions in the civil service of the Republic of Uzbekistan is carried out in accordance with the decisions of the President and the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. The legal status of foreign specialists invited to work in government agencies is determined on a contractual basis".

According to the lawyer F. Yuldasheva, Article 28 of the draft law "On Civil Service" introduces the concept of "service contract", depending on the position of civil servants, their rights and obligations, duties and responsibilities, oath, benefits, social protection, responsibility it is necessary to determine the type of new contract that reflects the issues. "Service contract", as mentioned above, can be used in the appointment of foreign citizens to certain positions in the civil service of the Republic of Uzbekistan [13, p. 151].

Article 39 of the bill is entitled "Rotation of civil servants". Articles 78, 84, 116, 224, 228, 237 of the Labor Code of the Republic

of Uzbekistan provide certain benefits and guarantees for pregnant women and women with children under three years of age. Pregnant women and women with children under the age of three should be included in the list of non-rotating civil servants.

It is expedient to bring the grounds for termination of the civil service in line with the provisions of Chapter 6 of the Labor Code of the Republic of Uzbekistan "Termination of employment contract" (Articles 97-113). Therefore, it is proposed to add Article 59:

- changes in the organization of labor, reduction in the number of employees (staff) or the volume of work that led to a change in the nature of work or the termination of the state body;

- the civil servant is incompetent or unfit for the job due to their health condition;

- that a civil servant regularly violates their duties. Regular violation of duty is repeated misconduct by a civil servant within one year from the date of previous disciplinary or material liability of a civil servant for violation of labor duties or the application of sanctions under labor legislation and other regulations;

- a single gross violation of their job duties by a civil servant;

- in case of conscription of a civil servant to military or alternative service;

- in case of reinstatement of a former civil servant, as well as in case of expiration of the term of office of a deputy of the Legislative Chamber and a member of the Senate of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan or return to their previous position due to dissolution of the Legislative Chamber and Senate

- in the event that the sentence of a court convicting a civil servant enters into force, as a result of which the civil servant is deprived of the opportunity to continue his previous work, as well as the employee is sent to a specialized treatment and prevention institution;

- in connection with the violation of the rules of employment, if it is impossible to eliminate the violation and it prevents the continuation of work;

- in connection with the death of a civil servant.

In general, this law should be adopted as soon as possible. The reason is that today the number of civil servants is growing. This is due to the fact that the state civil service is organized in the mahallas.

First, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-29 of December 3, 2021 "On the priorities of state policy for the development of entrepreneurship, employment and poverty reduction in the neighborhood." According to the decree, the position of the assistant of district (city) khokims on the development of entrepreneurship, employment and poverty reduction has been introduced in the neighborhoods. In order to regulate the activities of khokim assistants, the Agency for Neighborhood Development and Entrepreneurship Development under the Ministry of Economic Development and Poverty Reduction of the Republic of Uzbekistan was established. That is, the post of khokim assistants was introduced as a civil servant of the state. 9311 khokim assistants have started their work in all regions of Uzbekistan. The largest number of khokim assistants was appointed in Samarkand (1120), Fergana (1055) and Tashkent regions (1014). Syrdarya (236), Jizzakh (299) and Navoi (330) had fewer khokim assistants than other regions [14].

Second, the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 19, 2022 No. 92 "On measures to radically improve the system of work with youth in the neighborhoods". In accordance with the resolution, the post of youth leader was introduced in each mahalla in order to introduce new

management mechanisms for working with young people, create a vertical system of work with them, solve youth problems directly in mahallas, further increase the effectiveness of spiritual and educational work in educational institutions. A total of 1,055 positions of youth leaders have been introduced in the country and transferred to the Agency for Youth Affairs.

Third, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-81 of March 1, 2022 "On measures to improve the system of work with families and women, support of neighborhoods and elders". According to the decree, the State Committee on Family and Women was established. In each mahalla, the position of deputy chairperson for family, women and socio-spiritual issues, as well as the position of specialist on family and women's issues, was replaced by the position of women's activist. A total of 9,309 women activist positions were introduced and transferred to the State Committee for Family and Women's Affairs.

Thus, the total number of civil servants in the Republic of Uzbekistan has approached 130,000. The Law on Civil Service is important that it defines the legal status of civil servants.

In conclusion, with the reform of the civil service in New Uzbekistan, its legal regulation has excelled at a new stage. A number of important steps have been taken on this issue.

First, a separate new institution, the civil service, was introduced in the public service system.

Second, the Agency Development of Public Service under the President of the Republic of Uzbekistan was established as a specially authorized body for the civil service.

Now it is necessary to adopt the law "On Civil Service" as soon as possible. This will lead, firstly, to the regulation of the fundamental foundations of the industry, and secondly, to the adoption of other legislative acts regulating certain aspects of the civil service.

REFERENCES

1. Speech of the candidate for President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev in the 8th Congress of Liberal Democratic Party of Uzbekistan. Consistent continuation of democratic reforms, creation of a peaceful and decent standard of living for our people is a guarantee of sustainable development. Available at: https://uz.fundamental-economic.uz/?page_id=1132/.
2. Portal for discussion of draft regulations. Draft Law "On Civil Service", 22.05.2020. Available at: <https://regulation.gov.uz/uz/document/18047/>.
3. Ismoilov Sh. Human resource development in public administration. *Society and innovation*, 2021, iss. 2, no. 6. ISSN 2181-1415.
4. Nematov J. Is Uzbekistan ready to start a new phase of administrative reforms? Available at: https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-mamuriy-islohotlarning-yangi-bosqichini-boshlashgatayyormi_329198/.
5. Khayitov Kh., Alimov B. Issues of legal regulation of labor relations in the civil service. *Society and administration*, 2020, iss. no. 4 (90), pp. 21-27. Available at: https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=FS08DqIAAAAJ&citation_for_view=FS08DqIAAAAJ:Se3iqnhoufwC/.
6. Khayitov Kh. Issues of improving the legal framework of the civil service. *Current issues of social sciences and humanities*, 2020, iss. no. 1 (1). Available at: https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=FS08DqIAAAAJ&citation_for_view=FS08DqIAAAAJ:UebtZRa9Y70C/.

7. Asadov Sh. Prospects for government reform in Uzbekistan. *Theoretical & Applied Science*, 2020, iss. № 7, pp. 384-388. Available at: https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=osgom58AAAAJ&citation_for_view=osgom58AAAAJ:9yKSN-GCB0IC/.
8. Law of the Russian Federation "On Civil Service". Available at: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_48601/.
9. Law of the Kazakhstan "On Civil Service". Available at: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=36786682/.
10. Asadov Sh. Improving the organizational and legal fundamentals of state sovereignty of the Republic of Uzbekistan. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2020, 53 p. Available at: https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=osgom58AAAAJ&citation_for_view=osgom58AAAAJ:qjMakFHDy7sC/.
11. Pchelinsev S.V. Some features of the reform of the state power system of the Republic of Korea. *Issues of state and municipal management*, 2009, no. 3.
12. Bekchanov D. Modern tendencies of state support of entrepreneurship. *Theoretical & Applied Science*, 2019, iss. no 1, pp. 228-232. Available at: https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=ZAgRyc0AAAAJ&citation_for_view=ZAgRyc0AAAAJ:u5HHmVD_u08C/.
13. Yuldasheva F. Improving the legal mechanism of entry and transition to public service in the Republic of Uzbekistan. PhD thesis, 2021, p. 152.
14. Information about assistant khokims. Official website of the Agency for Neighborhood Development and Entrepreneurship Development. Available at: <http://www.uzade.uz/uz/info/248/>.
15. Rakhimov D.G. Organizational and legal basis of teaching english to management personnel in civil service. 2021, April 30. DOI: 10.5281/zenodo.4962707/.

UDC: 342.5(042)(575.1)

AHOLINI DORI VOSITALARI BILAN TA'MINLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

Xudoyberganova Mavjuda Hamroqulovna,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0000-0001-5065-8802

e-mail: m.xudoyberganova@tsul.uz

Annotatsiya. Aholiga bepul tibbiy yordam ko'rsatish va ularning ijtimoiy ta'minlanish vositalariga doir huquqiy munosabatlarini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari ma'muriy huquqning ijtimoiy ta'minot huquqi tarmoqlari normalarida namoyon bo'ladi. Fuqarolarga bepul tibbiy yordam ko'rsatishning qo'shimcha elementlaridan biri bu dori vositalaridir. Mamlakatimizning dori vositalari sohasiga oid qonunchiligining barchasida aholini ijtimoiy himoya qilishda keng doiradagi fuqarolarga arzon va sifatli dori vositalari yetkazish hamda tor doiradagi ayrim toifadagi fuqarolarni bepul yoki qisman haq to'lash asosida dori vositalari bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Aholini dori vositalari bilan ta'minlash mexanizmlari huquqiy normalar bilan mustahkamlangan bo'lsa-da, ijtimoiy ta'minot va dori vositalari bilan ta'minlash tushunchalari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikning nazariy-ilmiy asoslari o'rganilmagan. Maqolaning predmeti sifatida dori vositalari bilan ta'minlash sohasiga oid milliy va xorijiy qonunchilik hamda olimlarning tadqiqot ishlari olindi. Tadqiqotni olib borishda tarixiylik, tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, umumlashtirish, ilmiy manbalarni kompleks tahlil qilish kabi metodlar qo'llanildi. Tadqiqot ishi natijalariga ko'ra, umumiy xulosaga kelingan va tegishli qonunchilikka "dori vositalari bilan ta'minlash" tushunchasini kiritish hamda unga huquqiy ta'rif berish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tibbiy yordam, dori-darmon yordami, dori vositalari bilan ta'minlash, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy ta'minotning tabiiy ko'rinishlari, xizmatlar, dori preparatlari.

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ЛЕКАРСТВЕННЫМИ СРЕДСТВАМИ

Худойбергано́ва Мавжу́да Ха́мрокуло́вна,

преподаватель кафедры «Административное и финансовое право»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Особенности регулирования правоотношений, касающихся оказания бесплатной медицинской помощи населению и средств социального обеспечения, проявляются в нормах административного права. Одним из дополнительных элементов оказания гражданам бесплатной медицинской помощи являются лекарственные препараты. Законодательство нашей страны в сфере лекарственных средств предусматривает социальную защиту населения путем предоставления дешевых и качественных лекарственных средств широкому кругу граждан и обеспечения узкого круга отдельных категорий граждан лекарственными средствами на бесплатной или частично-бесплатной основе. Хотя механизмы лекарственного обеспечения населения закреплены правовыми нормами, теоретико-научные основы неразрывной связи понятий социального обеспечения и лекарственного обеспечения не изучены. Предметом статьи является национальное и зарубежное законодательство в области лекарственного обеспечения, а также исследовательские работы ряда ученых. При проведении

исследования использовались такие методы, как историзм, системный анализ, сравнительно-правовой, логический, обобщающий, комплексный анализ научных источников. На основании результатов исследовательской работы был сделан общий вывод и разработаны предложения по введению в соответствующее законодательство понятия «лекарственное обеспечение» и приданию ему правового определения.

Ключевые слова: медицинская помощь, лекарственная помощь, лекарственное обеспечение, социальное обеспечение, натуральные виды социального обеспечения, услуга, лекарственные препараты.

THEORETICAL AND LEGAL FOUNDATIONS TO PROVIDE THE POPULATION WITH MEDICINES

Khudoyberganova Mavjuda KHamrakulovna,

Teacher of the Department of "Administrative and Financial Law" of
Tashkent State University of Law

Abstract. The peculiarities of regulating legal relations concerning the provision of free medical care to the population and their social security means are manifested in the norms of branches of social security law of administrative law. One of the additional elements of providing citizens with free medical care is medicines. All the legislation of our country in the field of medicines provides social protection to the population by supplying cheap and high-quality medicines to a wide range of citizens and contributing to a narrow circle of certain categories of citizens with medicines on a free or partial basis. Although the mechanisms of drug provision to the population are fixed by legal norms, the theoretical and scientific foundations of the inseparable connection between the concepts of social security and drug provision have not been studied. The subject of the article is national and foreign legislation in the field of drug provision, as well as the research work of scientists. During the research, such methods as historicism, system analysis, comparative-legal, logical, generalizing, complex analysis of scientific sources were used. Based on the results of the research work, a general conclusion was drawn and proposals were developed to introduce the concept of "drug provision" into the relevant legislation and give it a legal definition.

Keywords: medical care, medical care, medical provision, social security, natural types of social security, service, medicines.

Kirish

Mamlakatimizda so'nggi yillarda tibbiyot sohasida ko'plab samarali islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Xalqimizning so'nggi 2020–2021-yillardagi pandemiya davrida sifatli dori vositalari va tibbiyot anjomlariga bo'lgan ehtiyoji sezilarli darajada ortganligi ma'lum bo'ldi. Bunda dori vositalari va tibbiyot anjomlari yetishmasligi, bu borada davlat boshqaruvining ham tashkiliy, ham huquqiy asoslarini isloh qilish zarurati yaqqol ko'zga tashlandi. Bu haqda Prezidentimiz "mavjud imkoniyat va salohiyatimiz, pandemiya davrida orttirgan tajribamiz hamda xorijdagi ilg'or yutuqlardan foydalanib, aholi salomatligini asrash va mustahkamlash borasidagi tub is-

lohotlarimizni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur", deya o'rinli ta'kidladi.

Yangi O'zbekistonning qabul qilingan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida "dori-darmon va tibbiy buyumlar muomalasini tartibga solish hamda arzon va sifatli mahsulotlar yetkazib berish tizimini takomillashtirish (58-maqсад)" borasidagi davlat boshqaruvini yanada isloh qilish vazifasi belgilandi. Bundan tashqari, ushbu tarixiy hujjatda belgilangan "mamlakatda ishlab chiqariladigan dori-darmon va tibbiyot vositalari ulushini 80 foizga yetkazish" haqidagi 62-maqсад ham aholining tibbiyot sohasidagi xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qilishi diqqatga sazovordir.

Maqola mavzusining dolzarbligi va zarurati

O'zbekiston Respublikasining "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasida davlat aholini asosiy dori vositalari bilan ta'minlashi kafolatlanishi mustahkamlab qo'yilgan. Qonunda aholini dori vositalari bilan ta'minlashda tegishli davlat organlarining vakolatlari aniq moddalar asosida belgilangan bo'lsa-da, aholini ta'minlash deyilganda, aynan qaysi qatlami nazarda tutilayotganligi yuzasidan alohida tushuncha va ta'riflar keltirib o'tilmagan. Shuningdek, dori vositalari bilan ta'minlashning moliyaviy manbalari xususida ham aniqlik yo'q. Natijada insonlarda mazkur qonun normalariga nisbatan davlat o'z majburiyati sifatida aholini bepul dori vositalari bilan ta'minlash lozimligi to'g'risida noaniq xulosa shakllanishi mumkin.

Davlat tomonidan aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari bilan ta'minlanishini yaxshilashga qaratilayotgan barcha tashkiliy, huquqiy chora-tadbirlar asosida, avvalo "dori vositalari bilan ta'minlash" tushunchalari, aslida, o'zi nima ekanligini o'rganish ushbu maqola mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Maqolaning maqsadi davlat tomonidan aholini dori vositalari bilan ta'minlashda "dori vositalari bilan ta'minlash" tushunchasining nazariy asoslarini o'rganish hamda ushbu sohadagi qonun hujjatlari va huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Maqolaning vazifasi aholini dori vositalari bilan ta'minlashga doir milliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlarini tadqiq qilish, aholini dori vositalari bilan ta'minlashga oid milliy va xorijiy qonunchilikda "aholini dori vositalari bilan ta'minlash" tushunchalari ta'riflarini o'rganish va tasniflashdir.

Maqolaga qo'yilgan masalaning o'rganilganlik darajasi

Aholini dori vositalari bilan ta'minlash sohasida tibbiy yordam va dori-darmon

yordamiga oid ijtimoiy xizmatlar ma'muriy huquqning turli xil sohalarida ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ushbu tadqiqotlarning aksar qismi ijtimoiy ta'minot va tibbiyot huquqini o'z ichiga oladi. Dori vositalari bilan ta'minlash va dori-darmon yordamiga oid masalalar R.U. Khabriyev, E.A. Telnova, D.V. Parkhomenko, A.M. Kuznetsova, Z.M. Galeeva, N.A. Meshkov, V.V. Grishin, A.A. Mokhov kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida aks etgan [1-4].

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda aholini dori vositalari bilan ta'minlashda "dori vositalari bilan ta'minlash" va "dori-darmon yordami" tushunchalariga oid masalalar qisman tahlil etilgan bo'lsa-da, ularga aniq ta'riflar berilmagan.

Material va metodlar

Tadqiqotni olib borishda tarixiylik, tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, umumlash-tirish, ilmiy manbalarni kompleks tahlil qilish kabi metodlar qo'llanildi.

Tadqiqotni o'rganishda milliy va xorijiy olimlarning dori vositalari bilan ta'minlash sohasiga oid ilmiy adabiyotlari tahlil qilindi. "Dori vositalari bilan ta'minlash" tushunchasining vujudga kelish tarixini o'rganishda milliy va xorijiy ensiklopediyalardan foydalanildi. Shuningdek, "dori vositalari bilan ta'minlash" tushunchasining amaliyotda qo'llanilish tajribasi ushbu sohaga oid milliy hamda xorijiy qonunchiliklar asosida o'rganildi.

Tadqiqot natijalari

Aholiga bepul tibbiy yordam ko'rsatish va ularning ijtimoiy ta'minlanish vositalariga doir huquqiy munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari ma'muriy huquqning ijtimoiy ta'minot huquqi tarmoqlari normalarida namoyon bo'ladi. Fuqarolarga bepul tibbiy yordam ko'rsatishning qo'shimcha elementlaridan biri bu dori vositalaridir. Shuni ta'kidlash kerakki, aholini dori vositalari bilan ta'minlashning barcha bosqichlarida ham tegishli munosabatlar ijtimoiy ta'minot qonunchiligi normalari bilan

tartibga solinadi. Shu munosabat bilan “dori vositalari”, “dori-darmon yordami” va “dori vositalari bilan ta'minlash” tushunchalari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash kerak.

Dori – bu qat'iy ma'noda ma'lum miqdorda qo'llanilganda, o'zining fizik yoki kimyoviy xossalariga ko'ra, organizmdagi og'riqli jara-yonlarni bartaraf eta oladigan, zaiflashtiradigan yoki oldini oladigan tibbiy vositadir [5].

Dori vositasi (lotincha *praeparatum medicinale*, *praeparatum farmatsevtikum*, *medicamentum*) – dorivor shakldagi (tablet-kalar, kapsulalar, eritmalar, malhamlar va boshqalar) sintetik yoki tabiiy kelib chiqadigan modda yoki moddalar aralashmasi bo'lib, kasalliklarning oldini olish, tashxislash va davolash uchun qo'llaniladi. Dori vositalarini tibbiy amaliyotda qo'llashdan oldin klinik sinovlardan o'tishi va foydalanish uchun ruxsat olinishi kerak [6].

Dori – kasalliklarni davolash yoki oldini olish uchun ishlatiladigan modda. Har qanday dori odamlarga qo'llashdan oldin hayvonlarda sinab ko'riladi va klinikalarda kuzatiladi. Dorilar kimyo-farmatsevtika zavodlarida sintetik moddalardan, o'simlik, hayvon yoki mikrobiologik mahsulotlardan, tez buziladigan ayrim dorilar esa dorixonalarda tayyorlanadi. Dorilar turli xil: mas, suyuq (qaynatma, tindirma, eritma, suspenziya va boshqalar), yumshoq (surtma, liniment, krem, pasta va boshqalar), qattiq (sochma, tabletkalar, draje, granula va boshqalar) hamda alohida ineksiya maqsadlari uchun ampula holida chiqariladi [7].

Qadim zamonlarda ham odamlar turli xil tabiiy dorivor moddalar yordamida o'z hayotini saqlab qolishga harakat qilishgan. Ko'pincha bunday dorivor moddalar sifatida o'simlik ekstraktlaridan foydalanilgan, ammo bulardan tashqari xom go'sht, xamirturush va hayvonlar najasidan olingan preparatlar ishlatilgan. Ba'zi dorivor moddalar o'simlik yoki hayvonot xomashyosidan olinishi oson bo'lganligi sababli tibbiyot qadim zamonlardan beri o'simlik va hayvonot olamidani olin-

gan ko'plab miqdordagi dori vositalaridan muvaffaqiyatli foydalanib kelgan. Masalan, qadimgi Misrda ma'lum bo'lgan kleshevina o'simligi, ko'knori, dengiz piyozi; qadimgi hindlarga ma'lum bo'lgan digitalis, nilufar, adonis o'simliklari va xalq tabobatida keng qo'llanilgan boshqa o'simliklar shular qatoridandir. Vaqt o'tishi bilan kimyo fanining rivojlanishi natijasida odamlar bunday dorivor moddalarning davolash ta'siri ma'lum bir kimyoviy birikmalarning tanaga selektiv ta'siri oqibatida vujudga kelishiga ishonch hosil qilishdi. Keyinchalik bunday birikmalar laboratoriyalarda sintez yo'li bilan olinib boshladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida texnologiyalar va bir qator fanlar (anatomiya, fiziologiya va ayniqsa, kimyo fanlari) rivojlanishi natijasida quyidagi imkoniyatlar vujudga keldi:

birinchidan, ma'lum bir birikma shaklida mavjud bo'lmagan, lekin davolash ta'siriga ega bo'lgan moddalarni juda ko'p miqdorda sintez qilish (antipirin, piramidon, plazmot-sid, aspirin va boshqalar);

ikkinchidan, dori vositalarining ta'sirini o'rganish asoslarini ilmiy tajribada o'tkazish, shuningdek, yangi dorilarni yaratish.

Amalga oshirilgan ilmiy tajribalar natijasi o'sha davrlarda hukmronlik qilgan davolash va farmakologiyaga oid turli xildagi ilmiy asoslanmagan nazariyalarni (Paracelsus, Gahnemann va boshqalar) yo'qqa chiqardi [8].

Dori vositalarini iste'mol qilish bo'yicha tadqiqotlar rivojlanishi tarixi o'tgan asrning 60-yillarida Shimoliy Yevropa va Buyuk Britaniyadagi olimlar sa'y-harakatlariga borib taqaladi. Xususan, shvetsiyalik olim Artur Engel va niderlandiyalik olim Pieter Sideriuslar dori vositalari iste'moli bo'yicha ko'plab tadqiqotchilar e'tiborini mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha dori vositalarini iste'mol qilish jarayonini taqqoslash muhimligiga qaratdi. 1966-67-yillarda belgilangan mutaxassislar tomonidan oltita Yevropa mamlakatlari

rida antibakterial vositalarni sotish bo'yicha sezilarli farqlar qayd etilgan va 1969-yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST)ni Oslo shahrida "Dori vositalarini iste'mol qilish" (Consumption of drugs. Report on a symposium in Oslo 1969, 1970) bo'yicha birinchi yig'ilishni tashkil etishga undadi. Natijada dori vositalari iste'moli tadqiqotlari bo'yicha JSSTning Yevropa tadqiqot guruhi (European Drug Utilization Research Group – DURG) tashkil etildi [9].

Ma'lumot uchun aytish lozimki, 1977-yildan boshlab JSSTning tavsiyasi bilan rivojlanayotgan davlatlarda eng ko'p uchraydigan kasalliklarni davolash va aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida "Asosiy dori vositalari" ro'yxati tuzilib, kelgusida ularni har ikki yilda takomillashtirilgan holda tuzib, tasdiqlab borish mezonlari belgilab berildi. Hozirgi kunda bu tavsiyalar asosida JSSTga a'zo barcha davlatlarda (194 ta) "asosiy dori vositalari" tushunchasi va u bilan bog'liq munosabatlar qonuniy tartibga solingan [10].

"Asosiy dori vositalari" tushunchasi O'zbekiston Respublikasining "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonunida ham aks etgan bo'lib, unga quyidagicha ta'rif beriladi: "*dori vositalari* – kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash, shuningdek, odam organizmining holati va funksiyalarini o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori moddalari (substansiyalar) va yordamchi moddalar asosida olingan vositalar, dori moddalari (substansiyalar), dori preparatlari".

Mazkur qonunga asosan, JSSTning tavsiyasiga muvofiq, asosiy dori vositalari ro'yxati Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ikki yilda kamida bir marta ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Rus olimi M.V. Podvyaznikova dori-darmon yordamini huquqiy tartibga solish sohasida yuzaga keladigan muammolarning umumiy tahlili hamda "dori-darmon yordami" tushunchasini "tibbiy yordam" tushunchasi bilan bog'lagan holda o'rganib chiqqan.

Muallifning fikricha, dori-darmon yordami tibbiy yordamning bir ko'rinishi emas, balki elementi bo'lib, tibbiy xizmat ko'rsatishning xususiyatiga bog'liq majburiyat darajasidir; dori vositalari bilan ta'minlash dori-darmon yordamining bosqichlaridan biri bo'lib, uning doirasida bemor o'ziga kerakli dori-darmonlar bilan ta'minlanadi; dori-darmon yordamini amalga oshirish bir necha bosqichda sodir bo'ladi: dori preparatlari (dozalangan, idishga joylangan-o'ralgan, qo'llanilish uchun tayyor dori vositalari)ni tayinlash; ularni taqdim etish yoki sotib olish; dori preparatlarini iste'mol qilish va ulardan foydalanish; ularni iste'mol qilish natijasida erishilgan natijani nazorat qilish [11].

Mamlakat aholisining aksariyat qismi uchun davlat sog'liqni saqlash tizimlarida fuqarolarga kafolatlangan bepul tibbiy yordam ko'rsatish dori preparatlarini fuqarolarning o'z mablag'lari hisobidan sotib olish zarurati bilan bog'liq. Hukumatning vazifasi hayotni saqlab qolish uchun zarur va muhim bo'lgan dori preparatlari (birinchi navbatda, narx bo'yicha) mavjudligini ta'minlashdan iborat. V.V. Kopilevich ta'kidlaganidek, "dori-darmon yordami" tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, u "dori vositalari bilan ta'minlash" tushunchasini o'z ichiga oladi. Ularni huquqiy tartibga solishdagi farq quyidagicha namoyon bo'ladi. Bepul tibbiy yordam xizmati ko'rsatilganda, barcha fuqarolar uchun dori-darmon yordamining bir qismi sifatida shifokor maslahati (ko'rsatmasi, tavsiyasi) ham bepul xizmat sifatida amalga oshiriladi. Mazkur munosabatlar ijtimoiy ta'minot huquqi normalari bilan tartibga solinadi.

Dori vositalari bilan ta'minlash yoki sotib olish bilan bog'liq bo'lgan bosqichda huquqiy tartibga solishning differentsiatsiyasi vujudga keladi. Dori vositalari bilan ta'minlash (ya'ni dori-darmonlar bepul yoki qisman to'lash) fuqarolarning ayrim toifalari uchunгина taqdim etiladi. Aholining barcha toifalarini bepul dori vositalari bilan ta'minlash esa

fuqarolarga bepul tibbiy yordam ko'rsatishning davlat kafolatlari dasturi doirasida muayyan turdagi yordam ko'rsatish jara yonidagina nazarda tutiladi. Fuqarolarning o'z mablag'lari hisobidan dori vositalari sotib olishi fuqarolik huquqini tartibga solish sohasidir.

Dori vositalarini bepul yoki qisman haq to'lash sharti bilan ta'minlash "dori vositalari bilan ta'minlash" tushunchasining asosiy tarkibini tashkil etadi. Fuqaroning dori-darmonlarni qabul qilishi (shifokor tavsiyasiga ko'ra) esa, avvalo, insonning o'z sog'lig'i uchun o'zi javobgar ekanligiga bog'liq [12].

"Dori vositalari bilan ta'minlash" tushunchasini uning ta'rifi milliy adabiyotlarimiz va qonunchiligimizda mustahkamlanganligi sababli xorijiy yuridik adabiyotlar hamda qonunchiliklarda keltirilgan ta'riflar tahlili asosida o'rganib chiqamiz.

Bir necha rus mualliflarining fikricha, "dori vositalari bilan ta'minlash" yakka shaxs uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan va zaruriy ehtiyojlarni ta'minlaydigan tovarlar (dorilar) bilan ta'minlash hisoblanib, ijtimoiy ta'minot xususiyatiga mos keladi [13].

Rus olimi I.A. Kolotsey "dori vositalari bilan ta'minlash" tushunchasini Rossiya qonunchiligi tahlili asosida ma'no jihatidan keng va tor miqyosda o'rganib chiqqan. Uning tahlil natijasiga ko'ra, keng ma'noda iste'molchilarning yirik qatlamini dori vositalari bilan ta'minlash, ularning o'z mablag'lari hisobiga sifatli, arzon, xavfsiz dori vositalari yordamida ta'minlash, tor ma'noda esa ayrim toifadagi bemor (patsient)larni qonunchilikda belgilangan maxsus ro'yxatlar va hajm doirasida bepul yoki imtiyozli ravishda dori vositalari bilan ta'minlashni bildiradi [14].

Shuningdek, T.K. Mironova ham "dori vositalari bilan ta'minlash" tushunchasini Rossiya qonunchiligi tahlili asosida keng va tor ma'nolarga bo'lgan. Xususan, Rossiya Federatsiyasining 2025-yilga qadar aholini dori vositalari bilan ta'minlash strategiyasida aholini dori vositalari bilan ta'minlash keng

ma'noda – butun aholi uchun dori-darmonlar mavjudligini ta'minlash va tor ma'noda – faqatgina ayrim toifadagi fuqarolar uchun dori-darmonlarni bepul yoki chegirmali tarzda taqdim etish ma'nosida ishlatiladi [15].

V.A. Vnukovning ta'kidlashicha, tibbiy xizmatlar va dori vositalari o'zining alohida xususiyatlariga ko'ra, ham xususiy, ham ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'ladi [16].

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, "dori-darmon yordami" ijtimoiy xayriya bo'lib, qiymatli ifodasiga ko'ra, quyidagi obyektlar ko'rinishida bo'lishi mumkin:

1) nomoddiy obyekt – xizmatlar (dori preparatlarini tayinlash yoki tibbiy xodimning tavsiyasi);

2) moddiy obyekt – dori vositalari bilan ta'minlash tartibida fuqarolarga bepul yoki qisman to'lov bilan beriladigan maxsus dori preparatlari.

Shunday qilib, dori-darmon yordami xizmat bo'lsa, dori preparatlari ijtimoiy yordamning tabiiy ko'rinishidir. Shu nuqtayi nazardan, dori-darmon yordami tibbiy yordamning elementi sifatida namoyon bo'ladi va "mustaqil ijtimoiy ta'minot turi" bo'la olmaydi [11].

Yuqoridagi olimlarning fikrlariga asosan, milliy qonunchiligimizdagi dori vositalari bilan ta'minlashga doir huquqiy normalarni tahlil qiladigan bo'lsak, "dori vositalari bilan ta'minlash" tushunchasi keng va tor ma'nolarga bo'linib, keng ma'noda aholining yirik qatlamini dori vositalari bilan ta'minlash aksar hollarda ularning o'z mablag'lari hisobiga amalga oshirilishi, tor ma'noda esa ayrim toifadagi bemor (patsient)larni qonunchilikda belgilangan maxsus ro'yxatlar va hajm doirasida bepul yoki imtiyozli ravishda dori vositalari bilan ta'minlashni bildiradi.

Mamlakat aholisining aksariyat qismi uchun davlat sog'liqni saqlash tizimlarida fuqarolarga kafolatlangan bepul tibbiy yordam ko'rsatish dori preparatlarini fuqarolarning o'z mablag'lari hisobidan sotib olish zarurati bilan bog'liq.

Davlat tomonidan aholini dori vositalari bilan ta'minlash zarurligi huquq normalari bilan mustahkamlab qo'yilgan bo'lsa-da, uning amalga oshirish mexanizmlari davlat kafolatlaridan tashqarida qolmoqda. Bularning barchasi muammoning nafaqat tashkiliy va moliyaviy yechimi, balki aniq huquqiy tartibga solishni ham talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonunida ham aholini dori vositalari bilan ta'minlashning keng va tor ma'nolari o'z ifodasini topganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, qonunning yangi tahririga muvofiq, davlat buyurtmasiga ko'ra ta'minlanadigan dori vositalari ro'yxat asosida ta'minlanishi belgilandi. Unga ko'ra, ro'yxatdagi dori vositalari davlat buyurtmasi asosida shakllantiriladi va tegishli tibbiyot muassasalariga yetkaziladi. Shu orqali davlat tomonidan keng doiradagi aholining tegishli dori vositalari bilan ta'minlanishi kafolatlanadi. Bundan tashqari, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami-ga ham davlat tomonidan bepul dori vositalari beriladi. Bu hukumat tomonidan belgilanadigan ayrim toifadagi shaxslar va ularga beriladigan dori vositalari ro'yxati asosida amalga oshiriladi. Shunday bo'lsa-da, mazkur qonunda "aholini dori vositalari bilan ta'minlash" tushunchasiga ta'rif keltirilmagan. Natijada davlat tomonidan dori vositalarining

ta'minlanishi keng va tor ma'noda emas, balki barcha aholi uchun bepul amalga oshirilishi lozimligi ma'nosida yangilash xulosaga olib kelishi mumkin.

Xulosalar

Yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqotlar natijasi o'laroq, shunday xulosaga kelindiki, haqiqatan ham, dori vositalari bilan ta'minlash sohasi tibbiy yordamning tarkibiy qismi bo'lib, tibbiy yordam – xizmat ko'rsatish bo'lsa, dori vositalari bilan ta'minlash ikki xil shaklda: moddiy (fuqarolarga bepul yoki qisman to'lov bilan beriladigan maxsus dori preparatlari) va nomoddiy (dori preparatlarini tayinlash yoki tibbiy xodimning tavsiyasi) ko'rinishda amalga oshiriladi.

Barcha olimlarning fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda, dori vositalari bilan ta'minlash tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishni maqsadga muvofiq deb bildik: "dori vositalari bilan ta'minlash" – davlat tomonidan aholining keng qatlamini davlat buyurtmasi asosida shakllantiriladigan ro'yxat asosida ayrim turdagi dori vositalarini bepul, qolgan turdagi dori vositalarini esa ularning o'z mablag'lari hisobi evaziga yetkazish, ijtimoiy ta'minotga muhtoj bo'lgan ayrim toifadagi shaxslarni esa bepul yoki qisman to'lov evaziga dori preparatlari bilan ta'minlaydigan dori-darmon yordamidir.

REFERENCES

1. Khabriev R.U., Tel'nova E.A., Parkhomenko D.V. Sovremennye problemy zashchity interesov sotsial'no uyazvimykh grazhdan pri okazanii lekarstvennoi pomoshchi [Actual problems of caring for socially vulnerable people in terms of medicinal help]. *Farmatsiya – The Pharmacy*, 2005, no. 4, pp. 5-8.
2. Kuznetsova A.M., Galeeva Z.M. Lekarstvennoe obespechenie naseleniya Respubliki Tatarstan: v zerkale mnenii vrachei [The Medicinal Provision in Tatarstan Republic]. *Vestnik ekonomiki, prava i sotsiologii – Herald of Law, Economics and Social Science*, 2011, no. 2, pp. 218-222.
3. Meshkov N.A., Grishin V.V. O sostoyanii zdorov'ya, meditsinskogo i lekarstvennogo obespecheniya uchastnikov likvidatsii posledstviy avarii na Chernobyl'skoi atomnoi elektrostantsii [Health status, medical and medicinal provision of people involved in elimination of the consequences

of the accident at chernobyl nuclear power plant]. *Invalidy i obshchestvo – Disabled People in the Society*, 2015, no. 4 (18), pp. 3-8.

4. Mokhov A.A. Osnovy meditsinskogo prava RF (Pravovye osnovy meditsinskoi i farmatsevticheskoi deyatel'nosti v RF) [The Basics of Russian Medical Law]. Moscow, Prospekt Publ., 2015.

5. Entsiklopedicheskiy slovar` Brokgauza i Yefrona [Encyclopedian dictionary]. In 86 vol. St. Petersburg, 1890-1907.

6. Lekarstvennye sredstva. Malaya meditsinskaya entsiklopediya [Medicines. Little medicine encyclopedia]. Moscow, Meditsinskaya entsiklopediya, 1991-1996.

7. O'zME [Uzbekistan national encyclopedia]. Tashkent, 2000, vol. 1.

8. Lekarstva. Bol'shaya sovetskaya entsiklopediya [Medicine. Big soviet encyclopedia]. 1th ed. Moscow, Soviet Encyclopedia, 1938, vol. 36, p. 273.

9. Engel A., Siderius P. The consumption of drugs. Report on a study. WHO Regional Office for Europe 1968. Document EURO 3101.

10. Djalilov Kh., Ibragimova M.Ya. "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan "On medicines and pharmaceutical activity" in the new edition]. *O'zbekiston farmatsevtik xabarnomasi – Pharmaceutical Bulletin of Uzbekistan*, 2016, no. 1, pp. 24-25.

11. Podvyaznikova M.V. Pravovoe regulirovanie lekarstvennoi pomoshchi v sisteme sotsial'nogo obespecheniya [Law regulation of medicinal help in the social care system]. Doctor's degree dissertation. Ekaterinburg, 2015.

12. Kopilevich V.V. Proekt sotsial'no orientirovannoi byudzhetho-strakhovoi modeli finansirovaniya lekarstvennogo obespecheniya v Rossii [Socially-oriented model of finance and insurance for medicinal provision in Russia]. *Problemy upravleniya v sotsial'nykh sistemakh – The Issues of Management in Social Systems*, 2012, iss. 7, vol. 4, pp. 88-98.

13. Khabriev R.U., Putilo N.V. Pravovoe regulirovanie obrasheniya lekarstvennykh sredstv [Legal regulation of the circulation of medicines]. *Pravo i ekonomika – Law & Economics*, 2003, no. 8, pp. 5-8.

14. Kolotsei I.A. Konstitutsionnye osnovy pravovogo regulirovaniya lekarstvennogo obespecheniya [Constitutional basics of law regulations for medicinal help]. *Vestnik Severnogo (Arkticheskogo) federal'nogo universiteta. Seriya: Gumanitarnye i sotsial'nye nauki – Herald of Northern (Arctic) Federal University. Humanities and Social Science*, 2009, no. 2, pp. 71-74.

15. Mironova T.K. Pravovoe regulirovanie besplatnogo okazaniya meditsinskoi pomoshchi [Legal regulation of free medical care]. Moscow, Yustitsinform, 2018, p. 348. Available at: <https://znanium.com/catalog/product/1006188> (accessed 04.03.2022). ISBN 978-5-7205-1400-6.

16. Vnukova V.A. Lekarstvennoe obespechenie l'gotnykh kategorii grazhdan. Pravovoi analiz [The Legal Analysis of Medicinal Provision Given to Privileged Categories of Citizens]. *Vestnik Belgorodskogo universiteta kooperatsii, ekonomiki i prava – Herald of Belgorod University of Cooperation, Economy and Law*, 2006, no. 3, pp. 304-308.

17. Khudoyberganova M. The role of public administration in the development of pharmaceutical sector in the Republic of Uzbekistan. *International scientific and current research conferences*, Apr. 2021, vol. 1, no. 1, pp. 147-52. Available at: <https://usajournalshub.com/conferences/index.php/iscrc/article/view/200/>.

18. Khudoyberganova M.Kh. O'zbekiston Respublikasida dori vositalari va farmatsevtika faoliyatini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy asoslari [Organizational and legal framework for improving the activities of medicines and pharmaceuticals in the Republic of Uzbekistan]. *Huquqiy tadqiqotlar jurnali – Jurnal pravovykh issledovaniy – Journal of Law Research*, 2021, no. SI-1, pp. 99-111. DOI: 10.26739/2181-9130/.

UDC: 342.9(042)(575.1)

O'ZBEKISTONDA MA'MURIY NIZOLARNI HAL QILISH JARAYONLARINI SODDALASHTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Azizov Bunyod Mavlonovich,
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
Ma'muriy tartib-taomillarni takomillashtirish
va monitoringini yuritish boshqarmasi boshlig'i
ORCID: 0000-0002-2612-6184
e-mail: b.azizov@adliya.uz

Annotatsiya. Maqolada ma'muriy nizolarni hal qilishda xorijiy davlatlar tajribasi va O'zbekiston Respublikasida sudgacha hal qilish mexanizmlari tahlil qilingan. Xorijiy davlatlar tajribasi nizolarni hal qilishning turli usullari mavjudligi va nizolarni sudgacha hal qilish mexanizmlarining samarali qo'llanib kelinayotganini ko'rsatdi. Ma'muriy nizolarni sudgacha hal qilish mexanizmlarining belgilanishi nizolarni tezroq, osonroq hamda tinch yo'l bilan hal qilish imkonini beradi. Fuqarolarning ortiqcha vaqt va mablag'lari sarflanishining oldi olinadi, davlat resurslari tejaladi, ma'muriy sudlarning ish yuklamasi kamayishiga erishiladi. Albatta, nizolarni sudgacha hal qilish bo'yicha vakolatli organ tomonidan qabul qilingan qarorga aholi yoki tadbirkorlik subyekti rozi bo'lmasa, nizoni sudda ko'rib chiqish uchun murojaat qilish bilan bog'liq konstitutsiyaviy huquq mavjud bo'ladi. Ya'ni, nizolarning sud tomonidan ko'rib chiqilishi ma'muriy nizolarni ko'rib chiqish jarayonida buzilgan huquqlarni himoya qilishning yakuniy kafolati hisoblanadi. Xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga sudgacha ma'muriy nizolarni hal qilish mexanizmining kiritilishi qonunchilikda huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish hamda ma'muriy nizolarni ko'rib chiqish va hal qilishda yagona huquqiy mexanizmlar belgilanishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ma'muriy tartib-taomillar, ma'muriy nizolar, ma'muriy harakat, sudgacha shikoyat qilish, nizolarni sudgacha hal qilish, ma'muriy huquq, Ombudsman.

ВОПРОСЫ УПРОЩЕНИЯ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОЦЕДУР РАЗРЕШЕНИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ СПОРОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Азизов Бунёд Мавлонович,
начальник управления совершенствования
и мониторинга административных процедур
Министерства юстиции Республики Узбекистан

Аннотация. В статье анализируется зарубежный опыт и Республики Узбекистан по разрешению административных споров и механизмов досудебного урегулирования. Опыт зарубежных стран показал, что существуют различные способы разрешения споров и эффективно используются механизмы досудебного урегулирования. Создание досудебных механизмов разрешения административных споров позволит быстрее, проще и мирнее разрешать споры. Будут предотвращены излишние затраты времени и денег граждан, сэкономлены государственные ресурсы, снижена нагрузка на административные суды. Безусловно, если население или субъект хозяйствования не согласны с решением компетентного

органа по досудебному урегулированию споров, существует конституционное право на обращение в суд за рассмотрением спора. Иными словами, окончательное рассмотрение споров судом является окончательной гарантией защиты прав, нарушенных в ходе административного производства. Основываясь на опыте зарубежных стран, введение механизма разрешения досудебных административных споров в законодательство Республики Узбекистан будет способствовать устранению правовых пробелов в законодательстве и установлению единого правового механизма рассмотрения и разрешения административных споров.

Ключевые слова: административные процедуры, административные споры, административное действие, досудебное обжалование, досудебное урегулирование споров, административное право, омбудсмен.

ISSUES OF SIMPLIFICATION AND IMPROVEMENT OF ADMINISTRATIVE DISPUTE RESOLUTION PROCESSES IN UZBEKISTAN

Azizov Bunyod Mavlonovich,

Head of the Department for Improvement and monitoring of administrative procedures,
Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan

Abstract. The article analyzes the experience of pre-trial settlement of administrative disputes abroad and in the Republic of Uzbekistan. The experience of foreign countries has shown that there are different ways to resolve disputes and that pre-trial settlement mechanisms are being used effectively. Establishing mechanisms for the pre-trial resolution of administrative disputes will allow for faster, easier and more peaceful settlement of disputes. Excessive time and money of citizens will be prevented, public resources will be saved, and the workload of administrative courts will be reduced. Of course, if the population or business entity does not agree with the decision of the competent authority for pre-trial settlement of disputes, there is a constitutional right to apply to the court for consideration of the dispute. In other words, the final consideration of disputes by the court is the final guarantee of protection of the rights violated in the process of administrative disputes. Based on the experience of foreign countries, the introduction of a mechanism for resolving pre-trial administrative disputes in the legislation of the Republic of Uzbekistan will help to eliminate legal gaps in the legislation and establish a single legal mechanism for consideration and resolution of administrative disputes.

Keywords: administrative procedures, administrative disputes, administrative action, pre-trial appeal, pre-trial settlement of disputes, administrative law, Ombudsman.

Kirish

O'zbekistonda ma'muriy tartib-taomillar rivojlanib borayotgan huquqiy sohalardan biri hisoblanadi.

Fuqarolar va ma'muriy organlar ishtirokidagi ma'muriy tartib-taomillar takomillashmoqda hamda bu sohada nizolar ham ko'payib bormoqda. Shu sababli ma'muriy nizolarni sudgacha hal qilish bo'yicha amaldagi qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish, davlat boshqaruvi va nizolarni hal qilishning samarali mexanizmlarini belgilash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'muriy nizolarni sudgacha hal qilish choralarni ko'rish mexanizmi nizolarni tez-kor, o'z vaqtida va iqtisodiy jihatdan samarali hal qilish imkonini beradi. Shuningdek, sudlarning ish yuklamasini kamaytiradi hamda sud ishlarini amalga oshirish bilan bog'liq moddiy xarajatlarni tejashga yordam beradi.

Tahlillar ushbu sohadagi ilmiy izlanishlarning kamligi, ma'muriy nizolarni sudgacha yoki suddan tashqari shaklda hal etishni (mediatsiya) qonuniy tartibga solish zarurligini ko'rsatdi.

Quyidagi mualliflarning asarlari ma'muriy va ommaviy nizolarni hal qilish muammolariga bag'ishlangan: A.E. Avrutin, A.A. Vlasov, I.M. Divin, A.B. Zelensov, A.I. Kaplunov, P.I. Kononov, N.G. Kiper, Ye.B. Lupareva, U.V. Meteleva, Yu.V. Nadolskaya, A.I. Okunev, Yu.A. Popova, N.G. Salishcheva, V.D. Sorokin, Yu.N. Starilov, N.V. Suxareva, N.Y. Xamaneva, O.V. Chikalina, F.F. Yaxina, G. Braban, J. Uedel, S. Popovich, R. Sharven va boshqalar. Ularning maqolalarida nazariya va qonunchilikdagi mavjud bo'shliqlarni aniqlash hamda to'ldirish bo'yicha ayrim tavsiyalar aks etgan. Ushbu ilmiy maqolada esa ma'muriy nizolarni sudgacha hal qilish doirasi va muammolarni hal qilishning dolzarb tomonlari ochib berilgan.

Material va metodlar

Maqolani yoritishda umumiy ilmiy (analogiya, tahlil va sintez) va ilmiy birlashish metodlaridan foydalanilgan. Maxsus huquqiy tadqiqot (rasmiy huquqiy, tarixiy va ma'muriy nizolarni hal qilish bo'yicha xorijiy nazariyalarni o'rganish) nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalari tahlili

Ma'muriy nizolarni sudgacha va sudan tashqari shakllarda hal qilish tartibini belgilaydigan ma'muriy tartib-taomillarni tartibga soluvchi milliy va xorijiy davlatlar qonunchiligi ma'muriy nizolarni hal qilish sohasidagi munosabatlar, ma'muriy nizolarni qonun ustuvorligi belgisi sifatida hal qilishning samarali mexanizmlaridir.

O'zbekistonda ma'muriy tartib-taomillar bilan bog'liq nizolarni sudgacha hal etish mexanizmlarini joriy qilish masalasi muqaddam o'rganilmagan va tadqiq qilinmagan.

Fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash huquqiy davlatlarning asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Shu maqsadda mamlakatimizda davlat organlarining aholi bilan muloqotini takomillashtirish, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlash hamda ularning

muammolarini hal etishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 43-moddasida davlat fuqarolarining Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklari ta'minlanishi, 44-moddasida har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlangan.

Albatta, sud fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularning buzilgan huquqlarini tiklashda muhim bo'g'in vazifasini bajaradi. Lekin har bir nizoli holatning faqat sudda ko'rilishi fuqarolarni ortiqcha ovoragarchiliklar, ularning vaqti va mablag'i ortiqcha sarflanishiga olib keladi.

Davlat boshqaruvida fuqarolar ishtiroki hamda ma'muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligi, jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ma'muriy organlar tomonidan adolatli qarorlar qabul qilishda ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonunchilik muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'muriy tartib-taomillar hokimiyatning davlat boshqaruvi jarayonida normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadigan harakatlari tartibini ifodalaydi, ularning maqsadi ma'muriy huquqning moddiy normalarini amalga oshirishdir [1].

Ma'muriy tartib-taomillar funksional, aniq, ma'muriy ishni ko'rib chiqish va mustaqil amaldorning adolatli qaror qabul qilishga kafolat berishga qaratilgan vosita deb tan olinishi kerak [2].

Ma'muriy tartib-taomillarni huquqiy tartibga solish, byurokratik talablarning oldini olish, fuqarolarni ortiqcha ovoragarchiliklardan xalos qilish maqsadida 2018-yil yanvar oyida *O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni* (keyingi o'rinlarda Qonun deb

yuritiladi) qabul qilingan. Qonun bevosita ma'muriy tartib-taomillarni amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Ma'muriy tartib-taomil – bu ma'muriy organlarning ma'muriy-huquqiy faoliyatini tartibga soluvchi protsessual qoidalar hisoblanadi.

Shaxsning davlat bilan munosabatlarga kirishishi va huquqiy himoya qilishda ma'muriy hujjatlar ustidan sudgacha, ya'ni ma'muriy tartibda shikoyat qilish jarayoni ham muhim hisoblanadi.

Ma'muriy nizo – bu kuchga boshqaruv (hokimiyat) kuchiga ega bo'lganlar bilan teng kuchga ega bo'lmagan shaxslar o'rtasida yuzaga kelayotgan nizolar hisoblanadi va u davlat-huquqiy munosabatlari (hokimiyat va bo'ysunish) asosida tartibga solinadi.

Ushbu munosabatlarda, bir tomondan, fuqaro (yoki yuridik shaxs), boshqa tomondan, fuqaroning (yoki yuridik shaxsning) huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, himoya qilish yoki tiklash, ularga qonuniy majburiyatlarni kiritish, ularni davlat boshqaruvi sohasida huquqiy javobgarlikka tortish bilan bog'liq ma'muriy organ ishtirok etadi. Ya'ni, fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan ularga nisbatan ma'muriy funksiyalar va vakolatlarga ega bo'lganlar o'rtasida boshlangan nizolarni ko'rib chiqish tushunilishi lozim. Bu jarayonda qarama-qarshilikning zaif tomoni aynan jismoniy va yuridik shaxslar bo'lib, davlat aynan ularning huquq va qonuniy manfaatlarini tezkor va adolatli ta'minlashi lozim.

Qonunning 63-moddasida ma'muriy shikoyat qilish tartibi belgilangan bo'lib, unga ko'ra, manfaatdor shaxs ma'muriy shikoyatni qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy shikoyatlarni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan yuqori turuvchi ma'muriy organ yoki boshqa vakolatli ma'muriy organga ustidan shikoyat qilinayotgan ma'muriy *hujjatni, protsessual* hujjatni qabul qilgan yoxud ma'muriy harakatni *amalga oshirgan* ma'muriy organ orqali berishi mumkin.

Ma'muriy shikoyatni olgan ma'muriy organ u kelib tushgan paytdan e'tiboran uch ish kuni ichida ma'muriy shikoyatni yuqori turuvchi organga yoki ushbu ma'muriy shikoyatni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan boshqa ma'muriy organga ma'muriy ish bilan birga yuborishi belgilangan.

Amaliyotda ham fuqarolar barcha holatda ma'muriy nizolarni hal qilish uchun to'g'ridan to'g'ri sudlarga murojaat qilmaydi. Ayrim nizolar bo'yicha sudga emas, vakolatli organlarning o'zlariga murojaat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ayrim ma'muriy munosabatlarni sudgacha ko'rib chiqish va hal qilish, sudgacha dastlab yuqori davlat organiga shikoyat qilish tartib-taomillari mustahkamlangan. Bunday shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun o'zlarining maxsus protseduralari mavjud. Lekin ushbu munosabatlar ma'muriy tartib-taomillar sohasidagi qonunchilikda yetarli darajada rivojlanmagan. Ya'ni ma'muriy organlarning qarorlarini apellatsiya tartibida ko'rib chiqish instituti "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunda rasmiy belgilanmagan.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi *Soliq to'lovchilar va davlat soliq xizmati organlari o'rtasidagi soliq nizolarini sudgacha hal qilish kengashi tomonidan soliq nizolarini ko'rib chiqish reglamentida* (ro'yxat raqami 3150, 2019-yil 12-aprel) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi soliq to'lovchilar va davlat soliq xizmati organlari o'rtasidagi soliq nizolarini sudgacha hal qilish kengashi tomonidan soliq nizolarini ko'rib chiqish tartibini belgilangan.

Kengash O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining soliq nizolarini sudgacha hal qilish boshqarmasi tomonidan avval ko'rib chiqilgan, ko'rib chiqish natijalari soliq nizosini hal qilish uchun Kengashga murojaat qilgan arizachini qoniqtirmagan yoki qisman qoniqtirgan soliq nizolarini ko'rib chiqadi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrda "O'zbekiston Respublikasining professional ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 715-son qarori bilan *Professional ta'lim muassasalariga abituriyentlarni test sinovlari orqali qabul qilish tartibi* tasdiqlangan.

Ushbu tartibga ko'ra, professional ta'lim muassasalarida abituriyentlar murojaatlarini ko'rib chiqish uchun apellatsiya komissiyasi tashkil etilishi, apellatsiya komissiyasining tarkibi professional ta'lim muassasasi direktorining buyrug'i bilan tasdiqlanishi, apellatsiya shikoyati ikki ish kunida apellatsiya komissiyasi tomonidan abituriyentning yozma javoblari asosida ko'rib chiqilishi va tegishli qaror qabul qilinishi belgilangan. Bunda apellatsiyani ko'rib chiqish natijalaridan norozi bo'lgan abituriyent yoki uning ota-onasi belgilangan tartibda sudga shikoyat qilishlari mumkinligi belgilangan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-oktabrdagi 856-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining apellatsiya kengashi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlangan.

Apellatsiya kengashi sanoat mulki obyektlari, seleksiya yutuqlari, integral mikrosxemalar topologiyalari, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlariga nisbatan qabul qilingan qarorlari yuzasidan apellatsiyalarni ko'rib chiqish, patent berilishi kabi 10 dan ortiq nizoli ma'muriy shikoyatlarni ko'rib chiqib, mustaqil ravishda qaror qabul qiladi.

Shu kabi boshqa ayrim ma'muriy munosabatlarda ham nizolarni apellatsiya tartibida ko'rib chiqish holatlari belgilangan. Bu esa huquqni qo'llashda turlicha amaliyot shakllanishiga olib kelishi mumkin. Yagona amaliyotning yo'qligi sababli fuqarolar tomonidan ushbu mexanizmlardan turlicha foydalaniladi.

Amaldagi qonunchilik hujjatlarida ma'muriy shikoyatlarning apellatsiya tartibi-

da ko'rib chiqilishi shikoyatlarni sudgacha va (yoki) sudda hal qilish bosqichini o'z ichiga oladi. Bunday amaliyot va qonunchilik shikoyatni sudgacha majburiy ko'rib chiqish imkonini bermaydi (ayrim istisnolardan tashqari).

Shu sababli ushbu sohada islohotlarning hozirgi bosqichi davlat organlarida ma'muriy nizolarni sudgacha ko'rib chiqishning yagona tizimini yaratish, fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlarining ishonchi va huquqlarini tezkor himoya qiladigan muqobil institutlarni tashkil etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Ma'muriy adliya tizimi ma'muriy nizolarni sudgacha ko'rib chiqish tizimi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy nizolar, asosan, ma'muriy sudlar tomonidan ko'rib chiqilib, hal qilinadi, ammo ma'muriy sudga ariza berilishidan oldin ma'muriy tartibda hal qilish imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Sababi ma'muriy nizolarni sudgacha ko'rib chiqish ma'muriy sudlarning ish yuklamasini kamaytiradi hamda davlat va manfaatdor shaxslar uchun protsessual harakatlar va xarajatlarni tejashga imkon beradi.

Ushbu tizim yuqori turuvchi ma'muriy organlar tomonidan o'zlarining quyi tuzilmalarini tizimli nazorat qilib borish, ma'muriy qaror qabul qilishda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni o'z vaqtida to'g'rilash (bartaraf etish) imkonini beradi. Shu bois mazkur tizim davlat boshqaruvi sifatini oshirish nuqtayi nazaridan ham muhimdir.

Ma'muriy nizolarni sudgacha hal qilish zamonaviy ma'muriy huquqning asosiy institutlaridan biridir. Ma'muriy nizolarni sudgacha ko'rib chiqish yuqori instansiya ma'muriy organi yoki boshqa vakolatli organga berilishi mumkin bo'lgan ma'muriy shikoyat asosida amalga oshiriladi. Bunda yuqori turuvchi ma'muriy organ yoki maxsus vakolatli organ ushbu nizolarni ko'rib chiqishi mumkin.

Ma'muriy hujjatlarni qabul qilishda shaffoflik va huquqiy aniqlik, yagona amaliyotning mavjud bo'lishi yagona ma'muriy tar-

tib-taomillar tizimini talab qiladi. Bunday bir xillik ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi, ma'muriy hujjatlarni qabul qilish jarayonini tezlashtiradi va samaradorligini oshiradi.

Ushbu munosabatlarni tartibga solish bo'yicha O'zbekistonda amaliy harakatlar boshlangan bo'lsa-da, nizolarni hal qilishda yagona huquqiy mexanizmlar belgilanmagan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyuldagi "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4754-son qarori bilan Davlat bojxona qo'mitasi, Kadastr agentligi, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hamda Namangan, Buxoro va Toshkent viloyatlari hokimliklari huzurida eksperiment tariqasida 2020-yil 1-avgustdan boshlab *jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlat organlari o'rtasidagi nizolarni sudgacha hal qilish bo'yicha 7 nafardan 11 nafargacha a'zolaridan iborat tarkibda apellatsiya kengashlari* tashkil etilgan.

Apellatsiya kengashi tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari (qarorlari) yoxud harakatsizligi natijasida o'z huquq va erkinliklari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari buzilganligi haqidagi murojaatlari ko'rib chiqilishi belgilangan.

Ushbu qaror ham jismoniy va yuridik shaxslarning bunday ishlar yuzasidan to'g'ridan to'g'ri boshqa vakolatli davlat organlari va sudga murojaat qilish huquqini istisno etmaydi. Biroq O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunida ma'muriy tartib-taomillar sohasidagi nizolarni sudgacha hal qilish tartibi huquqiy tartibga solinmagan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risida"gi kodeksining 4-moddasida ham har qanday mansabdor shaxs o'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari himoya

qilish uchun ma'muriy sudga (sudga) murojaat qilishga haqliligi va sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy emasligi belgilangan.

Jahon amaliyotida nizolarni hal qilishning turli usul va shakllari mavjud. Ularning tanlovi nizoning xususiyatiga bog'liq. Ko'pgina mamlakatlarda ma'muriy nizolarni hal qilish uchun maxsus tuzilma yaratilmoqda. Yaratilayotgan muqobil organlarning mavjudligi bu qaror va harakatlari shikoyat qilinayotgan davlat organlaridan qat'i nazar ko'rib chiqadi. Bunday arizalarni ko'rib chiqish natijasida vakolatli organ qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Masalan, Angliyada ma'muriy nizolar tribunallar yaratish, vositachilik, sud buyruqlari va Ombudsmanning vositachilik funksiyalari ni kengaytirish orqali hal qilinadi.

Ixtisoslashgan ombudsmanlar (moliyaviy, sug'urta) ko'plab mamlakatlarda keng tarqalgan. Masalan, Qozog'iston Respublikasida sohaga ixtisoslashgan Ombudsman (komissar) instituti orqali huquqlarni himoya qilishning keng tizimi mavjud (inson huquqlari bo'yicha komissar, bank Ombudsmeni, sug'urta Ombudsmeni, investitsiya Ombudsmeni va b.) [3].

Tahlillar Markaziy Osiyo davlatlarining ma'muriy tartib-taomillar sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik va uning qo'llanish doirasi ko'proq 1977-yilda kuchga kirgan Germaniyaning "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga (Verwaltungsverfahrensgesetz) muvofiq kelishini ko'rsatdi.

Germaniyada ma'muriy nizolarni hal qilishda ma'muriy sudlar muhim o'rin tutadi. Ombudsman ma'lum summadagi (miqdordagi) ishni ko'rib chiqib, qaror qabul qilishi mumkin.

AQShda sudgacha ma'muriy nazorat institutlarining rivojlanishida ma'muriy hujjatlarning qonuniyligi sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Qo'shma shtatlardagi ma'muriy adliya tizimi markazlashtirilmagan

va bir-biridan farq qiladi. Ma'muriy-huquqiy faoliyatning har bir sohasi ma'muriy tartibga solish maqsadlariga javob beradigan va manfaatdor shaxslarning ishonchini ta'minlaydigan o'z mexanizmlariga ega.

Fransiyada esa ma'muriy sudlovning butun tizimi, asosan, sudsiz xarakterga ega. Sababi ma'muriy adliya tizimi davlat boshqaruvining alohida instituti sifatida rivojlangan. Shu sababli Germaniya va AQSh davlatlaridan farq qiladi. Ya'ni har bir modelning o'ziga xos ustunliklari mavjud.

Fransiyaning ma'muriy adliya tizimi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ya'ni sudlar ijro hokimiyati organlari faoliyatini nazorat qilmaydi. Ma'muriy organlar faoliyatining qonuniyligini nazorat qilish vazirliklar rahbarlari zimmasiga yuklatilgan.

Fransiyada ma'muriy nizolarni ko'rib chiquvchi *Davlat kengashi* tashkil etilgan va 1872-yilda ma'muriy adliyaning eng yuqori organi maqomi sifatida qonun bilan belgilangan. Davlat kengashi davlat boshqaruvi tizimida alohida institut sifatida shakllangan. Ushbu jihatlari bilan Germaniyaning ma'muriy adliya tizimidan farq qiladi.

Bugungi kunda ma'muriy nizolarni ko'rib chiqish va hal qilish bo'yicha Fransiya ma'muriy adliya tizimi 42 ta ma'muriy tribunal, 8 ta apellatsiya sudi va ma'muriy nizolar bo'yicha oliy hokimiyat rolini o'ynaydigan Davlat kengashi faoliyat ko'rsatadi.

Ma'muriy Adliya kodeksi Davlat Kengashini Oliy ma'muriy sud deb ataydi. Ma'muriy sudlar konstitutsiyaviy maqomga ega emas, ammo Fransiya Konstitutsiyaviy Kengashi ma'muriy sudyalarning mustaqilligi prinsipi-ga konstitutsiyaviy xarakter bergan. Shunday qilib, butun tarixi davomida fransuz ma'muriy adliya tizimi ikki tomonlama xarakterni saqlab qoladi: asosan, ma'muriy organlar bo'lib, ular ko'p jihatdan sudlarga taqqoslanadi va hatto ko'pincha sudlar deb ataladi. Ma'muriy nizolar bo'yicha Davlat Kengashining qarorlari yakuniy hisoblanadi va muhokama qilinmaydi.

Ma'muriy odil sudlovning quyi bo'g'ini ma'muriy tribunallar hisoblanadi. Ma'muriy nizolarni ko'rib chiqishdan tashqari, ular mahalliy boshqaruv organlariga maslahat berish bilan ham shug'ullanadi.

Fransiya Davlat kengashi va uning quyi tuzilmalarining Germaniya ma'muriy sudlaridan yana bir farqi ular normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi nizolarni ham ko'rib chiqadilar.

Fransiyada Ma'muriy apellatsiya sudlari 1987-yilda tashkil etilgan. Ular ma'muriy sudlarning qarorlari ustidan kelib tushgan shikoyatlarni ko'rib chiqadi. Ma'muriy sudlar va apellatsiya sudlari, qoida tariqasida, ma'muriy nizolarni to'liq ko'rib chiqadi, yangi dalillarni jalb qiladi va haqiqiy holatlarni yangidan tekshiradi. Davlat kengashi esa ma'muriy nizolarni kassatsiya instansiyasi sifatida ko'rib chiqadi.

Nizolarni sudgacha hal qilishni tartibga solish uchun ma'muriy shikoyatlarni ko'rib chiqish muddati muhim ahamiyatga ega bo'lib, nizolarni suddan tashqari hal etish bo'yicha xorijiy amaliyotda 1 oydan (Litva, Portugaliya) 9-10 oygacha (Daniyada) belgilanadi. Ko'pgina Yevropa mamlakatlarida nizolarni hal qilishning o'rtacha davomiyligi 3-4 oyni tashkil qiladi [4].

Sudgacha bo'lgan usullar nizolarni hal qilishning majburiy vositasidir, ularsiz sudga murojaat qilish mumkin emas. Qarama-qarshi tomonlar kelishmovchiliklarni hal qilish uchun ulardan foydalanishlari kerak, agar bu yordam bermasa, ular sudga da'vo bilan murojaat qilishlari mumkin.

Rossiya Federatsiyasining "Rossiya Federatsiyasida ma'muriy tartib-taomillar va ma'muriy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunining 61-moddasida ma'muriy harakat yoki ma'muriy organ va mansabdor shaxsning harakatsizligi ustidan mansabdor shaxsga ma'muriy yoki sud tartibida shikoyat qilinishi mumkinligi belgilangan [5].

Qonunga ko'ra, ma'muriy hujjat yoki ma'muriy ish yuritishdagi harakatsizlik us-

tidan ma'muriy tartibda shikoyat qilish ma'muriy organga, shikoyat qilingan ma'muriy akti qabul qilgan mansabdor shaxsga yoki yuqori ma'muriy organga, yuqori mansabdor shaxsga berilishi mumkin. Ushbu qonunda sudgacha majburiy shikoyat qilish masalalari belgilanmagan.

Rossiya Federatsiyasining ayrim qonunchilik hujjatlarida sudga majburiy shikoyat qilish mexanizmlari belgilangan.

Masalan, Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 138-moddasida soliq qonunchiligiga oid kameral va sayyor soliq tekshiruvlari natijasi yuzasidan qabul qilingan qarorlar bo'yicha soliq nizolarini hal qilish uchun sudgacha bo'lgan majburiy tartib belgilangan. Unga ko'ra, 2014-yil 1-yanvardan boshlab soliq organlarining normativ bo'lgan hujjatlari, shuningdek ularning mansabdor shaxslarining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan yuqori soliq organiga shikoyat qilinganidan keyingina sudga shikoyat qilinishi mumkinligi belgilangan [6].

Bu, albatta, sudlarning ish yuklamasini kamaytirishga xizmat qiladi, lekin soliq organlarining mas'uliyati va moliyaviy xarajatlarini oshiradi.

Rossiya Federatsiyasining 2010-yil 27-iyuldagi 193-FZ-son "Nizolarni vositachi ishtirokida hal qilishning muqobil tartibi (mediatsiya tartib-taomili) to'g'risida"gi Federal Qonuniga muvofiq, mediatsiya huquqiy tartibga solishni o'z ichiga oladi [7]. Rossiya Federatsiyasida nizolarni mustaqil shaxs – vositachi (mediatorlik tartib-qoidalari) ishtirokida hal qilishning muqobil tartibi belgilangan. Qonun fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan, shu jumladan, tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq nizolarga nisbatan mediatsiya tartibini qo'llash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

Rossiya Federatsiyasining "Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risida"gi kodeksining 4-moddasida, agar qonun ma'muriy ishlarining ma'lum bir toifasi uchun ma'muriy yoki

boshqa ommaviy nizoni hal qilishning majburiy sudgacha tartibini belgilasa, bunday tartibga rioya qilingandan so'ng sudga murojaat qilish mumkinligi belgilangan. Bundan ko'rinadiki, Rossiya Federatsiyasida ham ma'muriy yoki boshqa ommaviy nizoni majburiy sudgacha hal qilish choralarini ko'rish talablari mavjud.

Xorijiy davlatlarda ma'muriy nizolarni hal qilishda mediatsiyaga yo'l qo'yiladi. Xususan, Fransiyada ham ijtimoiy sug'urta tizimidagi nizolarni hal qilishda mediatsiyadan foydalaniladi.

Finlandiyada mediatsiyani fuqarolik va jinoiy nizolarga ham qo'llashga ruxsat berilgan [7].

Xorijiy davlatlar tajribasi ma'muriy nizolarni sudgacha ko'rib chiqish ixtiyoriy yoki ayrim nizolar bo'yicha nizoni sudgacha hal qilish majburiy usullar sifatida belgilanganligi, ayrim davlatlarda ma'muriy nizolarni ko'rib chiqish bo'yicha alohida institutlar borligi, nizolarni sudgacha hal qilish mexanizmlari hamda ma'muriy tartib-taomillar bilan bog'liq nizolarga ham mediatsiyani qo'llash amaliyoti mavjudligini ko'rsatdi.

Shu sababli nizolarni hal qilishda vakolatli organlar tizimini aniqlash va nizolarni sudgacha hal qilish mexanizmlarini belgilash muhimdir. Sababi nizolarni sudgacha hal qilish jarayonida aholi va tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini tezkor va adolatli ta'minlash ortiqcha byurokratiya va xarajatlarni qisqartirish imkonini beradi. Ushbu tizimning samarali ishlashi aholining davlat organlariga bo'lgan ishonchi oshishiga xizmat qiladi.

Ma'muriy adolatni joriy etishning dolzarbligi aniq. Biroq tan olishimiz kerakki, boshqa ilg'or mamlakatlar bilan taqqoslaganda, bizda bu masalada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar ko'p.

R.S. Tixiyning fikriga ko'ra, "ma'muriy tartib-taomillar ijro etuvchi organlar faoliyatini tartibga soluvchi normativ reglamentlashtirish sifatida mansabdor shaxslarning vako-

latli boshqaruv qarorlarini qabul qilish tartibi, shu jumladan muayyan ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish va hal qilishni ta'minlaydi" [8].

Huquqiy davlatda ma'muriy tartib-taomillar ma'muriy hokimiyat faoliyatining muayyan asoslarini belgilaydi, fuqarolarning davlat boshqaruvi organlari va mansabdor shaxslarning o'zboshimchaliklaridan kafolatni mustahkamlaydi [9].

Xulosalar

Nizolarni hal etishning muqobil mexanizmlarini yaratish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari tezkor himoya qilinishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga *nizolarning sud-da majburiy tartibda ko'rib chiqilishiga oid norma (modda)* kiritish va u ma'muriy shikoyatlarning sudgacha ko'rib chiqishning majburiy sharti bo'lishi lozim.

Xususan, Qonunning 63-moddasini quyidagi talablar asosida takomillashtirish zarur:

birinchi, ma'muriy shikoyat to'g'ridan to'g'ri yuqori instansiya ma'muriy organiga berilgan taqdirda, ushbu organ ustidan shikoyat qilinayotgan ma'muriy akt, ustidan shikoyat qilinayotgan boshqa hujjatni qabul qilgan yoki ustidan shikoyat qilinayotgan ma'muriy harakatni sodir etgan ma'muriy organdan besh ish kuni ichida ma'muriy ishni so'rab olishi;

ikkinchi, ma'muriy aktlar, ma'muriy organning boshqa hujjatlari hamda *ma'muriy harakatlar ustidan sudga qadar ma'muriy tartibda shikoyat qilish* ma'muriy aktlar, ma'muriy organning boshqa hujjatlari va ma'muriy harakatlar bo'yicha sud tartibida nizolashishga yo'l qo'yilishining *majburiy sharti hisoblanishi* (bundan manfaatdor shaxsning huquqlariga tahdidni bartaraf etish uchun dastlabki sud himoyasining shoshilinch choralar ko'rish zarur bo'lgan hollar mustasno);

uchinchi, manfaatdor shaxs ma'muriy akt, ma'muriy ish yuritishni tugatish to'g'risidagi protsessual hujjat, ma'muriy ish yuritish bilan bog'liq xarajatlarni zimmaga yuklatish

to'g'risidagi protsessual hujjat, ijro hujjati yoki ma'muriy harakat ustidan berilgan ma'muriy shikoyatni ko'rib chiqish natijalaridan norozi bo'lgan yoki yuqori instansiya ma'muriy organi mavjud bo'lmagan yoxud ma'muriy shikoyat berish muddati tugagan taqdirda, tegishli ma'muriy akt, ma'muriy organning boshqa hujjati yoki ma'muriy harakat yuzasidan sud tartibida nizolashishga haqliligini belgilash;

to'rtinchi, jamoatchilik, ekspertlar va mansabdor shaxslar ishtirokida apellatsiya komissiyalarini tuzish, ushbu komissiyalar to'g'ridan to'g'ri davlat organidan mustaqil bo'lishi va shikoyatlar natijalari bo'yicha mustaqil ravishda qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lishi mumkinligini belgilash lozim;

beshinchi, ma'muriy organning o'zi qabul qilgan ma'muriy qarori ustidan kelib tushgan shikoyatni ko'rib chiqishi va ma'muriy akt, ni bekor qilish yoki o'zgartirishga haqliligini belgilash. Bunda ma'muriy shikoyatni bergan shaxs, shuningdek, huquq va qonuniy manfaatlari ma'muriy aktga daxldor bo'lgan manfaatdor shaxslar qabul qilingan qaror haqida zudlik bilan xabardor qilinishi maqsadga muvofiq;

oltinchi, ma'muriy nizolarni mediatsiya shaklida ko'rib chiqish va hal qilishga ruxsat berish lozim. Bunda mediatsiyaga dastlab ma'muriy nizolarning ayrim toifalari, xususan, faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash, boshqa maxsus ruxsatnomalar berish, obyektlar va ularga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, majburiy to'lovlarini (soliqlar, yig'imlar, majburiyatlar) yig'ish, texnik masalalar bo'yicha kelishmovchiliklar mavjudligi sababli tegishli davlat boshqaruvi organlari va jismoniy shaxslar o'rtasidagi nizolarni kiritish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga ikkita muhim masalani kiritish lozim. Bunda, birinchi navbatda, nizolarning sudgacha majburiy tartibda ko'rib chiqilishiga oid norma (modda)

kiritish va ma'muriy shikoyatlarni sudgacha ko'rib chiqishning mexanizmlarini belgilash, shuningdek ma'muriy nizolarni hal qilishga mediatsiyani joriy etish kerak. Ushbu mexa-

nizmlar nizolarni tezkor hal qilish, aholining ortiqcha vaqt va mablag'lari tejalishi hamda ma'muriy sudlarning ish yuklamalari kamayishiga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Yefremov M.O. Administrativniye protseduri kak forma realizatsi kompetensi organov publichnoy vlasti vo vzaimootnosheniya s chastnimi litsami [Administrative procedures as a form of implementation of the competence of public authorities in relations with private individuals]. PhD thesis. Moscow, 2005, pp. 15-16.
2. Ponce J. Good Administration and administrative procedures. *Indiana Journal of Global Legal Studies*, 2005, July, vol. 12 (2), pp. 551–588.
3. Pomazkova S.I. Dosudebnoye uregulirovaniye sporov administrativnogo xaraktera v Rossi i za rubejom [Pre-trial settlement of administrative disputes in Russia and abroad]. *Ekonomika. Pravo. Obshestvo – Economy. Right. Society*, 2017, no. 4, pp. 68–74.
4. Official website of the Commissioner for Human Rights of the Republic of Kazakhstan. Available at: <http://www.ombudsman.kz/>.
5. Nalogoviy kodeks Rossiyskoy Federatsii [Tax Code of the Russian Federation]. Available at: <http://pravo.gov.ru/proxy/>.
6. Ob alternativnoy protsedure uregulirovaniya sporov s uchastiyem posrednika (procedure mediatsi) [On the alternative procedure of uregulirovaniya sporov with uchastiyem posrednika (mediation procedure)]. Federal law of 2010, July 27, no. 193-FZ. Available at: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_103038/.14/.
7. Kodeks administrativnogo sudoproizvodstva Rossiyskiy Federatsii. [Code of Administrative Judicial Proceedings of the Russian Federation].
8. Tixiy R.S. Problemi pravovo regulirovaniya administrativnix protsedur v RF (regionalno-pravovoy aspekt) [Problems of legal regulation of administrative procedures in the RF (regional-legal aspect)]. Abstract of PhD thesis. Tyumen, 2005.
9. Zyuzin V.A., Fyodorova T.V. Nekotorie vidi administrativnix protsedur [Some types of administrative procedures]. *Gosudarstvennaya slujba i kadri – Public service and personnel*, 2019, no. 4, pp. 212–215.

UDC: 347.77(045)(575.1)

O'ZBEKISTONDA MUALLIFLIK HUQUQI HIMOYASINI TA'MINLASHDA MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLARNING TUTGAN O'RNI

Yuldashov Abdumo'min Abdugopirovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Intellectual mulk huquqi kafedrası

dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0002-2940-8718

e-mail: abdumuminyuldashev@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda O'zbekistonda mualliflik huquqi himoyasining holati va jaryonlari, xususan, bunda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning o'rni xususida so'z boradi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, fan, adabiyot va san'at asarlarining mualliflari, ijrochilar, fonogrammalarni tayyorlovchilar yoki boshqa huquq egalari o'z mulkiy huquqlarini amalga oshirish maqsadida o'z mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqaradigan tashkilotlar tuzishga haqlidir. Maqolada ushbu turdagi tashkilotlar o'z vazifa va funksiyalarini amalga oshirishda qo'llaydigan huquqiy usul va vositalarning yuridik ahamiyati keltirilgan. Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar o'zi boshqarayotgan huquqlarni himoya qilish uchun zarur bo'ladigan har qanday yuridik harakatlarni bajarish huquqiga ega ekanligidan kelib chiqib, ushbu harakatning yuridik tabiati, muallif va huquq egalarining mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy huquqlari himoyasini amalga oshirish mexanizmlari sud amaliyoti orqali yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot o'zi qaysi huquq egalarining nomidan ish ko'rayotgan bo'lsa, shu huquq egalarining nomidan va ulardan olingan vakolatlar asosida to'lanadigan haq miqdori va shartnomalarning tuzilishiga doir boshqa shartlarni foydalanuvchilar bilan kelishib olishi, bunday tashkilot boshqarayotgan huquqlardan foydalanish uchun foydalanuvchilar bilan shartnomalar tuzish va haq miqdorini kelishib olish kabi masalalar ham muhokama qilingan. Yakunda O'zbekistonda mualliflik huquqini jamoaviy asosda boshqarish "instituti"ni takomillashtirish masalasi haqida xulosalar qilingan.

Kalit so'zlar: mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqarish, mualliflik huquqi, mulkiy huquqlar, shaxsiy nomulkiy huquqlar, foydalanuvchi, mualliflik shartnomasi, litsenziya shartnomasi.

РОЛЬ ОРГАНИЗАЦИЙ, УПРАВЛЯЮЩИХ ИМУЩЕСТВЕННЫМИ ПРАВАМИ НА КОЛЛЕКТИВНОЙ ОСНОВЕ, В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЗАЩИТЫ АВТОРСКИХ ПРАВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Юлдашов Абдумумин Абдугопирович,

доктор философии по юридическим наукам (PhD), и.о. доцента

кафедры Право интеллектуальной собственности

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье рассматриваются современное состояние и процессы защиты авторских прав в Узбекистане, в частности роль организаций, осуществляющих управление

имущественными правами на коллективной основе. Известно, что в соответствии с Законом Республики Узбекистан «Об авторском праве и смежных правах» авторы, исполнители, производители фонограмм или иные правообладатели произведений науки, литературы и искусства для осуществления своих имущественных прав имеют право создавать организации, управляющие имущественными правами на коллективной основе. В статье освещается юридическое значение правовых методов и средств, используемых такими организациями при выполнении ими своих задач и функций. В связи с тем, что организации, управляющие имущественными правами на коллективной основе, вправе совершать любые юридические действия, необходимые для защиты прав, которыми они управляют, освещены правовая природа этих действий, механизмы защиты имущественных и личных неимущественных прав авторов и держателей прав. В статье также предусмотрено, что организация, осуществляющая управление имущественными правами на коллективной основе, может согласовывать с пользователями размер вознаграждения, подлежащего выплате от имени правообладателей и на основании вытекающих из них полномочий, и иные условия договоров. Также обсуждены такие вопросы, как заключение соглашений с пользователями и согласование с пользователями суммы вознаграждения за осуществление прав, которыми управляет организация. Выводы автора основаны на вопросе совершенствования института коллективного управления авторскими правами в Узбекистане.

Ключевые слова: управление имущественными правами на коллективной основе, авторский права, имущественные права, личные неимущественные права, пользователь, авторский договор, лицензионный договор.

THE ROLE OF COLLECTIVE MANAGEMENT IN ENSURING COPYRIGHT PROTECTION IN UZBEKISTAN

Yuldashov Abdumumin Abdugopirovich,

Acting Associate Professor of the Department of
Intellectual Property Law of Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. The article discusses the current state and processes of copyright protection in Uzbekistan, in particular, the role of organizations that manage property rights on a collective basis. It is known that according to the Law of the Republic of Uzbekistan “On Copyright and Related Rights”, authors, performers, producers of phonograms or other copyright holders of works of science, literature and art, in order to exercise their property rights, have the right to create organizations that manage their property rights on a collective basis. The article highlights the legal significance of the legal methods and means used by such organizations in the performance of their tasks and functions. Due to the fact that organizations that manage property rights on a collective basis are entitled to take any legal actions necessary to protect the rights they manage, the legal nature of these actions, the mechanisms for protecting the property and personal non-property rights of authors and right holders with highlights. The article also provides that an organization which manages property rights on a collective basis may agree with users on the amount of remuneration to be paid on behalf of the right holders and the basis of the powers arising from them, and other terms of contracts. Issues such as entering into agreements with users and negotiating with users the amount of remuneration for exercising the rights managed by the organization were also discussed. The conclusion based on the issue of improving the “institution” of collective copyright management in Uzbekistan is provided at the end of the article.

Keywords: management of property rights on a collective basis, copyright, property rights, moral rights, user, author’s agreement, license agreement.

Kirish

Bugungi kunda O'zbekistonda mualliflik huquqini muhofaza qilishning zamonaviy huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish sohasida ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada, ayniqsa, mualliflik huquqini muhofaza qilishning shartnomaviy-huquqiy asoslari va mexanizmlarini takomillashtirish, asarlardan foydalanishda "mualliflik shartnomasi" institutini keng joriy etish, taraflarning huquq va majburiyatlarini qat'iy belgilash, shuningdek, xalqaro va milliy miqyosda mualliflar mulkiy huquqlarini boshqarishda qo'llanadigan turli vosita hamda usullarni takomillashtirishning ilmiy-nazariy va amaliy yechimlarini topish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda mualliflik huquqi, ya'ni adabiy, san'at va tasviriy san'at asarlarini hurmat qilish qay darajada deb o'ylaysiz? Mualliflik asarlaridan muallif yoki boshqa huquq egasining roziligi bilan foydalaniladimi? Afsuski, bugungi kunda bu kabi savollarning ko'pi javobsiz yoki so'raluvchi shaxs uchun "g'ayritabiiy" savoldek tuyulishi mumkin. Ha, aynan shunday. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunida muallif yoki huquq egasining mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari doirasi belgilab berilgan. Hattoki shaxsiy maqsadlarda foydalanilganlik uchun ham haq to'lash bilan bog'liq qoidalar mavjud. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1056-moddasiga ko'ra, muallifga asardan har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanishda mutlaq huquqlar tegishlidir. Ushbu kodeksga ko'ra, intellektual faoliyat natijasiga yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositaga nisbatan mulkiy huquqlar egasiga ana shu intellektual mulk obyektidan o'z xohishiga ko'ra har qanday shaklda va har qanday usulda mutlaq qonuniy foydalanish huquqi tegishli bo'ladi.

Eng muhimi, bugungi kunda mualliflik huquqi obyektlari o'zining tarmoq yo'nalishlari: *a) adabiyot va noshirlik; b) musiqa*

va teatr; d) kino; e) radio va televideniye; f) fotografiya asarlari; g) EHM va ma'lumotlar bazalari; h) vizual va grafik ishlar; i) reklama xizmatlari; j) mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlardan kelib chiqib, rivojlangan xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotida katta o'rin tutmoqda. Xususan, 2019-yilda AQSh yalpi ichki mahsulotida mualliflik huquqi sanoati ulushi 2,5 trillion (2,568,23 mlrd) AQSh dollariga yetib, mamlakat iqtisodiyotining 11,99 foizini tashkil etgan [1]. Shuningdek, Mualliflar va bastakorlar xalqaro konfederatsiya (CISAC) 130 dan ortiq mamlakatdan 250 dan ortiq mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarni birlashtirgan bo'lib, 2017-yilda ushbu tashkilot tarkibiga kiruvchi mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar tomonidan yig'ilgan mualliflik haqlari miqdori 447,8 mln AQSh dollarini tashkil etgan.

Material va metodlar

Shuni ta'kidlash kerakki, mamlakat iqtisodiy ko'rsatkichlarida mualliflik huquqi obyektlari ulushini hosil qilish va oshirib borish uchun, fikrimizcha, birinchi navbatda, uning huquqiy himoyasi masalalarini ta'minlash lozim. Ushbu sohada faoliyat yuritayotgan olimlar tomonidan, asosan, mulkiy huquqlarni boshqarish bilan bog'liq tadqiqotlar nazariy nuqtayi nazardan cheklangan.

Tan olish kerakki, o'zbekistonlik ijodkorlar qalamiga mansub mualliflik va turdosh huquqlar obyektlariga bo'lgan talab Markaziy Osiyo va xorijiy mamlakatlarda ancha kuchli. Ushbu jarayonlarga nisbatan mualliflik huquqi hamda iqtisodiyot qoida va mexanizmlarini qo'llashning o'zi yetarli deb o'ylayman. Sababi sohaga doir normativ-huquqiy hujjatlarimiz xalqaro shartnoma va konvensiyalar talablariga to'la mos keladi hamda ularni mumkin bo'lsa "mukammal" deyishga arziydi. Biroq amaliyotda yuqoridagi qonun normalari hamda mualliflik huquqiga hurmat tamoyillari deyarli "ishlamasligi"ni ko'rish mumkin. Bu borada, birinchi navbat-

da, “intelektual mulk institutlari” rolini oshirish davr talabidir. Mazkur institutlar qatoriga *mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar, texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlari, patent vakillari, ilmiy-tadqiqot va o'quv muassasalarini* kiritish mumkin. Xususan, mualliflik huquqida mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar asosiy huquqiy mexanizm va vosita hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqot ishlarining asosiy jihati, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar tomonidan *sudlarda huquqlarni himoya qilish va ma'naviy zararni talab qilish* bilan bog'liq holatlarda ko'rinadi. Aynan ushbu masalalar tadqiqotning asosiy metodlarini tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari

Ma'lumki, texnika taraqqiyoti jadallashgan bugungi kunda mualliflik huquqi bilan muhofaza qilinadigan asarlar himoyasini ta'minlash masalasi dolzarb hisoblanadi. Zero, muallif yoki huquq egasi tomonidan asar himoyasini ta'minlash juda qiyin va moliyaviy jihatdan juda qimmat, kerak bo'lsa, aytish mumkinki, imkonsizdir.

Simsiz aloqa vositalaridan foydalanish darajasi va doirasi juda keng. Har bir foydalanuvchi bilan kelishish va monitoring qilish masalalari haqida o'ylab ko'rishning o'zi yetarli. Ayniqsa, chegara bilmas internet (virtual) muhiti rivojining o'zi buni yaqqol tasdiqlaydi. Bu jarayonda o'z-o'zidan bozor munosabatlari elementlari ham muhim rol o'ynaydi. Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqarish tashkilotlari yuqoridagi muammoni hal qilish hamda bozor munosabatlari ishtirokchisi sifatida bu borada muhim o'rin tutadi.

Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar – bu huquq egalari ning nomidan harakat qiluvchi tashkilot hisoblanadi. Huquq egalari nomidan bu kabi tashkilotlar foydalanuvchilar bilan tariflarni kelishadi, muhofaza qilinadigan asarlardan foydalanish bo'yicha litsenziyalarni beradi,

asarlardan foydalanishdan tushgan mablag'larni o'z a'zolari o'rtasida taqsimlaydi hamda foydalanish tartibini nazorat qiladi [2].

Shuni ta'kidlash kerakki, bu kabi tashkilotlar tuzish tashabbusi bilan aynan muallif va huquq egalari chiqishlari lozim. Xususan, O'zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi Qonuni 56-moddasida fan, adabiyot va san'at asarlarining mualliflari, ijrochilar, fonogrammalarni tayyorlovchilar yoki boshqa huquq egalari o'z mulkiy huquqlarini amalga oshirish maqsadida o'z mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqaradigan tashkilotlar tuzishga haqli ekanligi belgilangan.

Tarixga nazar tashlasak, dastlab bu kabi tashkilot 1777-yilda tashkil etilgan va Dramaturglar huquqiy himoya qilish byurosi deb nomlangan. Ushbu byuro “Figaroning uylanishi” nomli mashhur asar muallifi Pe'r de Bomarshe tomonidan tashkil etilgan [3].

Jahon tajribasida mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish ikki xil tizimda tashkil etiladi. Birinchisi *raqobat tizimi* bo'lib, bunda faoliyat yo'nalishidan kelib chiqib, turli shu tusdagi tashkilotlar tuzilishiga yo'l qo'yiladi. Ikkinchisi esa *monopolistik tizim* bo'lib, bunda mamlakatda faqatgina yagona mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot tuzilishi belgilangan. Shandong Universiteti Huquq maktabi tadqiqotchisi Chenyi Zhao AQSh (*raqobat tizimi*) va Germaniya, Italiya (*monopol tizim*) davlatlarini ushbu yo'nalishlarga misol sifatida keltirgan [4]. Shuningdek, ushbu ro'yxatga Yaponiya, Meksika, Norvegiya, Polsha, Shvetsiya, Daniya davlatlarini ham kiritish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, ba'zi bir davlatlarda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar davlat ko'magida tashkil etilish amaliyoti ham mavjud (Masalan, Rossiya Federatsiyasi).

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bu kabi tashkilotlarni xususiy xarakter yoki davlat muassasasi xarakterini kasb etishi

mumkinligini bildirgan. Shuningdek, ularning asosiy vakolatlari quyidagi funksiyalar orqali bajarilishini qayd etgan: *monitoring qilish, muzokaralar o'tkazish, litsenziyalar berish, haq (gonorar)larni yig'ish va taqsimlash* [5].

Hozirda AQShda quyidagi 13 ta mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot tegishli ixtisoslik asosida faoliyat yuritmoqda:

- ACEMLA (Lotin Amerikasi bastakorlari, musiqachilari va yozuvchilarining huquqlari himoyasi);
- AFM & SAG-AFTRA, ASCRL (fotografiya asarlari);
- ASCAP (AQSh bastakorlari, mualliflari va nashriyotlari);
- BMI (Broadcast Music Inc.) (radio uzatuvchilar);
- Christian Copyright Licensing International, Christian Video Licensing International, Copyright Clearance Center, Global Music Rights, Motion Picture Licensing Corporation, SESAC (AQShda joylashgan fonogramma tayyorlovchilar huquqlari assotsiatsiyasi);
- SoundExchange (internet tarmog'ida huquqlar muhofazasi).

Ma'lumki, muallif yoki huquq egasi o'z asarlariga nisbatan huquqlarni boshqarishni mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqarish tashkilotlariga o'tkazadi. Bu jarayon esa litsenziyalash asosida amalga oshiriladi. Mualliflik huquqini litsenziyalashtirishni quyidagi shakllarda keltirish mumkin: birinchidan, jamiyat va iste'molchilar o'rtasida obro'ga ega bo'lgan foydalanuvchilar mualliflik huquqi bilan muhofazalangan asarlardan foydalanishda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar bilan kelishadi va shartnomalar tuzadi; ikkinchidan, foydalanuvchilar litsenziya oladi va tegishli gonorarlarni to'lab boradi, o'z navbatida, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar tegishli haqni (ma'muriy xarajatlar uchun) chegirib olgan holda, uni muallif (huquq egasi)larga to'laydi;

mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar o'z reestridagi asarlardan foydalanish holatlarini nazorat qiladi va zaruriyatga ko'ra, yuridik harakatlarni amalga oshiradi [6].

Yuqoridagilardan tashqari mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar o'z a'zolariga (muallif, ijrochi, bastakor) o'zlariga tegishli asarlarning foydalanish holatlarini nazorat qilish bo'yicha funktsiya ham beradi [7]. Bu o'z-o'zidan mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar majburiyatlari qatoriga kirib, O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni 59-moddasida majburiyatlar qatorida quyidagilar ham keltirib o'tilgan:

- haq to'lash bilan bir vaqtda huquq egalariiga ularning huquqlaridan foydalanilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hisobotlarni taqdim etish;
- yig'ilgan haqdan faqat huquq egalariiga taqsimlash va to'lash uchun foydalanish;
- yig'ilgan haq summalarini asarlardan va turdosh huquqlar obyektlaridan amalda foydalanilishiga mutanosib ravishda taqsimlashi hamda muntazam to'lab borishi;
- yig'ilgan haqni bevosita huquq egalariiga taqsimlashi hamda to'lashi va (yoki) uni huquq egalariiga taqsimlash va to'lash uchun tegishli toifadagi huquq egalariining manfaatlarini ifodalovchi boshqa tashkilotlarga shu tashkilotlar bilan tuzilgan kelishuvlar asosida o'tkazish.

Mualliflik huquqi obyektlari ro'yxatidan o'tkazilmasligi nuqtayi nazaridan, o'z navbatida, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarga huquqiy egalikni tasdiqlash va aniqlashtirish bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni 65-moddasiga ko'ra, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot mulkiy huquqlarini boshqarish shunday tashkilot tomonidan amalga oshirilayotgan shaxslarning buzilgan

mualliflik huquqlari va turdosh huquqlarini himoya qilib, qonunda belgilangan tartibda o'z nomidan ariza bilan sudga murojaat etishga haqlidir. Shuningdek, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot o'z huquqlari qatorida o'zi boshqarayotgan huquqlarni himoya qilish uchun zarur bo'ladigan har qanday yuridik harakatlarni bajarish huquqiga ega. Aynan ushbu turdagi tashkilot tomonidan mualliflik huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq holatni quyidagi misol orqali ham ko'rish mumkin.

Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot va mualliflar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar topshiriq shartnomasi xarakteriga ega hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 817-moddasiga ko'ra, topshiriq shartnomasi bo'yicha bir taraf (vakil) ikkinchi taraf (topshiriq beruvchi)ning nomidan va uning hisobidan muayyan yuridik harakatlarni sodir etish majburiyatini oladi. Vakil tuzgan bitim bo'yicha huquq va majburiyatlar bevosita topshiriq beruvchida vujudga keladi. Topshiriq vakil tomonidan bir yoki bir necha muayyan yuridik harakatlarni sodir etish yoki topshiriq beruvchining ishlarini uning ko'rsatmalariga muvofiq yuritish haqida berilishi mumkinligi belgilangan. Yana shuni ham qayd etish lozimki, odatda, amaliyotda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar ko'proq muallif va bastakorlar mulkiy huquqlari himoyachisi sifatida ko'riladi. Bunga sabab ijrochilarning daromad olish manbalari ko'pligi, xususan, musiqiy "nashriyot"lar alohida o'rin tutishi qayd etiladi. Sababi musiqiy "nashriyot"lar, asosan, ijrochi yoki fonogramma tayyorlovchi yoki ovoz yozuvchi studiyalar bilan ishlaydi hamda daromad manbasi sifatida ijtimoiy tarmoqlar ko'rsatiladi (Youtube, Instagram kabi).

Vaholanki, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar ham turdosh huquqlar subyektlari mulkiy manfaatlarini ifodachisi hisoblanadi. Xususan, ushbu

jihati Jahon savdo tashkilotining TRIPS bitimi normalariga muvofiq keladi [8].

Joriy yilning 13-yanvar kuni fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Yakkasaro tumanlararo sudida mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot – da'vogar "O'zbekiston Respublikasi Mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati" o'z a'zosi, O'zbekiston xalq shoiri U. Azimov manfaatlari yuzasidan javobgar S. Javberdiyevga nisbatan mualliflik huquqi buzilishiga chek qo'yish, mualliflik huquqlari buzilganligi uchun tovon (kompensatsiya) puli va ma'naviy zararni undirish to'g'risidagi arizasi yuzasidan sud majlisi bo'lib o'tdi. Ahamiyatli jihati ushbu sud ishi o'zining yo'nalishi nuqtayi nazaridan O'zbekistonda ko'rib chiqilgan dastlabki sud ishlari qatoriga kiradi. Da'vogar, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati javobgardan muallif foydasiga 245 000 000 mln so'm tovon puli va 100 000 000 mln so'm ma'naviy zarar undirish hamda javobgar tomonidan qo'shiq qilib ijro etilgan "Karvon" she'rini turli ommaviy manbalar (internet, turli telekommunikatsiya tarmoqlari, ijtimoiy tarmoqlar)dan olib tashlashni so'ragan. Yuqoridagi sud majlisi qaroriga ko'ra, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot – O'zbekiston Respublikasi Mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyatining da'vo arizasi qisman qanoatlantirildi. Sud qaroriga ko'ra, javobgar S. Javberdiyevdan bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravari miqdorida tovon puli va 40 000 000 so'm ma'naviy zarar undirilishi belgilandi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-avgustdagi "Intellectual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni bilan "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunga zararlarni yetkazilishi faktidan

qat'i nazar huquqbuzarlikning xususiyati va huquqbuzarning aybi darajasidan kelib chiqib, ish muomalasi odatlarini hisobga olgan holda, zarar qoplanishi o'rniga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan ming baravarigacha miqdorda to'lanishi lozim bo'lgan tovonni to'lashni nazarda tutuvchi qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni 65-moddasiga muvofiq, muallif, turdosh huquqlar egasi yoki mutlaq huquqlarning boshqa egasi huquqbuzardan huquqlarni tan olishi, huquq buzilishidan oldingi holatni tiklashi va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini yuzaga keltiradigan harakatlarni to'xtatishi hamda huquq egasining huquqi buzilmagan taqdirda, u fuqarolik muomalasining odatdagi sharoitlarida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadi miqdoridagi zararlarning o'rnini qoplashini talab qilishga haqli ekanligi belgilangan. Ushbu moddadagi "mutlaq huquqlarning boshqa egasi" deyilganda, aynan mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot nazarda tutilganligini ta'kidlash lozim.

Yuqoridagi norma orqali tovon miqdori chegaralarining qonunchilikka kiritilishi sudlar uchun javobgarlik chorasini belgilashda muhim asos bo'lib xizmat qiladi, deyish mumkin. Zero, ilgari bu kabi norma mavjud emas edi va sudlar tomonidan tovonni belgilash bilan bog'liq holatlar deyarli kuzatilmagan.

Mazkur sud ishida yana bir o'ziga xos jihat – unda muallif nomidan mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot da'vo ariza bilan chiqqanligidir. Ya'ni bu kabi jarayon ham O'zbekistonda ilk marotaba kuzatilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunining 58-moddasiga ko'ra, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot o'zi qaysi huquq

egalarining nomidan ish ko'rayotgan bo'lsa, shu huquq egalarining nomidan va ulardan olingan vakolatlar asosida o'zi boshqarayotgan huquqlarni himoya qilish uchun zarur bo'ladigan har qanday yuridik harakatlarni bajarish huquqiga ega. Shuningdek, mazkur qonunning 65-moddasiga ko'ra, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot mulkiy huquqlarini boshqarish shunday tashkilot tomonidan amalga oshirilayotgan shaxslarning buzilgan mualliflik huquqlari va turdosh huquqlarini himoya qilib, qonunda belgilangan tartibda o'z nomidan ariza bilan sudga murojaat etishga haqlidir. Demak, O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonun normalariga muvofiq, bu kabi tashkilotlarga o'z a'zosi bo'lgan ijodkorlar nomidan ularning huquqlarini himoya qilish uchun barcha protsessual harakatlarni amalga oshirish vakolati mavjud, degan xulosaga kelish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2000-yil 28-apreldagi "Ma'naviy zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 7-son qarorida ma'naviy zarar deganda, jabrlanuvchiga qarshi sodir etilgan huquqbuzarlik harakati (harakatsizlik) oqibatida u boshidan kechirgan (o'tkazgan) ma'naviy va jismoniy (kamsitish, jismoniy og'riq, zarar ko'rish, noqulaylik va boshqa) azoblar tushunilishi belgilangan. G'ayriqonuniy harakatlar (harakatsizlik)ning obyekti bo'lib fuqaroga tug'ilgan vaqtidan buyon va qonunga muvofiq tegishli bo'lgan nomoddiy manfaatlari (hayoti, sog'lig'i, shaxsning qadr-qimmati, ishchanlik obro'-e'tibori, shaxsiy hayotning daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy siri), shaxsiy nomulkiy huquqlari (o'z nomidan foydalanish huquqi, mualliflik huquqi va boshqa nomulkiy huquqlarning intellektual faoliyat natijalarini qonunlarga ko'ra huquqiy muhofaza qilish) va mulkiy huquqlari (uy-joy daxlsizligi, mulk huquqi va boshqalar) buzilishi bo'lishi mumkinligi belgilangan [9].

Shuningdek, yuqoridagi sud ishi doirasida uchinchi shaxs sifatida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi ham jalb etilgan bo'lib, uning xulosasiga ko'ra, yuridik va jismoniy shaxslar asardan faqat huquq egasi yoki boshqa vakolatli shaxs bilan tuzilgan shartnomaga binoan, shu jumladan mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomaga binoan yoxud ular bo'lmagan taqdirda, bu tashkilotlarning vazifalari va majburiyatlarini bajaruvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnomaga binoan foydalanishlari mumkin. Agentlik

vakili ushbu ish doirasida yuqoridagilarga asosan, S. Javberdiyev muallifning roziligisiz uning asaridan foydalangan va "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni talablarini buzganligini bayon qilib, qonun qaror qabul qilishini so'ragan. Shuni ta'kidlash kerakki, ilgari intellektual mulk sohasidagi vakolatli organ – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi aynan mualliflik huquqi himoyasi bilan bog'liq nizolarda deyarli ishtirok etmagan edi. Buni agentlikning quyidagi rasmiy hisobotlaridan olingan ma'lumotlar orqali ham ko'rish mumkin [10].

Jadval

Intellektual mulk agentligining intellektual mulk sohasidagi sud nizolarida ishtiroki yuzasidan statistikasi (2017–2019-yy.)

2017-yil							
Ishtirok etish maqomi	Ixtiro	Tovar belgisi	Seleksiya yutug'i	Foydali model	Sanoat namunasi	Mualliflik huquqi	Jami
Javobgar sifatida	1	13	-	-	5	-	19
Uchinchi shaxs sifatida	-	62	-	-	4	-	66
Jami:	1	75	-	-	9	-	85
2018-yil							
Ishtirok etish maqomi	Ixtiro	Tovar belgisi	Seleksiya yutug'i	Foydali model	Sanoat namunasi	Mualliflik huquqi	Jami
Javobgar sifatida	1	22	-	-	2	-	25
Uchinchi shaxs sifatida	-	61	-	1	-	-	62
Jami:	1	83	-	1	2	-	87
2019-yil							
Ishtirok etish maqomi	Ixtiro	Tovar belgisi	Seleksiya yutug'i	Foydali model	Sanoat namunasi	Mualliflik huquqi	Jami
Javobgar sifatida	-	30	-	-	-	-	30
Uchinchi shaxs sifatida	5	64	1	-	-	-	70
Jami:	5	94	1	-	-	-	100

Ushbu yo'nalishda faoliyat olib boradigan rossiyalik olim Sergey Zyatitskiy jamoaviy asosda mualliflik va turdosh huquqlarni boshqarishning quyidagi 3 ta asosiy turini ajratib ko'rsatgan [11]:

1) qisman jamoaviy boshqaruv yoki "agentlik turidagi jamoaviy boshqaruv";

2) asarlar va turdosh huquq obyektlaridan shartnomasiz va haq to'lagan holda foydalanish holatlarida jamoaviy boshqaruv;

3) "kengaytirilgan jamoaviy boshqaruv", mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarga o'z a'zolari, shuningdek boshqa huquq egalari manfaatlarini himoya

qilish yuzasidan harakatni amalga oshirish (shu jumladan, “blanket litsenziya” berish huquqini ham amalga oshirish).

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) va YUNESKO mualliflik huquqida jamoaviy boshqaruvni rivojlantirish zarurligini ko'p bora ta'kidlab kelmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, Yevropa Ittifoqi Hamjamiyatining so'nggi yillardagi direktivalarida mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni boshqarishga doir masalalar asosiy joyni egallab kelmoqda.

Xususan, 2014-yil 26-fevralda Yevropa Ittifoqi parlamenti va kengashining 2014/26/EU-son “Yevropa Ittifoqi hududida musiqiy asarlardan hududlararo foydalanishni litsenziyalash”ga doir direktivasi qabul qilingan [12]. Mazkur direktiva huquq egalarining mualliflik va turdosh huquqlarga bo'lgan mulkiy huquqlarini yuqori darajada himoyalashga sabab bo'ldi. Shuningdek, ushbu hujjat ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar muallif yoki huquq egasining mulkiy huquqlari muhofazasi davrida huquqlarni ta'minlashi lozim.

Shuningdek, jahonda ikkita asosiy mulkiy huquqlarni boshqarish bo'yicha xalqaro tashkilot mavjud bo'lib, biri Muallif va bastakorlar jamiyati xalqaro konfederatsiyasi (CISAC) bo'lsa [13], ikkinchisi Reprografik huquqlarni takrorlash bo'yicha tashkilotlar xalqaro federatsiyasi (IFRRO) [14] hisoblanadi.

Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bu – ular faoliyatidagi shaffoflik va yig'ilgan mualliflik haqlarining belgilangan shartlarda va muddatda to'lanishidir. So'nggi yillarda O'zbekistonda ham bu kabi tashkilotlar soni ortib borayotganligi munosabati bilan Hukumatning “Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va ular faoliyatini tartibga solish to'g'risida”gi

qarorini qabul qilish va ro'yxatdan o'tkazish tartibi aynan mualliflik sohasidagi vakolatli organga yuklatilishi har tomonlama maqsadga muvofiq bo'ladi. Xususan, Belarus Respublikasi, Singapur, Filippin kabi davlatlarda intellektual mulk bo'yicha vakolatli organ tomonidan mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarni ro'yxatdan o'tkazish (akkreditatsiya) tajribasi mavjud. Shu bilan birga, taklif etilayotgan ushbu qarorda mualliflik huquqi egalarining manfaatlarini himoya qilish maqsadida mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar ta'sischilarining minimal soni hamda ustav kapitali belgilab o'tilishi o'rinlidir. Zero, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi Qonunda ham ushbu tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish shartlari va tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi aytib o'tilgan.

Hozirda mamlakatimizda bir qator bu turdagi jamoat birlashmalari faoliyat boshlagan bo'lib, bugungi kunga kelib ularning soni o'sib (6 ta), faoliyati takomillashib bormoqda. Xususan, birgina 2019-yilda 3 ta mualliflik jamiyati O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan nodavlat notijorat tashkiloti sifatida ro'yxatdan o'tkazildi. Taqqoslash uchun bunday tashkilotlar Ozarbayjonda 2 ta, Turkiyada 28 ta, Tojikistonda 2 ta, Qozog'istonda 8 tani tashkil etmoqda. Qirg'izistonda esa Qirg'izpatent tomonidan mualliflar va huquq egalari uchun foydalanuvchilardan mualliflik haqlarini yig'ish va taqsimlash ishlari amalga oshiriladi.

Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, so'nggi yillarda O'zbekistonda mualliflik huquqi bilan bog'liq nizoli ishlar oshib bormoqda. Bu esa o'z-o'zidan ushbu yo'nalish institutlari (mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar) faol ishlayotgani hamda ijodkorlarning o'z huquqlarini tushunib yetayotganidan darak beradi. Shu bilan birga, hozirda O'zbekistonda mualliflar va huquq egalarining mulkiy huquqlari himoyasini

ta'minlashga doir bir qator islohotlar amalga oshirilayotganini ta'kidlash kerak. Xususan, mualliflar, turdosh huquq egalari hamda boshqa huquq egalarning qonuniy huquq va manfaatlarini, ularning mualliflik haqi (gonorar) adolatli olinishini ta'minlash shular jumlasidandir.

Shu bilan burga, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti iqtisodiyoti o'tish davridagi davlatlar uchun intellektual mulk siyosatini ishlab chiqishda mualliflar va ijrochilar jamiyatiga alohida urg'u bergan [15].

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar yo'nalishidagi tadqiqotlardan kelib chiqib, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatiga doir quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

birinchidan, mulkiy huquqlarni jamoa bo'lib boshqarish bilan shug'ullanadigan tashkilotlar huquq egalari shartnoma asosida o'tkazgan huquqlarnigina amalga oshirishi lozim;

ikkinchidan, subyektlar (muallif, huquq egasi) xohlagan vaqtda bu tashkilotlarning

nazorat qilish huquqiga ega bo'lish imkoniyatini olishi kerak;

uchinchidan, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar mualliflik huquqining turli sohalari bo'yicha tuzilishi mumkin;

to'rtinchidan, tashkilotlar huquqlarining mulkiy huquqlarini boshqarish, ya'ni asarlardan foydalanganda, haq yig'ish bilan shug'ullansa-da, lekin ular tijorat tashkilotining vazifasini bajarmasligi va o'z xarajatlarini huquq egalarning ajratmalari hisobidan qoplashi lozim;

beshinchidan, bu tashkilotlar huquq egasining topshirig'iga muvofiq, huquqlarni uchinchil shaxslarga ham o'tkazish (litsenziya asosida) funksiyasini amalga oshirishi mumkin.

Mazkur takliflar bo'yicha ishlarning to'g'ri va tizimli tarzda yo'lga qo'yilishi, o'ylaymizki, mualliflik huquqi himoyasini ta'minlashga, bu orqali esa ijodkorlar mehnati uchun tegishli haqlar to'lanishi hamda madaniyat va san'atning mualliflik huquqiga doir qoidalar asosida rivojlanishiga olib keladi.

REFERENCES

1. Copyright Industries in the US Economy. Available at: <https://www.iipa.org/files/uploads/2020/12/2020-IIPA-Report-FINAL-web.pdf/>.
2. Collective Management Organisations and competition law. Available at: <https://chambers.com/articles/collective-management-organisations-and-competition-law-2/>.
3. Fichor M. Collective management of copyright and related rights. Jeneva, 1990, p. 98.
4. Zhao Ch. A Study on the improvement of collective management system of copyright in the digital era. *Advances in Social Science, Education and Humanities Research*, vol. 554, pp. 33-38.
5. Collective Management of Copyright and Related Rights. Available at: <https://www.wipo.int/copyright/ru/management/index.html/>.
6. Zhang Z. Rationale of collective management organizations: an economic perspective. P. 75. DOI: 10.5817/mujlt2016-1-4/.
7. Collective Management of Copyright and Related Rights. World Intellectual Property Organization. Available at: <http://www.wipo.int/copyright/en/management/> (accessed 11.05.2017).
8. World Trade Organization (WTO). Available at: <https://wipolex.wipo.int/ru/text/329636/>.
9. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi yillik hisobotlari [Annual reports of the Intellectual Property Agency under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan]. Available at: <http://www.ima.uz/uz/nashrlar/yillik-hisobot/>.

10. Zyatskiy S.B. Problemy realizatsii avtorskix i smejnix prav na kollektivnoy osnove v usloviyax razvitiya novyx texnologiy [Problems of implementation of copyright and related rights on a collective basis in the context of the development of new technologies]. PhD thesis. Moscow, 2003.

11. Directive 2014/26/EU of the European Parliament and of the Council of 26 February 2014. On collective management of copyright and related rights and multi-territorial licensing of rights in musical works for online use in the internal market. Available at: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=celex%3A32014L0026/>.

12. International Confederation of Societies of Authors and Composers. As of January 1, 2001, CIS-AC had 181 member, 1998, 2 F.C. 22. Organizations, though not all would qualify as active CMOs. Available at: www.cisac.org/.

13. International Federation of Reproduction Rights Organizations. As of August 13, 2001, IFRRO had 95 members, including 39 CMOs. Available at: www.ifrro.org/.

14. Yuldashov A. Intellektual mulk bo'yicha milliy strategiyalarning ahamiyati va Butunjahon intellektual mulk tashkilotining bu borada tutgan o'rni [The importance of national intellectual property strategies and the role of the World Intellectual Property Organization in this regard]. *Yurist axborot-nomasi – Legal information*, 2020, no. 1 (2), pp. 53-59. Available at: <https://yuristjournal.uz/index.php/lawyer-herald/article/view/56/39/>. DOI: 10.26739/2181-9416-2020-2-7/.

15. Yuldashov A. Mualliflik huquqi muhofazasini ta'minlashning zamonaviy usullari: blokcheyn texnologiyasi misolida [Modern methods of copyright protection: the example of blockchain technology]. *Yurisprudensiya – Jurisprudence*, 2022, Special iss., vol. 1, pp. 69-75. Available at: https://www.researchgate.net/publication/359231131_yurisprudensiya_maxsus_son_i_qism_yurisprudensiya_huquqiy_ilmiy-amaliy_jurnali/.

UDC: 343.5 (045) (575.1)

BANKROTLIK TO'G'RISIDAGI ISHLARDA KELISHUV BITIMI TUZISHDA DAVLAT ORGANLARI ISHTIROKI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Ibratova Feruza Boboqulovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik protsessual va iqtisodiy
protsessual huquqi kafedrası dotsenti, y.f.d.
ORCID: 0000-0002-7276-5534
e-mail: f.ibratova@tsul.uz

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasining "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonunida davlat organining kelishuv bitimida ishtirok etish huquqi belgilanib, ularni amalga oshirish tartibi batafsil ko'rsatilmagani va ko'plab savollar ochiq qolgani bayon etilgan. Qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash maqsadlariga erishish uchun vakolatli organlar tomonidan chiqarilgan majburiy to'lovlarni to'lash muddatini o'zgartirish to'g'risidagi qaror va qarzdorning kreditorlar bilan munosabatlarini belgilovchi kelishuvi bo'lishi zarur degan fikr yuritiladi. Shuningdek, chakana savdo, xizmat ko'rsatish, energetika va avtomobilsozlik sohasida o'ta og'ir vaziyat yuzaga kelgani natijasida bir kompaniyaning bankrot bo'lishi u bilan bog'liq yana bir nechta kompaniyalar yopilishiga sabab bo'layotgani, jahon amaliyotida mamlakat iqtisodiyotiga o'z hissasini qo'shishi uchun bankrotlik vositasida qayta tiklanishi mumkin bo'lgan tadbirkorlik subyektini saqlab qolishning mavjud imkoniyatlaridan foydalangani tahlil etilgan. Muammolarni o'rganish natijasida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga "Bankrotlik to'g'risidagi ish yuritishda kelishuv bitimi tuzgan qarzdorga soliqni kechiktirish yoki bo'lib to'lash imkoniyatini berish" deb nomlangan 100¹-modda va "Bankrotlik to'g'risidagi ish yuritishda kelishuv bitimi tuzgan qarzdorni soliq to'lashdan yoki undirishdan ozod qilish" deb nomlangan 100²-moddani kiritish lozim degan taklif beriladi.

Kalit so'zlar: bankrotlik, kelishuv bitimi, davlat organi, to'lov qobiliyatini tiklash, majburiy to'lov, kreditor, soliqlarni to'lash muddati.

УЧАСТИЕ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНОВ В ЗАКЛЮЧЕНИИ МИРОВОГО СОГЛАШЕНИЯ В ДЕЛАХ О БАНКРОТСТВЕ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ

Ибратова Феруза Бобокуловна,
доктор юридических наук, доцент кафедры
Гражданско-процессуальное и экономическое процессуальное право
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье указывается, что Закон Республики Узбекистан «О банкротстве» определяет права государственного органа на участие в мировом соглашении, но не уточняет порядок их реализации, и многие вопросы остаются открытыми. Делается вывод о том, что для достижения целей восстановления платежеспособности должника необходимо наличие решения компетентных органов об изменении условий уплаты обязательных платежей и соглашения, определяющего отношения должника с кредиторами. Также анализируется, что банкротство одной компании в результате сложной ситуации в розничной торговле,

сфере услуг, энергетике и автомобилестроении приводит к закрытию еще нескольких компаний, связанных с ней, и в мировой практике важно использование существующих возможностей по сохранению хозяйствующего субъекта, который может быть восстановлен путем банкротства, для внесения вклада в экономику страны. В результате исследования предлагается внести в Налоговый кодекс Республики Узбекистан статью 100¹ «Предоставление должнику, заключившему мировое соглашение об урегулировании банкротства, возможности отсрочки или рассрочки уплаты налогов» и статью 100² «Освобождение должника от налога, заключившего мировое соглашение в деле о банкротстве».

Ключевые слова: банкротство, мировое соглашение, государственный орган, восстановление платежеспособности, обязательный платеж, кредитор, срок уплаты налогов.

PARTICIPATION OF PUBLIC AUTHORITIES IN DRAFTING AGREEMENTS IN BANKRUPTCY CASES: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Ibratova Feruza Bobokulovna,

Associate Professor of the Department of Civil Procedure
and Economic Procedural Law of Tashkent State University of Law,
Doctor of Law

Abstract. The article states that the Law of the Republic of Uzbekistan “On Bankruptcy” defines the rights of the state body to participate in the settlement agreement, but does not specify the procedure for their implementation, and many questions remain open. It is concluded that in order to achieve the goals of restoring the debtor’s solvency, it is necessary to have a decision of the competent authorities to change the conditions for the payment of mandatory payments and an agreement defining the relationship of the debtor with creditors. It is also analyzed that the bankruptcy of one company as a result of a difficult situation in the retail, service, energy and automotive industries leads to the closure of several more companies associated with it, and the use of existing opportunities to preserve an economic entity that can be restored through bankruptcy to invest contribution to the country’s economy in world practice. As a result of the study, it is proposed to introduce into the Tax Code of the Republic of Uzbekistan article 100¹ “Providing a debtor who has entered into an amicable agreement on the settlement of bankruptcy, the possibility of deferral or installment payment of taxes” and article 100² “Exemption of a debtor from tax, who has entered into an amicable agreement in a bankruptcy case”.

Keywords: bankruptcy, amicable agreement, a state body, restoration of solvency, mandatory payment, creditor, deadline for payment of taxes.

Kirish

Bankrotlik tushunchasi hayotimizga yaqinda kirib kelgan bo'lishiga qaramasdan, o'z mohiyati bilan alohida e'tibor talab qiladigan dolzarb masalalardan biriga aylandi. Bankrotlik masalasi hozirgi kunda tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni yaxshi yo'lga qo'yish, o'zaro to'lov intizomini kuchaytirish, yig'ilib qolgan kreditlik va debitorlik qarzlarni undirish, ishlab chiqarishni rivojlantirish borasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu mexanizm yordamida samarasiz bo'lgan mulkdorlarni

almashtirish, tadbirkorlik subyektlarini tugatish, ijtimoiy muhim ahamiyat kasb etadigan va daromad keltiradigan korxonalarni saqlab qolish, mulkchilik munosabatlarining barqarorligini ta'minlash hamda ish bilan bandlikni kafolatlash maqsadi nazarda tutilgan.

COVID-19 pandemiyasi tufayli dunyoda bankrotlik to'lqini yuz berdi va natijada 2020-yilda dunyo bo'yicha 147 ta yirik kompaniya (aylanma mablag'i 50 million yevrodan ortiq bo'lgan) bankrot bo'lgan. Eng ko'p bankrotlik holatlari AQSh (52 ta)

va Yevropada (64 ta) qayd etilgan. Chakana savdo, xizmat ko'rsatish, energetika va avtomobilsozlik sohasida o'ta og'ir vaziyat yuzaga kelgani natijasida bir kompaniyaning bankrot bo'lishi u bilan bog'liq yana bir nechta kompaniyalar yopilishiga sabab bo'lmoqda. Mutaxassislarning hisob-kitobiga ko'ra, 2020-yil oxiriga kelib, har bir davlatda 29 mingdan ortiq mahalliy kompaniyalar bankrotlikka Ushbu ko'rsatkichlar dunyoda tadbirkorlik subyektlarini bankrot deb topishning oldini olishda kelishuv bitimini qo'llash institutini yanada takomillashtirish va ularning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash maqsadida bankrotlik ishlarida kelishuv bitimi tuzishga qonunchilikni o'rganish dolzarbligidan dalolatdir.

Material va metodlar

Jahon amaliyotida mamlakat iqtisodiyotiga o'z hissasini qo'shish uchun bankrotlik vositasida qayta tiklanishi mumkin bo'lgan tadbirkorlik subyekti yoki uning ayrim qismlarini "qutqarish"ning mavjud imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish, joriy konyuktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportga mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarning tashqi raqobatbardosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha omillar yaratishga oid ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga e'tibor qaratilmoqda.

*"2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"*gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmonida nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, yarashuv institutini qo'llash doirasini yanada kengaytirish lozimligiga e'tibor berilgan [1].

Tadqiqotda mantiqiy, tarixiy-qiyosiy, induksiya va deduksiya, tahlil, qiyosiy-huquqiy, statistik ma'lumotlar tahlili kabi metodlardan foydalanilgan, shuningdek hozirgi kunda bankrotlik sohasida kelishuv bitimi tuzishda qabul qilingan huquqiy hujjatlar tahlili hamda ularni qo'llashning o'ziga xos jihatlari va o'rni yoritib berilgan.

Mavzuning batafsil mazmuni

Amaldagi bankrotlik qonunchiligiga ko'ra, kelishuv bitimi o'zaro kelishishga asoslangan va nizoni hal qilish yuzasidan taraflarning yozma kelishuvi hisoblanadi. Kelishuv bitimi da'vo tartibidagi har qanday ish bo'yicha, shuningdek fuqarolik va iqtisodiy sud ishlari-ni yuritishning har qanday bosqichida va sud hujjatini ijro etish jarayonida taraflar tomonidan tuzilishi mumkin. Kelishuv bitimi sud tomonidan tasdiqlanganidan keyin tuzilgan hisoblanadi [2].

O'zbekistonda ilk bor qabul qilingan 1994-yildagi "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonunda ham bankrot bo'lganlikka doir ish yuritishni to'xtatish maqsadida qarzdor, u bankrot bo'lgan deb e'tirof etilguniga qadar, kreditorlarga murojaat qilib, kelishuv bitimi tuzish, to'lovlarni kechiktirish va bo'lib-bo'lib to'lash, siylov berishni taklif etishi mumkinligi, kreditorlar bilan qarzdorning kelishuv bitimi tuzilganligi sudi tomonidan tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan [3].

Shuningdek, qarzdor bilan kreditorlar o'rtasida kelishuv bitimi tugatishga doir ish yuritishning istalgan bosqichida ham tuzilishi va kelishuv bitimi navbat bo'yicha oldingi talablar to'la-to'kis qondirilganidan keyin uchinchi va keyingi da'volarga nisbatangina tuzilishi mumkinligi belgilangan.

Sud statistikasi bo'yicha iqtisodiy sudlar tomonidan 2010-yilda 293128 tadan 7084 ta, 2011-yilda 309468 tadan 3560 ta, 2012-yilda 345611 tadan 2257 ta, 2013-yilda 235150 tadan 7202 ta, 2014-yilda 263218 tadan 4313 ta, 2015-yilda 348192 tadan 6520 ta, 2017-yilda 11 276 tadan 1 118 ta, 2018-yilda 8192 tadan 1 350 ta, 2019-yilda 197 288

tadan 3 891 ta, 2020-yilda 104 328 tadan 232 ta, 2021-yilda 105 318 tadan 315 ta bankrotlik ishlari ko'rilgan [4].

Kelishuv bitimining shartlarida kelishuv bitimi, agar uni kreditorlarning kamida uchdan ikki qismi (da'volar summasi bo'yicha) yoqlagan bo'lsa, tuzilgan deb hisoblanishi, kelishuv bitimi tuzilishiga rozi bo'lmagan kreditorlar uchun kelishuv bitimiga rozilik bildirgan va talablarning navbati bir xil bo'lgan kreditorlar uchun belgilanganidan yomonroq shart-sharoit belgilanishi mumkin emasligi belgilangan. Ana shu kreditorlar o'rtasidagi nizolar xo'jalik (hozirgi iqtisodiyot sudi) sudida ko'rib chiqilgan.

Bankrotlik to'g'risidagi qonunni qo'llash nazariyasi va amaliyotida eng qiyin masala davlat organlarining kelishuv bitimi tuzishdagi ishtiroki muammosi bo'lib qolmoqda. 2003-yilgi "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonunda kelishuv bitimi tuzishda vakolatli davlat organining ishtiroki ko'rsatilmagan, biroq majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlik bo'lganda, vakolatli organlar kreditor hisoblanishi va kreditorlar tarkibiga kiritilgan.

Rossiya Federatsiyasining 2002-yil 26-oktabrdagi 127-FZ-sonli Qonunining 150-moddasida bankrotlik to'g'risidagi ish sud tomonidan ko'rib chiqilishining istalgan bosqichida qarzdor, uning bankrotligi to'g'risidagi kreditorlar va vakolatli organlar kelishuv bitimi tuzishga haqli ekanligi belgilangan [5] va boshqa xorijiy davlatlarning bankrotlik qonunchiligida ham davlat, qoida tariqasida, boshqa kreditorlar bilan teng huquqli ekanligini ko'rish mumkin [6]. Biroq kelishuv bitimi tuzishda davlat organining ishtiroki bitimning fuqarolik-huquqiy tabiatini inkor etadi. Shu bilan birga, Rossiya Federatsiyasining bankrotlik qonunchiligida davlatning kelishuv bitimida ishtirok etish huquqi belgilanib, ularni amalga oshirish tartibi batafsil ko'rsatilmagan va ko'plab savollar ochiq qolgan.

Bankrotlikka oid ish yuritishda tuzilgan kelishuv bitimida davlat organining

ishtiroki muammosi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan hamda turli qarama-qarshi fikrlar va xulosalarga kelingan. Xususan, V.V. Vitryanskiyning fikriga ko'ra, bankrotlik to'g'risidagi ishlarda kelishuv bitimi tuzishda soliq organlarining ishtirok etishi mumkin emas, aks holda, kelishuv bitimi o'z ma'nosini yo'qotadi [7]. Uning ta'kidlashicha, fuqarolik-huquqiy shartnomalarga qo'yiladigan talablarning huquqiy tabiatini inobatga olgan holda, bankrotlik to'g'risidagi ishlarda kelishuv bitimi tuzishda majburiy to'lovlar bo'yicha ovoz berishda davlatning ishtirok etish imkoniyatini istisno etamiz [8]. S. Fedorov V.V. Vitryanskiyning fikriga qo'shilgan holda, haqiqatan ham, majburiy to'lovlar bo'yicha barcha talablarni bir vaqtning o'zida taqdim etish qarzdorning kelishuv bitimi shartlarini bajara olmasligiga olib kelishi mumkin [9, 833- b.], deb ta'kidlaydi.

N.G. Livshis [10, 101-b.], A.R. Shuvayev [11, 90-b.], D.A. Krashenkolarining [12] ta'kidlashicha, soliq va boshqa vakolatli organlar kelishuv bitimi tuzishda ishtirok etmasligi lozim, chunki bu holatning mantiqiy asosi Konstitutsiyada, ya'ni har kimga qonuniy ravishda belgilangan soliqlar va yig'imlarni to'lash majburiyati belgilab qo'yilgan, hech kim bunday majburiyatlardan kelishuv bo'yicha ozod qilinishi mumkin emas. Bu fikrlarni qo'llab-quvvatlagan holda, A. Dubinchin ushbu holatni o'zgacha izohlagan. Muallifning ta'kidlashicha, kelishuv bitimida qarzni bekor qilish yoki kamaytirish shartlari bo'lishi mumkin emas, chunki Soliq kodeksida soliq to'lash muddatini o'zgartirishning turli shakllari (kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash, soliq krediti, investitsiyaviy soliq krediti) tartibga solingan. Biroq A. Dubinchinning fikriga ko'ra, "soliqlarni to'lash muddatlarini o'zgartirish maxsus qonun hujjatlari – soliq qonunchiligi bilan tartibga solinadi, alohida qoidalarga rioya qilinadi va bankrotlik to'g'risidagi ishda taraflarning shartlar bo'yicha o'zaro kelishuvga erishishiga bog'liq bo'lishi mumkin emas. Bankrotlik

to'g'risidagi ishlarda soliq organining vakili ishtirok etmasligi shu bilan izohlanadi [8].

Tadqiqot natijalari

Ushbu masalani o'rganar ekanmiz, shuni ta'kidlaymizki, davlatning kelishuv bitimi tartibida ishtirok etishining murakkabligi davlat ommaviy huquqining imperativ normalarida belgilangan majburiy to'lovlar bo'yicha kreditor ekanligi bilan bog'liq. Kelishuv bitimi o'z mohiyatiga ko'ra, yuqorida ta'kidlaganimizdek, fuqarolik-huquqiy bitim (shartnoma) bo'lib, tomonlarning bir-biriga nisbatan huquq va majburiyatlarini o'zgartiruvchi irodasi natijasidir.

"Bankrotlik to'g'risida"gi Qonundan xulosa chiqarib, ushbu savolga murojaat qilaylik: bankrotlik to'g'risidagi ish yuritishda davlat organi ishtirok etishi shartmi? Javob aniq: albatta, kerak. Bu javob, birinchi navbatda, statistik ma'lumotlarga asoslanadi. Unga ko'ra, soliq va boshqa vakolatli organlar tomonidan taqdim etilgan arizalar soni ko'p va davlat organi qarzdor yuridik shaxslarning asosiy kreditorlaridan biri hisoblanadi [13].

Shunga ko'ra, faqat fuqarolik majburiyatlari bo'yicha kelishuv bitimiga erishish yuridik shaxsni iqtisodiy nochorlik holatidan olib chiqolmaydi. Shu bois yuqorida keltirilgan V.V. Vitryanskiy va S. Fedorovalarning yondashuvlari asosli hisoblanadi. Majburiy to'lovlar masalasini hal qilmasdan turib, yuridik shaxsni aynan majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlik tufayli yuzaga kelgan moliyaviy inqirozdan chiqarish maqsadiga erishib bo'lmaydi.

Shu bilan birga, fuqarolik-huquqiy bitim sifatida kelishuv bitimining huquqiy tabiati ommaviy huquqi bo'lgan majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlarni bajarish tartibi shartlariga imkon bermasligini ta'kidladik.

Tadqiqot natijalari tahlili

Fikrimizcha, davlat organining kelishuv bitimida bankrotlik ishlarida ishtirok etishi mumkin va zarur, lekin fuqarolik-huquqiy bitim sifatida kelishuv bitimining ishtirokchisi sifatida emas. Majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlarni bajarish shartlari

kelishuv bitimi mazmunidan chiqarib tashlanishi hamda soliq va budget qonunchiligi talablariga muvofiq belgilanishi kerak, deb hisoblaymiz.

Soliq huquqiy munosabatlari majburiy xarakterga ega bo'lib, soliq to'lash muddatini o'zgartirish to'g'risidagi qaror (majburiy to'lovlarni to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash) soliq qonunchiligini qo'llashni tartibga soluvchi hujjatdir. Majburiy to'lovlar bo'yicha to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat berilmaganligi kelishuv bitimi predmeti bo'lishi mumkin emas. Biroq kelishuv bitimi tuzishda davlat organining ishtirok etishi zarurligini inobatga olgan holda, majburiy to'lovlar to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash to'g'risidagi qaror ham kelishuv bitimida ko'rsatilishi kerak. Demak, qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash maqsadlariga erishish uchun vakolatli organlar tomonidan chiqarilgan majburiy to'lovlarni to'lash muddatini o'zgartirish to'g'risidagi qaror va qarzdorning kreditorlari bilan munosabatlarini belgilovchi kelishuvi bo'lishi zarur.

Fikrimizcha, majburiy to'lovlar to'g'risidagi masala hal qilingan taqdirda, kelishuv bitimi kreditorlar oldidagi majburiyatlarning bajarilishini tartibga soluvchi shartnoma shartli bitim sifatida tuzilishi kerak. Ya'ni huquq va majburiyatlarning paydo bo'lishi, o'zgariishi yoki bekor qilinishi muayyan holatlarga bog'liq bo'lgan bitim (FKning 104-moddasi). Bunday holat soliq to'lash muddatini o'zgartirish to'g'risidagi qaror hisoblanadi: kelishuv bitimi faqat soliqlar va yig'imlarni kechiktirish olingan taqdirdagina mantiqiy bo'lishi mumkin.

O'z navbatida, majburiy to'lovlarni to'lashni kechiktirish (bo'lib-bo'lib to'lash rejasini)ni nazarda tutuvchi qarorni berish kelishuv bitimi tuzish faktiga qarab amalga oshirilishi kerak.

Shunday qilib, asoslangan model uchta ketma-ket amalga oshiriladigan harakatlardan iborat:

1) shartli bitim shaklida kelishuv bitimi tuzish;

2) kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash to'g'risida qaror qabul qilish;

3) kelishuv bitimi bo'yicha taraflarda huquq va majburiyatlar paydo bo'lishi.

Kelishuv bitimi va soliq organi qarorini ta'minlashning bunday mexanizmi faqat har bir bosqich uchun ajratilgan vaqt aniq bo'lgan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 97-moddasiga ko'ra, soliq to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash, agar ushbu Kodeksning 99-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, bir yildan oshmagan muddatga beriladi.

Biroq bu holda soliq organining qarzdorni imtiyozli rejimni taqdim etishga majburlash qonunga xilofdir. V.V. Vitryanskiyning [14, 13-b] iqtisodiy sud kelishuv bitimi tuzish to'g'risidagi ajrimi belgilangan tartibda amalga oshirilishi lozim bo'lgan majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorning qarzini o'zgartirish (kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash) uchun asos bo'lishi to'g'risidagi normani bankrotlik to'g'risidagi qonunchilikka kiritish lozimligi to'g'risidagi taklifini bahsli deb hisoblash lozim. Fikrimizcha, davlat organiga bunday harakatni amalga oshirishga qaratilgan norma o'rnatish mumkin emas, chunki soliq munosabatlarida davlat organiga bo'ysunuvchi rol o'rnatilishi noo'rin. Soliq kodeksining 97-moddasi 8-qismiga ko'ra, soliq to'lash muddati o'zgartirilishiga talabgor shaxs (manfaatdor shaxs) soliq to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash to'g'risida ariza berish yoxud bu haqda xabardor qilishga haqli.

Xulosalar

Kelishuv bitimi tuzish yo'li bilan to'laniishi lozim bo'lgan majburiy to'lovlardan ozod etish to'g'risida qonunchilikka o'zgartirish kiritish lozim, degan taklifga davlat organi jiddiy va asosli qarshilik ko'rsatishi mumkin. Amaldagi bankrotlik to'g'risidagi qonunga davlat organlarining kelishuv bitimi tuzishda

ishtirok etish vakolatlarini kengaytirish orqali soliq va budget qonunchiligi bilan kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash yoki, hatto soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan ozod etish bo'yicha chora-tadbirlar majmuyini belgilash orqali qo'llab-quvvatlanishi kerak.

Birinchidan, soliq qonunchiligiga qarzdor va kreditorlar tomonidan bankrotlik ishlarida kelishuv bitimi tuzilgan taqdirda, soliqni bir yildan ortiq bo'lgan muddatga kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini taqdim etadigan normani kiritish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga quyidagi "Bankrotlik to'g'risidagi ish yuritishda kelishuv bitimi tuzgan qarzdorga soliqni kechiktirish yoki bo'lib to'lash imkoniyatini berish" deb nomlangan 100¹-moddani kiritish lozim:

"100¹-modda. Bankrotlik to'g'risidagi ish yuritishda kelishuv bitimi tuzgan qarzdorga soliqni kechiktirish yoki bo'lib to'lash imkoniyatini berish

Vakolatli organ bankrotlik to'g'risidagi ish yuritish bo'yicha kelishuv bitimi tuzilgan soliq to'lovchining sud tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan ajrimiga asosan, uch yildan oshmagan muddatga soliq to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berishga haqli.

Kelishuv bitimi bekor qilingan yoki sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan yoki kelishuv maqsadlariga erishilmaganligini ko'rsatuvchi boshqa hollarda kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish to'g'risidagi qaror bekor qilinadi".

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 75-moddasiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari turistik zonalarda joylashgan alohida sanatoriy-kurort obyektlari egallagan yer uchastkalariga nisbatan mol-mulk va yer solig'ining kamaytirilgan soliq stavkalarini belgilash yoki soliq to'lashdan ozod qilish huquqiga ega.

Shuningdek, ilgari tovarlarni (xizmatlarni) olish chog'ida hisobga olish uchun qa-

bul qilingan, olingan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha soliq summasiga, agar soliq to'lovchi maqomini yo'qotganda (yoki soliq to'lashdan ozod qilinganda) tuzatish kiritilishi mumkin. Demak, qonunchilikda soliq to'lashdan ozod qilinishi ham mumkin.

Davlat soliq va yig'implardan ozod qilishga aniq ruxsat beradi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvardagi №O'RQ-600-sonli "Davlat boji to'g'risida"gi Qonuni-ning 2-bobi "Davlat boji to'lashdan ozod qilish"ga (7–15-moddalar) bag'ishlangan.

Shu sababli soliq qonunchiligiga keli-
shuv bitimi tuzayotgan qarzdorni soliqlar
va yig'implarni to'lashdan ozod qiluvchi nor-
maning kiritilishi Konstitutsiya qoidalariga
zid bo'lmaydi. Shu bilan birga, bunday qoid-
ani suiiste'mol qilishning oldini olish uchun
uning qo'llanilishi quyidagilar bilan bog'liq
bo'lishi kerak: a) normaning dispozitsiya-
si soliqlar va yig'implar to'lashdan ozod qi-
lish bilan ta'minlangan jamoat manfaatlarini

ko'rsatishi; b) me'yorni hukumat darajasida
qo'llash, ya'ni O'zbekiston hukumati tomoni-
dan qarzdorni soliqlar va yig'implarni to'lash-
dan ozod qilish to'g'risida qaror qabul qilini-
shi; d) oshkora, ya'ni hukumat qarorni e'lon
qilish orqali ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi-
ga quyidagi "Bankrotlik to'g'risidagi ish yuri-
tishda kelishuv bitimi tuzgan qarzdorni soliq
to'lashdan yoki undirishdan ozod qilish" deb
nomlangan 100²-moddani kiritish lozim:

*"100²-modda. Bankrotlik to'g'risidagi ish
yuritishda kelishuv bitimi tuzgan qarzdorni
soliq to'lashdan yoki undirishdan ozod qilish.*

*Agar bankrotlik O'zbekiston Respublikas-
ining iqtisodiy manfaatlariga, mamlakat
mudofaa qobiliyatiga va davlat xavfsizligi-
ga xavf tug'dirsa, bankrotlik to'g'risidagi ish
yuritishda qarzdor tomonidan kelishuv biti-
mi tuzilgan hollarda, vakolatli organ soliq
to'lashdan ozod qilish to'g'risida qaror qabul
qilishga haqli".*

REFERENCES

1. Available at: <https://lex.uz/docs/5841063/>.
2. Available at: <https://advice.uz/uz/document/1254/>.
3. Available at: <https://www.lex.uz/acts/65969/>.
4. Available at: <https://stat.sud.uz/iib.html/>.
5. Available at: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_39331/60b88f77f0e586c5e0fc2ec3d95d95a0bba9b6c8/.
6. Prilojenie C k Otchetu o zavershenii proyekta: Svodnie sravnitelnie tablitsi zakonodatelstva o bankrotstve stran-chlenov YES i SSHA [Appendix C to the Project Completion Report: Summary Comparison Tables of Bankruptcy Laws of the EU Member States and the USA]. Bankruptcy legislation of the European Union and the United States for legislative activities in Russia. Materials for the seminar. Moscow, 2002, January 10.
7. Romanova V.V. Pravovoye regulirovaniye stroitelstva i modernizatsii energeticheskix ob'ektov [Legal regulation of construction and modernization of energy facilities]. PhD thesis, 2012.
8. Dubinchin A. Mirovoye soglasheniye v dele o bankrotstve: problemi teorii i praktiki [Settlement agreement in a bankruptcy case: problems of theory and practice]. *Economy and law*, 2000, vol. 7.
9. Fedorova S.Yu. Ponyatiye bankrotstva i rol buhgalterskogo balansa v yego otsenke [The concept of bankruptcy and the role of the balance sheet in its assessment]. *Economy and society*, 2017, no. 1-2, pp. 833-840.
10. Livshis N.G. Mirovoye soglasheniye v dele o bankrotstve [Settlement agreement in the bankruptcy case]. *Bulletin of the Supreme Arbitration Court of the Russian Federation*, 1999, no. 1, p. 101.

11. Shuvayev A.R. Mirovoye soglasheniye. Postateyniy kommentariy k Federalnomu zakonu «O nesostoyatelnosti (bankrotstve)» [Friendly agreement. Article-by-article commentary to the Federal Law “On Insolvency (Bankruptcy)”. *Bulletin of the Supreme Arbitration Court of the Russian Federation*, 1998, no. 9, p. 90.

12. Krashenko D.A. Bankrotstvo sub'ektov predprinimatelstva v Rossiyskoy Federatsii: problemi pravovogo regulirovaniya [Bankruptcy of business entities in the Russian Federation: problems of legal regulation]. 2001.

13. Available at: <https://stat.sud.uz/iib.html/>.

14. Vitryanskiy V.V. Nekotorie osnovnie polojeniya Konsepsii razvitiya grajdanskogo zakonodatelstva Rossiyskoy Federatsii ob obyazatelstvax [Some main provisions of the Concept for the development of civil legislation of the Russian Federation on obligations]. *Journal of Russian Law*, 2010, no. 1 (157), pp. 13-25.

15. Available at: <https://kun.uz/news/2020/07/30/pandemiya-sababli-uch-oy-ichida-dunyo-boy-icha-150ga-yaqin-yirik-kompaniyalar-bankrot-boldi/>.

UDC: 343.988(575.1)

OILADAGI ZO'RAVONLIKLARNING OLDINI Olish MASALALARI

Niyozova Salomat Saparovna,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga
qarshi kurashish kafedrası professori,
yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0003-3970-2985
e-mail: s.niyozova@tsul.uz

Annotasiya. Mazkur maqolada oiladagi zo'ravonliklarning oldini olish hamda milliy va xorijiy tajribaga doir masalalar bayon etilgan. Maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, hozirgacha oiladagi zo'ravonliklarning oldini olishga doir alohida masalalar va bu borada xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinib, alohida tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmagan. Shuningdek, mavzuning dolzarbligi oiladagi zo'ravonliklarning oldini olishga doir masalalarni ilmiy hamda nazariy jihatdan tadqiq etish, bu borada tegishli taklif va tavsiyalar berishdan iborat. Maqolani yozish jarayonida umumilmiy uslublar: funksional yondashuv, mantiqiylik, tizimlilik, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, statistik, sotsiologik so'rovlar o'tkazish kabi metodlardan foydalanilgan. Mazkur maqolaning natijalaridan ko'zlangan maqsad kriminologiya fanini rivojlantirish, oiladagi zo'ravonliklarning oldini olish, subyektlar faoliyatini yaxshilash va bu boradagi qonunchilik normalarini takomillashtirish hamda oiladagi zo'ravonliklarning oldini olishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqishdir. Oiladagi zo'ravonlik – bu shaxsga qarshi noqonuniy kuch ishlatish, kaltaklash, zo'rlash, majbur qilish, ta'sir ko'rsatish, o'z hukmronligini o'tkazish kabi belgilar orqali ifodalanishi hamda u, asosan, jismoniy yoki ruhiy ko'rinishda bo'lishi mumkin. Shuningdek, bu borada olimlarning fikr va mulohazalari tahlil etilib, jinoyat huquqi nazariyasini takomillashtirish yuzasidan tegishli tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: oila, zo'ravonlik, oldini olish, voyaga yetmaganlar, jismoniy, ruhiy, tajovuz, jinoyatchilik, jinoyat, profilaktika.

ВОПРОСЫ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ ДОМАШНЕГО НАСИЛИЯ

Ниязова Саломат Сапаровна,

доктор юридических наук, профессор кафедры
«Уголовное право, криминология и противодействие коррупции»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с предотвращением домашнего насилия. Актуальность темы данной статьи заключается в том, что ранее конкретные вопросы профилактики домашнего насилия, опыт зарубежных стран в данной сфере не анализировались и не изучались как отдельный предмет исследования. Также актуальность данной темы заключается в проведении научно-теоретических исследований по предупреждению домашнего насилия и внесении соответствующих предложений и рекомендаций по данному вопросу. В процессе подготовки статьи использовались общенаучные методы: функциональный подход, логический, систематический, исторический, сравнительно-правовой, статистический, социологический опрос. Результаты данной статьи могут

быть использованы при развитии криминологии, предупреждении домашнего насилия, совершенствовании деятельности субъектов и законодательства в этой сфере, а также разработке мер по предотвращению домашнего насилия. Результаты данной статьи также могут быть использованы при организации в сфере применения деятельности субъектов профилактики и в правоохранительной практике, и в учебном процессе. Отмечено, что домашнее насилие может быть выражено в незаконном применении силы, побоях, изнасиловании, принуждении, самоуправстве, в основном в физической или психологической форме. Кроме того анализируются взгляды и мнения ученых по этому поводу и даются соответствующие рекомендации по совершенствованию теории уголовного права.

Ключевые слова: семья, насилие, профилактика, несовершеннолетний, физическое, психическое, агрессия, правонарушение, преступность, профилактика.

ISSUES OF DOMESTIC VIOLENCE PREVENTION

Niyozova Salomat Saparovna,

Acting Professor of the Department of Criminal Law,
Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law,
Doctor of Law

Abstract. This article deals with the issues related to the prevention of domestic violence. The topicality of this article is that no specific issues on the prevention of domestic violence have been analyzed, and the experience of foreign countries in this regard has not been analyzed and studied as a separate subject of study. Furthermore, the relevance of this topic is to conduct scientific and theoretical research on the prevention of domestic violence and to make corresponding proposals and recommendations in this regard. In the process of writing the article, general scientific methods have been used: a functional approach, logical, systematic, historical, comparative-legal, statistical, and sociological surveys. The results of the research will be used in the development of criminology, prevention of domestic violence, improvement of the activities of entities and improvement of the legislation in this area, as well as the development of measures to prevent domestic violence. The results of the study can also be used in the organization of the activities of prevention entities in the field of application and the practice of law enforcement, in the teaching process. This article notes that domestic violence can be expressed in the illegal use of force, beatings, rape, coercion, arbitrariness and can be mainly physical or mental. In addition, it analyzes the views and opinions of scholars in this regard and provides relevant recommendations for improving the theory of criminal law.

Keywords: family, violence, prevention, juvenile, physical, mental, aggression, delinquency, crime, prevention.

Kirish

Dunyoda globallashuvning jadallashuvi bilan birga, zoʻravonliklarning ortayotganligi, 35 foiz ayollarning zoʻravonlikdan jabrlanganligi, 2017-yilda 87 000 nafar voyaga yetmagan va ayollarning 50,58 foizi oʻzi tanigan odam yoki oila aʼzolari tomonidan oʻldirilganligi [1] shaxsga qarshi zoʻrlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar viktimologik profilaktikasining metodologik asoslarini takomillashtirish, mazkur tizimni rivojlantirish,

shaxsning buzilgan huquqlarini tiklashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati mavjudligini koʻrsatmoqda.

Jahonda jinoyatchilikka qarshi kurashish, zoʻrlik fenomenining vujudga kelishi, zoʻravon shaxsining xususiyatlari, zoʻrlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish, mazkur jinoyatlarning kriminologik, viktimologik tavsifi, aholi viktimligi darajasini aniqlash, shaxsni zoʻravonlikdan himoya qilishning samarali choralarini ishlab chiq-

ish, bu boradagi xalqaro huquq normalarini milliy qonunlarga implementatsiya qilish dolzarb masaladir.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar kuni “2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni ikkinchi yo’nalishining 16-maqjadi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo’lgan shart-sharoitlarni o’z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish”dan iboratdir.

Huquqbuzarlik va jinoyatchilik oiladagi kelishmovchiliklar, ichkilikbozlik va h.k. ijtimoiy hayotdagi murakkab salbiy omillar bilan bog’liq. Ushbu hodisani vujudga keltiruvchi sabablar bilan aloqador bo’lgan muammolar sinalgan va ilmiy asoslangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi bilan hal qilinishi mumkin.

Garchi jinoyatchilikning zamonaviy ko’rinishlari faol tadqiq etilayotgan bo’lsa-da, biroq oilada sodir etilayotgan jinoiy hodisalarni o’rganish tadqiqotchilar e’tibori-dan chetda qolmoqda. Bu esa oila a’zolari-ni huquq va erkinliklariga jinoiy tajovuz qilish sonining ko’payishiga sabab bo’lmoq-da. Shuning uchun ham hozirga kelib ush-bu muammo ommaviy axborot vositalari, qonunchilik va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning diqqat-markazida ekanligi ta-biiy hol.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti-ni 2017-yil 7-fevraldagi “O’zbekiston Re-spublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi”ning ikkinchi yo’na-lishida ham “jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasi-dagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samara-dorligini oshirish” masalasi ko’tarilgan bo’lib, bu oiladagi zo’ravonliklarning oldini olishga qaratilgan.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti-ni 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-son-li “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va ji-

noyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori ham bu borada muhim ahamiyatga ega bo’lib, ushbu qarordan ma-qsad huquqbuzarliklar profilaktikasi va ji-noyatchilikka qarshi kurashish bo’yicha faoliyatni muvofiqlashtirishning ta’sirchan tizimini yaratish, qonun buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlari-ni joriy etishdan iborat. Bu esa, o’z navbatida, oiladagi zo’ravonliklarning oldini olishga ham xizmat qiladi.

Material va metodlar

Mazkur maqolani tahlil etishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy (analiz, sintez), qiyosiy-huquqiy, statistik, ijtimoiy so’rovlar o’tkazish, huquqni qo’llash amali-yotini tahliliy o’rganib chiqish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Bizga ma’lumki, aholining ijtimoiy nochor qatlamlarini yolg’iz kekxa fuqarolar, nogi-ronlar, boquvchisini yo’qotganlar, voyaga yetmaganlar, yetim bolalar, kasallikka cha-lingan bolalar, urush va mehnat faxriylari tashkil qiladi. Aholining bu qatlamini ijtimoiy himoya qilish bilan bir qatorda, huquqiy hi-moya qilish, ularni turli xil tajovuzlardan saqlash ham qonunlarimizda o’z ifodasini topgan.

Bugungi kunda oiladagi zo’ravonliklar-ni oldini olish dolzarb muammolardan biridir. Ma’lumki, oila va turmush munosa-batlari doirasidagi muammolar o’zining ko’p qirraliligi bilan ajralib turadi. Bu boradagi muammolarni o’rganish, ilmiy tadqiq etish, ayniqsa, bugungi kunda o’ta dolzarb masala hisoblanadi [2, 31-b.].

Oiladagi zo’ravonliklarning oldini olish mavzusining ayrim masalalari mamlakatimiz olimlari – Q.R. Abdurasulova, A.G. Zokiro-va, R. Kabulov, A.A. Otajonov, M.A. Rajabova, M.H. Rustamboyev, M.Usmonaliyev, I.Ismail-ov, A.Murodov, M.O’razaliyev va boshqalar-ni ilmiy ishlarida muayyan darajada ko’rib

chiqilgan.

Xorijiy mamlakatlarda oiladagi zo'ravonliklar profilaktikasining nazariy asoslari va shu bilan bog'liq masalalarning amaliy jihat-lari Y.O. Alauxanov, Z.S. Zaripov, A.B.Vasil-yev, Vardanyan Gerasimov, A.P. Zakalyuk, I.N. Pyatkevich, Suxarev, A.I. Alekseev, M.P. Juravlev, N.V. Sazonova, B.V. Muslov, V.N. Kudryavseva, V.E. Eminova va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Biroq yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ishlari faqat zo'ravonlikning oldini olish, kriminologiya, jinoyat huquqi va huquqbuzarliklar profilaktikasini rivojlanti-rishning ayrim jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, oiladagi zo'ravonliklarning oldini olishga doir jinoyat huquqi, kriminologiya, huquqbuzarliklar profilaktikasining xorijiy tajribasi va xalqaro normalarining imple-mentatsiyasi orqali rivojlantirishga kompleks yondashilmagan va alohida tadqiqot predme-ti sifatida o'rganilmagan.

Oilada viktimlik darajasi yuqoriligi bo'yicha ayol jinsidagi oila a'zolari birin-chi o'rinda turadi, ya'ni umumiy jabrlan-ganlarning 75,8 %ini tashkil etadi. Oiladagi ji-noyatlarning 10,2 %i bolalar, ulardan 53,3 %i yosh bolalarga (14 yoshgacha bo'lganlarga) nisbatan, 57,8 %i 26 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan oila a'zolariga nisbatan, 11,6 %i 51–60 yoshlarga nisbatan, 13,6 %i esa 61 yosh-dan yuqoridagilarga nisbatan sodir etilgan.

Huquqni muhofaza qiluvchi organ xo-dimlari bilan o'tkazilgan so'rov natijalari-ga ko'ra, jabrlanganlarning ma'lumoti tahlil qilib ko'rilganda, ularning 0,2 foizining hat-toki boshlang'ich ma'lumoti bo'lmagan, 10 %ini boshlang'ich ma'lumotga ega bo'lgan, 10,2 %ini tayanch o'rta ma'lumotli, 40,9 %ini umumiy o'rta ma'lumotli, 21,2 %ini o'rta maxsus, 1,5%ini tugallanmagan oliy, 16 %ini esa oliy ma'lumotli bo'lgan shaxslar tashkil qilgan.

Oila kriminologiyasi va viktimologiya-sini o'rganar ekanmiz, oila ichida sodir eti-layotgan jinoyatlar va ushbu jinoyatlarni so-

dir etishda viktim xulqning rolini o'rganish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

“Oila doirasida sodir etilayotgan jinoyat-larga oilaning ichida oilaning bir a'zosi to-monidan ikkinchi a'zosiga nisbatan qilinadi-gan jinoyatlar kiradi” [3, 502-b.].

Bizningcha, “oiladagi jinoiy zo'ravonlik deganda, oilaning bir a'zosi tomonidan bosh-qqa a'zosiga nisbatan jismoniy yoki ruhiy ta'sir ko'rsatish yoxud qo'llash bilan qo'rqitish orqali uning hayoti, sog'lig'i, erkinligi, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmatini va qonun bilan muhofaza qilinadigan boshqa daxlsiz huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qilish orqali o'z hukmronligini o'tkazishga qaratilgan xatti-harakat yoki harakatsizlik”ni tushunish lozim.

Oiladagi jinoiy zo'ravonlikning quyidagi turlari mavjud:

Jismoniy zo'rlik – jabrlanuvchiga tur-li darajada tan jarohatlari yetkazish, urish, jismoniy kuch ishlatish, jabrlanuvchining qarindoshlari, yaqinlarini o'ldirish, nomusi-ga tegish va hokazolar ko'rinishida bo'lishi mumkin [4, 42-b.]. Bunda oilaning bir a'zosi tomonidan boshqa a'zosiga nisbatan qasddan uning hayoti, sog'lig'i yoki badanining turli joylariga shikast yetkazish kabi xatti-harakat-lar sodir etilib, quyidagi ko'rinishlarda namo-yon bo'ladi: shapaloq tortish, tepish, turt-kilash, musht bilan urish; kuchli zarb bilan itarib yuborish; turli o'tkir buyum va narsa-larni otish; qurol bilan xavf solish yoki yara-lash; uydan chiqishiga jismonan yo'l qo'ymas-lik; kechasi uxlashga qo'ymaslik.

Ruhiy zo'rlik – jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy zo'rlik ishlatish, mol-mulkini nobud qilish yoki zarar yetkazish va jabrlanuvchi sir saqlanishini istagan ma'lumotlarni osh-kor etish va hokazolar bilan qo'rqitish [5, –B. 95–96.]. Bunda qasddan oilaning bir a'zosi tomonidan boshqa a'zosining sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish orqali uning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish, his-tuyg'ula-rini so'ndiruvchi harakatlar qilish, qo'rqi-

tish va haqoratlash bilan ruhiyatiga shikast yetkazuvchi soʻzlar va harakatlar sodir etishda namoyon boʻladi.

Oiladagi jinsiy zoʻravonlik jinsiy aloqa qilishga majburlaydigan xatti-harakatlar qilish orqali doʻq-poʻpisa qilish yoki zoʻrlik ishlatish bilan qoʻrqitib, shaxsning jinsiy daxlsizligi va ozodligiga tajovuz qilish bilan ifodalanadi.

Umumiy koʻrinishda oiladagi zoʻravonlikni quyidagilarga ajratish mumkin: ayollarga nisbatan zoʻravonlik; bolalarga nisbatan zoʻravonlik; qarindoshlarga nisbatan zoʻravonlik.

Oiladagi zoʻravonliklarning oldini olish choralari bir nechta guruhga ajratish mumkin:

1. Oiladagi kriminogen taʼsir oʻchoqlarini aniqlash choralari.

Bu guruhga beqaror oilalar, ilgari sudlanganlar hamda huquqbuzarlar yashaydigan oilalar, oilalardagi salbiy taʼsir manbalari, janjal chiqqan oilalar va bolalarning nazoratsizlik holatlarini aniqlash choralari kiradi.

Bu choralar oilaviy barqarorlik, ilgari sudlanganlarning oilaviy holati, maktabda darslarga qatnamayotgan bolalar haqidagi maʼlumotlarni yigʻish va umumlashtirish yoʻli bilan amalga oshirilishi mumkin.

2. Beqaror oilalarni hisobga olish va ularni surunkali nazorat qilishni taʼminlovchi choralar. Bunday oilalar har bir tumanda yagona organda toʻplanishi, ushbu axborot beqaror oilalarga yordam koʻrsatadigan organlarga yuborilishi hamda zarur choralar koʻrilishi ustidan nazorat olib borish lozim.

3. Oilani qoʻllab-quvvatlash choralari. Oilaviy hayotni ragʻbatlantirish, oilalarga moddiy va turar joy muammolarini yechishda koʻmaklashish, oilali shaxslarni ish bilan taʼminlash masalalarini hal qilish kerak. Bu maqsadga erishish uchun sogʻlom oila turmush tarzini targʻib qilish, yosh bolali muhtoj oilalarga nafaqalar tayinlash zarur.

4. Bolalar nazoratsizligining oldini olish chora-tadbirlari. Oilada bolalar tarbiyasiga koʻproq eʼtibor berish, ular nima bilan

shugʻullanayotganini nazorat qilish, ota-ona va bolalar oʻrtasida yaqin aloqalar oʻrnatish dardkor.

Tadqiqot ishi mobaynida oʻrganilganda, jinoyatdan jabrlanganlarning 45,4 %i toʻliq va 26,9 %i toʻliq boʻlmagan oilada (shundan 93,1 %i yolgʻiz ona qoʻlida), 13,3 %i yaqin qarindoshlari qoʻlida, 14,4 %i bolalar uylari, internatlarda tarbiyalangan. Bunda toʻliq oilada tarbiyalanganlarning 42,3 %i otasi yoki onasi-ning ikkinchi nikohga kirishiga guvoh boʻlgan.

Oʻrganilgan tadqiqot ishlarida jabrlanuvchilar va ularning ota-onalari oʻrtasidagi oilaviy munosabatlarni taʼriflovchi maʼlumotlar ham eʼtiborga molikdir. “Voyaga yetmagan yoshda jinsiy tazyiq obyekti boʻlganmiz?” degan savolga voyaga yetmaganlarning 2,8 %i tasdiq javobini berdi va oʻz otalari ularga bunday tazyiq koʻrsatganini maʼlum qilishgan. Soʻralganlarning 10,9 %iga oʻgay otasi, 7,7 %iga qarindosh-urugʻlari, 4,6 %iga boshqa shaxslar jinsiy tajovuz qilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar mazkur ayollarning oilalaridagi mikromuhit ham ancha murakkab ekanini koʻrsatdi. Jinoyatdan jabr koʻrgunga qadar ularning 33,7 %i rasmiy nikohda, 11,2 %i erkaklar bilan roʻyxatdan oʻtkazilmagan munosabatlarda boʻlgan, 41,2 %i hech qachon nikohda boʻlmagan, 13,9 %i eri yoki xotini bilan ajrashgan.

Jabrlanganlarning 27,6 %ining bir nafar farzandi bor boʻlgan, 20,9 %ining ikkita farzandi, 29,0 %ining uch va undan ortiq farzandi, 22,5 %i farzandsiz boʻlgan.

5. Oilaviy dam olish jabhasini rivojlantirish choralari. Oilaviy dam olishni tashkil etishning har xil shakllarini rivojlantirish: dam olish uylari, madaniyat saroylari, sport maktablari, madaniyat va istirohat bogʻlari ishini tiklash kerak.

6. Oiladagi munosabatlarga psixologik tuzatish kiritish choralari.

Oiladagi munosabatlarni sogʻlomlashtirish, oila aʼzolari oʻrtasidagi muammolarni bartaraf etishga koʻmaklashuvchi maxsus xizmatlar tashkil etish lozim.

7. Oilaga kriminologik ta'sir ko'rsatish choralari – respublika va mahalliy darajalarda oilani muhofaza qilish va barqarorlashtirish, unga har xil madad ko'rsatishni ta'minlash yuzasidan tavsiyalar berishdan iborat. Buning uchun oilaga ijobiy ta'sir ko'rsatish yuzasidan takliflarni umumlashtirish, tahlil qilish va tizimga solish, har bir tumanda oila va yosh avlodga ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun mutaxassislarning keng doirasi (psixologlar, pedagoglar va h.k.) dan tashkil topgan maxsus maslahat komissiyalari tuzish lozim.

8. Oiladagi kriminogen ta'sir o'choqlarini aniqlash, hisobga olish va nazorat qilish. Oiladagi kriminogen ta'sir o'choqlarini aniqlash deganda, ilgari sudlangan hamda huquqbuzarlar yashaydigan, beqaror, janjal chiqqan, voyaga yetmagan bolalarning nazoratsizligi holatlari aniqlangan oilalarni aniqlash choralari [6, 189-b.] tushuniladi.

Bunday oilalarga nisbatan ularda barqarorlikni ta'minlash, janjalli vaziyatlarni o'z vaqtida hal etish, voyaga yetmaganlarning nazoratsizligini bartaraf etish hamda ularning bo'sh vaqtlarini to'g'ri va mazmunli tashkil etishga ko'maklashish, huquqbuzar shaxslarni doimiy ravishda qonunlarga hurmat va itoat ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish turli organlar: ichki ishlar boshqarma va bo'limlari, ijtimoiy ta'minot bo'limlari, aholini ish bilan ta'minlash organlari va boshqa subyektlarning faoliyatida olib borilib, oiladagi jinoyatlarning oldini olish maqsadida davlat miqyosida "Oilani rejalashtirish", "Onalik va bolalikni muhofaza qilish", "Tarbiyasi og'ir o'smir", "Otalar va bolalar" kabi maqsadli dasturlar qabul qilish mumkin. Bu dasturlarga oila siyosatining ustuvor yo'nalishlarini aks ettiruvchi eng muhim qoidalar, chunonchi: oilani qadriyat sifatida barqarorlashtirish; oila a'zolarining hayot faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar

yaratish; oilalarga maxsus yordam ko'rsatish tizimlarini tashkil etish; oilani rejalashtirish dasturlarini amalga oshirish; onalik va bolalikni ijtimoiy va tibbiy himoya qilish; oila a'zolari o'rtasida yaxshi aloqalar o'rnatilishiga ko'maklashish; oilada zo'rlik ishlatilishining oldini olish kiritilishi lozim.

Oiladagi zo'ravonliklarning umumijtimoiy va individual oldini olish jamiyatning barcha bo'g'inlari (oilalarni, ta'lim, tibbiyot muassasalari, o'zini o'zi boshqarish organlari)ning faol ishtiroki orqali amalga oshirilsa, maxsus oldini olish bevosita ichki ishlar organlari, prokuratura, adliya, sud organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Oilalarni doirasida zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar profilaktikasi har bir shaxsga nisbatan individual yondashuvni talab etadi. Bu, avvalambor, oilada voyaga yetmagan jabrlanuvchilarga ham taalluqlidir. Masalan, viktimlikning dastlabki bosqichida profilaktika qilish muammosi so'nggi yillarda bir necha marta ko'tarildi. Ammo o'smirlar va qizlar orasidagi viktimlikning oldini olishga nisbatan tabaqalashtirilgan yondashuvning zarurligi bu holda ham juda kam tilga olingan. Yuqorida qayd etilgan umumiy, bir xil yondashuv bu yerda ham yetakchilik qiladi. Beqaror oiladan chiqqan o'smir yoki qizni ro'yxatga olish, o'z vaqtida chora ko'rganlik haqida rahbariyatga hisobot berish va shu bilan o'smir yoki qiz jabrlanuvchiga aylangunga qadar profilaktik ta'sir ko'rsatishni to'xtatish ichki ishlar organlari profilaktika xizmatining, avvalambor, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha inspeksiyalar xodimlarining va uchastka nozirlarining ishidagi qotib qolgan shtampdir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yosh bolalik davrida zo'ravonliklardan jabrlanish va zo'ravonlikka duch kelish holatlari jinoyatchi bo'lish ehtimolini keltirib chiqaradi. Bu, o'z navbatida, bolalarga nisbatan zo'ravonlik qilinishini iloji boricha dastlabki vaqtlarida aniqlash va uning oldini olishning ahamiyatini oshiradi. Ushbu ehtimol jinsiy

aloqa va zoʻravonlikning boshqa koʻrinishlari mavjud boʻlganda yanada murakkablashadi [7, 103–129-b.]. Uy sharoitidagi doimiy zoʻravonlikning koʻlami roʻyxatlar va maʼlumot bazalari muntazam ravishda yangilanib turuvchi bir necha mamlakatlardagina aniqlangan. Buyuk Britaniya va AQShda bolani himoya qilish rasmiy agentliklariga xabar qilinganda, bolaga nisbatan zoʻravonlik qoʻllanilishi holatlarining keyingi 1–4 yil ichida takrorlanish nisbati 5–24 %ga teng ekanligi aniqlangan [8, 1063–1071-b.]. Bir bola masalasi boʻyicha kamida ikki marta shikoyat tushgan holatlarda bu ehtimol sezilarli darajada ortar ekan.

Bolaga nisbatan oilada zoʻravonlik qoʻllanilishi boshqa muhitlardagi zoʻravonliklar ortib borish xatari bilan bogʻliq deb hisoblanadi. Buyuk Britaniyada oʻtkazilgan tadqiqotda aniqlanishicha, xonadonda zoʻravonlikning guvohi boʻlgan bolalarning oʻzlari bezorilikdan jabr koʻrishlari ehtimoli yuqori boʻlar ekan [9]. Italiyada boshlangʻich va oʻrta maktab oʻquvchilari oʻrtasida oʻtkazilgan tadqiqotda aniqlanishicha, maktabda bezorilikning jabrlanuvchisi boʻlish oʻz uyida ota-onalar tomonidan zoʻravonlik qurboni boʻlish bilan uzviy bogʻliq ekan. Bu, ayniqsa, qiz bolalarda koʻproq uchrashi aniqlangan [10, 713–732-b.].

Xulosalar

Shulardan kelib chiqib, voyaga yetmagan, oʻsmir yoshlarning jinoyat jabrlanuvchisiga aylanib qolishining oldini olish yuzasidan bir qancha choralar koʻrish lozim. Jumladan:

birinchidan, nosogʻlom oilalarni aniqlash va ularni roʻyxatga olish, ular ustidan doimiy nazorat oʻrnatish;

ikkinchidan, homiylik va vasiylik organlarining toʻliqsiz oilalarni nazorat qilishini belgilab qoʻyish;

uchinchidan, oila munosabatlariga oʻz taʼsirini oʻtkazadigan kriminogen manbalarni aniqlash va bartaraf qilish;

toʻrtinchidan, oila hayotini ragʻbatlantirish oilaning moddiy va yashash muammola-

rini hal qilishda, oila aʼzolarini ishga joylashtirishda yordam berish;

beshinchidan, bolalar qarovsizligining oldini olish, bunda bolalar tarbiyasiga alohida ahamiyat berish;

oltinchidan, oiladagi ruhiy munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

yettinchidan, oilaning ishdan tashqari boʻsh vaqtini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishdan iboratdir.

Bundan tashqari, maktablarda oʻsmir yoshlar va voyaga yetmaganlarga alohida eʼtibor qaratish, ular bilan turli guruhiy bahs-munozaralar oʻtkazish, oʻyinlar va viktorinalar tashkil qilish lozim. Chunki maktab tarbiya chogʻida yoʻl qoʻyilgan kamchiliklarni aniqlash va tuzatish boʻyicha asosiy subyekt hisoblanadi. Maktabda oʻtkazilayotgan turli tadbirlar orqali bolalarning xarakteri oʻrganiladi va tarbiya topadi. Maktablarda turli tajovuzlardan himoyalaniшни oʻrgatuvchi fanni oʻqitishni yoʻlga qoʻyish va uning tegishli mutaxassislar tomonidan olib borilishini taʼminlash lozim.

Oiladagi zoʻravonlikning maxsus oldini olish choralari ham oʻziga xos xususiyat va ahamiyatga ega.

Maxsus oldini olishda, zoʻrlik bilan sodir etiladigan jinoyatlardan mudofaani taʼminlash maqsadida, fuqarolarning kriminologik ong va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan targʻibot va tashviqot ishlarini koʻpaytirish zarur. Bu, avvalo, har bir potensial jabrlanuvchi kriminologik vaziyati salbiy oqibatlarining oldini olish uchun zarur choralar koʻrish prinsipiga asoslanadi.

Amaliyot shuni koʻrsatadiki, zoʻrlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar boʻlajak jabrlanuvchi va jinoyatchining muloqoti vaziyatida rivojlanadi. Bunday holatda jinoyatchining jinoyat sodir etishiga asosiy sabab va omillarni qoʻzgʻatmaslik zarur. Turmushda zoʻrlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning asosiy qismi qasddan odam oʻldirish jinoyatlari boʻlib, ularni vujud-

ga keltiruvchi birinchi omil alkogolizm hisoblanadi. Bunday vaziyatda dastlabki vazifa alkogolik va narkologik davolanishni tashkil etish, psixiatr hamda psixolog mutaxassislariga murojaat etishdir. Hayot bu choralarning maqsadga muvofiqligini ko'rsatmoqda. Xususan, psixolog va kriminalistlarning fikricha, ayollar nomusga tegish jinoyatidan jabrlanuvchi bo'lishining oldini olish uchun quyidagi qoidalarga rioya etishlari zarur: tungi vaqtda kimsasiz joylarda bir o'zi yurmasligi; notanish kimsalar bilan ovloq joylarga bor-maslik; yashash joyiga notanish shaxslarni olib kelmaslik; spirtli ichimliklar iste'mol qiladigan notanish guruhlar bilan aloqa qilmaslik; notanish erkaklar bilan o'zini sipo tutishi va spirtli ichimliklar ichib, o'zini ojiz ahvolga solib qo'ymasligi va hokazolar. Agar notanish kimsa tajovuz qilsa, avvalo, unga ruhiy ta'sir o'tkazish kerak. Masalan, OITS yoki boshqa kasalliklarga chalinganini aytish mumkin.

Oiladagi zo'ravonlikning maxsus oldini olish choralari ishlab chiqish va amalga oshirishda marginal muhitga mansubligi (ichkilikbozlar, giyohvandlar, fohishalar, totalitar sektalarning a'zolari va b.) tufayli kuchli viktim xossalarga ega bo'lgan shaxslarni aniqlashga alohida e'tibor berish lozim. Deviant ijtimoiy guruhlar vakillarining ijtimoiy-axloqiy deformatsiyalanishi ularni odatdagi huquqbuzarlardan farqlash imkonini bermaydi. Bunda ularning kuchli viktimligi shu darajada mustahkam holatki, hatto shaxs o'z turmush tarzini o'zgartirganidan keyin ham u uzoq vaqtgacha saqlanib qoladi. Shu sababli bunday shaxslarga ijobiy va samarali ta'sir o'tkazishga faqat kengroq obyekt – ijtimoiy og'ishlarga qaratilgan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, pedagogik profilaktik choralar majmuyini amalga oshirish orqali erishish mumkin.

Oiladagi har qanday zo'ravonlik kimningdir huquq va erkinliklariga tajovuz qilishi mumkin. Bunday tajovuzlardan oila a'zolarini muhofaza qilish uchun iqtisodiy, ijtimoiy va,

albatta, huquqiy kafolatlar yaratilgan bo'lishi lozim [11, 47-b.]. Bir paytning o'zida mazkur huquq va erkinliklar davlat, biron-bir siyosiy partiya yoki jamoat birlashmasi tomonidan berilgan o'ziga xos "sovg'a" hisoblanmaydi. Ularning doirasi va daxlsizligi jamiyatning uzoq hamda murakkab rivojlanishi, insonlar hokimiyat uchun emas, balki hokimiyat fuqarolarning asl manfaatlarini uchun xizmat qiladigan va ular oldida mas'ul bo'lgan ijtimoiy institutlar yaratilishining natijasi hisoblanadi [12, 215-b.].

Oilada zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashishning hozirda mavjud tizimi murakkabligi va kam samara berayotganligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham mazkur tizim ijtimoiy nazorat vositalari bilan to'ldirilishi lozim. Ijtimoiy nazorat vositalariga turli jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshiriluvchi choralar yig'indisi kiradi. Ushbu choralar aholining marginallashuvi va ma'naviy qadriyatlarga rioya qilinmasligiga yo'l qo'ymaslik; oila va oilaviy munosabatlarni muhofaza qilishning muhimligini targ'ib etish; muayyan oila manfaatlarining himoyasiga qaratilgan kampaniyalar o'tkazish; fuqarolarni qonunlar va an'anaviy odob-axloq normalariga hurmat ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Jinoyatchilikka qarshi kurashishning rasmiy va norasmiy tizimlari o'zaro bog'liqdir. Ma'lumki, ijtimoiy nazoratning norasmiy usullarisiz huquqni muhofaza qiluvchi organlar jinoyatlarga qarshilik ko'rsata olmay qolgan bo'lar edi. Biroq rasmiy tizimning mavjud emasligi ham norasmiy tizimning biror-bir tarzda amal qilishiga yo'l qo'ymagan bo'lardi. Ustiga-ustak, jamoatchilik nazorati choralari qonuniyligi va ishonchliligi ham doimiy ravishda bahs-munozaraga sabab bo'lgan bo'lardi.

Jinoyatlarning oldini olishga oid maxsus choralarni ta'sir etish obyektlari, o'lchamlari va amal qilish ko'lamlarini hisobga olgan holda guruhlash ularni aniqroq tasniflash

uchun zarur bo'lgan asosiy shartlardan biri sanaladi.

Shu o'rinda ushbu oldini olish faoliyatining maqsadi va usullariga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi to'rtta umumiy yondashuvni (ularning uchasi oiladagi zo'ravonlik sabablarini bartaraf etishga qaratilgan) ko'rsatish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Oiladagi zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan yondashuvlar quyidagilardan iborat:

1. Fuqarolarni mafkuraviy tarbiyalash – kriminogen omillar ta'sirini kamaytirish maqsadida bolalarni oilada tarbiyalash, bolalik davridan ko'p tarmoqli ta'lim tizimiga o'tkazish, jismoniy va ruhiy sog'lig'ini yaxshilashga qaratilgan choralar. Ushbu choralar kelajakda oiladagi zo'ravonlik ko'lamining keskin kamayishiga xizmat qilgan bo'lar edi.

2. Atrof-muhitning ijobiy ta'sirini kuchaytirish – oiladagi zo'ravonlikka barham berishda mahalliy jamoat birlashmalarining roli anchagina katta. Shu sababli ham ijtimoiy hamjihatlikni amalga oshirishga yo'naltirilgan hokimiyat organlarining faoliyati jinoyatlar profilaktikasining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Ijtimoiy hamjihatlikka turli xizmatlarni kengaytirish, oilalarning o'zlari yashayotgan joydagi jamoat birlashmalari bilan aloqalarini rivojlantirish va mustahkamlash uchun keng imkoniyatlar yaratib berish, shuningdek yoshlarni oila va oilaviy munosabatlarning muhimligini tushunish ruhida tarbiyalash, oilaviy nizolarni zo'rlik orqali hal etish imkonini mavjudligi haqidagi fikrlarni ularning ongidan chiqarish kabi yo'llar bilan erishiladi.

3. Ijtimoiy rivojlanish choralari – mazkur yondashuv to'rt yondashuv orasida eng kam o'rganilgani bo'lsa-da, muhim ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, uning ahamiyati shundan iboratki, mamlakatimiz aholisi o'tish davri qiyinchiliklarini boshidan kechirmoqda. Bu aholining muayyan qismi ishsiz qolishi va oilalarda ijtimoiy-iqtisodiy rejalarining mavjud emasligi, oila a'zolari bilim va madaniyat darajasining pastligi, aholi migratsiyasining yuqori darajadaligi, ilgari sudlanganlarning

ta'siri va hokazolar bilan izohlanadi. Mazkur yo'nalishdagi oldini olishga oid dasturlar zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarining xavfli subyektlari (marginal muhitdan chiqqan shaxslar)ni jinoiy harakatlardan, masalan, individning buzuk xulq-atvori yuqori darajada namoyon bo'lishi bilan bog'liq harakatlardan muhofaza qilishi lozim.

Rivojlangan jamiyatda oilada sodir etilgan zo'rlik darajasi past, degan taxminlar bor, biroq ijtimoiy muhit bilan jinoyatchilik o'rtasida to'g'ridan to'g'ri o'zaro aloqa mavjud emas. (Masalan, G'arb mamlakatlarida jinoyatchilikning keskin o'sishi ijtimoiy ta'minot ko'tarilishi va yaxshilanishi davrida qayd etilgan). Shuningdek, jinoyatchilik va aholining ish bilan ta'minlanganlik darajasi o'rtasida ham bevosita o'zaro aloqadorlik mavjud emas.

Profilaktikaning mazkur darajasi oiladagi zo'ravonlikni vujudga keltiruvchi muhit, umuminsoniy qadriyatlarga aholining keng qatlamlarini jalb etish, shuningdek, aholi bandligi va turar-joy qurilishi siyosatini amalda qo'llash choralaridan foydalanish orqali tugatilishi lozim.

4. Jinoyatchilikning situativ (vaziyatga bog'liq) oldini olish – oiladagi zo'ravonlik sabablarini bartaraf etishga qaratilgan oldini olishga oid yuqoridagi uch shakldan farqli o'laroq, situativ oldini olishning maqsadi oilada zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlariga imkon beruvchi shart-sharoitlarni kamaytirishdan iboratdir. Jinoyatchilikning oldini olishning mazkur turi (hokimiyat organlari ko'magida)ni qo'llashda zo'ravonlikdan xoli muhitni yaratish maqsadida bunday o'ziga xos jinoyatlar sodir etilishi uchun imkon bergan shart-sharoitlar aniqlanishiga e'tibor qaratiladi, jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilishi talab qilinadi.

Umuman olganda, oiladagi zo'ravonlikning oldini olish g'oyat murakkab muam-molardan hisoblanadi. U: 1) oiladagi janjal sabablarining mutaxassis tomonidan aniqlanishi; 2) oilani qo'llab-quvvatlash va unga

yordamlashish, jumladan, moddiy va tibbiy ko'mak berish choralari bilan uyg'unlashtirish; 3) huquqni muhofaza qilish organlari tibbiyot muassasalari, jamoat birlashmalari, maktablar, boshqa o'quv yurtlari, mehnat jamoalarining ichkilikbozlikning oldini olish, alkogolizm va boshqa ruhiy kasalliklarni davolashdek profilaktika chora-tadbirlarida faol ishtirok etishini nazarda tutadi.

Qolaversa, oiladagi zo'ravonliklar, ularda ro'y berayotgan jinoyatlarni aniqlash, sabablarini bartaraf etish uchun yangi, noan'anaviy yondashuvlarning shaxsga oid psixologik, patopsixologik va psixopatologik omillarni o'rganish asosida olib borilishi nihoyatda zarurdir.

Olib borilgan tadqiqotlar oilada zo'ravonlik sodir etilishining oldini olishning dastlabki chorasi unga moyil bo'lgan shaxslarda g'ayriijtimoiy xulq-atvorni shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik muhitni sog'lomlashtirish bilan bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda.

Oiladagi zo'ravonliklarning oldini olish ilgari zo'rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlari uchun sudlangan shaxslarning ijtimoiy hayotga moslashuvini nazarda tutuvchi maxsus dasturlarni ham o'z ichiga olishi lozim.

Jazoni o'tab chiqqan shaxsning ijtimoiy hayotga moslashish modeli jinoyat-huquqiy ta'sirdan tubdan farq qiluvchi choralar tizimi yig'indisidir. Xususan, aybdor shaxsga ruhiy va ijtimoiy ta'sir ko'rsatuvchi jazo, o'z mohiyatiga ko'ra, tarbiyaviy xususiyatga ega emas. Chunki jinoiy jazo zo'rlik jinoyatlari subyekting o'zini zo'rlik obyektiga aylantiradi. Bu hol unga real zarar yetkazadi (bu uni yerga urish, uyaltirish kabilarda namoyon bo'ladi).

Tarbiyaviy ta'sir oilada zo'rlik ishlatib sodir etilgan jinoyat subyekting jamiyatga qaytishiga ko'maklashishi, jinoyatchining huquq va erkinliklari hech bo'lmaganda kelajakda himoya qilinishining kafolatlanishi, jamiyatda resediv jinoyatchilar ko'payishining oldini olish, oiladagi zo'rlik subyekti bilan uning "qurboni" o'rtasida kelishuvga erishish, jamoat tartibining tiklanishi va ta'minlani-

shiga yordam berishi lozim. Shunday qilib, tarbiyaviy (jazolashsiz) ta'sir o'z-o'zidan zo'ravonning qaytadan ijtimoiy hayotga moslashuvining o'ziga xos modeliga aylanishi mumkin.

Bundan tashqari, tarbiyaviy ta'sir choralari davlatning aralashuvi bilan oiladagi g'ayriijtimoiy muhitni tuzatishga qaratilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun dam olish paytlarida tarbiyaviy soatlar o'tkazish, individual tarzda yoki guruhlariga maslahatlar berish, shuningdek, jismoniy, ruhiy va ijtimoiy muolajaning turli ko'rinishlari, individual ruhiy muolaja va guruhlarda muolajalar o'tkazish usullaridan foydalanishni taqozo etadi.

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, oiladagi nizolar, oila a'zolarining jinoyat sodir etish xohishlari, odatda, ijtimoiy nazorat vositalaridan yashiriladi. Bu hol oiladagi shart-sharoit, oila a'zolarining haqiqiy xulq-atvori, ko'pincha atrofdagilar bahosi bilan mos kelmaydi [13].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, oiladagi ma'naviy tarbiyaning zaifligi, birinchi navbatda, nosog'lom muhit, g'ayritabiiy munosabatlar, nizolar, janjallar, kelishmovchiliklar mavjudligida, o'zaro g'amxo'rlikning yo'qligida namoyon bo'ladi. Ba'zi ota-onalar bolalar oldida janjallashadilar, bo'lmag'ur so'zlarni ishlatadilar. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, bola otaning har bir harakatini zimdan kuzatib boradi. Ota-ona o'rtasidagi doimiy janjal bolaning asabini yemiradi. Serjanjal oilada o'sayotgan bola darsni o'zlashtira olmaydi, oqibatda unda o'zgacha kayfiyat paydo bo'ladi. Tabiiyki, muntazam janjal bo'lib turadigan oilalarda tarbiyalangan bolalar asabiy, ruhan zaif bo'lib qoladilar. Ular g'ayritabiiy, hatto g'ayriqonuniy ishlarga qo'l urishdan ham tap tortmaydilar [14, 25-b.].

Yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda, individual profilaktika nizolashishga moyil yoki nizolashayotgan oilalarni aniqlashdan boshlanadi. Ko'rib chiqilayotgan profilaktika faoliyatini o'rganish natijasida notinch oilalarni aniqlash uchun

qo'llaniladigan usullar axborot manbalariga asosan tuzilishi ma'lum bo'ldi. Birinchi navbatda, bu jabrlanuvchining ichki ishlar organiga murojaat qilishi yoki oila a'zosi-ning ijtimoiy harakatlarini o'rganish orqali aniqlanadi [15].

Bizningcha, oiladagi zo'ravonlikning oldini olishda quyidagi choralar ko'proq sama-

ra berishi mumkin: 1) ijtimoiy; 2) situativ (vaziyatga bog'liq) oldini olish choralari. Bu choralar oilada zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni vujudga keltiruvchi sabablarni bartaraf etish va ularning sodir etilishi uchun imkon beruvchi shart-sharoitlarni kamaytirishga xizmat qilgan bo'lar edi.

REFERENCES

1. Available at: <https://www.unwomen.org/en/what-we-do/ending-violence-against-women/facts-and-figures/>.
2. Karimova V. Oila himoyasi – davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi [Priorities of the state policy on family protection]. *Huquq ba burch – The right to duty*, 2007, no. 5, p. 31.
3. Kriminologiya [Criminology]. Moscow, Rossiya, 1998, p. 502.
4. Rustambaev M.H. Jinoyat huquqi [Criminal law]. Special part. Tashkent, TSU, 2006, p. 42.
5. Taxirov F. Ayrim xorijiy mamlakatlarda jinsiy jinoyatlar uchun javobgarlik [Liability for sexual crimes in some foreign countries]. Editor-in-Chief M.H. Rustamboev. Tashkent, TSIL, 2009, pp. 95-96.
6. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya [Criminology]. Tashkent, TSIL, 2008, p. 189.
7. Classen C.C. et al. Sexual Revictimisation: A Review of the Empirical Literature. *Trauma Violence and Abuse*, 2005, no. 6 (2), pp. 103-129.
8. Fryer G., Miyoshi T. A Survival analysis of the revictimisation of children: the case of Colorado. *Child Abuse & Neglect*, 1994, no. 18 (12), pp. 1063-1071.
9. Bradshaw J., Mayhew E. The Well-being of Children in the UK. 2nd Edition. London, The University of York, Save the Children UK.
10. Bardly A. Bullying in Schools and Exposure to Domestic Violence. *Child Abuse & Neglect*, 2003, no. 27 (7), pp. 713-732.
11. Prava cheloveka: Novoye rossiyskoye zakonodatel'stvo i mezhdunarodnyye pravovyye normy [Human rights: international legal norms]. Moscow, Pravo-M, 1998, p. 47.
12. Movchan A.P. Mezhdunarodnaya zashchita prav cheloveka [International protection of human rights]. Moscow, Pravo-M, 1998, 215 p.
13. Niyozova S.S. Strong emotional arousal (effect) as a criminal law norm. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2021, March 31, pp. 96-102. DOI: 10.37547/tajpslc/Volume03Issue03-15. ISSN: 2693-0803.
14. Ismailov I., Mahmudov R. Barkamol inson – barkamol jamiyat garovi [A harmonious person is a guarantee of a harmonious society]. *Tafakkur*, 1997, iss. 1, pp. 76-79.
15. Niyozova S.S. Prevention of crime in the family and the role of victimology in the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 2020, vol. 29, no. 3, p. 3962.
16. Zaripov Z.S., Kejner M.Yu., Muradov O.B. Voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish sotsiologiyasi [Sociology of juvenile delinquency and crime prevention]. *Huquq – Pravo – Law*, 2003, iss. 4, p. 25.

UDC: 349.6(042)(577.1)

JINOYAT TARKIBI TO'G'RISIDAGI TA'LIMOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA JINOYAT OBYEKTIV TOMONI BELGILARINING O'RNINI: QIYOSIY TAHLIL

Xudoyqulov Feruzbek Xurramovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti,
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga
qarshi kurashish kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0002-4940-3762
e-mail: dr.profi114@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tadqiq etishning mantiqiylik, tizimlilik, mantiqiy-yuridik, qiyosiy-huquqiy metodlaridan keng foydalanilgan. Jumladan, birinchi navbatda, jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limotning shakllanishi va uning tarixiy rivojlanish bosqichlari haqida atroflicha bayon qilingan. Shuningdek, jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limotning shakllanishida jinoyatning obyektiv tomoni belgilari asosiy o'rinni egallaganligi va ular haqida jinoyat huquqi nazariyasida olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar, qarashlar yoritilgan bo'lib, undan so'ng esa jinoyat obyektiv tomoni belgilari asosida nemis klassik jinoyat huquqi maktabida jinoyat tarkibining boshqa subyektiv belgilari ishlab chiqilganligi va ularning o'ziga xos xususiyatlari ketma-ket tavsiflab berilgan. Shu bilan birga, zamonaviy jinoyat huquqi nazariyasida mavjud jinoyat tarkibi tushunchasi ishlab chiqilishida jinoyat obyektiv tomoni belgilari-ning o'ziga xos ahamiyati o'rganilgan. Ushbu maqolada tadqiq etishning deduksiya metodi asosida jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limot asosi sifatida jinoyatning obyektiv tomoni belgilari, ya'ni corpus delicti (Qadimgi Rim huquqida) – qonun tarkibi (klassik nemis jinoyat huquqida) – jinoyat tarkibi tushunchasi (XIX–XX asrning 50–60-yillarida) to'g'risidagi jinoyat huquqida mavjud nazariy-ilmiy qarashlar o'z aksini topgan. Shuningdek, jinoyat obyektiv tomoni belgilarining jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limot va jinoyat tarkibi tushunchasi shakllanishi hamda rivojlanishida tutgan o'ziga xos o'rnini, ularning o'ziga xos jinoyat-huquqiy ahamiyati, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida keltirilgan javobgarlikning yagona asosi sifatida jinoyat tarkibi belgilari bilan bog'liq nazariy va amaliy muammolar yoritilgan. Shu bilan birga, Rossiya Federatsiyasi, Belarus va Moldova jinoyat qonunchiligi tahlil qilinib, bu borada O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat, corpus delicti, jinoyat tarkibi, jinoiy qilmishning tashqi belgilari, jinoyat tarkibi-ning obyektiv belgilari, jinoyatning obyektiv tomoni belgilari, ijtimoiy xavfli qilmish, jinoyat sodir etish usuli.

РОЛЬ ПРИЗНАКОВ ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ УЧЕНИЯ О СОСТАВЕ ПРЕСТУПЛЕНИЯ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Худайкулов Ферузбек Хуррамович,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),
Ташкентский государственный юридический университет,
исполняющий обязанности доцента кафедры
Уголовное право, криминология и противодействие коррупции

Аннотация. В данной статье широко используются логический, системный, логико-правовой, сравнительно-правовой методы исследования. В частности, в первую очередь подробно описаны становление учения о структуре преступности и ее этапы исторического развития. Также рассматриваются роль объективной стороны преступления в формировании учения о составе преступления, взгляды, высказанные учеными в теории уголовного права, после которых классифицируются отдельные субъективные признаки состава преступления и их особенности, выработанные на основе признаков объективной стороны классической немецкой школы уголовного права. Вместе с этим описывается значение особенностей объективной стороны преступления в разработке существующего понятия состава преступления в современной теории уголовного права. В данной статье на основе метода дедукции нашло свое отражение понятие состава преступления, принимая во внимание объективную сторону преступления как основу данного учения: *corpus delicti* (римское право) – состав закона (классическое немецкое право) – понятие состава преступления (50-60 годы XIX–XX веков). Кроме этого, в статье рассмотрена специфика объективных сторон преступления в становлении и развитии учения о составе преступления и концепции состава преступления, их конкретное уголовное значение, а также теоретические и практические проблемы, связанные с элементами состава преступления, а также преступление как единственное основание ответственности, приведенное в Уголовном кодексе Республики Узбекистан. Вместе с этим были проанализированы уголовное законодательство Российской Федерации, Республики Беларусь и Молдовы, разработаны конкретные предложения и рекомендации по совершенствованию уголовного законодательства Республики Узбекистан.

Ключевые слова: преступление, *corpus delicti*, состав преступления, внешние признаки преступного деяния, объективная сторона состава преступления, признаки объективной стороны преступления, общественно опасное деяние, способ совершения преступления.

THE ROLE OF SIGNS OF THE OBJECTIVE SIDE OF CRIME IN THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE DOCTRINE ON CORPUS DELICTI: A COMPARATIVE ANALYSIS

Khudaykulov Feruzbek Khurramovich,

Acting Assistant Professor of the Department
of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy in Law (PhD)

Abstract. This article widely uses logical, systemic, logical-legal, and comparative-legal research methods. In particular, first of all, the formation of the doctrine of the structure of crime and its stages of historical development are described in detail. Also, the role of the objective side of the crime in the formation of the doctrine of the *corpus delicti*, the views expressed by scientists in the theory of criminal law are considered, after which individual subjective signs of the *corpus delicti* and their features are classified, developed on the basis of the signs of the objective side of the classical German school of criminal law. At the same time, the significance of the signs of the objective side of the crime in the development of the existing concept of *corpus delicti* in the modern theory of criminal law is described. In this article, based on the deduction method, the work reflects the concept of *corpus delicti*, taking the objective side of the crime as the basis of this doctrine, that is, *corpus delicti* (in Roman law) - the composition of the law (classical German law) - the concept of *corpus delicti* (50-60 years of the XIX-XX centuries). In addition, the article considers the specifics of the objective side of the crime in the formation and development of the doctrine of the *corpus delicti* and the concept of the *corpus delicti*, their specific criminal significance, as well as theoretical and practical problems associated with the elements of the *corpus delicti*, crime as the only basis for responsibility given in the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. At the same time, the criminal legislations of the Russian Federation, Belarus and Moldova

were analyzed, specific proposals and recommendations were developed to improve the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: crime, corpus delicti, the structure of crime, external signs of a criminal act, objective side of the crime, signs of the objective side of the crime, socially dangerous act, method of committing a crime.

Kirish

Jinoyat huquqi jinoyat va jazo haqidagi fan bo'lib, uning asosiy vazifasi jinoyat va jazo tushunchalarini tahlil qilish, tizimlashtirish, shuningdek umumlashtirishdan iborat. Jinoyat huquqining mazmun-mohiyatini jinoyat, jinoyat tarkibi, jinoyat qonuni va jazo haqidagi ta'limotlar tashkil etadi.

Jinoyat tarkibi nafaqat kontinental (roman-german) huquq oilasiga kiruvchi mamlakatlar, balki xorijiy mamlakatlar jinoyat huquqining markaziy (magistral) institutlaridan biri hisoblanadi. Jinoyat tarkibi atamasi, odatda, jinoyat qonunchiligi va sud amaliyotida tez-tez qo'llaniladi. Jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limotda "jinoyat tarkibi jinoyat-huquqiy nazariyaning eng muhim tarkib qismlaridan biri" hisoblanadi [1, 11-b.]. Jinoyat tarkibi jinoyat huquqi binosi turgan asosga qiyoslanadi [2, 3-b.], uning jinoyat huquqi fanida kashf etilishi kimyodagi Mendeleev davriy sistemasi jadvaliga ham qiyoslanadi [3, 126-b.].

X.R. Ochilov, Sh.D. Haydarov, Z.Z. Shamsiddinovlar "Jinoyat qonunida jinoyat tarkibi va uning belgilari tushunchasi berilmagan bo'lib, yuqoridagi ta'rif nazariy hisoblanadi. Shunga qaramasdan, "jinoyat tarkibi" tushunchasi Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, sud-tergov amaliyotida keng qo'llaniladi", deb ta'kidlaydilar [4, 24-b.].

X.M. Abzalova "Har qanday hodisani obyektiv va keng qamrovli o'rganish... u bilan bog'liq tadqiqot o'tkazish, boshqacha aytganda, uning xronologik va tarixiy rivojlanishini tahlil qilish orqali amalga oshirish mumkin. Shu bilan birga, tarixiy tadqiqotlar, odatda, tahlil qilinayotgan hodisaning shakllanishi va rivojlanishiga eng kuchli ta'sir ko'rsatgan, ya'ni muayyan tarixiy davrlar, rivojlanish bosqichlariga bo'lish orqali amalga oshiriladi", deydi [5, 16-b.].

Jinoyat tarkibi o'ziga xos umumijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, M.X. Rustambayev "Jinoyat tarkibini tashkil etuvchi belgilar birligida ifodalanuvchi xulq-atvorga nisbatan jamiyat, davlat va tegishli huquq normasining salbiy munosabatida namoyon bo'ladi, ya'ni jinoyat tarkibi – bu taqiblovchi norma yoki jamiyat a'zosining xulq-atvor me'yoridir", deb ta'kidlaydi [6, 110-b.].

Jinoyat tarkibi muhim jinoiy-huquqiy kategoriya sanaladi. U o'zida obyektiv va subyektiv belgilar yig'indisini mujassamlashtirib, jinoyat mohiyatini aniqlaydi. Ushbu belgilar O'zbekiston Respublikasining JKda mustahkamlangan. Qoida tariqasida, ular JK Umumiy va Maxsus qismining turli normalarida aks etgan. Ijtimoiy xavfli qilmishning u yoki bu elementiga mansubligiga qarab mazkur belgilarni subyekt, obyekt, subyektiv va obyektiv tomon belgilariga ajratish mumkin [7, 41-b.].

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, jinoyat tarkibi o'ziga xos umumijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, muhim jinoiy-huquqiy kategoriya hisoblanadi. U o'zida sodir etilgan jinoiy qilmishning obyektiv va subyektiv belgilari yig'indisini ifodalab, jinoyatning zaruriy belgilari mohiyatini aniqlaydi.

Boshqa guruh olimlar esa, ya'ni O.X. Rasulov va A.S. Yakubovlar "Jinoyat tarkibi – ma'lum bir ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb xarakterlovchi obyektiv va subyektiv belgilarining minimal va yetarli yig'indisi", [8, 90-, 95-b.] deb unga berilgan ta'rifni yanada aniqlashtirib ifodalaydilar. Jinoyat tarkibi bu ta'rifga ega bo'lishda o'ziga xos shakllanish va rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan.

Jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limotning shakllanishi va rivojlanishida jinoyat obyektiv tomoni belgilari asos bo'lganligini hisobga olgan holda, jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limotni tarixiy-qiyosiy tahlil qilish jara-

yonida quyidagi maqsadlarni ko'zlaymiz: birinchidan, jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limot shakllanishida jinoyat obyektiv tomoni belgilari asos bo'lganligini tan olinishining dastlabki bosqichini aniqlash; ikkinchidan, jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limot rivojlaniish bosqichlarida jinoyat tarkibi belgilari tuzilishiga aynan jinoiy qilmishning tashqi obyektiv belgilari, xususan, jinoyat obyektiv tomoni belgilari nima sababdan kuchli ta'sir qilganligini aniqlash; uchinchidan, jinoyat tarkibi dastlabki jinoyat-huquqiy va protsessual ahamiyat kasb etish sabablari-ni aniqlash; to'rtinchidan, jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limotda sodir etilgan jinoiy qilmishning obyektiv va subyektiv belgilari tizimining birin-ketin shakllanish hamda rivojlanish bosqichlarini aniqlash; beshinchidan, jinoyat obyektiv tomon belgilarning kuchli ta'siri natijasida jinoyat tarkibi to'g'risidagi konsepsiyalar shakllanishini aniqlash; oltinchidan, jinoyat tarkibi nazarda tutilgan turli davrlardagi jinoyat qonuni normalarini tadqiq qilish.

O'zining uzoq yillik tarixi davrida jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limot zamon o'zgarishlariga qarab turli xil o'zgarishlarga uchradi. Bu esa uning shakllanish va rivojlanish tarixini davrlarga bo'lib o'rganishni taqozo etishi tabiiy bir hol. Mazkur usul unga tegishli har bir davrning o'ziga xos tomonlarini ajratish va tahlil qilish imkonini beradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limot shakllanishi va rivojlanishini muayyan davrlarga bo'lish shartli hisoblanadi.

Material va metodlar

Maqolada tadqiq etishning mantiqiylik, tizimlilik, induksiya, deduksiya, mantiqiy-yuridik, qiyosiy-huquqiy metodlaridan keng foydalanilgan. Tadqiq etishning ushbu metodlaridan foydalanib, abstraksiya deb qaralgan jinoyat tarkibi tarixiylik va deduksiya metodlari asosida har qanday jinoyatning yadrosini jinoyat tarkibi tashkil etishi, shuningdek, jinoyat tarkibi belgilari, o'z navbati-

da, jinoyatning zaruriy belgilarini ifodalashi nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotning ushbu metodlaridan foydalanib, muayyan natijaga erishilgan va mazkur natija mahsuli sifatida O'zR JK Umumiy qismiga nazariy va ilmiy jihatdan asoslantirilgan takliflar berilgan.

Tadqiqot natijalari

Jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limot bir necha asrlik tarixga ega bo'lib, Qadimgi Rim huquqida ham mavjud bo'lgan. G'arbda uning qabul qilinishini alohida e'tirof etish lozim. R.Iering o'z ilmiy ishi ("Giest des romischen Recht")da: "Rim dunyoni uch marta bo'ysuntirdi: birinchi bor o'zining quroli bilan, ikkinchi marta – o'zining dini bilan, uchinchisi bor esa – o'zining huquqi bilan. Shuningdek, u uch marta dunyoni birlashtirdi: birinchi bor – davlat birligida, ikkinchi marta – cherkov birligida, uchinchisida esa – qonun birligida" [9], deb yozadi. Yuqorida ta'kidlanganlar hozirgi kunda jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limotning Rim huquqidagi ildizlarini o'rganish zarurligini anglatadi. Jinoyat tarkibi (corpus delicti) to'g'risidagi ta'limot rivojlanishining turli bosqichlarida har doim dolzarb hisoblanib, juda ko'pchilik mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar o'zlarining ilmiy ishlaridagi asosiy mavzuga aylangan.

Jinoyat huquqi nazariyasida va jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limotda jinoyat tarkibi tushunchasi asosiy o'rinni egallaydi, ya'ni tadqiqot yadrosi hisoblanadi. Jinoyat tarkibi tushunchasi tarixan shakllangan tushuncha bo'lib, sodir etilgan qilmishni jinoyat sifatida e'tirof etadigan va u jazoga loyiqqligini ifodalaydigan belgilar tizimini anglatish uchun tuzilgan [10, 45-b.]. Jinoyat tarkibi o'zining ko'p asrlik tarixi davomida uning tushunchasi mazmuni turli xil o'zgarishlarga duch keldi va bu o'zgarishlar o'zining sezilarli darajasini ko'rsatdi.

Jinoyat tarkibi real (obyektiv, haqiqatda sodir etilgan) jinoyatning skeleti bo'lib [11, 117-b.], u o'ziga xos tergov formulasidir [12, 25-b.].

Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyat tarkibi deganda, odatda, jinoyatni ifodalovchi obyektiv va subyektiv belgilar yig'indisi tushuniladi. Jinoyat tarkibi bunday moddiy-huquqiy ta'rifni olgunga qadar uzoq tarixiy rivojlanish bosqichini bosib o'tgan. Jinoyat huquqi nazariyasida hozirda qo'llanilayotgan "jinoyat tarkibi" atamasi va unga berilgan yuqoridagi ta'rifning vujudga kelish asosi (genezisi)ni jinoyatning tashqi tomoni bo'lgan obyektiv real haqiqatda sodir etilgan jinoyatning obyektiv belgilari yig'indisidan, ya'ni, asosan, jinoyat tarkibi obyektiv tomoni tashkil qiladi. Buning isbotini quyidagi tarixiy misollar yordamida ko'rib chiqamiz.

Qadimgi Rim huquqshunoslari jinoyat sodir bo'lgan voqea, hodisani aniqlash va uning uchun jazo belgilash, ya'ni qidiruv jarayoni (protsessi) shakli sifatida tergovda aniqlanishi lozim bo'lgan yettita asosiy bandni o'z ichiga oluvchi sxema ishlab chiqdilar. Mazkur sxema lotincha "Quis, quid, ubi, quando, cur, quomodo, quibus auxiliis" deb nomlanib, u "kim sodir qilgan, aynan nima (qanday jinoyat), qayerda (jinoyat sodir etilgan joy), qachon (jinoyat sodir etilgan vaqt), nima uchun (jinoyat sodir etish sabablari), qanday qilib (jinoyat sodir etish usuli), kimning yordami bilan" [13, 153-154-b.], degan savol qo'yilgan.

Qadimgi Rimda qo'llanilgan "Quis, quid, ubi, quando, cur, quomodo, quibus auxiliis" formulasini tadqiqot metodlaridan foydalanib tahlil qilsak, quyidagi natijalar kelib chiqadi: – Quis? (Kim? – jinoyat kim tomonidan sodir etilgan); – Quid? (Nima? – aynan qanday jinoyat sodir etilgan); – Ubi? (Qayerda? – jinoyat sodir etish joyi); – Quibus auxiliis? (Kimning, nimaning yordami bilan? – jinoyat sodir etish vositasi); – Cur? (Nima uchun? – jinoyatning sabablari); – Quomodo? (Qanday qilib? – jinoyat sodir etish usuli); – Quando? (Qachon? – jinoyat sodir etish vaqti).

Qadimgi Rimda har qanday delikt (huquqbuzarlik) sodir etilganda, aynan shu yettita savolga javob berilishi kerak edi.

Yuqorida keltirilgan savollar sxemasiga e'tibor bersak, jinoyat sodir bo'lgan voqea va hodisani aniqlashda mazkur voqea, hodisaning tashqi tomoniga e'tibor qaratilgan. Ushbu sxemadagi foydalanilgan savollarga qaralsa, sodir etilgan jinoyatning tashqi tomonini ifodalovchi belgilar (voqea-hodisaning obyektiv tomoni) asosiy o'rinni egallagan. Masalan, Ubi? (Qayerda? – jinoyat sodir etish joyi); Quibus auxiliis? (Kimning, nimaning yordami bilan? – jinoyat sodir etish vositasi); Quomodo? (Qanday qilib? – jinoyat sodir etish usuli); Quando? (Qachon? – jinoyat sodir etish vaqti) degan masalalar qo'yilgan.

Demak, Qadimgi Rimda muayyan jinoyat sodir etilganda, sodir etish joyi, vaqti, usuli va vositasi aniqlanishi lozim bo'lgan. Jinoyatning tashqi tomonini ifodalovchi mazkur belgilar bilan birga jinoyat subyeksi va jinoyatchilik sabablarini ham aniqlash kerak edi. Yettita savol sxemasidan foydalanib, yuqoridagi belgilar aniqlangach, jinoyatni sodir etgan aybdor shaxs jazolangan.

Rim imperiyasining qulashi bilan IX asrning oxiri – XII asrlardagi zaruriy o'zgarishlar huquq sohasida ham namoyon bo'ldi. Mazkur davrda huquqning yangi tizimi, huquqiy fan, malakali huquqshunoslar, ya'ni sudyalalar va olimlar shakllana boshladi.

XII asrning oxirlariga kelib, Italiyadagi Boloniya universiteti ta'limida jinoyat huquqi o'qitila boshladi [14]. Keyinchalik G'arbiy Yevropaning boshqa universitetlariga ham ushbu o'qitish metodikasi tatbiq etildi. Bu davrda jinoyat huquqi ikkinchi darajali huquq sohasi sifatida e'tirof etilib, u moddiy va formalga bo'linmagan edi. Shu bilan birga, huquq sohasidagi o'sha davrdagi tadqiqotchilarning izlanishlari tufayli Rim huquqiga qaytildi va u Yevropa mamlakatlari universitetlarida o'rganilib, ta'limda o'qitila boshladi. Bu esa Rim huquqi retsessiyasi (qaytishi) deb nom oldi.

XIII asr boshlarida papa Innokenti III Yevropada yangilik va o'zgarishni joriy qilmoqchi bo'lganlarga qarshi inkvizitsiya jarayonini

joriy qildi. Imperator Fridrix II esa bu jara-yonni davlat siyosati darajasiga ko'tardi va bid'atchilarni ta'qib qilish uchun inkvizitorlik lavozimi joriy qilinganligi bois XV asr oxirlarigacha jinoyat-huquqiy ta'limot cherkov dogmalarining to'liq nazoratida bo'lgan. Ammo huquqshunoslar sinfining bosqichma-bosqich shakllanishi bilan ular tomonidan ilgari surilgan huquqiy qoidalar ko'lami kengayib borgan. Mazkur huquqiy g'oyalar-dagi haqiqatni isbotlash uchun Rim huquqi bilimdonlari ishlariga murojaat qilingan.

Hozirda jinoyat huquqi nazariyasida ishlatilayotgan "jinoyat tarkibi" atamasi va uning vujudga kelishiga asos bo'lgan jinoyat tarkibining obyektiv tomoni, albatta, maxsus tadqiq etishni taqozo etadi.

"Corpus delicti" (jinoyat tarkibi) atamasi birinchi marta 1581-yilda taniqli italiyalik kriminalist Prosper Farinatsius (P. Farinacius) tomonidan yozilgan "Variae quaestiones et communes opiniones" asarida tilga olingan. U o'z kitobida isbotlangan jinoiy faktlarni anglatgan bo'lib, "Primum inquisitionis requisitum est probato corporis delicti" prinsipiga asoslangan. Ya'ni, sud tergovining birinchi talabi "corpus delicti" – jinoyat tarkibining mavjudligini tekshirishdan iborat [15, 34-b.]. Bular umumiy qabul qilingan nuqtayi nazarlardan biri hisoblanadi va jinoyat tarkibi haqidagi ta'limotning o'rta asrlardagi rivojlanish bosqichiga kiradi. Jinoiy faktlar huquqiy munosabatlarini vujudga keltiruvchi jinoiy qilmishning o'sha davrdagi eng asosiy tashqi belgisi sifatida jinoyatning obyektiv tomoni va boshqa tashqi belgilar tushunilgan.

Buning natijasida keyinchalik "corpus delicti" iborasi Yevropa mintaqasidagi davlatlarga kirib keldi va XVIII asrning ikkinchi yarmiga qadar inkvizitsiya yoki surishtuv va tergov jarayonida ishlatilgan.

XVI-XVII asrlarda jinoyat tarkibining protsessual ahamiyat kasb etish jarayoni davom etdi. Unga asosan, jinoyatning tashqi (moddiy) izlari (murda, qon, jabrlanuvchi

tanasiidagi jarohatlar va boshqalar)ga e'tibor berilgan.

Germaniyada XVII asrda jinoyat protses-sining qidiruv tartibi asosiy vosita sifatida mustahkamlandi [13, 288-b.]. Jinoyatchilikka qarshi kurashishning empirik (amaliy) tajribasini umumlashtirish ishlari amalga oshirilgan.

S. Pufendorf, X. Tomaziya va X. Volflarning Davlat huquqi to'g'risidagi ta'limoti va uni falsafiy tushunish jinoyat huquqi hamda jinoyat protsessining ilmiy rivojlanishiga asos bo'ldi. Buning natijasi o'laroq, XVIII asrning boshlarida jinoyat huquqi Germaniyada mustaqil huquqni qo'llash sohasi sifatida universitetlarda alohida o'quv predmeti sifatida o'qitildi. Bu esa o'rta asr kriminalistlariga noma'lum bo'lgan fanlarning umumiy qismi paydo bo'lishiga olib keldi [16, 505-b.]. Jinoyat huquqi va jinoyat protsessiga oid ko'plab adabiyot va darsliklar nashr etila boshladi [17, 133-b.].

Yevropaning ko'plab mamlakatlarida jinoyat tarkibi to'g'risidagi Qadimgi Rim ta'limotini qabul qilish muayyan huquq oilasining o'ziga xos milliy xususiyatlariga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Buning natijasi o'laroq, anglo-sakson huquq oilasida jinoyat tarkibining protsessual ahamiyati saqlab qolindi. O'sha davrda kontinental Yevropa mamlakatlari jinoyat huquqi doktrinasida jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limot moddiy jinoyat huquqi doirasida rivojlandi va u jinoiy qilmishlarni jinoyat qonunchiligida batafsil ifodalashda ham muhim ahamiyat kasb etdi.

V.V. Sverchkov "XVIII-XIX asrlarda jinoyat huquqi huquqning mustaqil sohasi sifatida shakllandi. U o'sha davr olimlarini jinoyat qonuniga kiritilgan qoidalarni haqiqatda sodir etilgan jinoiy qilmish belgilari bilan birlashtiradigan zarur belgilarning yetarli to'plamini tadqiq etishga undadi. Bu esa, o'z navbatida, jinoyat tarkibi konstruksiyasi (tuzilishi)ni yaratish va jinoyat tarkibi tushunchasini belgilash zarurligiga olib keldi" [10, 45-46-b.], deb ta'kidlaydi.

XVIII–XIX asrlarda jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limot nazariy jihatdan yanada rivojlandi. Bunda nemis klassik jinoyat huquqi maktabining o'rni katta edi. Ularning ilmiy tadqiqotlari va mehnatlari tufayli jinoyat tarkibi o'zining protsessual ahamiyatini yo'qotib, moddiy jinoyat huquqida ifodalangan bo'ldi.

Ko'pchilik nemis kriminalistlari *corpus delicti* (jinoyat tarkibi) deganda, jinoyatning faqat tashqi belgilarinigina tushunishgan. Chunki Qadimgi Rim huquqidan kirib kelgan *corpus delicti* (jinoyat tarkibi) atamasi tuzilishining asosiy qismini hozirgi kundagi jinoyat tarkibi obyektiv tomoni belgilari tashkil qilgan. Jinoyatning obyektiv tomoni belgilari keyinchalik olimlar izlanishlari tufayli boshqa subyektiv belgilar ishlab chiqilishida asosiy o'rinni egallagan.

Jumladan, XVIII asrning oxirlarida nemis kriminalisti Kleyn "*corpus delicti*" (jinoyat tarkibi) iborasini so'zma-so'z tarjima qilib, uni "*Thatbestand*" (Grunds. D. pein. Rechts. 1796) deb ifodalaydi. Dastlab bu atama sof protsessual ahamiyatga ega bo'lib, jinoyatga oid ashyoviy dalillar yig'indisini anglatar edi (masalan, qasddan odam o'ldirish "*corpus delicti*" (jinoyat tarkibi) tanada jarohatlarining mavjudligi yoki o'zini o'zi zaharlashdan iborat bo'lgan; qalbakilashtirishda u soxta hujjatlardan iborat bo'lgan). Shuningdek, 1804-yilda boshqa nemis kriminalisti Shtyubel (Stubel) ham o'zining ilmiy ishi ("*Über den Tatbestand des Verbrechens, besonders der Todtund*")da "*Tatbestand*" atamasini ishlatgan [18, 65-b; 14, 134-b.].

XIX–XX asrlarga kelib, Rim huquqi ta'sirida shakllangan va keyinchalik klassik nemis jinoyat huquqi maktabida rivojlangan jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limot rus jinoyat huquqi nazariyasida ham olimlar tadqiqotlari va darsliklarida o'z ifodasini topa boshladi.

Jinoiy javobgarlikka tortishning yagona asosi sifatida jinoyat tarkibi va uning belgilari aniqlanishi zarurligi Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalari hududida ham joriy qi-

lingan va 1922-yil 24-mayda qabul qilingan RSFSRning Jinoyat kodeksida belgilandi. Shuningdek, 1926-yil 16-iyunda qabul qilinib, 1926-yil 1-iyuldan kuchga kirgan O'zbekiston SSRning birinchi Jinoyat kodeksi va 1958-yil 21-mayda qabul qilinib, 1960-yil 1-yanvardan kuchga kirgan O'zbekiston SSRning Jinoyat kodeksida ham o'z ifodasini topdi. Bu holat amaldagi O'zR Jinoyat kodeksi 16-moddasida ham mavjud bo'lib, jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

Bizga ma'lumki, jinoyat tarkibi va uning belgilariga ta'rif jinoyat huquqi nazariyasiga oid darsliklar va olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan, ammo jinoyat qonunida bunday ta'rif mavjud emas. Shuning uchun ham jinoyat tarkibi tushunchasi va uning belgilari abstraktsiya (nazariyada ishlab chiqilgan) sifatida qaraladi.

M. Usmonaliyev, P. Bakunov, M.X. Rustam-bayev va R. Kabulovlar [19, 131-b; 137-b; 94-b.] jinoyat tarkibi – jinoiy javobgarlikning asosi bo'lib, jinoiy qilmishning obyektiv (tashqi) belgilari va subyektiv (ichki) belgilarining yig'indisidan iborat ekanligini ta'kidlashadi.

Bizningcha, O.X. Rasulov va A.S. Yakubovlarning "Jinoyat tarkibi – ma'lum bir ijtimoiy xavfli qilmishning jinoyat deb xarakterlovchi obyektiv va subyektiv belgilarining minimal va yetarli yig'indisi", [8, 90, 95-b.] deb bergan ta'rifi yanada aniq va tushunarli. Chunki "minimal" yig'indi jinoyat tarkibining to'rtta (obyekt, obyektiv tomon, subyekt, subyektiv tomon) elementi mavjudligi, "yetarli" yig'indisi esa qonun chiqaruvchi tomonidan nazarda tutilgan JK Maxsus qismida nazarda tutilgan muayyan jinoyat tarkibi belgilarini ifodalaydi. Masalan, onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi (JK 99-m) jinoyatida "minimal" yig'indi jinoyat tarkibi elementlari mavjudligi bo'lsa, "yetarli" yig'indi esa qonun chiqaruvchi tomonidan JK 99-moddasida nazarda tutgan jinoyat so-

dir etish vaqti, ya'ni "tug'ish vaqtida yoki tug'ilishi hamon".

Jinoyat huquqi doktrinasidan ma'lumki, jinoiy javobgarlikning, asosan, ikkita, ya'ni faktik va yuridik (normativ) asosi mavjud bo'lib, aybdor shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoiy qilmish sodir etilgan bo'lishi lozim. Shaxsning real voqealikda sodir etgan jinoiy qilmishi jinoiy javobgarlikning faktik asosi bo'lsa, mazkur jinoyatni jinoyat qonunida nazarda tutilgan JK Maxsus qismi muayyan moddasi bilan javobgarlikka tortish esa uning yuridik (normativ) asosi hisoblanadi. Ya'ni sodir etilgan jinoyat jinoiy javobgarlikning faktik (real) asosi, har qanday jinoyatning yadrosi bo'lgan jinoyat tarkibi esa jinoiy javobgarlikning yuridik asosidir. Qilmishni kvalifikatsiya qilishda asosiy o'rinni jinoyat tarkibi egallar ekan, jinoyat tarkibi ta'rifini jinoyat qonunida nazarda tutilishi va jinoiy javobgarlikning faktik (real) hamda yuridik asosi ko'rsatilishi lozim. Mazkur amaliyot bir qancha xorijiy davlatlar va Moldova jinoyat qonunida mavjud. Xususan, Moldova Jinoyat kodeksi "Jinoiy javobgarlik" deb nomlangan V bobining 51-moddasida "Sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish jinoiy javobgarlikning real asosi bo'lsa, jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi belgilari uning yuridik asosi bo'lib xizmat qiladi", shuningdek uning 52-moddasi "Jinoyat tarkibi" deb nomlangan bo'lib, unda "Jinoyat tarkibi o'zida qilmishni muayyan jinoyat sifatida kvalifikatsiya qiladigan jinoyat qonunida nazarda tutilgan obyektiv va subyektiv belgilar yig'indisini ifodalaydi. Jinoyat tarkibi amaldagi mazkur kodeksning muayyan moddasiga muvofiq jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun yuridik asos hisoblanadi" [20].

Amaldagi Jinoyat kodeksimizning 14-moddasida jinoyat va ijtimoiy xavfli qilmish tushunchalari berilgan, ammo har qanday jinoyatning asosi (yadrosi)da mavjud bo'ladigan jinoyat tarkibi tushunchasiga ta'rif berilmagan. Natijada jinoyat tarkibi

tushunchasiga faqat ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlarda qo'llaniladigan abstraksiya sifatida qarash shakllangan. Amaliyotda ham jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda ba'zi qilmishlarda jinoyat tarkibi belgilariga e'tibor berilmasligi jinoyat va jinoyat tarkibi belgilarining o'zaro munosabati hamda ular bir-birini taqozo etishini anglab yetmaslik holatlari mavjud. Masalan, O'zR JK 99-moddasida ona o'z chaqalog'ini tug'ish vaqtida yoki tug'ilishi hamon qasddan o'ldirishi nazarda tutilgan. Olimlar jinoyat huquqi nazariyasida "Tug'ish vaqti" va "tug'ilishi hamon" tushunchalarini onada kechadigan alohida ruhiy-jismoniy holat (jinoyat sodir etish holati) bilan bog'laydilar. Amaliyotda jinoyat sodir etish vaqtiga asosiy e'tibor qaratilib, ba'zida alohida ruhiy-jismoniy holatlar chetda qoladi. Onada hech qanday alohida-ruhiy jismoniy holat (homila nomusga tegish natijasida va boshqalar) kechmagan bo'lsa, u oldindan o'zi tug'ajak chaqaloqdan voz kechishni rejalashtirgan bo'lsa-chi, degan savol tug'iladi. O'zR JK 99-moddasida nazarda tutilgan jinoyat sodir etish holati vaqt bilan o'zaro munosabatida jinoyatning ijtimoiy xavflilik, qonuniylik va ayblilik belgilarini ifodalaydi. Shuning uchun amaldagi jinoyat qonunida jinoyat tarkibi tushunchasiga ta'rif berilishi va uning faktik hamda yuridik asos sifatida xizmat qilishi nazarda tutilishi lozim.

Tadqiqot natijalari tahlili

"Jinoyat tarkibi" yoki "Corpus delicti" tushunchalariga dastlabki genezisida jinoyatning asosi (mohiyati)ni tashkil qiladigan jinoiy *qilmishning tashqi belgilari*, ya'ni jismoniy va moddiylik xususiyati mavjudligini ifodalovchi kategoriya sifatida qaralgan. Umuman olganda, uning hozirgi kundagi jinoyat huquqi nazariyasida mavjud tushunchasining genezisi va evolyutsiyasini matematik mantiqqa asoslangan algoritm-da ifodalash mumkin: masalan, M_1 – jinoyat tarkibi; M_2 – jinoyat obyektiv tomoni; M_3 – jinoyat obyekti yoki predmeti; M_4 – jinoyat subyektiv tomoni; M_5 – jinoyat subyekti.

$M_2 + M_3 + M_4 + M_5 = M_1$. Aynan jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limotning vujudga kelishi va rivojlanishi ushbu matematik mantiq algoritmidagi ifodalangan formula ketma-ketligiga asoslangan. Jinoyat obyektiv tomonining birinchi o'ringa qo'yilishiga sabab, hatto Qadimgi Rimdan boshlab nemis klassik maktabida shakllangan jinoyat tarkibining "qonun tarkibi" atamasi nomi bilan atalgan davrgacha asosiy urg'u asos sifatida jinoyat obyektiv tomoniga berilgan.

Jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limotning dastlabki ildizi (Qadimgi Rim huquqi)dan hozirgi kunga qadar bo'lgan holatini o'rganib chiqib, birinchi o'rinda asosiy e'tibor jinoyat obyektiv tomoniga qaratilgan va undan boshqa jinoyat tarkibi belgilari hamda elementlari kashf etilgan. Matematik mantiqqa asoslangan algoritm (ketma-ketlik) jinoyat tarkibi elementlari vujudga kelishi va rivojlanishining uzviy ketma-ketlikda namoyon qilinganidir. Bu haqda keyinroq yana to'xtalib o'tamiz.

Dastlab jinoyat tarkibi protsessual ahamiyat kasb etgan. Uning protsessual ahamiyati birinchi o'rinda corpus delicti aniqlashdan boshlangan bo'lib, corpus delicti deganda, jinoyatning tashqi (moddiy) belgilari tushunilgan. Ularning mavjudligi jinoyatning haqiqatda sodir etilganidan dalolat bergan. Corpus delicti mavjudligi keyinchalik noma'lum subyektning jinoiy qidiruv e'lon qilish va sudda ishlarni ko'rishga asos bo'lgan. Bunday holatlarda aniqlanib isbotlangan faktlar jinoyat sifatida e'tirof etilgan. Jumladan, N.A. Neklyudov garchi jinoyatchi shaxs ma'lum bo'lmasa ham, jinoyatning tashqi belgilari, izlarini corpus delicti nomi bilan atagan [17, 337-b.].

V. Spasovichning izohlashicha, jinoyat tarkibi jinoyatga oid ashyoviy dalillarni (masalan, odam o'ldirish corpus delictida jarohatlar yetkazilgan yoki tarkibida zahar bo'lgan tanadan iborat bo'lgan, hujjatlar qalbakilashtirilganda, u soxta hujjatdan iborat bo'lganligi) anglatgan. Keyinchalik corpus delicti rivojlantirilgan va nafaqat jinoyatga oid

ashyolar, izlar, dalillar, balki jinoyatchi shaxsning qilmishi va tashqi belgilarini ifodalagan. Bunda jinoyat tarkibiga shaxsning ruhiy munosabati (ruhiy kechinmalari) kiritilmagan... [21, 89–90-b.].

N.S. Tagansevning fikricha, corpus delicti tuzilishi nafaqat jinoyatning moddiy izlari, balki "hattoki jinoyat sodir etish quroli"ni ham o'z ichiga olgan [25, 3-b.]. P.D. Kalmikov esa "Corpus delicti so'zining kelib chiqishi quyidagicha izohlanadi: barcha jinoyatlardan o'ta og'ir jinoyat (odam o'ldirish)da, birinchi navbatda, odam o'ldirishning eng muhim belgilarini aniqlash uchun o'ldirilgan murdani ko'zdan kechirish lozim. O'rta asrlarda bu tushuncha umumlashtirildi va boshqa barcha jinoyatlarga nisbatan qo'llaniladigan bo'ldi. Keyinchalik u faqat sudlov ishi yurituvchi (sud protsessi)da qo'llanilgan. Vaqt o'tishi bilan nafaqat sodir etilgan jinoyatlar, balki qonunda nazarda tutilgan va taqiqlangan barcha jinoyat belgilariga ham tatbiq etilgan" [18, 65-b, 134-b.], deydi. N.S. Tagansevning qayd etishicha, corpus delicti iborasi dastlab "veritas" yoki "liquidation delicti"ni anglatgan, ya'ni u jinoyatchi shaxsni maxsus qidirishga o'tish uchun jinoyatning haqiqatda sodir etilganligiga ishonch hosil qilish (tekshirish) mumkin bo'lgan belgilar yig'indisidir [22, 3-b.].

Yuqoridagi olimlarning ilmiy qarashlaridan shu narsa ma'lumki, jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limot asosini jinoyatning tashqi belgilarini ifodalaydigan jinoyat obyektiv tomoni tashkil qilgan va u mazkur ta'limotda jinoyat tarkibining keyingi elementlari vujudga kelishiga asosiy ta'sir o'tkazgan mezon vazifasini bajargan.

I.Y. Foyniskiyning ta'kidlashicha, "corpus delicti"ning dastlabki protsessual ahamiyati jinoiy faoliyat bevosita qaratilgan tashqi predmetni anglatgan. U bunga misol qilib o'ldirilgan murda, badanga yetkazilgan jarohatlar, yonib ketgan uy, soxtalashtirilgan hujjat, o'g'irlangan mol-mulkni keltirgan. Birinchi navbatda, mazkur predmetlar aniqlanishi lozim bo'lgan. Bunday aniqlash ushbu

predmetlarni ko'zdan kechirish, oddiy yoki murakkab tintuv va olib qo'yish yo'llari bilan amalga oshirilgan. Ularning ishda mavjud emasligi, o'zi jinoyat sodir etilganmi, degan savolni tug'dirgan va jinoyat ishining keyingi o'rganish bosqichlariga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqargan. O'sha davrda aynan jinoyatga aloqador tajovuz predmeti aniqlanmaganda, sud amaliyotida ko'plab aybsiz shaxslarni muayyan jinoyatda ayblab, hukm chiqarishga olib kelgan. Shuning uchun ham qoida tariqasida sodir etilgan jinoyat natijasida tajovuz predmetidagi o'zgarishlar jinoyatning mavjudligini taxmin qilishga majbur qilganidek, tajovuz predmetining yo'qligi jinoyatni mavjud emas deb taxmin qilishga sabab bo'lgan [23, 296-b.].

Nemis kriminalistlari jinoyat (Verbrechen) va jinoyat tarkibi (Tatbestand) o'rtasidagi farqlarni o'rganishga e'tibor qarata boshladilar. Ular tomonidan jinoyat tarkibi "qonun tarkibi" sifatida talqin qilingan. Shuningdek, jinoyat tarkibi "Tatbestand" so'zi o'rni-ga harakatlar tarkibi "Handlungsbestand" so'zidan foydalanish taklif etilgan [17, 337-b.].

Nemis kriminalistlarining jinoyat tarkibidan jinoyat tushunchasini farqlash (chegaralash) to'g'risidagi ilmiy qarashlariga ba'zi olimlar o'z qarashlarini bayon qilgan. Jumladan, N.S. Tagansev "jinoyat tarkibini tahlil qilishda biz faqat jinoyatning huquqiy xususiyatlariga to'xtalamiz va uning tushunchasini belgilashda esa jinoyatning ijtimoiy xavflilik va davlat ahamiyatiga molik tomoni (davlat manfaatlarini)ni hisobga olishimiz lozim", deb alohida ta'kidlaydi [22, 4-b.].

Jinoyat tarkibi (corpus delicti)ning dastlabki protsessual ahamiyatini ifodalaydigan tushunchasi jinoyat huquqida mavjud jinoyat tarkibi tushunchasiga o'z ta'sirini o'tkazishda davom etgan. Shu munosabat bilan N.S. Tagansev "Faqat XVIII oxirlariga kelib, mazkur protsessual nuqtayi nazardan voz kechildi, ammo eski qarashning izlari uzoq vaqt saqlanib qoldi, shuningdek, jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi belgilarni aniqlashda bir qa-

tor chalkashliklarni keltirib chiqardi" [22, 3-4-b.] deb ta'kidlaydi.

Keyinchalik corpus delicti iborasi rivojlandi. U nafaqat jinoyatning ashyoviy dalil (iz)lari yig'indisi, balki jinoyatchining jinoyat sodir etishga qaror qilgandagi ichki ruhiyatida nima kechganligidan qat'i nazar, tashqi harakati (Thaterschaft)ni ham anglatadigan bo'ldi. Bu nemischada Thaterschaft deb nomlangan. Shunday qilib, jinoyat bir-biriga qarshi bo'lgan ikkita elementga qisqardi: Thatbestand (fakt) va Thaterschaft (harakat).

Nihoyat, keyingi davrga kelib, "jinoyat tarkibi" iborasida uning dastlabki protsessual ahamiyatidan umuman voz kechildi va sof jinoyat-huquqiy ahamiyat kasb etadigan bo'ldi. U o'zida jinoyatning tashqi obyektiv tomoni va ichki subyektiv tomonini birlashtirdi. U jinoyat tushunchasida mavjud barcha belgilar yig'indisini anglatadi. Bu belgilardan ba'zilari shunchalik muhimki, ular muhim belgilar (essentialia) deb ataldi va ularsiz jinoyatlar mavjud bo'lmaydi. Boshqa turdagilari shunday belgilarki, ularsiz jinoyat sodir etilishi va ma'lum darajada jazo choralariga ta'sir qilishi mumkin. Shu bois ular muhim bo'lmagan belgilar (accidentalia delicta) deb nomlandi [21, 89-90-b.].

Jinoyat huquqi moddiy huquq sohasi bo'lib, unda XIX asr boshlarida jinoyat tarkibi o'ziga xos belgilari bilan namoyon bo'ldi. Ya'ni jinoyat tarkibi jinoyat huquqiy institut sifatida ifodalana boshladi. Shu davrda yashagan nemis kriminalisti P.A. Feyerbaxning ilmiy ishlari va faoliyatini o'rganish, jinoyat huquqi nazariyasida jinoyat tarkibining jinoyat-huquqiy kategoriya sifatida paydo bo'lishi aynan uning ilmiy faoliyati bilan bog'liq. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, jinoyat tarkibining dastlabki protsessual ahamiyatini kasb etuvchi tushunchasi ta'sirida uzoq vaqt mobaynida jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limotda jinoyat subyektiv tomoni bilan bog'liq bo'lgan masalalar kiritilmagan. Jumladan, Shtyubel aqli rasolik to'g'risidagi ta'limotni jinoyat tarkibidan chiqarib tash-

lagan. P.A. Feyerbaxning mazkur masaladagi nuqtayi nazari unchalik aniq emas edi.

P.A. Feyerbax jinoyat tarkibi to'g'risidagi nazariyaning yaratilishiga o'z hissasini qo'shdi va birinchilardan bo'lib jinoyat tarkibi tushunchasini ilmiy muomalaga kiritdi. Bu tushunchaga u "haqiqiy jinoyat holati" deb nom berdi. P.A. Feyerbaxning "Jinoyat huquqi" deb olgan ilmiy ishida jinoyat tarkibi birinchi marta quyidagicha ifodalanadi: "...muayyan turdagi qonunga xilof qilmishlar sifatida qonunda nazarda tutilgan insonning har qanday ish yoki hodisalar yig'indisi haqiqiy jinoyat holati deb ataladi". Uning fikricha, haqiqiy jinoyat holati (jinoyat tarkibi) qonunda jinoyatga berilgan tushunchaga qarab turlicha bo'ladi. Jinoyat tarkibi o'zida quyidagilarni ifodalaydi: 1) qonunga xilof qilmish oqibati – u, odatda, har doim mavjud bo'ladi; 2) qonunga xilof qilmish asosi sifatida unda mavjud bo'luvchi muayyan bir maqsad (niyat) yoki irodaning ma'lum bir turidan iborat ba'zi elementlar jinoyatchi shaxsning ruhida yashirindir. Ular har doim ham haqiqiy jinoyat holati (jinoyat tarkibi)ga tegishli bo'lmaydi; 3) qilmishning o'z-o'zidan namoyon bo'lib turuvchi tashqi belgilari [24, 78-79-b.].

Nemis kriminalisti P.A. Feyerbaxning ilmiy qarashlaridan ko'rinib turibdiki, u ham o'zining jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limotida jinoiy qilmish va ijtimoiy xavfli oqibat masalalarini birinchi o'ringa qo'ygan va jinoyat tarkibi subyektiv belgilarini ham o'zi atagandek "haqiqiy jinoyat holati"ga kiritgan. Bir qator nemis kriminalistlari jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limotga obyektiv (asosan, jinoyat obyektiv tomonini ifodalovchi) belgilarni kiritib, uning subyektiv belgilarini chiqarib tashlashgan. Xususan, ular jinoyatning ichki tomonini ifodalovchi subyektiv belgilarni jinoyat tarkibi qamrab olmaydi, deb hisoblagan. Subyektiv belgilardan bo'lgan ayb va uning tushunchasi mustaqil jinoyat-huquqiy kategoriya sifatida shakllangan.

Shuningdek, boshqa nemis kriminalistlari jinoyat tarkibi (Tatbestand)ga "ichki ayblilik (aybdorlik) yoki boshqacha qilib aytganda, jinoyatchi shaxs ruhiyatida vujudga kelgan "jinoiy qaror qilish"ni bir-biriga qarshi qo'yishgan" [21, 90-b.]. Ba'zi nemis huquqshunoslari esa "ayblilik"ni jinoyat tarkibi bilan uzviy bog'liq deb hisoblashgan. Bundan ko'rinib turibdiki, bir-biriga qarama qarshi nuqtayi nazarlar bir vaqtning o'zida shakllana borgan.

Zamonaviy jinoyat huquqi nazariyasida mavjud jinoyat tarkibi tushunchasining vujudga kelish asoslari va ushbu ta'limotning rivojlanishi, birinchi navbatda, klassik jinoyat huquqi maktabi doirasida bo'lgan. Bu maktab g'oyalari va konsepsiyasi I. Kant va G.V.F. Gegelning falsafiy-huquqiy qarashlarining kuchli poydevoriga asoslangan. Shunga ko'ra, ta'limotni ishlab chiqishda yuqoridagi falsafiy-huquqiy qarashlar o'z ta'sirini o'tkazgani uchun ular kant va gegel yo'nalishlariga bo'lingan.

I. Kant falsafasiga asoslangan nemis kriminologlari jinoyat tarkibida shaxs jinoiy qilmishini ifodalovchi obyektiv belgilarni nazarda tutgan. Bunday talqinga asoslanib, ular sodir etilgan qilmishning subyektiv tomoni, ayb masalasini jinoyat tarkibi belgilari doirasidan chiqarib tashlashgan. Shu munosabat bilan ayb va uning shakllari to'g'risidagi masala jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limotga kiritilmagan [25, 106-b.].

Kant yo'nalishi klassik jinoyat huquqi maktabi ilmiy ta'limotlarida ham jinoyat tarkibi haqida gapirilganda, ular jinoyat obyektiv belgilarni markaziy o'ringa qo'ygan. Ular asosiy e'tiborini jinoyat obyektiv belgilaridan bo'lgan jinoyat obyektiv tomoniga qaratgan.

XVIII asrning oxiri va XIX asr boshlarida nemis jinoyat huquqi doktrinasida jinoyat tarkibi (Tatbestand) deganda, jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoyatning barcha belgilari yig'indisi tushunilgan. Jinoyat belgilari umumiy tushuncha sifatida uning umumiy tarkibi, jinoyatning o'ziga xos belgilari esa

uning maxsus tarkibini tashkil qilgan [17, 337-b; 21, 90-b.]. O'z navbatida, jinoyat belgilari zaruriy (asosiy), oddiy va tasodifiyga bo'lingan. Faqat zaruriy (asosiy) belgilargina jinoyat tushunchasi va uning mavjudligini aniqlaydi, oddiy va tasodifiy belgilar esa jazo chorasini qo'llashda o'z ta'sirini o'tkazadi. Nemis kriminalistlari "jinoyat bu – birinchi navbatda, harakatdir", deb ajratib ko'rsatishadi. Ular "jinoyat tushunchasi jinoyat yoki umumiy jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limotni yaratish uchun mustahkam asos, skelet bo'lib xizmat qilishi lozim" [17, 338-b.], deb ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, nemis kriminalistlari asosli ilmiy qarashlarni bildirishgan. Qadimgi Rim huquqida ham jinoyat dastlab jismoniy faol harakatdan iborat bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ham ko'plab mamlakatlar jinoyat qonunida (hatto anglo-sakson huquq tizimiga kiruvchi AQShning ba'zi shtatlarida) jinoyat tushunchasiga ta'rifda markaziy o'rinda jinoiy qilmish, ya'ni harakat yoki harakatsizlik ifodalanadi. Qolgan belgilar – qonunga xiloflik, ayblilik, jazoga sazovorlik belgilari ham mavjud bo'ladi, ammo qilmish qachon jinoyat deb topiladi, qachongi ijtimoiy xavfli bo'lsa. Qilmishning ijtimoiy xavfliligi uning xususiyati va darajasi bilan belgilanadi. Ularni aniqlashda jinoyat obyektiv tomoni asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy xavfli belgisi bu jinoyatning moddiy belgisidir. Moddiy belgi o'z-o'zidan formal belgi (qonunga xiloflik)ni keltirib chiqaradi.

Jinoyat tarkibini talqin qilish bo'yicha hozirgi kunda jinoyat qonuni dispozitsiyasini anglatuvchi normativ (normativlik) nuqtayi nazar (pozitsiya)larning kelib chiqishi asosida aynan nemis klassik jinoyat huquqi maktabi ta'limoti qarashlari yotadi. Xususan, Tyubing universitetida ishlagan va jinoyat tarkibi tuzilishida alohida o'ringa ega E. Belingning fikrlarini e'tirof etish lozim. Uning ta'kidlashicha, "Jinoyat tarkibi – qonun elementi (bir qismi), u faqat qonunga tegishli, real hayotga emas" [26].

Frans fon List ham jinoyat tarkibi deganda, "qonun tarkibi"ni tushungan va fikrlarini E. Beling kabi bayon qilgan. Uning fikricha, "jinoyat mohiyatan huquqqa xilof va qonuniy manfaatlar, imtiyozlar tizimiga alohida xavf tug'dirishi sababli jazoga tortiladigan aqli raso shaxs tomonidan sodir qilingan harakat bo'lishi mumkin. Ushbu to'rtta belgilardan jinoiy qilmish (jinoyat umumiy tarkibi) tushunchasi shakllanadi" [18, 120-b.].

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy nemis jinoyat-huquqiy doktrinasida jinoyat tarkibiga abstraksiya, kategoriya yoki qonunchilik modeli sifatida qarash an'anaga aylangan. Shu bilan birga, ularda jinoyat va "qonun tarkibi" alohida tushunchalar bo'lib, ularni bir-biridan farqlash hamda mazkur tushunchalarni qarama-qarshi qo'yish hali ham davom etmoqda.

Shuningdek, jinoyat huquqi nazariyasida mavjud hozirgi jinoyat tarkibi tushunchasi dastlab Qadimgi Rim huquqidagi "corpus delicti"dan boshlanib, o'rta asrlarda Yevropa davlatlariga kirib keldi, klassik nemis jinoyat huquqi maktabida rivojlantirildi, keyinchalik XIX asrda Rossiyada o'zlashtirildi va XX 50–60-yillarida esa u haqidagi turli xil konsepsiyalar (abstraksiya, real jinoyat tarkibi, qonunchilik modeli) asosida yanada rivojlantirildi. Jinoyat tarkibi tushunchasi va u to'g'risidagi ta'limot vujudga kelishi va rivojlanish asosi sifatida tarixiy rivojlanishning barcha bosqichlarida jinoyat obyektiv tomoni belgilari markaziy o'rinni egallab keldi.

Shu bilan birga, jinoyat obyektiv tomoni belgilari asos bo'lganligini hisobga olgan holda, jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limotning shakllanishi va rivojlanishini shartli ravishda quyidagi tarixiy davr (bosqich) larga bo'lish mumkin: – qadimiy davr (jinoiy qilmish tashqi belgisi bo'lgan jinoyat obyektiv tomon belgilarining shakllanishi bilan bog'liq rim huquqi davri); – qadimiy davrdan oldingi davr (bu davr jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limot shakllanishining davomi

bo'lib, dastlab fuqarolik huquqidan jinoyat huquqining ajralib chiqishi va jinoyat huquqi Yevropa mamlakatlari universitetlarida alohida mustaqil fan sifatida o'qitilishi bilan bog'liq bo'lgan IX–XIX asrlar davri); – klassik davr (ushbu davr jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limot rivojlanishining asosiy tarixiy bosqichlaridan biri bo'lib, "corpus delicti" (jinoyat tarkibi) iborasi birinchi marta taniqli italyalik kriminalist Prosper Farinatsius (P. Farinacius) tomonidan 1581-yildagi "Variae quaestiones et communes opiniones" asarida tilga olinishi bilan boshlanib, XVIII asrning oxirlarida nemis kriminalisti Kleyn "corpus delicti" iborasini so'zma-so'z tarjima qilib, uni "Thatbestand" (Grunds. D. pein. Rechts. 1796) deb ifodalashi, shuningdek nemis klassik falsafa va uning yetuk namoyondalari I. Kanta (1724–1804), G.V. Gegel (1770–1831) va A. Feyerbaxlar (1775–1833) falsafiy qarashlari jinoyat tarkibi (Tatbestand) to'g'risidagi nemis jinoyat huquqi nazariyasiga o'z ta'sirini o'tkazishi, nemis klassik jinoyat huquqi maktabi ushbu ta'limotni yanada rivojlantirishi, shu bilan birga, bunday o'zgarishlar rus jinoyat huquqiga kirib kelishi bilan bog'liq davr. Bu davr o'z ichiga XVI asrning oxiri – XIX asrning boshlarini qamrab oladi); – klassik davrdan keyingi davr (XIX asrning oxiri – XX asrning 50–60-yillarida u haqidagi turli xil konsepsiyalar (abstraksiya, real jinoyat tarkibi, qonunchilik modeli) asosida yanada rivojlantirildi).

Bundan tashqari, fikrimizcha, amaliyot va ilmiy-nazariy doktrinada, shuningdek, xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida shakllangan jinoyat tushunchasiga doir qoidalarini qonun darajasida mustahkamlash zarur. Bunday samarali tajriba, xususan, Belarus va Moldova JK Umumiy qismi normalarida aks etgan. Moldova Jinoyat kodeksi "Jinoiy javobgarlik" deb nomlangan V bobining 51-moddasida "Sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish jinoiy javobgarlikning real asosi bo'lsa, jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi belgilari uning yuridik asosi bo'lib xizmat qila-

di", shuningdek uning 52-moddasi "Jinoyat tarkibi" deb nomlangan bo'lib, unda "Jinoyat tarkibi o'zida qilmishni muayyan jinoyat sifatida kvalifikatsiya qiladigan jinoyat qonunida nazarda tutilgan obyektiv va subyektiv belgilar yig'indisini ifodalaydi. Jinoyat tarkibi amaldagi mazkur kodeksning muayyan moddasiga muvofiq jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun yuridik asos hisoblanadi" [27].

Amaldagi Jinoyat kodeksimizda har qanday jinoyatning asosini tashkil qiladigan jinoyat tarkibi tushunchasiga ta'rif berilmagani hamda jinoyat tarkibi tushunchasiga abstraksiya sifatida qarash shakllangani munosabat bilan Jinoyat kodeksining 14-moddasi 1-qismiga quyidagicha o'zgartirish kiritish taklif qilinadi: "Ushbu kodeksda taqiqlangan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ni tavsiflovchi jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv belgilarini sodir etish jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi".

Ushbu taklifning kiritilishi huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan jinoiy qilmishning to'g'ri kvalifikatsiya qilinishini kafolatlaydi. Shuningdek, jinoyat tarkibi belgilari jinoyat belgilarini ifodalashi jinoyat qonunida o'z aksini topadi. Masalan, jinoyatning ijtimoiy xavflilik belgisining sifat va miqdor ko'rsatkichi bo'lgan ijtimoiy xavflilik xususiyati hamda darajasi aynan jinoyat tarkibi obyektiv belgilari (tajovuz obyekti, jinoyatni sodir etish usuli, zarar miqdori yoki kelib chiqqan oqibatlar og'irligi va boshqalar) bilan belgilanadi. Shuningdek, JK 99-moddasida ona o'z chaqalog'ini tug'ish vaqtida yoki tug'ilishi hamon qasddan o'ldirishi nazarda tutilgan. "Tug'ish vaqti" va "tug'ilishi hamon" deganda, jinoyat huquqi nazariyasida olimlar onada kechadigan alohida ruhiy-jismoniy holat (jinoyat sodir etish holati) bilan bog'laydilar. Amaliyotda jinoyat sodir etish vaqtiga asosiy e'tibor qaratilib, ba'zida alohida ruhiy-jismoniy holatlar chetda qoladi.

Bizga ma'lumki, mazkur jinoyatda jinoyat sodir etish vaqti va holati, ya'ni jinoyat

tarkibi obyektiv tomoni zaruriy belgilari, o'z navbatida, jinoyatning ijtimoiy xavflilik belgisini ifodalaydi. Ushbu jinoyatni kvalifikatsiya qilishda, albatta, jinoyat belgilari va jinoyat tarkibi belgilarining o'zaro munosabati inobatga olinishi lozim. Jinoyat tarkibi va uning belgilari tushunchasini jinoyat qonunida ifodalash jinoiy qilmishning to'g'ri kvalifikatsiya qilinishiga olib keladi. Shuningdek, amaldagi Jinoyat kodeksi 16-moddasi 1-qismiga quyidagicha o'zgartirish kiritish taklif qilinadi: "Sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish jinoiy javobgarlikka tortishning real asosi

hisoblanadi. Jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari esa jinoiy javobgarlikning huquqiy asosidir. Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lgan jinoiy qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi".

Bizning fikrimizcha, jinoyat qonuniga ushbu o'zgartirishning kiritilishi jinoyat va jinoyat tarkibi tushunchalarining o'zaro munosabatini uyg'unlashtiradi hamda jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda yuzaga keladigan kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Uchenie o sostave prestupleniya v ugovol-nom prave Rossii i Kitaya: sravnitel'no-pravovoe issledovanie [The doctrine of the composition of the crime in the criminal law of Russia and China: a comparative legal study]. Ed. V.S. Komissarov, A.I. Korobeeva, He Binsun. St. Petersburg, 2009, p. 11.
2. Ivanchin A.V. Sostav prestupleniya [Composition of the crime]. Yaroslavl, 2011, p. 3.
3. Kruglikov L.L. Etapi stanovleniya ucheniya o sostave prestupleniya [Stages of formation of the doctrine of the composition of the crime]. Criminal law: a development strategy in the XXI century: materials of the Fifth Intern. scientific-practical conf., 2008, Jan. 24-25. Moscow, 2008, p. 126.
4. Ochilov X.R., Xaydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. Jinoyat huquqi. Umumiy qism [Criminal Law]. General Part. Tashkent, TSU Publishing House, 2021, p. 24.
5. Abzalova X.M. Ugolovno-pravovye i kriminologicheskie aspekty borbi s ubiystvami [Criminal-legal and criminological aspects of the fight against murders]. Tashkent, 2020, p. 16.
6. Rustambaev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. General part. Tashkent, Legal literature publish, 2021, p. 110.
7. Jinoyat huquqi. Umumiy qism [Criminal law]. General section. Editor-in-Chief: H. Ochilov. Tashkent, Adolat Publishing House, 2020, p. 41.
8. Yakubov A.S. Teoriticheskie problemy formirovaniya pravovoy osnovy ucheniya o prestupleniy: predposilki, realnost, perspektivi [Theoretical problems of forming the legal basis for the doctrine of crimes: background, reality, prospects]. Tashkent, 1996, p. 95.
9. Gambarov Yu.S. Kurs grazhdanskogo prava [The course of civil law]. General part. St. Petersburg, 1911, vol. 1. Available at: <http://books.e-heritage.ru/book/10071923/> (accessed 06.03.2019).
10. Sverchkov V.V. Prestuplenie i sostav prestupleniya. Osobennosti prestupnogo povedeniya i ugolovnogo presledovaniya [Crime and elements of crime. Features of criminal behavior and criminal prosecution]. Moscow, 2019, p. 45.
11. Ignatov A.N. Sostav prestupleniya. Ugolovnoe pravo Rossii: v 2 t. [Ignatov A.N. Composition of a crime. Criminal law of Russia: in 2 volumes]. Ed. A.N. Ignatova, Yu.A. Krasikov. Moscow, 2008, vol. 1, p. 117.
12. Boyko A.I. Prestupnoe bezdeystvie [Criminal inactivity]. St. Petersburg, Legal Center Press, 2003, p. 25.
13. Chelsov-Bebutov M.A. Kurs ugolovno-protsessualnogo prava. Ocherki po istorii suda i ugolovnogo protsessa v rabovladelcheskix, feodalnix i burjuaznix gosudarstvax [Course of criminal

procedure law. Essays on the history of the court and the criminal process in the slave, feudal and bourgeois states]. Doctor's degree dissertation. St. Petersburg, 1995, pp. 153–154.

14. Ugolovnoe pravo. Ensiklopedicheskiy slovar F.A. Brokgauza i I.A. Yefrona [Criminal Law. Encyclopedic Dictionary F.A. Brockhaus and I.A. Efron]. Available at: <http://www.vehi.net/brokgauz/all/103/103933.shtml/> (accessed 26.05.2019).

15. Neshataev V.N. Kvalifikatsiya prestupleniy teoriya, praktika, zakonodatelnaya reglamentatsiya [Qualification of crimes theory, practice, legislative regulation]. PhD thesis. 12.00.08. Omsk, 2019, p. 34.

16. Ensiklopedicheskiy slovar Brokgauza i Yefrona [Encyclopedic Dictionary of Brockhaus and Efron]. In 86 vol. St. Petersburg, 1902, vol. 34a, p. 505.

17. Berner A.F. Uchebnik ugolovnogogo prava. Chasti oshaya i osobennaya: S primechaniyami, prilozheniyami i dopolneniyami po istorii russkogo prava i zakonodatelstvu polozhitelnomu [Textbook of criminal law: General and special parts: With notes, applications and additions on the history of Russian law and positive legislation]. Master of Criminal Law N. Neklyudov. Part General. St. Petersburg, 1865, vol. 1, p. 133.

18. Kalmikov P.D. Uchebnik ugolovnogogo prava [Textbook of criminal law]. Published by A. Lyubavsky. Part of the general. St. Petersburg, 1866, p. 65.

19. Usmonaliev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General section. Tashkent, Nasaf, 2010, p. 131.

20. Ugolovnyy kodeks Respubliki Moldova ot 18 aprelya 2002 goda № 985-XV, s izmeneniyami i dopolneniyami po sostoyaniyu na 11.11.2021 g. [Criminal Code of the Republic of Moldova No. 985-XV of April 18, 2002 (as amended and supplemented as of November 11, 2021). Available at: http://continent-online.com/Document/?doc_id=30394923#pos=821;-56/.

21. Spasovich V. Uchebnik ugolovnogogo prava [Textbook of criminal law]. St. Petersburg, 1963, vol. 1, First iss., pp. 89-90.

22. Tagansev N.S. Kurs russkogo ugolovnogogo prava [Course of Russian criminal law]. Part of the general. Book 1. The doctrine of crime. St. Petersburg, 1874, p. 3.

23. Foyniskiy I.Ya. Kurs ugolovnogogo sudoproizvodstva [Course of criminal court proceedings]. Third edition. St. Petersburg, vol. 2, 1910, p. 296.

24. Feyerbax P.A. Ugolovnoe pravo [Criminal law]. St. Petersburg, Medical Printing House, 1810, pp. 78-79.

25. Piontkovskiy A.A., Romashkin P.S., Chxikvadze V.M. Prestuplenie. Kurs sovetskogo ugolovnogogo prava: v 6 t. [Crime. Course of Soviet criminal law: in 6 volumes]. Irkutsk, 1970, vol. 2, p. 106.

26. Beling E. Die Lehre vom Verbrechen [The Doctrine of Crime]. Tubingen, 1906.

27. Beling E. Die Lehre vom Tatbestand [The lesson of the facts]. Tubingen, 1930.

28. Rasulov O.X. Sovet jinoyat huquqi [Soviet criminal law]. General section. Tashkent, Teacher, 1969, p. 90.

29. List F.F. Uchebnik ugolovnogogo prava [Textbook of criminal law]. Common frequency. Translation from the 12th edition. Moscow, 1903, p. 134.

30. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. [Course of Criminal Law of the Republic of Uzbekistan]. The Doctrine of Punishment. 2nd edition, supplemented and revised. Tashkent, Military-Technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018, vol. 2, p. 41.

31. Kabulov R., Otajonov A.A. et al. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General part. Second edition, supplemented and revised. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2012, p. 94.

UDC: 343(045)(575.1)

DAVLAT XARIDLARI SOHASIDAGI JINOYATLARNING OLDINI OLIHNING AYRIM MASALALARI

Bobojonov Boboxon Po'latovich,
Toshkent davlat yuridik
universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0000-0002-4785-3233
e-mail: b.bobokhonov@qqb.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada muallif davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlarning oldini olishning ayrim masalalarini yoritgan. Muallifning qayd etishicha, davlat xaridlari sohasidagi jinoyatchilikning sabab va shart-sharoitlari hamda sababiyat qonuniyatining asl mohiyatini o'rganish bu turdagi jinoyatlarning sodir etilishi mohiyati, shu orqali bunday qilmishlarga qarshi kurash hamda ularning oldini olish imkonini beradi. Muallif davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlar ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra korrupsion jinoyatlardan aslo kam emas. Korrupsion jinoyatlarda jinoyat predmeti nafaqat naqd tarzda beriladigan moddiy qimmatliklar, balki boshqacha tarzda moddiy mulkiy manfaatdorlik ham bo'lishi mumkinligini tushuntiradi. Shuningdek, maqolada O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 183¹-modda (Davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikni buzish) bilan to'ldirish taklif etilgan. O'z navbatida, davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlarning oldini olishda texnik chora-tadbirlar ham muhim ahamiyat kasb etishi qayd etilgan. Jumladan, xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda, Forensic audit o'tkazish, posttranzaksiya nazoratini o'tkazish post and ex control – xarid o'tkazilganidan keyingi monitoringni amalga oshirish, davlat xaridlari sohasida inson omilini kamaytirish, xususan, davlat xaridlarida mijozlarni raqamli identifikatsiya qilish, davlat xaridlari ishtirokchilarining Scoring tizimini joriy qilish kabi texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish yaxshi samara berishi asoslantirilgan.

Kalit so'zlar: davlat xaridlari, davlat buyurtmachisi, xarid komissiyasi, davlat xaridlari elektron tizimi, byudjetni o'zlashtirish, manfaatlar to'qnashuvi, kriminalizatsiya, posttranzaksiya nazorati, inson omilini kamaytirish, mijozlarni raqamli identifikatsiya qilish, Scoring tizimi.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЙ В СФЕРЕ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК

Бобожонов Бобохон Пулатович,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье автор осветил некоторые вопросы предупреждения преступлений в сфере государственных закупок. Автор отмечает, что изучение причин и условий преступности в сфере государственных закупок, а также истинной сути закона причинно-следственной связи позволяет понять суть совершения этих видов преступлений, благодаря чему можно бороться с подобными деяниями и предотвращать их. Автор также подчеркнул, что преступления в сфере госзакупок по своему характеру и степени общественной опасности не уступают коррупционным преступлениям, поскольку предметом преступления в коррупционных преступлениях могут быть не только наличные материальные ценности, но и другое материальное имущество. В статье также предлагается дополнить Уголовный кодекс Республики Узбекистан статьей 183¹ (Нарушение закона о государственных закупках).

В свою очередь, отмечается, что в предотвращении преступлений в сфере государственных закупок также важны технические меры. В частности, обоснована эффективность внедрения в сферу государственных закупок таких технических мер, как проведение судебного аудита с привлечением международных экспертов, проведение посттранзакционного контроля *post* и *ex control*, мониторинг после закупки, снижение человеческого фактора, цифровая идентификация клиентов при государственных закупках, организация системы *Scoring* для участников государственных закупок.

Ключевые слова: государственные закупки, служба государственных заказчиков, комиссия по закупкам, электронная система государственных закупок, бюджетные ассигнования, конфликт интересов, криминализация, посттранзакционный контроль, снижение человеческого фактора, цифровая идентификация клиентов, система *Scoring*.

SOME ISSUES OF CRIME PREVENTION IN THE FIELD OF PUBLIC PROCUREMENT

Bobojonov Bobokhon Pulatovich,
Independent researcher of
Tashkent State University of Law

Abstract. In this article, the author highlighted some issues of crime prevention in the field of public procurement. The author notes that the study of the causes and conditions of crime in the field of public procurement, as well as the true essence of the law of causality, allows us to understand the essence of these types of crimes, with which we can fight such acts and prevent them. The author also stressed that crimes in the field of public procurement by their nature are not inferior to corruption crimes in terms of the degree of public danger, the subject of a crime in corruption crimes can be not only material costs that are given in cash but also tangible property in a different style. The article also proposes to supplement the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan with article 183¹ (Violation of the law on public procurement). In turn, it is noted that technical measures are also important in preventing crimes in the field of public procurement. In particular, conducting a judicial audit with the involvement of international experts, conducting post-transactional control *post* and *ex control* – the introduction of technical measures, such as post-purchase monitoring, reducing the human factor in public procurement, in particular, digital identification of customers in public procurement, the effectiveness of the implementation of the *Scoring* system of public procurement participants is justified.

Keywords: public procurement, public customer service, procurement commission, electronic public procurement system, budget allocations, conflict of interest, criminalization, post-transaction control, reduction of the human factor, digital identification of customers, *Scoring* system.

Kirish

Global iqtisodiy bo'hronlar sharoitida qator mamlakatlarda byudjet defitsiti kuchayishi davlat xaridlari tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti mamlakatlarida YIMga nisbatan davlat xaridlari uchun davlat byudjeti xarajatlari o'rtacha 12 foizga teng bo'lmoqda [1]. Ushbu tashkilotga a'zo mamlakatlar davlat byudjetining 43 foiz xarajatlari davlat xaridlari uchun yo'naltiriladi.

Past daromadli davlatlarda esa davlat xaridlari YIMga nisbatan 10–15 % miqdorida, rivojlanayotgan davlatlarda 25 %gacha va rivojlangan mamlakatlarda 30 foiz va undan yuqori miqdorda bo'lmoqda [2].

Davlat xaridlarining muhim ko'rsatkichlaridan biri davlat xarajatlarida davlat xaridlarining ulushi hisoblanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, davlat xarajatlarida davlat xaridlarining ulushi Yaponiyada 41,6 %, Koreyada 40,1 %, Germaniyada 35,3 %,

Buyuk Britaniyada 31,7 %, Fransiya da 25,6 %, AQShda 24,5 %ni tashkil etmoqda. Shuningdek, davlat xaridlari sohasida mahalliy korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Braziliya da 8–25 %, Meksika va Misrda 15 %, Malayziya da 2,5–10 %gacha narx preferensiyalari berilishi belgilangan [3]. Mazkur raqamlar davlat xaridlarini amalga oshirishda qonun hujjatlariga rioya etilishi naqadar muhimligini ko'rsatibgina qolmasdan, balki davlat xaridlari sohasidagi qonunga xilof qilmishlarning ijtimoiy xavflilik darajasini ham belgilab beradi.

Davlat xaridlarining qamrovini kengaytirish, ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, tizimni raqamlashtirish davlat xaridlari tizimini takomillashtirish hamda bu boradagi jinoyatlarning oldini olish tizimini yaxshilash zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, davlat xaridlari tizimining ochiqligini ta'minlash byudjet mablag'laridan maqsadli va manzilli foydalanishni talab etmoqda. Shuningdek, davlat xaridining makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, jumladan, yalpi ichki mahsulot, byudjet xarajatlari hajmi va davlat byudjeti daromadlariga nisbatan ulushining beqarorlik holatlari kuzatilmoqda [4].

Har qanday davlatning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligiga xavf soladigan davlat xaridlari sohasidagi ijtimoiy xavfli qilmishlar alohida jinoyat tarkibi sifatida belgilanmagan bo'lsa-da, uning yuridik tahlilini amalga oshirish orqali kompleks tarzda davlat xaridlari sohasida sodir etiladigan korrupsion jinoyatlar xususida aniq tasavvurga kelish mumkin.

Jahonda davlat xaridlari tizimining huquqiy va institutsional asoslari, xaridlarini amalga oshirish jarayonlari, xarid bilan bog'liq risklarni boshqarish va hisobdorlik, byudjet xarajatlarini amalga oshirishda davlat xaridlari bilan qamrab olinishi va ularning e'lon qilib borilishi, elektron xaridlar tizimini takomillashtirish orqali davlat xaridlari tizimining shaffofligini oshirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Material va metodlar

Davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlarning oldini olishning ayrim masalalarini o'rganish, mazkur turdagi jinoyatlar profilaktikasini nazarda tutuvchi qonun hujjatlari normalarini tahlil qilish maqsad qilingan. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy uslub, abstraksiya va taqqoslash singari ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Bugungi kunda davlat xaridlari sohasidagi korrupsion jinoyatlar, asosan, tender o'tkazmaslik, hujjatlarni soxtalashtirish, to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzish va boshqa usullar orqali sodir etilmoqda.

Bu turdagi davlat xaridlari sohasidagi ijtimoiy xavfli qilmishlar o'z tabiatiga ko'ra, nafaqat milliy, balki xalqaro xarakterdagi jinoyatlar sirasiga kirib, globallashuv sharoitida yagona davlat moliyaviy-iqtisodiy barqarorligiga, shuningdek xalqaro hamjamiyatga xavf soladi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlarning aniq kategoriyasi mavjud emas. U sodir etilgan qilmishning xususiyatidan kelib chiqib aniqlanadi. Amaldagi jinoyat qonunchiligida "davlat xaridlari" bilan bog'liq aniq ijtimoiy xavfli qilmish nazarda tutilmagan bo'lsa-da, lekin davlat xaridlari sohasidagi ijtimoiy xavfli qilmishlar bugungi kunda jamiyatda jinoyatchilik hodisasi sifatida mavjud.

Kriminologik hodisa sifatida davlat xaridlari sohasidagi jinoyatchilik xuddi shu munosabatlariga oid ko'p sonli holatlar, omillar va sabablar ta'sirining hosilasidir.

Jinoyatlarni atroflicha va sinchiklab o'rganish uchun tadqiq etilayotgan hodisaning mazmuni va tuzilishini belgilovchi holatlarni mumkin qadar ko'proq aniqlash talab etilgani bois, bu harakatlar, eng avvalo, sabab va oqibat o'rtasidagi aloqalar, muayyan omillar va shart-sharoitlarning o'zaro nisbatini aniqlashdan iborat.

G. Kuanaliyeva qayd etganidek, jinoyatchilik sababini aniqlash hamda jinoyatlarni

samarali individual profilaktika qilish uchun jinoyatchi shaxsini o'rganish zarur. Zero, inson shaxsiga xos bo'lgan qarash, maqsad va yo'nalishlar singari subyektiv omillarni aniqlash muhim ahamiyatga ega [5].

Jinoyatchilikning sabablari kriminologiyaning bosh muammosi hisoblanadi. Bu muammoning u yoki bu yechimi kriminologiya nazariyasining ilmiy mazmunini, uning amaliy yo'nalishini belgilaydi. Professor Q.R. Abdurasulova ta'kidlaganidek, sababiyat kategoriyasi nafaqat sabab, balki shart, natija (oqibat), ular o'rtasidagi bog'lanish hamda sabab va oqibat o'rtasidagi teskari aloqani ham qamrab oladi [6]. Shuningdek, bu masala yuzasidan M. Usmonaliyev va Y. Karaketovlar ham fikr yuritib, "har bir sabab va oqibat o'zaro bog'liqlikda bo'lib, hodisalar, holatlar yig'indisi muayyan muhitni tashkil qiladi va bu muhitdagi jarayonlar biron-bir hodisaning rivojlanishi va kelib chiqishini ta'minlaydi" [7], deb ta'kidlaydilar.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarga asoslanadigan bo'lsak, davlat xaridlari sohasidagi jinoyatchilikning sabab va shart-sharoitlari hamda sababiyat qonuniyatining asl mohiyatini o'rganish bu turdagi jinoyatlarning sodir etilish mohiyati, shu orqali bunday qilmishlarga qarshi kurash hamda ularning oldini olish imkonini beradi. Z. Zaripov va I. Ismailovlar jinoyatchilik sabablari muammosini o'rganib, "jinoyat – bu shaxsiy ma'naviy-psixologik asosga ega bo'lgan alohida turdagi ijtimoiy buzilgan xatti-harakat" [8], degan fikrni ilgari suradilar. Bu esa jamiyatimizdagi sodir etilayotgan jinoyatlar asosida yotgan shaxsning jamiyatga zid yo'nalishdagi ijtimoiy ildizlari nimada ekanligi, bunday yo'nalishning shakllanish va bo'lish imkoniyati nima bilan taqozo qilinishi haqidagi savollarga javob bo'la oladi.

Davlat xaridlari o'zi nima? Qonunchilikka ko'ra, davlat buyurtmachilarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlari pulli asosda ta'minlash jarayoni davlat xaridlari sifatida e'tirof etiladi. Bunda davlat

buyurtmachisi deganda, davlat xaridlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxs tushuniladi. Davlat xaridlarini amalga oshirishda bu to'g'rida shartnoma tuziladi. Uning mazmuni davlat buyurtmachisi va davlat xaridlari ijrochisi o'rtasidagi davlat xaridlari bo'yicha huquqlar va majburiyatlarni belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuvdan iborat. Qonunga muvofiq, davlat xaridlarining subyektlari quyidagilar:

- davlat buyurtmachisi;
- xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi;
- davlat xaridlarining ijrochisi;
- xarid komissiyasi;
- davlat xaridlari elektron tizimining operatori;
- ixtisoslashgan tashkilot va ekspert, ekspert tashkiloti.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va byudjet defitsiti kuchayishi davlat xaridlari tizimini takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Mamlakatimizda ham iqtisodiyotning eng muhim bo'g'ini davlat xaridlarini amalga oshirish chog'ida bank-moliya sohasidagi korrupsiya holatlari, mansab mavqeyidan foydalangan holda, byudjet mablag'larini maqsadsiz sarflash yoki talon-toroj qilish kabi holatlar uchramoqda. Shu o'rinda qayd etish kerakki, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan birgina Andijon viloyatida 18 ta, Jizzax viloyatida 11 ta, Navoiy viloyatida 7 ta tanlov va tenderlar o'tkazish jarayonida "Davlat xaridlari to'g'risida" va "Raqobat to'g'risida"gi Qonunlar hamda boshqa qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar talablari buzilgani, qurilish obyektlarida davlat byudjetiga turli ko'rinishda 19,6 mlrd so'm zarar yetkazilgani aniqlandi.

Shuningdek, *Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi* hamda uning quyi tizimlarida 5033 ta qonun buzilishi, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash loyihalari uchun ajratilgan 154,4 mlrd so'mlik mablag'lar maqsadsiz sarflanganligi ma'lum bo'ldi.

Bundan tashqari, *Suv xo'jaligi vazirligi* va uning tasarrufidagi tashkilotlarda dav-

lat xaridlari bo'yicha 4836 ta xato va kamchiliklar mavjudligi, byudjetga 704 mln so'm zarar yetkazilgani aniqlangan.

Energetika vazirligi tizimidagi *"Hududiy elektr tarmoqlari"* AJ tomonidan 2019–2020-yillarda 10,4 mlrd so'mlik 512 ta shartnomalar tuzilgan bo'lib, 1,9 mlrd so'mlik 20 ta shartnomalar bo'yicha ma'lumotlar maxsus axborot portaliga uch kundan kechiktirib joylashtirilgan bo'lsa, 2,4 mlrd so'mlik 10 ta shartnoma to'g'risidagi ma'lumotlar umuman joylashtirilmagan. O'tkazilgan mazkur o'rganishlar natijasida Jinoyat kodeksining 167-, 205-, 209- va boshqa moddalari bilan umumiy 14 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan [9].

Garchi amaldagi Jinoyat kodeksida davlat xaridlari sohasidagi ijtimoiy xavfli qilmishlar alohida jinoyat tarkibi sifatida belgilanmagan bo'lsa-da, uning yuridik tahlilini amalga oshirish orqali kompleks tarzda davlat xaridlari sohasida sodir etiladigan jinoyatlar xususida aniq tasavvurga kelish mumkin. Bu kabi qilmishlardan biri bu O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof tarzda bitim tuzish, mansab mavqeyini suiiste'mol qilib talon-toraj qilish, davlat xaridlari jarayonida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yish, shuningdek bu jarayonda hujjatlarni soxtalash-tirish va qalbakilashtirishda ifodalanadi.

Amaldagi jinoyat qonunchiligida davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlar uchun yagona jinoyat tarkibida jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan bo'lsa-da, bu turdagi jinoyatlar-ning xususiyati va qilmishning obyektiv tomoni belgilariga ko'ra, jinoyat qonunining 167-, 168-, 171-, 175-, 205-, 209-, 243-moddalarida nazarda tutilgan qilmishlarni ko'rsatish mumkin. Negaki ko'rsatib o'tilgan qilmishlar obyektiv tomondan davlat xaridlarini amalga oshirish chog'ida sodir etilishi mumkin. JKning 175-modda (O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzish), 188¹-modda (pul mablag'lari va (yoki) boshqa mol-mulkni jalb etishga doir noqonuniy faoliyat), 243-modda

(jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish)larida nazarda tutilgan jinoyatlar davlat xaridlari sohasida sodir etilishi mumkin.

Eng ahamiyatli jihati shundaki, davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlar ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra korrupsion jinoyatlardan aslo kam emas. Korrupsion jinoyatlarda jinoyat predmeti nafaqat naqd tarzda beriladigan moddiy qimmatliklar, balki boshqacha tarzda moddiy mulkiy manfaatdorlik ham bo'lishi mumkin. Davlat byudjetini "o'zlashtirish" shaklidagi davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlar mansabdor shaxslar tomonidan davlat buyurtmasi yoki xaridlar orqali mablag' o'zlashtirish usulida sodir etilmoqda. Bunda xarid yoki davlat buyurtmalari doirasidagi tovar va xizmatlar manfaatdor shaxs foydasiga bozor taklifi yoki import analogidan 20–50 %gacha qimmat bo'lishida ifodalanadi. O'rtadagi farqdan o'zlashtirilgan noqonuniy mablag'lar import bitimlari orqali xorijga chiqarilishi mumkin. Ushbu holatlar esa mazkur turdagi jinoyatlarning oldini olishni takomillashtirish zarurati mavjudligini yaqqol ko'rsatadi.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning oldini olishda umumiy ijtimoiy darajadagi chora-tadbirlar tizimi, ayniqsa, muhim rol o'ynaydi. Bu turdagi jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha *maxsus chora-tadbirlar* va *umumijtimoiy chora-tadbirlar* farqlanadi.

Maxsus chora-tadbirlar – bu jinoyatlar-ning sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etishga bevosita qaratilgan profilaktika chora-tadbirlardir. Ammo shuni qayd etish lozimki, maxsus chora-tadbirlar umumijtimoiy chora-tadbirlar bilan uzviy bog'liq. *Umumijtimoiy chora-tadbirlarni* samarali amalga oshirish maxsus chora-tadbirlarni qo'llash uchun qulay imkoniyatlar yaratadi va aksincha, tahlil qilinayotgan toifadagi jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan maxsus chora-tadbirlarni qo'llash umumijtimoiy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun qulay zamin hozirlaydi.

Kriminologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu toifadagi jinoyatlarning oldini olishda umumijtimoiy chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida amalga oshiriluvchi ijtimoiy chora-tadbirlar, avvalo: erkin iqtisodiy faoliyat; iqtisodiy munosabatlar sohasida shaxs o'zining ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoitlar yaratish; tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochish va uni rivojlantirish; mulkdorlikning barcha shakllariga teng sharoitlar yaratilishi va iqtisodiyot sohasida hamma huquqiy jihatdan teng himoya qilinishini ta'minlash; iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida real raqobat uchun shart-sharoitlar yaratish; zarur bozor infratuzilmasini yaratishga qaratilishi lozim.

Xulosalar

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlaridagi korrupsiya mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga jiddiy ziyon yetkazmoqda. U to'g'ridan to'g'ri moddiy zarar yetkazibgina qolmasdan, balki fuqarolarning mazkur organlarga bo'lgan ishonchiga putur yetkazmoqda, davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

Odatda, jinoyatchilikning oldini olishda quyidagi yondashuvlar keng qo'llaniladi:

- huquqiy savodxonlik va huquqiy ong darajasini oshirish;
- qilmishni kriminalizatsiya qilish;
- sodir etilgan jinoyati uchun jazoni og'irlashtirish;
- jinoyat sodir etishga olib keladigan holatlar, determinantlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida muayyan cheklovlar o'rnatish;
- jinoyatlarning oldini olishga yo'naltirilgan manzilli amaliy profilaktik choralar ko'rish;
- viktimologik profilaktikani amalga oshirish.

Shuni nazarda tutish kerakki, qilmishni kriminalizatsiya qilish jamiyatda pishib etilgan ijtimoiy zarurat bilan bog'liq hamda u jinoyat qonunchiligini takomillashtirishning

asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bu haqda so'z yuritgan N. Lopashenko kriminalizatsiyani jinoyat-huquqiy siyosatni amalga oshirish usullari sifatida tushuntiradi [10].

Shunga ko'ra, amaldagi jinoyat qonunchiligiga davlat xaridlari sohasidagi ijtimoiy xavfli qilmishlarning oldini olishda jinoiy-huquqiy vositalardan foydalanish, soliq to'lovchilar hisobidan shakllanadigan davlat byudjeti mablag'larining mazkur usulda talon-toraj qilinishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ushbu qilmish kriminalizatsiya qilinishi maqsadga muvofiq.

Shu o'rinda savol tug'iladi: ushbu turdagi (nomdagi) ma'muriy huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan. Buning uchun alohida jinoiy qilmish kiritish zarurati mavjudmi?

Shu o'rinda qayd etish kerakki, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-yanvardagi O'RQ-666-sonli Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksi 175⁸-modda (Davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikni buzish) bilan to'ldirilgan. Unda qonun chiqaruvchi davlat xaridlari rejalari, shu jumladan, reja-jadvallarini shakllantirish va joylashtirish tartibi bo'yicha qonunchilik talablariga rioya etmaslik, shuningdek davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda davlat xaridlarini amalga oshirish chog'ida maxsus axborot portaliga davlat xaridlari bo'yicha e'lonlar joylashtirish tartibi, majburiy muhokama o'tkazish tartibi va muddatlari hamda davlat xaridi natijalarini joylashtirish muddatlarini buzish kabi qilmishlarni keltirgan.

Shu ma'noda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirishning bugungi sharoitida M. Rustambayev ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra, ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyat o'rtasida turadigan nojo'ya jinoiy xatti-harakat (ugolovniy prostupok) uchun jinoyat qonunchiligi doirasida javobgarlik belgilanishini taklif etmoqda. Uning ta'kidlashicha, nojo'ya jinoiy xatti-harakat

(ugolovniy prostupok) ijtimoiy xavfliligi jihatidan kam ahamiyatli ekanligi, shuningdek uni sodir etganlik uchun javobgarlikning alohida rejimi amal qilishi lozim [11].

Davlat xaridlari tizimining huquqiy va institutsional asoslari, xaridlarni amalga oshirish jarayonlari, xarid bilan bog'liq risklarni boshqarish va hisobdorlik, byudjet xarajatlarini amalga oshirishda davlat xaridlari bilan qamrab olinishi va ularning e'lon qilib borilishi, elektron xaridlar tizimini takomillashtirish orqali davlat xaridlari tizimining shaffofligini oshirish kabi qilmishlar uchun alohida jinoyat tarkibini belgilash, davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanishini taqozo etadi. Bu borada xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilganda, mazkur holat Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Ozarbayjon, Armaniston jinoyat qonunchiligida ham uchrashi aniqlandi.

Shu nuqtayi nazardan, nazarimizda, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini quyidagi mazmundagi 183¹-modda (*Davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikni buzish*) bilan to'ldirish maqsadga muvofiq:

183¹-modda. Davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikni buzish

Davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan xarid qilish tartib-taomiliga qasddan rioya etmaslik, raqobatni cheklovchi axborot, havolalar, talablar yoki shartlarni kiritish, xarid jarayonidagi affillanganlik yoki manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar bermaslik, xaridlarni amalga oshirishda bilaturib soxta ma'lumotlar yoki yozuvlar kiritish, hujjatlarni qalbakilashtirish yoki bilaturib soxta hujjatlar tuzish yoxud taqdim etish davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud

uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) juda ko'p miqdorda;

b) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;

d) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

e) mansab yoki xizmat mavqeyini suiiste'mol qilish yo'li bilan sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yuqorida qayd etilganidek, davlat xaridlari sohasidagi qilmishlar uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan bo'lsa-da, taklif etilayotgan normada ma'muriy preyditsiya nazarda tutilmagan. Ushbu holat shu bilan izohlanadiki, agar aynan bir xil obyektiv tomondan iborat qilmishlarni sodir etganlik uchun qilmish dastlab ma'muriy huquqbuzarlik, bir yil ichida takroran sodir etilganda, uni jinoyat sifatida baholash mantiqan to'g'ri, fikrimizcha. Biroq bu ham ancha bahsli. Xususan, ayrim olimlar jinoyat qonunining ba'zi normalarida ma'muriy preyditsiyani aks ettirish insonparvarlik va odillik prinsiplariga to'la javob bermasligi, ma'muriy huquqbuzarlikni bir yil ichida takroran sodir etish jinoyatning sifat ko'rsatkichini ham, ijtimoiy xavflilik darajasini ham oshirmasligi, shaxs sodir etgan qilmishi uchun javobgarlikka tortilgandan so'ng javobgarlikning oqibatlari ham tugatilishi lozimligini ta'kidlaydi [12]. Shunga ko'ra, taklif etilayotgan normada ma'muriy preyditsiya nazarda tutilmagan.

Volterning jinoyatchilikka qarshi kurashish emas, aksincha, ularning oldini olish haqiqiy yurisprudensiya ekanligi [13] to'g'risidagi fikridan kelib chiqadigan bo'lsak, bizning nazdimizda ham kriminologik nuqtayi nazardan jinoyatchilikning oldini olish faqatgina qilmishni kriminalizatsiya

qilish yoki javobgarlikni og'irlashtirishdan emas, balki jinoyatchilikka qarshi samarali kurashning ijtimoiy, psixologik va sotsiologik usullarini qo'llashdan iborat bo'lishi lozim.

Davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlarning oldini olishda texnik chora-tadbirlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, quyidagi texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish yaxshi samara berishi mumkin:

- tender tanlovlarining to'liq elektronlashtirilishi;

- davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish masalasida Korruptsiyaga qarshi kurash agentligi, Moliya vazirligi, Markaziy bank, Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash departamenti va tijorat banklari funksiyalarini qayta ko'rib chiqish;

- xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda Forensic audit o'tkazish;

- posttranzaksiya nazoratini o'tkazish post and ex control – xarid o'tkazilganidan

keyingi monitoringni amalga oshirish;

- davlat xaridlari sohasida inson omilini kamaytirish, xususan, davlat xaridlarida mijozlarni raqamli identifikatsiya qilish;

- davlat xaridlari ishtirokchilarining Scoring tizimini joriy qilish;

- davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda NNT o'rni va ahamiyatini oshirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkin, davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlarning oldini olishning takomillashtirilishi davlat xaridlari tizimining huquqiy va institutsional asoslari, xaridlarni amalga oshirish jarayonlari, xarid bilan bog'liq risklarni boshqarish va hisobdorlik, budjet xarajatlarini amalga oshirishda davlat xaridlari bilan qamrab olinishi va ularning e'lon qilib borilishi elektron xaridlar tizimini takomillashtirish orqali davlat xaridlari tizimining shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Directorate for Public Governance. Public procurement. The Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Available at: <https://www.oecd.org/governance/public-procurement/>.
2. Ponomareva O.V. Gosudarstvenniye zakupki kak instrument torgovoy politiki v razvivayushixsya stranax [Public procurement as a trade policy tool in developing countries]. Rossiyskiy vneshneekonomicheskii vestnik – Russian Foreign Economic Bulletin, 2014, no. 9, 2014, p. 101.
3. Government at a Glance – 2019 edition: *Public procurement*. The Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Available at: <https://stats.oecd.org/Index.aspx?QueryId=94406/>.
4. Atamuradov T.T. O'zbekistonda davlat xaridlarini takomillashtirish [Improving public procurement in Uzbekistan]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2021, p. 5.
5. Kuanaliyeva G. Kriminologicheskaya xarakteristika lits, sovershayushix posyagatelstva na zdorovye cheloveka [Criminological characteristics of persons committing encroachments on human health]. Vestnik TGYUI – Bulletin of TSIL. Tashkent, 2009, no. 3, pp. 99-100.
6. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya [Criminology]. Tashkent, TSIL, 2008, p. 31.
7. Usmonaliyev M., Karaketov Y. Kriminologiya [Criminology]. Tashkent, Yangi asr avlodi Publ., 2001, p. 80.
8. Zaripov Z., Ismailov I. Kriminologiya [Criminology]. Tashkent, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi – Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 1996, p. 60.
9. Results of public procurement studies. Anti-corruption agency of the Republic of Uzbekistan. Available at: <https://anticorruption.uz/uzc/item/2021/04/20/davlat-xaridlari-sohasida-otkazilgan-organishlar-natijasi/>.

10. Lopashenko N.A. Ugolovnaya politika [Criminal policy]. Moscow, Volters Kluver, 2009, p. 23.
11. Rustambayev M. Neobxodimo prinyat kodeks o prostupkax [It is necessary to adopt a code of conduct]. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi Axborotnomasi – Bulletin of the Academy of the Prosecutor General's Office of the Republic of Uzbekistan, 2018, no. 3, p. 13.
12. Maxkamov O.M. Soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlashning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlar [Criminal and criminological aspects of tax or other mandatory tax evasion]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2015, p. 15.
13. Ivanova S.I. Preduprejdeniye prestupleniy i administrativnix pravonarusheniy organami vnutrennix del [Prevention of crimes and administrative offenses by internal affairs bodies]. Tyumen, 2012, pp. 7–9.
14. Degtyarov I.P. Voprosy preduprezhdeniya prestupleniy v sfere publichnykh zakupok v svete strategicheskikh planov razvitiya rossiyskogo gosudarstva [Issues of crime prevention in the sphere of public procurement in the light of the strategic plans for the development of the Russian State]. Gosudarstvennaya sluzhba i kadry – Public Service and Personnel, 2021, no. 5, pp. 215–223. DOI: 10.24412/2312-0444-2021-5-215-223.
15. Shurpaev Sh.M. Ugolovno-pravovaya i kriminologicheskaya kharakteristika prestupleniy korruptsionnoy napravlenosti v sfere zakupok dlya obespecheniya gosudarstvennykh i munitsipal'nykh nuzhd [Criminal-legal and criminological characteristics of crimes of corruption in the sphere of procurement for state and municipal needs]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2021, 40 p.

UDC: 349.44(045)(575.1)

QISHLOQ XO'JALIK YERLARIDAN FOYDALANISH VA MUHOFAZA QILISH TARTIBINI BUZGANLIK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK

To'xtashev Hikmatilla Ismatillayevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ekologiya huquqi kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0000-0003-4642-6923
e-mail: h.tuxtashev@tsul.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish va muhofazalash bilan bog'liq milliy va xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, yerdan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish masalasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Qishloq xo'jalik sug'oriladigan yerlarini kimyoviy va zaharli moddalar bilan ifloslantirganlik yoki yer unumdorligini tushirib yuborganlik uchun jinoiy javobgarlik masalasi tahlil qilindi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi subyektlari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi yerlarini huquqiy tartibga solishga qaratilgan normativ hujjatlar o'rganildi. Qishloq xo'jalik yerlaridan maqsadsiz foydalanganlik yoki ularni berish tartibini buzganlik uchun javobgarlik masalasi yer va jinoyat qonunchiligi asosida yoritishga harakat qilindi. Qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanuvchi subyektlarni jinoiy javobgarlik subyekti sifatida e'tirof etishga doir xorijiy mamlakatlar tajribalarini milliy qonunchilikka joriy etish bilan bog'liq masalalar yoritildi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish masalasi Estoniya, Ispaniya, Germaniya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, AQSh va boshqa bir qator davlatlar tajribalari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalaridan foydalangan holda, milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: yer uchastkasi, qishloq xo'jaligi yerlari, sug'oriladigan yerlar, yerdan foydalanish, yerni muhofaza qilish, yer qonunchiligini buzish, fermer xo'jaligi, qishloq xo'jaligi subyekti, kimyoviy zararlash, yuridik javobgarlik, jinoiy javobgarlik.

УГОЛОВНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА НАРУШЕНИЕ ПОРЯДКА ПОЛЬЗОВАНИЯ И ОХРАНЫ ЗЕМЕЛЬ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО НАЗНАЧЕНИЯ

Тухташев Хикматилла Исматиллаевич,
преподаватель кафедры «Экологическое право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье проводится научно-теоретический анализ вопроса об уголовной ответственности за нарушение законодательства в нашей стране и за рубежом, правил землепользования, связанных с использованием и охраной земель сельскохозяйственного назначения. Проанализирован вопрос об уголовной ответственности за загрязнение сельскохозяйственных орошаемых земель химическими и токсическими веществами или снижение плодородия почвы. Помимо законодательства, регулирующего деятельность сельскохозяйственных субъектов, были изучены нормативные документы, направленные на правовое регулирование земель сельскохозяйственного назначения. Предприняты

попытки решить вопрос об ответственности за нецелевое использование земель сельскохозяйственного назначения или нарушение порядка их передачи на основании земельного и уголовного законодательства. Ответственность за нецелевое использование земель сельскохозяйственного назначения и нарушение порядка их отвода фермерским хозяйствам предусматривалась на основании земельно-уголовного законодательства. Освещены вопросы, связанные с внедрением зарубежного опыта в национальное законодательство, по признанию землепользователей сельскохозяйственного назначения субъектами уголовной ответственности. Кроме того, исследован вопрос привлечения к уголовной ответственности за нарушение правил землепользования сельскохозяйственного назначения на основе опыта Эстонии, Испании, Германии, Китайской Народной Республики, Российской Федерации, США и ряда других стран. Предприняты попытки разработки предложений по совершенствованию национального законодательства с использованием передового опыта зарубежных стран.

Ключевые слова: земельный участок, земли сельскохозяйственного назначения, орошаемые земли, землепользование, охрана земель, нарушение земельного законодательства, фермерское хозяйство, сельскохозяйственный субъект, химический вред, юридическая ответственность, уголовная ответственность.

CRIMINAL LIABILITY FOR VIOLATION OF THE PROCEDURE FOR THE USE AND PROTECTION OF AGRICULTURAL LAND

Tukhtashev Khikmatilla Ismatillaevich,
Lecturer of Environmental Law Department of
Tashkent State University of Law

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the issue of criminal liability for violation of domestic and foreign legislation, rules of using land related to the use and protection of agricultural land. The issue of criminal liability for contaminating agricultural irrigated lands with chemicals and toxic substances or lowering soil fertility was analyzed. In addition to the legislation governing the activities of agricultural entities, normative documents aimed at the legal regulation of agricultural land were studied. Liability for misuse of agricultural land and violation of the procedure for its allocation was covered in accordance with land and criminal law. Issues related to the introduction of foreign experience into national legislation on the recognition of agricultural land users as subjects of criminal liability are highlighted. In addition, the issue of criminal liability for violations of the rules for agricultural land use is analyzed based on the experience of Estonia, Spain, Germany, People's Republic of China, Russian Federation, the United States and a number of other countries. Attempts were also made to develop proposals for the improvement of national legislation, using the best practices of foreign countries.

Keywords: land plot, agricultural land, irrigated land, land use, land protection, violation of land legislation, farming, agricultural entity, chemical harm, legal liability, criminal liability.

Kirish

Ma'lumki, Yevropa mamlakatlari-ning yerlarni muhofaza qilishga oid jinoyat qonunchiligi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidan sezilarli darajada farq qiladi. Shu jihatdan yer qonunchiligini buzganlik uchun yuridik javobgarlik tizimida jinoyat-huquqiy javobgarlik alohida

ahamiyatga ega. Yer qonunchiligini buzganlik uchun jinoyat-huquqiy javobgarlik shaxs tomonidan jinoyat qonunida ko'zda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgan hollarda kelib chiqadi [1]. Ma'lumki, jinoiy huquqbuzarliklar jamiyat uchun xavflilik darajasi yuqoriligi va shunga muvofiq ushbu toifa huquqbuzarliklar uchun davlat majburlov

chorasining og'irroq turi qo'llanilishi bilan ajralib turadi.

Material va metodlar

Mazkur maqola doktrinal tadqiqot sifatida qonun hujjatlari va ilmiy-nazariy manbalar tahlilini o'z ichiga oladi. Maqolada qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishda yer qonunchiligini buzganlik uchun jinoiy huquqiy javobgarlik masalasi hamda uning yuridik tabiati va ularning rivojlanishi bilan bog'liq masalalar milliy va xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida o'rganilgan. Tadqiqotda ilmiy-nazariy tahlil, tarkibiy-mantiqiy, qiyosiy-huquqiy, statistik, tavsifiy, tizimli hamda ilmiy bilishning dialektik usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Yer qonunchiligini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik masalasi, avvalo, yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishga qaratiladi. Shu jihatdan har qanday davlat ishlab chiqarishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi yerlari birlamchi ahamiyatga ega. Binobarin, qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikni jinoyat qonunchiligida belgilash orqali yer unumdorligini saqlash va uni muhofazalash vazifasini bajaradi.

Jumladan, Ispaniya Jinoyat kodeksida ekologik jinoyatlarga bag'ishlangan alohida bob yo'q. Tabiiy resurslar yoki atrof-muhitga tajovuz qiluvchi qilmishlar turli boblarga bo'lingan. Uning 3-bobi "Tabiiy resurslar va atrof-muhitga qarshi jinoyatlar", 4-bobi "Flora va faunani muhofaza qilish bilan bog'liq jinoyatlar", 16-bo'limi "Hududlarni boshqarish hamda tarixiy meros va atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq jinoyatlar"ga bag'ishlangan [2].

Ispaniya JKda bevosita qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan norma mavjud emas. Shuningdek, Ispaniya Jinoyat kodeksining Tabiiy resurslar va atrof-muhitga qarshi jinoyatlar bo'yicha 3-bobi 325-moddasida atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi

qonun va boshqa umumiy qoidalarni buzib, bevosita yoki bilvosita nurlatish, tuproqni zararlash, ajratib olish yoki ekskavatsiya, ko'chirish, shovqin, chiqindi chiqarish bilan shug'ullansa, jazo tayinlanishi ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, Ispaniya Jinoyat kodeksining 319-moddasi alohida qimmatga ega, ya'ni bu modda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda o'zboshimchalik bilan qurilishlardan himoya qilishga bag'ishlangan bo'lib, mazkur normaning birinchi bandiga asosan, "quruvchilar, loyihachilar yoki texnik direktorlar yo'l qurish, yashil hudud barpo etish uchun mo'ljallangan, davlat mulkida bo'lgan yoki qonun yoxud ma'muriy tartibda manzarali, ekologik, badiiy, tarixiy yoki madaniy qimmatga ega bo'lgan yoki shu kabi asoslarda alohida muhofaza qilinadigan yerlarda ruxsatsiz qurilishni amalga oshirganliklari uchun javobgar bo'ladilar" [3].

Ispaniya jinoyat qonunchiligining yana bir o'ziga xos jihati – bu unda yuridik shaxslarning jinoiy qilmishlari uchun javobgarlik belgilanganligidir. Ispaniya Jinoyat kodeksining 31-moddasi birinchi qismiga ko'ra, yuridik shaxslar ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda o'z nomidan yoki ularning nomidan, ularning manfaatlarini ko'zlab, qonuniy vakillari va boshqaruvchilari tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun de-fakto yoki de-yure jinoiy javobgarlikka tortiladilar [4]. Mazkur masala yuzasidan shuni ta'kidlab o'tish kerakki, O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi yuridik shaxslarni jinoyat subyekti sifatida tan olmaydi hamda shaxsiy, jismoniy shaxslarning jinoiy javobgarligini belgilaydi. Fikrimizcha, ekologik, shu jumladan yer sohasidagi jinoyatlar bo'yicha jinoiy javobgarlik chorasi tariqasida yuridik shaxslarga jarima, zararli faoliyatni to'xtatish, yetkazilgan zararni aslida (naturada) qoplash, faoliyatni qayta ixtisoslashtirish kabilarni belgilash ekologik jinoyatlarga qarshi kurashning istiqbolli yo'li hisoblanadi [5]. Shu jihatdan mazkur masalada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi-

da ham ekologik jinoyatlar, ayniqsa, qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanuvchi yuridik shaxslarning javobgarligini belgilash qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish va muhofazalash choralarini oshirishga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish va muhofaza qilish yuzasidan statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, birgina 2020-yil davomida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agroinspeksiya tomonidan yerga oid huquqbuzarliklarni aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tadbirlar asosida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan 2 071 ta holatda (2302 ga) yer maydonlari o'zboshimchalik bilan egallab olinib, noqonuniy uy-joy va boshqa qurilishlar qurib olingan. 115 ta holatda (1488 ga) yer berish tartibi buzilgan, 124 ta holatda (134 ga) foydalanilgan yerlar o'z vaqtida qaytarilmagan, 328 ta holatda (9 230,7 ga) xo'jalik ichki yer tuzish loyihalaridan chetga chiqib, davlat yer kadastri ma'lumotlari buzib ko'rsatilgan. Shu kabi 1096 ta holatda (224,2 ga) yerlar o'zboshimchalik bilan qishloq xo'jaligi muomalasidan chiqarilishi oqibatida davlatga 96,6 mlrd so'mlik zarar hisoblangan [6]. Albatta, yer qonunchiligini buzish natijasida davlatga yetkazilgan zarar miqdori qancha yuqori bo'lmasin, uni undirish bilan yerning unumdorligi yoki sifati saqlab qolinmaydi. Bu esa, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish va muhofaza qilish bilan bog'liq qonunchilik talablarini buzganlik uchun javobgarlik choralarini oshirish va uni qo'llash amaliyotini shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 4-martdagi "Yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga 197¹-modda kiritildi va unda sug'oriladigan yerlarni

o'zboshimchalik bilan egallab olishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachi tomonidan choralar ko'rmaslik, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa [7], jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilandi.

Shuningdek, 2021-yil 16-avgustdagi qonun bilan mazkur normaga o'zgartirish kiritildi: "Sug'oriladigan yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olishga yo'l qo'ymaslik, shu jumladan, yer uchastkasi o'zboshimchalik bilan egallab olinganligi fakti to'g'risida vakolatli organlarni xabardor etish bo'yicha yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachi tomonidan choralar ko'rmaslik, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa [8]", jinoiy javobgarlikka tortish tartibi belgilandi. Sug'oriladigan yerlar alohida qimmatga ega bo'lgan yerlar hisoblanadi, shu jihatdan qishloq xo'jaligida yerlarni muhofaza qilishda ular dan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik choralarini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan alohida qimmatga ega bo'lgan yerlarni muhofaza qilish masalasi boshqa bir qator Yevropa mamlakatlarida ham belgilangan. Xususan, bu borada xorijiy davlatlarda, jumladan, Estoniya Respublikasi Jinoyat kodeksi-ning 364-365-moddalarida [9] atrof tabiiy muhitni ifloslantirish bilan bog'liq normalar keltirilgan bo'lib, unda atrof-muhitni ifloslantirish tuproq unumdorligini tushirib yuborsa, unga nisbatan jinoiy javobgarlik darajasi oshirilishi mumkinligi belgilangan.

Xitoy Jinoyat qonunining 342-moddasiga ko'ra, qonunga xilof ravishda ekin yerlarini egallab olish va undan boshqa maqsadlarda foydalansa, shuningdek, yerning katta qismi- ni zararlasa, unga nisbatan jinoiy javobgarlik qo'llanilishi belgilangan. Shundan ko'rinib turibdiki, Xitoy Xalq Respublikasi Jinoyat qonunchiligida ham sug'oriladigan yerlar, ya'ni pirovardida qishloq xo'jaligiga mo'ljal-

langan yerning unumdor qatlami hisoblangan tuproqni muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratilgan.

1949-yil 23-maydagi Germaniya Federativ Respublikasi Asosiy qonunining 15-moddasi yer, tabiiy boyliklar va ishlab chiqarish vositalari jamoalashtirish maqsadida jamoa mulkchiligiga berilishi mumkinligi ko'zda tutilgan [10]. GFRning 1871-yil 15-maydagi Jinoyat kodeksida esa ekologik jinoyatlar "Atrof-muhitga qarshi jinoiy qilmishlar" deb nomlangan 28-bo'limda aks etgan [11]. GFR Jinoyat kodeksining 324a-paragrafi "Tuproqni ifloslantirish" deb nomlanadi [12]. Avstriya Jinoyat kodeksidan (180-paragraf) ham shu kabi modda o'rin olgan [13]. Shunday qilib, jinoyat qonuni nomida jinoyat predmetini yanada aniqlashtirish huquqni qo'llovchiga tajovuz predmetini yanada aniqroq belgilash imkonini beradi.

GFR Jinoyat kodeksining "Tuproqni ifloslantirish" deb nomlangan 324a-paragrafi quyidagicha bayon etilgan: "Ma'muriy-huquqiy majburiyatlarni buzib, tuproqqa modda chiqarish, ularning singishiga yo'l qo'yib berish yoki chiqarish: 1) boshqa shaxs, hayvonot, o'simlikka yoki sezilarli qiymatga ega bo'lgan boshqa predmetga zarar yetkazadigan usulda sodir etilsa yoki 2) katta hajmda sodir etilsa, va shu bilan ularni ifloslantirsa yoki boshqacha usulda foydasiz o'zgartirsa, besh yilgacha ozodlikdan mahrum etish yoki pul jarimasi bilan jazolanadi". Germaniya qonunchiligi yer sohasidagi huquqbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlikka nafaqat jismoniy, balki yuridik shaxslar ham tortilishini belgilaydi [14].

AQShda atrof tabiiy muhit va yerlarni jinoyat-huquqiy muhofaza qilish masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, avvalambor, ta'kidlash lozimki, birinchidan, Amerika huquqi konsepsiyasi ekologik xavfsiz iqtisodiy rivojlantirish modelini amalga oshirishi bilan tavsiflanadi; ikkinchidan, umumiy holda atrof tabiiy muhitga va xususan, yerlarga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik yagona kodifikatsiya-

viy jinoyat-huquqiy hujjat bilan emas, balki huquqning tabiatni muhofaza qilish kompleks sohasi normalari bilan qamrab olingan [15].

AQSh ekologik qonunchiligi tizimida markaziy o'rinni 1969-yilda qabul qilingan va 1970-yil 1-yanvardan kuchga kirgan "Atrof-muhit sohasida milliy siyosat to'g'risida"gi Qonun egallaydi [16].

AQSh ekologiya huquqining o'ziga xos xususiyati shundaki, ushbu huquq sohasi, asosan, umumiy huquq normalariga asoslanadi. Umumiy huquq normalari normativ-huquqiy hujjatlar bo'lmagan yoki ularda umumiy huquqni qo'llash to'g'risidagi ko'rsatma bo'lgan hollarda to'g'ridan to'g'ri amalda bo'ladi. AQShda umumiy huquq normalari barobarida ekologiya huquqi predmeti bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga yo'naltirilgan qonunchilik hujjatlari ham amal qiladi. Ularning aksariyati AQSh Qonunlar majmuyining "Muhofaza", "Mineral resurslar yerlari va foydali qazilmalarni kavlal olish", "Kemachilik va kemachilik suvlari" kabi boblaridan o'rin olgan. Federal qonunchilik bilan bir qatorda alohida shtatlar qonunchiligi ham amal qiladi. Har bir shtat o'z vakolati doirasida ushbu shtat hududida bo'lgan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha qonunlar qabul qilishi mumkin.

AQShda yerlarni muhofaza qilishga oid ekologik normalar, asosan, bir nechta qonunchilik hujjatlarida jamlangan. Xususan, 1968-yilgi "Yovvoyi va rekreatsiyaviy daryolar to'g'risida"gi Qonunning 1286-paragrafida belgilanishicha, davlatga mulk va yerdan foydalanuvchilarning huquqlarini buzmaganda, yerlardan tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga muvofiq foydalanilishini nazorat qilish huquqi tegishlidir. 1965-yilgi "Yer va suv fondini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun rekreatsiya zonalarida yerlardan foydalanish tartibini o'rnatgan.

AQSh jinoyat qonunchiligining yana bir xususiyati – bu yuridik shaxslar (korporatsiyalar)ning jinoiy javobgarligi belgilangan-

ligidir. Xususan, Pensilvaniya shtati Jinoyat kodeksining “Tashkilotlar va ular bilan tegishli darajada bog‘liq shaxslarning javobgarligi” deb nomlangan 307-moddasiga binoan, korporatsiyalar jinoyat sodir etganligi uchun hukm qilinishi mumkin, bosharti:

- jinoyatda qonunchilikning to‘g‘ridan to‘g‘ri maqsadi korporatsiyaga majburiyat yuklash ko‘zda tutilgan bo‘lsa va faoliyat korporatsiya nomidan ish ko‘rayotgan uning vakili tomonidan o‘zining xizmat vakolati doirasida amalga oshirilgan bo‘lsa;

- jinoyat qonunga muvofiq bajarilishi bevosita korporatsiya zimmasiga yuklangan maxsus majburiyatlarni bajarmaslikda ifodalansa;

- sodir etilgan jinoyat Direktorlar kengashi yoki korporatsiya nomidan ish ko‘ruvchi oliy boshqaruv organi vakilining o‘z mansab yoki xizmat vakolati doirasidagi ehtiyotsizligi tufayli ruxsat etilgan, talab qilingan, buyruq berilgan, bajarilgan yoki yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa.

Qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish sohasida bugungi kunda Qishloq xo‘jaligi kooperativlari, agroklasterlar, fermerlar kooperativlari, fermer xo‘jaliklari faoliyati rivojlanib bormoqda. Albatta, mazkur xo‘jalik yurituvchi subyektlarning barchasi yuridik shaxs hisoblanib, yerdan foydalanuvchi hamda uni muhofaza qiluvchi sifatida e‘tirof etiladi. Shuningdek, yer uchastkalariga zararli moddalarni chiqarish va undan foydalanish qoidalarini buzish ham yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Shu nuqtayi nazardan, yer uchastkalaridan oqilona foydalanmaganlik, uni muhofazalash shartlariga rioya qilmaslik natijasida kelib chiqadigan og‘ir oqibatlar uchun qishloq xo‘jaligi subyektlarini jinoiy javobgarlikka tortishning huquqiy mexanizmlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosalar

Umuman olganda, GFR, Ispaniya, AQSh, XRR, shuningdek, Rossiya Federatsiyasi, Qirg‘iziston Respublikasi, Tojikiston, Qo-

zog‘iston, Ozarbayjon, Gruziya, Estoniya kabi davlatlarning yerlarni jinoyat-huquqiy muhofaza qilishga oid qonunchiligini o‘rganish ushbu davlatlar milliy qonunchiligida yer (tuproq)ga salbiy ta‘sir ko‘rsatishning oldini olishni taqiqlashning turli huquqiy mexanizmi belgilanganligini ko‘rsatadi. Ayni damda AQSh, Daniya, GFR, Ispaniya kabi bir qator davlatlarda ekologik jinoyatlar uchun yuridik shaxslarning javobgarligi belgilangan bo‘lib, fikrimizcha, ushbu ijobiy tajriba O‘zbekiston Respublikasining yer va jinoyat qonunchiligini takomillashtirishda foydali bo‘lishi mumkin.

Shundan kelib chiqqan holda aytish lozimki, yer sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikni takomillashtirishning yo‘nalishlaridan biri – bu yer sohasidagi jinoyatlar uchun yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini jazo chorasi sifatida yuklash istiqbolini o‘rganish bilan bog‘liq. Nazarimizda, ekologik jinoyatlar uchun jazoning asosiy maqsadi atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zararni real (naturation) qoplash, javobgarlikning boshqa turlari esa qo‘shimcha jazo bo‘lishi lozim.

O‘zR JK 196-moddasi bo‘yicha mahkumni sud qilib, uch yil ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilish atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zararni (yerga yetkazilgan zarar miqdorini) qoplashga zarracha ham yordam bermaydi. Shu bois O‘zR JKning ekologiya sohasidagi jinoyatlarga oid to‘rtinchi bo‘limini yetkazilgan zararni *naturada qoplash* kabi qo‘shimcha jazo turi bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq.

Tabiatga yetkazilgan zararni qoplash usullari yoki turlari sud hukmida ishning aniq holatlarini hisobga olgan holda belgilanishi lozim. Bunday shakllar sifatida: yer rekultivatsiyasi, uzoq yillik ijara shartnomasi asosida foydalanuvchi qishloq xo‘jaligi korxonalariga yer uchastkalarini konservatsiyalash, suvni tozalash ishlarini amalga oshirish, zaharlangan suv havzasini tozalash va keyinchalik baliqlar bilan to‘ldirish, yerni ifloslantirish natijasida zarar ko‘rgan hayvonot

yoki o'simlik dunyosi obyektlarini ko'paytirish kabi javobgarlik turlarini belgilash yerdan foydalanish yoki ekologik qonunchilikni buzgan shaxslarni tarbiyalash uchun samarali natija berishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 40-moddasi yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdorining majburiyatlaridan biri sifatida foydali qazilma konlarini ishlatish, qurilish va boshqa ishlarini amalga oshirish uchun berilgan qishloq xo'jaligi yerlari va o'rmonzorlarni ularga ehtiyoj qolmaganidan keyin o'z hisobidan qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi yoki baliq xo'jaligida foydalanish uchun yaroqli holatga, mazkur ishlar boshqa yerlarda amalga oshirilgan holatlarda esa belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holatga keltirishni ko'zda tutadi. Biroq ushbu norma muammoni to'liqligicha hal etmaydi, chunki yerni ifloslantirish jinoyati jarayonida faqatgina yer uchastkasi emas, balki boshqa, yer qonunchiligi tatbiq etilmaydigan atrof tabiiy muhit obyektlari ham zarar ko'rish mumkin.

Bizning fikrimizcha, sud tomonidan yetkazilgan zararni natura shaklida qoplashning asosiy yoki qo'shimcha jazo sifatida qo'llanilishi buzilgan yerlarning tez va real qayta tiklanishiga imkon beradi.

Shu bois O'zR JKni 52¹-modda bilan to'ldirishni taklif qilamiz:

***"52¹-modda. Yetkazilgan zararni natu-
ra holatida qoplash majburiyatini yuklash***

Yetkazilgan zararni natura holatida qoplash majburiyatini yuklash atrof tabiiy muhit, tabiiy obyektga yetkazilgan zararni bevosita qoplash orqali amalga oshiriladi.

Yetkazilgan zararni natura holatida qoplash shakli (yer rekultivatsiyasi, konservat-

siya, suv havzasida baliq ko'paytirish, daraxt yetishtirish va h.k.) sud tomonidan belgilanadi.

Yetkazilgan zararni natura holatida qoplashning imkoni bo'lmasa, sud yetkazilgan zararni o'z mablag'lari hisobidan qoplash majburiyatini yuklashi mumkin".

Bu boradagi xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida yer sohasidagi munosabatlarini jinoyat-huquqiy muhofaza qilishga qaratilgan alohida modda o'rin olganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Jumladan, Qirg'iziston Respublikasi Jinoyat kodeksi-ning 26-bobida 15 ta jinoyat tarkibi qamrab olingan [17]. QR JK 273-moddasi "Yerni buzish" deb nomlangan bo'lib, uning ikkinchi qismida yerlarni rekultivatsiya qilish talablarini bajarmaslik oqibatida tuproqning unumdor qatlamini buzish, basharti, qishloq xo'jaligi muomalasidagi yerning ekologik favqulodda holat hududiga o'tishiga sabab bo'lsa, jarima yoki ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanishi belgilangan. Demak, Qirg'iziston Respublikasi JKda qishloq xo'jaligi ahamiyatidagi yerlar alohida jinoyat-huquqiy muhofaza ostiga olinganligi va bu iqtisodiyotning agrar sektorini rivojlantirish ustuvor yo'nalish hisoblangan davlatga tatbiqan to'g'ri yo'nalish, degan xulosaga kelish mumkin [18].

Bundan tashqari, bugungi kunda qishloq xo'jaligi yerlarini o'zboshimchalik bilan egalab olish hamda u yerda bino va inshootlar qurilishining oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksining tegishli moddalarida belgilangan javobgarlik masalalari uchun sanksiyalarni oshirish orqali qishloq xo'jaligi yerlaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilishga erishish mumkin.

REFERENCES

1. Usmanov M.B. Pravovoe regulirovanie vnutrixozyaystvennogo zemlepolzovaniya kolxozov [Legal regulation of on-farm land use of collective farms]. Tashkent, Adolat, 1993, 130 p.

2. Criminal Code of Spain 1995. English translation as of 2013. Available at: https://www.legislationline.org/download/id/6443/file/Spain_CC_am2013_en.pdf/.
3. Vinogradova Ye. Yuridicheskie litsa doljniy nesti otvetstvennost za ekologicheskie prestupleniya [Legal entities should be held liable for environmental crimes]. *Rossiyskaya yustitsiya – Russian justice*, 2001, no. 8.
4. Kurisina Ye. Yuridicheskie litsa kak orudiya prestupleniya [Legal entities as instruments of crime]. *Rossiyskaya yustitsiya – Russian justice*, 2001, no. 2.
5. Kvartal'nyye i godovyye otchety po vypolnennym rabotam so storony inspektsii [Quarterly and annual reports on the work performed by the inspection]. Available at: <https://agroinspeksiya.uz/uz/menu/kvartalnye-i-godovye-otchety-po-vypolnennym-rabotam-so-storony-inspektsii/>.
6. Nikiforov A.S. Yuridicheskoe liso kak subyekt prestupleniya [Legal fox as a subject of crime]. *Gosudarstvo i pravo – State and law*, 2000, no. 8.
7. Sidorenko A.Yu. Sovershenstvovanie zakonodatelstva ob otvetstvennosti za zemelnie pravonarusheniya [Improving legislation on liability for land offenses]. *Yurist – Lawyer*, 1999, no. 8.
8. Criminal Code of Denmark (as of 2005). (In English). Available at: <https://www.legislationline.org/documents/section/criminal-codes/country/33/Denmark/show/>.
9. Rotsh T. Teoreticheskie problemiy ugolovno-ekologicheskogo prava – vzglyad iz Germanii [Theoretical problems of criminal and environmental law – a view from Germany]. *Gosudarstvo i pravo – State and law*, 2007, no. 2.
10. Criminal Code of the Federal Republic of Germany (1971, as amended 2019) (English version). Available at: https://www.legislationline.org/download/id/8253/file/Germany_CC%20am2019_de.pdf/.
11. Code of Criminal Procedure of the Republic of Austria (1975, amended 2019) (German version). Available at: https://www.legislationline.org/download/id/8549/file/Austria_CPC_1975_am122019_de.pdf/.
12. Sharipkulova A.F. Sravnitelnyy analiz nekotorykh norm ob otvetstvennosti za ekologicheskie prestupleniya po UK RF i UK stran bliznego zarubejya [Comparative analysis of some norms on liability for environmental crimes under the Criminal Code of the Russian Federation and the Criminal Code of neighboring countries]. Five years of operation of the Criminal Code of the Russian Federation: results and prospects. Proceedings of the 11th International Scientific and Practical Conference, held at the Faculty of Law of Moscow State University named after M.V. Lomonosov 2002, May 30-31. Moscow, 2003.
13. Krasnova I.O. Ekologicheskoe pravo i upravlenie v SShA [Environmental Law and Governance in the United States]. Moscow, 1992.
14. Soedinennye shtaty Ameriki: Konstitutsiya i zakonodatelnye aktii [United States of America: Constitution and Legislation]. Translation from English. Compiled by V.I. Lafitsky. Moscow, 1995. Available at: <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/568/>.
15. Fatkuln S.T. Ugolovno-pravovaya oxrana zemli ot porchi [Criminal law protection of land from damage]. PhD thesis. Yekaterinburg, 2005.
16. Vinogradova V.Ye. Prestupleniya protiv ekologicheskoy bezopasnosti [Crimes against environmental safety]. Doctor's degree dissertation. Stavropol, 2001.
17. Skripnikov N., Mirzaabdullaeva M. Pravovoe obespechenie nauchnix issledovaniy v agrarnom sektore [Legal provision of scientific research in the agricultural sector]. *Review of law sciences*, 2018, no. 2. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovoe-obespechenie-nauchnyh-issledovaniy-v-agrarnom-sektore/> (accessed 07.03.2022).
18. Tukhtashev H.I. Razvitiye chastnoy sobstvennosti na zemel'nykh uchastkakh: nauchno-teoreticheskiy analiz [Development of private property on land plots: scientific and theoretical analysis]. *Review of law sciences*, 2020, no. 1, pp. 88-94. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitiye-chastnoy-sobstvennosti-na-zemelnyh-uchastkah-nauchno-teoreticheskiy-analiz> (accessed 07.03.2022). DOI: 10.24412/2181-1148-2020-1-88-94/.

UDC: 343.2

OXIRGI ZARURAT HOLATIDA SODIR ETILGAN QILMISHNI BAHOLASHNING JINOYAT-HUQUQIY JIHATLARI

Jumanazarova Marjona Botir qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0000-0001-9413-7777
e-mail: botirqizi@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada oxirgi zarurat holatida sodir etilgan qilmishning o'ziga xosligi va uni baholashning jinoyat-huquqiy jihatlari o'rganildi. Oxirgi zarurat holatida sodir etilgan qilmishni baholash masalalari yuzasidan milliy jinoyat huquqi doirasida chuqur ilmiy izlanishlar bugungi kunda mavjud bo'lmaganligi hamda ushbu ilmiy maqolada aks ettirilgan fikrlar ilmiy qarashlar sifatida o'rin olganini hisobga olib, ushbu tadqiqot ishida, asosan, qiyosiy-huquqiy tahlil metodidan foydalanildi. Shu bilan birga, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llanildi. Oxirgi zarurat chegarasidan chiqishning tarkibini tahlil qilish orqali ushbu qilmishga huquqiy baho berish masalalari yoritildi. Shuningdek, umumiy subyekt va maxsus subyektning farqli tomonlariga e'tibor qaratildi. Qilmishni aybning qasd va ehtiyotsizlik shakllarida sodir etish hollarida oxirgi zarurat holatiga qay tartibda baho berish masalasi muhokama qilindi. Muvaffaqiyatsiz amalga oshirilgan oxirgi zarurat bilan oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish turli tushunchalar ekanligi isbotlab berildi. Maqolada keltirilgan nazariy xulosalar huquqshunos olimlarning qarashlarini o'rganish asosida olindi. Faktik xato natijasida sodir etilgan qilmishga huquqiy baho berishda e'tibor qaratish lozim bo'lgan holatlar bayon qilindi. Maqolada keltirilgan fikrlarni asoslashda Germaniya, Shveysariya, San-Marino, Ispaniya, Polsha, Yaponiya, Belarus kabi xorijiy davlatlar qonunchiligidagi oxirgi zaruratga bag'ishlangan normalar tahlil qilindi va O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunidagi tegishli normaning takomillashtirilishi uchun nazariy hamda amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: oxirgi zarurat, maxsus subyekt, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, jazodan ozod qilish, yuridik xato, xavf, huquqiy baho.

УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ОЦЕНКИ ДЕЯНИЯ, СОВЕРШЕННОГО В СОСТОЯНИИ КРАЙНЕЙ НЕОБХОДИМОСТИ

Жуманазарова Маржона Ботир кизи,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье исследуются особенности деяния, совершенного в состоянии крайней необходимости, и уголовно-правовые аспекты его оценки. Учитывая, что в настоящее время в области отечественного уголовного права не проводилось глубоких научных исследований по вопросам оценки деяний, совершаемых в состоянии крайней необходимости, данное исследование в основном носит характер сравнительно-правового анализа. При этом использовались методы наблюдения, обобщения, индукции и дедукции. Вопросы правовой оценки данного деяния выявлены путем анализа состава превышения пределов крайней

необходимости. Внимание было уделено различным аспектам понятий общего субъекта и специального субъекта. Обсуждался вопрос о том, как оценивать крайнюю необходимость в случае умышленной и неосторожной формы вины. Доказано, что превышение пределов крайней необходимости и неудавшаяся крайняя необходимость – это разные понятия. Изучив мнения ученых-правоведов, были сделаны теоретические выводы. Указаны обстоятельства, которые необходимо учитывать при правовой оценке деяния, совершенного в результате фактической ошибки. В обосновании взглядов, высказанных в статье, проанализированы нормы о крайней необходимости в законодательстве ряда зарубежных стран, таких как Германия, Швейцария, Сан-Марино, Испания, Польша, Япония, Беларусь, и разработаны теоретические и практические предложения и рекомендации по совершенствованию соответствующих норм Уголовного кодекса Республики Узбекистан.

Ключевые слова: крайняя необходимость, специальный субъект, освобождение от уголовной ответственности, освобождение от наказания, юридическая ошибка, риск, правовая оценка.

CRIMINAL LEGAL ASPECTS OF THE EVALUATION OF THE ACTION COMMITTED IN A STATE OF EXTREME NECESSITY

Zhumanazarova Marjona Botir kizi,

Independent Researcher of Tashkent State University of Law

Abstract. This article examines the features of an act committed in a state of extreme necessity and the criminal legal aspects of its assessment. It is mentioned in the article that at present, in the field of domestic criminal law, there have been no in-depth scientific studies on the assessment of acts committed in a state of emergency, and comparative legal analysis is used in the article. The issues of legal assessment of this act have been identified by analyzing the composition of exceeding the limits of extreme necessity. Attention was also paid to various aspects of the general subject and the special subject. The question of how to assess the extreme necessity in the case of willful and reckless guilt was discussed. It has been proven that exceeding the limits of extreme necessity and failed extreme necessity is a different concept. Having studied the opinions of legal scholars, the theoretical conclusions have been made. The circumstances of taking the legal assessment of an act committed as a result of an error of fact into account are indicated. In support of the views expressed in the article, in the legislation of foreign countries, such as Germany, Switzerland, San Marino, Spain, Poland, Japan, Belarus, were analyzed and theoretical and practical proposals and recommendations for improving the relevant norms of the criminal code of the Republic of Uzbekistan have been developed.

Keywords: extreme necessity, special subject, exemption from criminal liability, exemption from penalty, legal error, risk, legal assessment.

Kirish

Huquqiy baholash ijtimoiy-huquqiy hodisaning mazmunini shaxsning tegishli xulq-atvorini tartibga soluvchi huquqiy normaning mazmuni bilan bog'lash jarayoni sanalishini inobatga olgan holda [1, 428-b.], qilmishga baho berish uchun, avvalo, oxirgi zarurat normasi mustahkamlangan JK normasining ma'lum bir holat

yuzasidan targ'ib qilinishini o'rganish lozim deb hisoblaymiz.

Oxirgi zarurat subyekti tomonidan oxirgi zaruratning qonuniylik shartlariga rioya qilinganligi qilmishning jinoiyligini istisno etuvchi holatning mavjudligini ko'rsatadi. Agar ushbu shartlarga rioya qilinmasa, oxirgi zarurat chegarasidan chiqish yuzaga keladi yoki shaxsning qilmishida aybning qasd shak-

li mavjudligi unga nisbatan jinoiy javobgarlik kelib chiqishiga asos bo'ladi. Oxirgi zarurat bo'lmagan hollarda sodir etilgan qilmishning jinoiy oqibati faktik xato mavjudligini yoki oxirgi zaruratning qasddan yuzaga keltirilganini ko'rsatishi mumkin. Jinoyat-huquqiy himoya obyektiga zarar yetkazish uchun qasddan xavfli vaziyatni yaratish, shuningdek, oxirgi zarurat sifatida vaziyatni noto'g'ri idrok etish tufayli sodir etilgan xatti-harakatlarini baholash qoidalarini o'rganish masalaga huquqiy baho berish uchun muhimdir.

Material va metodlar

Oxirgi zarurat holatida sodir etilgan qilmishni baholash masalalari yuzasidan milliy jinoyat huquqi doirasida chuqur ilmiy izlanishlar bugungi kunda mavjud bo'lmaganligi hamda mazkur ilmiy maqolada aks ettirilgan fikrlar mavzu yuzasida dastlabki ilmiy qarashlar sifatida o'rin olganini hisobga olib, ushbu tadqiqot ishida, asosan, qiyosiy-huquqiy tahlil metodidan foydalanildi. Shu bilan birga, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari

Oxirgi zaruratning xususiyatlarini chuqur tahlil qilish uchun uning obyektiv va subyektiv belgilarini aniqlab olish lozim deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasi JKning 2-moddasida jinoyat qonuni bilan muhofaza qilingan obyektlar sanab o'tilgan bo'lib, unga ko'ra, shaxs, uning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulk, tabiiy muhit, tinchlik, insoniyat xavfsizligi jinoyat qonuni himoyasidadir. Demak, mazkur obyektlarni himoya qilishda oxirgi zarurat huquqidan foydalanish to'g'ri bo'lgan bo'lar edi.

Oxirgi zarurat subyektiga to'xtaladigan bo'lsak, aytish mumkinki, oxirgi zaruratning ham, oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqishning ham subyekt har qanday shaxs bo'lishi mumkin. Biroq subyekt har qanday shaxs bo'lishi mumkin degan nuqtayi nazarga aniqlik kiritish lozim deb hisoblaymiz. Bun-

da xuddi shu harakatlar oqibatida zarar yetkazilganida, oxirgi zarurat holati bo'lmagan vaziyatda jinoyat subyekt bo'la oladigan shaxs haqida so'z yuritish lozim. Negaki, aslida, jinoyat subyekt bo'lmagan shaxsning (jinoyat subyekt yoshiga yetmagan, aqli noraso) ijtimoiy xavfli qilmishini jinoyat deb baholab bo'lmaydi. Xulosa qilish mumkinki, oxirgi zarurat holatida sodir etilgan qilmishning ham jinoiyligini istisno etib bo'lmaydi (aslida, jinoyat tarkibi bo'lmasa, jinoyatni qanday qilib istisno qilish mumkin?).

Y.V. Baulinning fikricha, "Oxirgi zarurat subyekt umumiy subyekt, ya'ni shaxs, jamiyat yoki davlat manfaatlariga tahdid soluvchi xavfqa qarshi kurashish uchun maxsus yuridik burch yoki rasmiy majburiyati bo'lmagan shaxs" [2, 308-b.] hisoblanadi.

X.R. Ochilov jinoyatning maxsus subyektiga ta'rif berar ekan, uning muayyan sifat-larga ega bo'lgan shaxs sifatida aniqlanishi hamda umumiy subyektning xususiyatlari bilan birga, boshqa bir belgilarining ham mavjud bo'lishi talab qilinadigan subyekt [3, 48-b.] ekanligini ta'kidlaydi. Shundan kelib chiqib, oxirgi zarurat holatida maxsus subyekt huquq-tartibot obyektlariga zarar yetkazishga tahdid soluvchi har qanday xavfning oldini olish, shuningdek yuz bergan zarar oqibatlarini bartaraf etish kabi vazifalar xizmat va kasbiy burchi bo'lgan subyektdir, deyish mumkin.

Oxirgi zarurat fuqarolarning huquqi, lekin majburiyati emas. Biroq ayrim hollarda, agar shaxsga muayyan vaziyatlarda tegishli choralar ko'rish mas'uliyati yuklangan bo'lsa, bu huquq majburiyatga aylanadi [4, 386-b.]. Ayrim xizmat qismlarida (masalan, ichki ishlar organlari, o't o'chirish xizmati, qutqaruv xizmati xodimlari va h.k.) ijtimoiy munosabatni har qanday tajovuz yoki xavfdan himoya qilish ularning majburiyati hisoblanadi va o'zlariga yuklatilgan xizmat majburiyatini bajarmagan taqdirda javobgarlik yuzaga keladi [5, 353-b.]. Favqulodda vaziyatlarda alohida vazifalar yuklatilgan

shaxsning maqomi, vakolatlari, huquq va majburiyatlari hamda javobgarlik masalalari idoraviy normativ hujjatlar, buyruqlar va nizomlarda belgilanadi.

Masalan, yong'in xavfsizligi xizmati xodimlari uchun o't o'chirishning o'z vaqtida amalga oshirilmasligi natijasida yuz berishi mumkin bo'lgan xavfning oldini olish imkoni bo'lmaganligi ular uchun javobgarlik holatini keltirib chiqaradi. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2010-yil 12-iyundagi 66-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Yong'indan saqlash xizmati bo'linmalari tomonidan yong'inlarning o'chirilishini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi nizomda yong'in eng jadal kechayotgan qismda yong'in o'chirish ekipajining harakatlari olib borilishi bo'yicha qoidalar belgilangan bo'lib, nizomning 101-bandiga ko'ra, mazkur nizom talablarini buzganlikda aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Qandaydir xavfni bartaraf etish yoki bunday xavf natijasida kelib chiqqan zararining tiklanishini ta'minlaydigan maxsus vakolatli shaxslar ko'pincha o'zlariga tan jarohati yetish xavfi yoki hayotidan mahrum bo'lish xavfi ostida bo'ladilar. A.A. Aryamov va M.A. Yakunkovning ta'kidlashicha, qonun chiqaruvchi organ bir qator vaziyatlarda qonunda turli toifadagi fuqarolarning jinoiy javobgarligini belgilab, xavf-xatarni chetlab o'tmaslik majburiyatini yuklashi ham mumkin (masalan, jangovar operatsiyalar paytida harbiy xizmatchiga) [6, 107-b.]. Ispaniya [7, 18-b.], Polsha [8, 17-b.], Yaponiya [9, 51-b.]da bu qoidalar JKning oxirgi zaruratga oid normasida belgilab qo'yilgan.

Maxsus subyektlar o'zlariga tan jarohati yetish xavfi yoki hayotidan mahrum bo'lish xavfi ostida bo'lsalar, A.M. Pleshakovning fikriga ko'ra, rasmiy majburiyatlardan chetga chiqish oqlanadi [10, 24-b.]. Bizningcha, bunday hollarda qonunchilikda qay hollarda oxirgi zarurat sharoitida harakatlanish bo'yicha norma belgilanishi maqsadga mu-

vofiq bo'lar edi. Tahlil qilinayotgan vaziyatdan kelib chiqib, maxsus subyekt uchun quyidagi hollardagina oxirgi zarurat qoidalariga murojaat qilish mumkin, degan fikrni ilgari suramiz:

1) shaxsning xavfni bartaraf etish uchun o'zini qurbon qilishi maxsus normalarda belgilanmagan bo'lsa;

2) favqulodda vaziyatda harakat qilgan shaxsning o'zi yordamga muhtoj holatda bo'lmasa.

G.F. Xametdinovanning fikricha, subyektning turiga qarab, harakatlarning huquqiy tabiati va shunga mos ravishda amalga oshirilgan ishlarning huquqiy bahosi ham o'zgaradi [11, 126-b.]. Umumiy subyekt uchun oxirgi zarurat vaziyati zararining oldini olish huquqini yuzaga keltirsa, maxsus subyekt uchun bu kabi holat majburiyat hisoblanib, uni bajarmaslik jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi mumkin. Demak, maxsus subyekt tomonidan oxirgi zarurat holatida sodir etilgan qilmishga jinoiy-huquqiy baho berish uning o'z xohishi bilan emas, balki uning kasbiy burchi bo'lgan lavozim tavsifi asosidagi harakatlarini baholash bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Oxirgi zaruratning subyektiv tomoni bilan bog'liq savollarni to'g'ri hal etishda yuridik adabiyotlarda turli, ba'zan bir-biriga zid takliflar berilgan. Bu shaxsning oxirgi zarurat holatida psixologik holatini baholashdagi muayyan qiyinchiliklar bilan bog'liqdir.

N.V. Lisak, "Agar oxirgi zarurat holatida zarar yetkazuvchining harakatlarida aybning ehtiyotsizlik shakli (beparvolik yoki o'z-o'ziga ishonish) mavjud bo'lsa, bunday harakatlari jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak" [12, 22-b.], degan fikrni bildirgan.

Bizningcha esa yetkazgan zarari xavfning oldini olish uchun zarur bo'lgan oxirgi chora emasligini bilgan shaxsning qilmishi oxirgi zarurat sifatida tan olinishi mumkin emas, oxirgi zarurat bo'lmas ekan, demak, uning chegarasidan chetga chiqish deb topilishi ham mumkin emas.

Oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish faqat aybning ehtiyotsizlik shakli bilan tavsiflanadi. Agar shaxs sodir etgan harakatlari qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yeta turib, ehtiyotkorlik chora-tadbirlariga ongli ravishda rioya etmagan holda, bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qilgan bo'lsa yoki o'z harakatlari qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yetmasa-da, lekin ko'zi yetishi lozim va mumkin bo'lsa, oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish sifatida baholanadi.

Ba'zi olimlarning fikricha, oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish aybning qasd shakli bilan ham ifodalanishi mumkin [11, 128-b.]. Biz yuqoridagi fikrga qo'shilmaymiz. Sababi shundaki, qasdning ham to'g'ri, ham egri turlari mavjud bo'lib, qasdning to'g'ri shaklida shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishini istagan holatda oxirgi zarurat mavjud bo'lishi mumkin emas, demak, uning chegarasidan ham chiqib bo'lmaydi. Bunday holat alohida qasddan sodir etilgan jinoyat sifatida baholanmog'i kerak.

Biroq egri qasdda shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishiga ongli ravishda yo'l qo'yg'an vaziyatda oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish mavjud bo'lishi mumkin.

Oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqib, jinoyat sodir etilganda, shaxs, odatda, xavf tahdidi sababli kuchli hissiy hayajonlanish holatida bo'ladi va bunday vaziyatda o'z harakatlarini nazorat qila olmaydi. Shu sababli ham oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqishning xavfililik darajasi boshqa jinoyatlarga qaraganda ancha kam deyish mumkin.

Shuningdek, oxirgi zarurat holatida sodir etilgan harakat deb hisoblanishi hamda qilmishning jinoiyligi istisno etilishi uchun tahdid solayotgan xavfning oldi olingan bo'li-

shi lozim. Xavfni bartaraf etish uchun zarar yetkazilgan, lekin xavf yuzaga kelishidan qochishning imkoni bo'lmagan vaziyatlar JKning 38-moddasi bilan tartibga solinmaydi va bu harakatlar oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish deb topiladi. Fikrimizcha, ijtimoiy foydali maqsad uchun xavfning oldini olishga qaratilgan sa'y-harakatlariga qaramay shaxsda xavfning oldini olish imkoni bo'lmagan vaziyatga jinoyat-huquqiy baho berilishi kerak. Bunday vaziyatlarda JKning ayb bilan bog'liq normalarida belgilangan qoidalarga binoan harakat qilinadi, biroq agar davlat oxirgi zarurat holatida shaxsning xulq-atvorini ma'qullasa, bunday holatlarga jinoyat qonuni matnining o'zida ularga aniq baho berilishi kerak.

G.F. Xametdinovanning fikriga ko'ra, muvaffaqiyatsiz amalga oshirilgan oxirgi zarurat holatlarini oxirgi zarurat chegaralaridan chetga chiqish bilan bog'lash asossizdir [11, 123-b.].

S. A. Domaxin, agar xavf shaxsning barcha harakatlariga qaramasdan oldi olinishi mumkin bo'lmasa yoki tanlangan xavfni bartaraf etish yo'li yagona va zarur ekanligiga ishonish uchun yetarli asos bo'lsa, bu holatda zarar yetkazganlik uchun javobgarlik istisno qilinishi kerak [13, 59-b.], deb hisoblaydi.

Yuridik adabiyotlarda kamroq zarar yetkazish orqali ko'proq zarar yetkazishning oldini olishga intilgan shaxsning oxir-oqibatda yetkazgan kamroq zarari bilan birga oldi olinishi ko'zlangan xavfning ham yuz berishi vaziyatlarida shaxs javobgarligi masalasi tahlil qilingan bo'lib, bunday holatlar nazariyada "muvaffaqiyatsiz oxirgi zarurat" [14, 22-b.] deb nomlanadi. Bunday vaziyatni hal qilishda subyektning harakatlari motiviga, uning ro'y berayotgan xavfning oldini olish niyati yo'nalishiga ko'proq e'tibor qaratish kerak.

Masalan, cho'kayotgan odamni qutqarish uchun shaxs boshqa bir shaxsning qayig'ini olib, tezroq yetib borish uchun qayiqni yengillatib, undagi yukni tashlaydi, ammo qutqaruvchi unga yordam berishga ulgur-

masdan jabrlanuvchi cho'kib ketadi. Bunda shaxsning oldini olishga uringan zarari bu zarar kelib chiqishining oldini olish uchun qo'ldan kelgan barcha ishni qilgan taqdirda ham harakatlaridan qat'i nazar kelib chiqqan.

Biz mazkur fikrlarimiz, misolimiz bilan oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish hamda "muvaffaqiyatsiz oxirgi zarurat"ning boshqa-boshqa tushunchalar ekanligini ta'kidlamochimiz. Bizningcha, V.I. Morozov [15, 27-30-b.], N.V. Lisak [12, 56-b.], G.F. Xametdinova [16, 45-b.], Y.A. Vasik [17, 30-b.] kabi olimlarning bunday vaziyatlarda xavfning oldini olish maqsadiga erisha olmaslik, insonning muhimroq manfaatni saqlashga qaratilgan harakatlarining qonuniyligini istisno qilmasligi haqidagi fikrlari asoslidir. Shuning uchun oxirgi zarurat holatida harakat qilgan shaxs, agar bu harakat qonun nuqtayi nazaridan ijtimoiy foydali bo'lsa, uning obyektiv va subektiv sa'y-harakatlariga zid bo'lgan natijalar uchun javobgar bo'lmasligi kerak.

Tadqiqot natijalari tahlili

Xorijiy davlatlar jinoyat qonunida mazkur holatning tartibga solinganini Belarus Respublikasi JK 36-moddasi 2-qismida belgilangan "Xavfning oldini olish uchun qilingan harakatlar, agark, yaxshi niyat bilan xavfning oldini olishga umid qilgan odamning harakatlariga qaramay bu maqsadga erishmagan va zarar yetkazilgan bo'lsa ham, oxirgi zarurat holati deb tan olinadi" normasida ko'rish mumkin.

Shunday qilib, oxirgi zarurat holati haqida so'z yuritganda, zarar yetkazishni istamaslik haqida emas, balki ko'proq zarar yetkazishni istamaslik haqida gapirishimiz kerak. Y.V. Baulin ta'kidlaganidek, barcha holatlarda eksess oxirgi zaruratga imtiyozli jinoyat deb qaralishi kerak [2, 308-b.].

O'zbekiston Respublikasi JKda oxirgi zarurat chegarasidan chiqish natijasida shaxs o'limi yuz bergan yoki sog'lig'iga zarar yetkazilgan taqdirda imtiyozli (yengillashtiruvchi tarkibli) jinoyat shakli mavjud emas. Shuning

uchun aybdorning harakatlarini kvalifikatsiya qilish umumiy asosda amalga oshiriladi. Xuddi shunday oqibatlar zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib sodir etilgan hollarda esa qilmish JKning 97-yoki 104-moddalari bilan emas, balki 100-, 101-, 107-, 108-moddalari bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Obrazli qilib aytadigan bo'lsak, "omadsiz himoyachilarning taqdiri faqat hukm chiqarish bosqichida yengillashadi" [18, 151-b.] deganlaridek, oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqishda qasddan zarar yetkazish uchun jinoiy javobgarlik istisno etilmaydi, lekin bu holat jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida ko'rib, O'zbekiston Respublikasi JKning 55-moddasi 1-qismining "e" bandini – "oxirgi zaruratning asosli chegarasidan chetga chiqib jinoyat sodir etish"ni qo'llash orqali yengilroq jazo tayinlanishi mumkin.

Jinoyat huquqi nazariyasida oxirgi zaruratni aynan "oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish tarkibi" iborasini yuridik baholash muammosi mavjud. Bu atama yuridik atama sifatida subyektiv va obyektiv belgilarning mavjudligi jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'la olmasligi sababli qonun hujjatlarida uchramaydi. Qilmish jinoyat deb baholanishi uchun u O'zbekiston Respublikasi JKning muayyan normasida ifodalanishi kerak. Oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish mazkur belgilarga ega bo'lsa ham, uning uchun aynan norma Jinoyat qonunida keltirilmaganligi bunday holat yuz berganda, mavjud modda bo'yicha umumiy asoslarda javobgarlikka tortish zaruratini yuzaga keltirgan.

Biz O'zbekiston Respublikasi JKning 38-moddasi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishga muhtoj, degan fikrdamiz, shu bilan birga, biz O'zbekiston Respublikasi JKning maxsus qismiga oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqib, jinoyat sodir etishni nazarda tutadigan normalar kiritish taklifini rad etish

uchun hech qanday asos mavjud emas deb hisoblaymiz.

Eng ko'p sodir bo'ladigan holatlar sifatida oxirgi zarurat chegarasidan chiqqan holda odam o'ldirish, badanga og'ir tan jarohati yetkazish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normalar kiritish zarur deb hisoblaymiz.

Aybning ehtiyotsizlik shakliga oid jinoyat qonuni qoidalarini saqlab qolgan holda, oxirgi zarurat chegarasidan chiqib, qasddan zarar yetkazish holatlarida javobgarlik masalasini qayta ko'rib chiqishni taklif qilamiz.

O'zbekiston Respublikasi JK 38-moddasi 2-qismida shaxsning oxirgi zarurat holatida sodir etgan qilmishi, basharti, oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqilmagan bo'lsa, qonuniy deb topilishigina keltirilib, qilmishning subyekiv tomoni ochiq qoldirib ketilgan. Bunday qilmish qasddan yoki (to'g'ri va egri qasd ham holatda farqli yondashuvni talab qiladi) ehtiyotsizlik orqasidan sodir etilishi mumkin. Xuddi shunday vaziyatda ko'proq yoki teng darajada zarar yetkazish, agar shaxs aynan shunday zararining boshlanishini xohlasa, qasddan sodir etilgan jinoyat sifatida baholanishi kerak, chunki bu yerda kamroq zarar yetkazishga urinish mavjud emas.

Yana bir tahlil etilishi lozim masala bu – xayoliy oxirgi zarurat deb atalgan qonun bilan himoyalangan manfaatlarga zarar yetkazish bilan bog'liq harakatlarni xayoliy xavf ostida bajarish holatidir. Bunda jinoiy javobgarlik mavjud yoki yo'qligi masalasi faktik xatoning ayb shakliga ta'siri bo'yicha umumiy qoidalariga muvofiq hal etilishi lozim deb hisoblaymiz.

V.V. Orexov, agar o'sha vaziyatda shaxs xavfning mavjudligi haqidagi taxminlarining xatoligini anglab yetmagan va anglab yetishi mumkin ham bo'lmagan bo'lsa, jinoiy javobgarlik istisno qilinadi, degan fikrni ilgari surgan [19, 130-b.]. Boshqa olimlarning fikriga ko'ra [6, 105-b.; 20, 25-b.] esa xayoliy oxirgi zarurat holatida sodir etilgan qilmishni jinoiy-huquqiy baholashda ehtiyotsizlik orqa-

li jinoyat sodir etish qoidalari qo'llanilishi lozim.

Mazkur holatda faktik xato masalasida javobgarlik yuzaga kelishi holatiga ikki xil yondashish mumkin.

Agar shaxs xavfning mavjudligida xato qilgan bo'lsa-da, lekin xavf yo'qligini bilishi lozim yoki mumkin bo'lsa, unda zarar yetkazganlik uchun jinoiy javobgarlik yuzaga kelishi kerak. Bu holatdan farqli ravishda, agar ish holatining o'ziga xosligiga ko'ra, shaxs xavf borligini taxmin qilsa hamda uning xatoligini anglamasa va anglashi mumkin ham bo'lmasa, jinoiy javobgarlik mavjud bo'lmaydi. Mazkur holatda O'zbekiston Respublikasi JK 24-moddasida shaxsning o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglamagan, anglashi mumkin va lozim ham bo'lmagan yoki uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetmagan va ishning holatlariga ko'ra ko'zi yetishi mumkin va lozim ham bo'lmagan holat bilan ifodalanuvchi aybsiz holda zarar yetkazish qoidalari qo'llaniladi.

Shaxsning o'zini o'zi oxirgi zarurat holatiga olib kelgan vaziyatga nisbatan ikki xil huquqiy baho berish mumkin. Agar xavf shaxs tomonidan yetkazilgan zararni oqlash uchun yaratilgan bo'lsa, unda oxirgi zaruratning qonuniyligi shartlaridan biri – xavfni bartaraf etish maqsadining mavjudligi bo'lmaydi. Shunga ko'ra, bunday zararni oxirgi zarurat deb hisoblash mumkin emas va uni sodir etgan shaxs umumiy asoslarda javobgarlikka tortiladi.

Shaxs o'z xatti-harakati bilan xavfni yaratgan, biroq keyinchalik katta zarar yetkazilishining oldini olish maqsadida oxirgi zarurat huquqidan foydalangan holatlarni huquqiy baholash borasida jinoyat huquqi fani-da fikrlar bir xilligi mavjud emas. Masalan, N.N. Pashe-Ozerskiy xavfli vaziyatni shaxsning o'zi keltirib chiqargan holatda oxirgi zarurat huquqi haqida so'z yuritib, xavfni yuzaga keltirgan shaxsning harakatlari qasddan bo'lmagan taqdirdagina, shuningdek, xavf uning tomonidan beparvolik yoki tasodif

tufayli yaratilgan bo'lsagina yuzaga kelishi mumkin, degan qarashni ilgari surgan. Bizningcha, bunday fikr O'zbekiston Respublikasi JKning 38-moddasi qoidalarini cheklangan holda sharhlashni nazarda tutadi, chunki jinoyat qonunida bunday talablar mavjud emas. Bunday talablar xorijiy mamlakatlarning bir qator jinoyat kodekslarida amal qiladi. Masalan, Germaniya JKning 35-moddasida shaxsning o'zi xavf yaratgan taqdirda oxirgi zarurat to'g'risidagi qoidalar qo'llanilmasligi belgilangan [21, 20-b.]. Shveysariya JKning 34-moddasi agar xavf uning oldini olgan shaxs tomonidan yaratilmagan bo'lsa, oxirgi zarurat mavjudligini tan oladi [22, 85-b.]. San-Marino Respublikasi JKning 41-moddasida agar oldi olingan xavf uni ixtiyoriy ravishda bartaraf etuvchi shaxs tomonidan yaratilmagan bo'lsa, bunday zaruratdan kelib chiqib sodir etilgan qilmish jazolanmasligi belgilab qo'yilgan [23, 20-b.]. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi JKda bunday qoidalarining yo'qligi, agar tegishli shartlar mavjud bo'lsa, xavfni yaratgan va uni boshqa huquq va manfaatlarga zarar yetkazish orqali bartaraf etgan shaxsning harakatlarini oxirgi zarurat deb topish imkonini beradi.

Xavfni o'zi keltirib chiqargan shaxsning mazkur xavfning oldini olish uchun zarar yetkazish bilan bog'liq harakatlarini tahlil qilib, quyidagicha xulosa qilish mumkin:

Agar shaxs qasddan yoki beparvolik bilan o'zini xavf ostiga qo'yib, keyin xavfni bartaraf etish uchun qonun bilan muhofaza qilinuvchi obyektlarga zarar yetkazsa, u umumiy asoslarda jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak, degan fikrga qo'shilmaymiz. Sababi xavf manbayi shaxsning ham jinoiy, ham jinoiy bo'lmagan harakatlari natijasida yuzaga kelishi mumkin hamda bu holatda xavf natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan kattaroq zararning oldini olish uchun kamroq zarar yetkazish oxirgi zaruratning mohiyatini anglatadi. Bu holatda shaxs oxirgi zarurat xavfi manbayi bo'lib xizmat qilgan jinoiy qilmishi

uchungina javobgarlikka tortilishi lozim deb hisoblaymiz.

Agar subyekt boshqa shaxslarning manfaatlarini xavfli holatga qo'ygan bo'lsa, so'ng xavfni bartaraf etish uchun qonun bilan muhofaza qilinuvchi obyektlarga zarar yetkazsa, vaziyatga oxirgi zarurat to'g'risidagi normani hisobga olgan holda huquqiy baho berilishi lozim. Bunda ham shaxsning xavfi manbayi bo'lib xizmat qilgan jinoiy qilmishi uchun javobgarlik yuzaga kelishi zarur.

Bizning fikrimizcha, yuqorida sanab o'tilgan holatlar yuzasidan Jinoyat qonunida aniqlashtirishning mavjudligi qonuniy oxirgi zarurat to'g'risidagi normalarning qo'llanish doirasini birmuncha kengaytiradi va, shunga ko'ra, oxirgi zarurat chegarasidan chiqish to'g'risidagi qoidalarini qonunga xilof ravishda qo'llash imkoniyatini kamaytiradi.

Xulosalar

Yuqoridagilarni inobatga olib, quyida xulosalarimizni bayon etamiz.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi JKga "Oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish" va "Oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish" kabi 100¹- va 107¹-moddalar kiritish oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish holatlarini yengillashtiruvchi tarkibli jinoyatlar sifatida jinoyat qonunida o'rin topishiga sharoit yaratadi.

Ikkinchidan, shaxsning vaziyatning o'ziga xosligi tufayli xavfning xususiyati hamda darajasini obyektiv va xolisona baholay olmasligi natijasida zararning oldini olish uchun yetarli chora-tadbirlarni ko'ra olmasligi oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish deb topilmaydi.

Uchinchidan, oxirgi zarurat huquqi professional yoki boshqa maxsus tayyorgarligi yoki xizmat holatidan qat'i nazar, shaxsga tegishli. Bunda shaxsning xavfni bartaraf etish majburiyati bo'lgan holatda uni bajarmasligi javobgarlikka sabab bo'ladi.

To'rtinchidan, oxirgi zarurat xavfini o'zi keltirib chiqargan shaxs oxirgi zarurat xavfi manbayi bo'lib xizmat qilgan jinoiy qilmishi uchungina javobgarlikka tortilishi lozim.

Beshinchidan, agar shaxs xavfning mavjudligida xato qilgan bo'lsa-da, lekin xavf yo'qligini bilishi lozim yoki mumkin bo'lsa,

unda zarar yetkazganlik uchun jinoiy javobgarlik yuzaga kelishi kerak.

Oltinchidan, agar ish holatining o'ziga xosligiga ko'ra, shaxs xavf borligini taxmin qilsa, uning xatoligini anglamasa va anglashi mumkin ham bo'lmasa, jinoiy javobgarlik mavjud bo'lmaydi.

REFERENCES

1. Ensiklopediya ugolovnogo prava. Sostav prestupleniya [Encyclopedia of Criminal Law. Composition of the crime]. Ed. of Malinin, St. Petersburg, 2005, vol. 4.
2. Baulin Yu.V. Obstoyatelstva, isklyuchayuyemye prestupnost deyapiya [Circumstances excluding the criminality of the act]. Kharkov, 1991.
3. Ochilov X.R., Xaydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. Jinoyat huquqi. [Criminal Law]. General Part. Tashkent, TSUL Publishing House, 2021, p. 172.
4. Ivanov N.G. Kurs ugolovnogo prava. [Course of criminal law]. General part. Moscow, Prospect, 2020.
5. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi. [Criminal law]. General part. Tashkent, A new generatio, 2005.
6. Aryamov A.A., Yakunkov M.A. Voprosy teorii i praktiki primeneniya institutov neobxodimoy oborony, krayney neobxodimosti i prichineniya vreda pri zaderjaniy litsa, sovershivshego prestupleniye [Questions of the theory and practice of applying the institutions of necessary defense, extreme necessity and infliction of harm during the arrest of a person who has committed a crime]. Chelyabinsk, Publishing House of Tatyana Lurie, 2004.
7. Ugolovniy kodeks Ispanii [Criminal Code of Spain]. Moscow, 1998, p. 213. Available at: https://www.legislationline.org/download/id/6443/file/Spain_CC_am2013_en.pdf/.
8. Ugolovniy kodeks Respubliki Polsha [Criminal Code of the Republic of Poland]. Minsk, 1998. Available at: https://www.legislationline.org/download/id/4172/file/Polish%20CPC%201997_am%202003_en.pdf/.
9. Ugolovniy kodeks Yaponii [Criminal Code of Japan]. St. Petersburg, 2002. Available at: <https://constitutions.ru/?p=407/>.
10. Pleshakov A.M., Shkabin G.S. Kraynyaya neobxodimost kak obstoyatelstvo, isklyuchayuyemye nrestunnost deyaniya [Extreme necessity as a circumstance excluding the wrongfulness of an act: study guide]. Ryazan, 2005.
11. Xametdinova G.F. Ugolovno-pravovaya xarakteristika krayney neobxodimosti [Criminal law characteristic of extreme necessity]. PhD thesis. Tyumen, 2007.
12. Lisak N.V. Kraynyaya neobxodimost [Urgent necessity]. *Sledovatel – Investigator*, 1998, no. 6, p. 22.
13. Domaxin S.A. Kraynyaya neobxodimost po sovetскому ugolovnomu pravu [Extreme necessity in Soviet criminal law]. Moscow, Gosyurizdat, 1956.
14. Sidorov B.V. Ugolovno-pravovie garantii pravomernogo, sotsialno-poleznogo povedeniya [Criminal-legal guarantees of lawful, socially useful behavior.]. Kazan, Publishing House of Kazan University, 1992.
15. Morozov V., Sharapov R. O ponyatii prevysheniya predelov krayney neobxodimosti. Chelovek: prestupleniye i nakazaniye [On the concept of exceeding the limits of extreme necessity. Man: crime and punishment]. *Vestnik Ryazanskogo instituta prava i ekonomiki MVD Rossii – Bulletin*

of the Ryazan Institute of Law and Economics of the Ministry of Internal Affairs of Russia, 1995, no. 4, pp. 27–30.

16. Xametdinova G.F. K voprosu o zakonodatel'noy reglamentatsii krayney neobxodimosti po UK RF [On the issue of legislative regulation of extreme necessity under the Criminal Code of the Russian Federation]. Criminal law at the turn of the millennium: materials of the regional scientific and practical conference, 2007, November 21. Tyumen, 2008, p. 45.

17. Vasik Ye.A. Kraynyaya neobxodimost: spaseniye svoey jizni za schyot jizni drugogo cheloveka [Urgent need: saving your life at the expense of another person's life]. *Eurasian Advocacy*, 2016, no. 5 (24), p. 30.

18. Kommentariy k Ugolovnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii [Commentary on the Criminal Code of the Russian Federation]. Ed. A.I. Boyko. Rostov-on-Don, Phoenix, 1996.

19. Orexov V.V. Neobxodimaya oborona i inye obetoyatelstva, isklyuchayushiye prestupnost deyaniya [Necessary defense and other promises excluding the criminality of the act]. St. Petersburg, Jurid. Center Press, 2003.

20. Kadnikov N.G. Obstoyatelstva, isklyuchayushiye prestupnost deyaniya [Kadnikov N.G. Circumstances excluding the criminality of the act: study guide]. Moscow, 1998.

21. Ugolovniy kodeks FRG [German Criminal Code]. Moscow, 2000. Available at: <https://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=56199/>.

22. Ugolovniy kodeks Shveysarii [Criminal Code of Switzerland]. St. Petersburg, 2002. Available at: <https://www.legislationline.org/documents/section/criminal-codes/country/48/>.

23. Ugolovniy kodeks Respubliki San-Marino [Criminal Code of San Marino]. St. Petersburg, 2002. Available at: https://www.legislationline.org/download/id/9060/file/San%20Marino_excerpts_hate%20crime.pdf/.

UDC: 343.72(045)(575.1)

BANK KARTALARIDAN FOYDALANISH BILAN BOG'LIQ FIRIBGARLIK JINOYATLARINING KRIMINALISTIK TAHLILI

Hamidov Baxtiyor Hamidovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Kriminalistika va sud ekspertizasi kafedrası

katta o'qituvchisi

ORCID: 0000-0002-8097-5056

e-mail: Bahtiyor1984bsj@mail.ru

Nosirov Amirxon Bahodir o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti 4-kurs talabasi

ORCID: 0000-0002-8097-5056

e-mail: A.nosirov.1111tsul@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyatining umumiy tushunchasi va kriminalistik tahlili bayon etilgan. Unda bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyatining kriminalistik tavsif elementlari, ya'ni jinoyat predmeti, jinoyat sodir etish usullari, jinoyat izlari, jinoyatchining shaxsi haqidagi ma'lumotlar, jinoyat shart-sharoitlari yoritilgan. Shu bilan birga, bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik jinoyatini tergov qilishda raqamli izlar bilan ishlash jarayoni, milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolar hamda bo'shliqlar tanqidiy ko'rib chiqilgan. Ularni bartaraf etishning ilmiy asoslangan yo'llari va mezonlari ishlab chiqilgan. Maqola raqamli izlar bilan ishlash sohasida amalga oshirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar, nazariyotchi olimlar hamda amaliyotchi xodimlar fikr-mulohazalari asosida tayyorlangan. Bundan tashqari, onlayn jinoyat turlaridan biri bo'lmish internet tovlamachilik jinoyatini bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik jinoyatiga o'xshash jihatlari muhokama qilingan. Maqolada sohada yuzaga kelayotgan muammolar tizimli, huquqiy, ilmiy-amaliy jihatdan tahlil etilgan, mualliflik xulosalari shakllantirilgan. Qonun chiqaruvchi va uni qo'llovchi subyektlar uchun ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bank kartalari, bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik jinoyatlari, jinoyat izlari, jinoyat usuli, jinoyatchi shaxsi, elektron to'lov tizimlari.

КРИМИНАЛИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МОШЕННИЧЕСКИХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ БАНКОВСКИХ КАРТ

Хамидов Бахтиёр Хамидович,

старший преподаватель кафедры

Криминалистика и судебная экспертиза

Ташкентского государственного юридического университета

Носиров Амирхон Баходир угли,

студент 4-курса

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье дан криминалистический анализ мошеннических преступлений, связанных с использованием банковских карт. Он содержит элементы криминалистического описания мошенничества, связанного с использованием банковских карт, – предмет преступления, способы совершения преступления, следы преступления, личные данные преступника, обстоятельства преступления. При этом критически рассмотрен процесс работы с цифровыми следами при расследовании мошенничества с банковскими картами, проблемы, возникающие в национальном законодательстве и правоприменительной практике. Разработаны научно обоснованные способы и критерии их устранения. Кроме того, обсуждено сходство интернет-мошенничества как одного из видов интернет-преступности с мошенничеством с банковскими картами. Статья подготовлена на основе научно-практических исследований и мнений ученых-теоретиков и юристов-практиков в сфере работы, связанной с цифровыми следами. В статье анализируются проблемы в данной области с систематической, правовой, научной и практической точек зрения, из которых сформированы авторские выводы. Также разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации для законодателей и правоохранительных органов.

Ключевые слова: банковские карты, мошенничество, связанное с банковскими картами, следы преступления, способ преступления, личность преступника, электронные платежные системы.

FORENSIC ANALYSIS OF FRAUDULENT CRIMES WITH THE USE OF BANK CARDS

Khamidov Bakhtiyor Khamidovich,

Senior lecturer of Tashkent State University of Law

Amirkhon Nosirov Bahodirovich

Student of Tashkent State University of Law

Abstract. This article describes the general concept and forensic analysis of the crime of fraud associated with the use of bank cards. It contains elements of forensic description of the crime of fraud associated with the use of bank cards, the subject of the crime, methods of committing a crime, traces of the crime, personal information of the offender, and the circumstances of crime. At the same time, the process of working with digital footprints in the investigation of bank card fraud, the problems that arise in national legislation and law enforcement practices, have all been critically examined. Scientifically based ways and criteria for their elimination have been developed. In addition, the similarities of Internet fraud, a type of Internet crime, with bank card fraud were discussed. The article is based on scientific and practical research in the field of working with digital traces, the views of theoretical scientists and practitioners, as well as technical research. The article analyzes the problems in the field from a systematic, legal, scientific, and practical point of view, which from the author's conclusions are formed. Evidence-based proposals and recommendations for legislators and law enforcement agencies have been developed.

Keywords: bank cards, bank card fraud, traces of the crime, criminal method, criminal identity, electronic payment systems.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti va raqamli texnologiyalarning takomillashib borishi insoniyat hayotining turli jabhalari, xususan, bank munosabatlari, sanoat, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalar rivojiga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Mamlakatdagi raqamlashtirish jarayonlari hamda onlayn xizmatlar bozoridagi talab va taklifning ortib borishi bank kartalarining qulay to'lov tizimiga aylanishiga olib keldi. Natijada naqd to'lovlarsiz moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish kundalik ehtiyojlar-

ni qondirishning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi.

Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan “Uzkard” hamda “Humo” to’lov tizimlarining milliy valyutadagi bank kartalari muomalaga chiqarilib, ularning infratuzilmasi kengayib bormoqda. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 24-sentabrdagi “Plastik kartalar orqali hisob-kitob tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 445-sonli qaroriga asosan, yagona umumrespublika protsessing markazi tashkil etilib, “Uzkard” to’lov tizimi faoliyat yurita boshladi. 2020-yil 11-aprelda Yagona umumrespublika protsessing markazi MCHJ-ga “Uzkard” to’lov tizimi operatori litsenziyasi Markaziy bank tomonidan taqdim etildi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabrdagi “Milliy to’lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 3945-sonli qaroriga asosan, Milliy banklararo protsessing markazi tashkil etilib, 2019-yilning II choragidan boshlab “Humo” to’lov tizimi ishga tushirildi. Milliy banklararo protsessing markazi MCHJga 2020-yil 11-aprelda “Humo” to’lov tizimi operatori litsenziyasi Markaziy bank tomonidan berildi. Mamlakatimizda bank kartalari infratuzilmasi 2020-yil 1-yanvar holatiga 20 547 ming dona bank kartalari, 392 361 ta to’lov terminallari hamda 9 203 ta bankomat va infokiosklardan tashkil topgan. 2019-yil davomida ikkita milliy chakana (“Humo” hamda “Uzkard”) to’lov tizimlarining Visa, Master Kard, China Union Pay hamda Mir xalqaro to’lov tizimlari bilan integratsiyasi samarali amalga oshirildi [1].

Onlayn xizmatlar bozorining o’sib boriishi kiberjinoyatlarning turli shakl va turlari kirib kelishiga ham sabab bo’lmoqda. Xususan, onlayn firibgarlik jinoyati ana shunday shiddat bilan o’sib borayotgan jinoyatlardan biri sanaladi.

Firibgarlar tomonidan bank kartalaridan pul yechib olishning yangidan-yangi usul va vositalari qo’llanilishi jinoyat mexanizmlari

murakkablashuviga olib kelmoqda. Statistik ma’lumotlarga tayanib, shuni aytish mumkin, ki, 2019-yilda sodir etilgan firibgarlik jinoyati 6 321 tani tashkil etgan bo’lsa, 2020-yil davomida esa 10 496 tani tashkil qilgan [2]. Demak, firibgarlik jinoyati 2020-yilda 42% ga o’sganligini ko’rishimiz mumkin.

Onlayn firibgarlik jinoyati fosh etilishi juda qiyin bo’lgan jinoyatlardan biri bo’lib, puxta rejalashtirilganligi, o’ta murakkabligi hamda transmilliy xususiyatga egaligi bilan boshqa turdagi jinoyatlardan farq qiladi. Onlayn firibgarlik tushunchasi ba’zi kriminalistik adabiyotlarda kiberfiribgarlik, ba’zilarida esa kompyuter firibgarligi deb keltiriladi.

Xususan, D.A Zakirova kompyuter firibgarligi – bu “kompyuter texnikasi yordamida aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo’li bilan o’zganing mulkini yoki o’zganing mulkiga bo’lgan huquqni qo’lga kiritish” degan tushunchani ilgari suradi [3, 211-b.]. M.A. Yefremova esa kiberfiribgarlik va kompyuter firibgarligini bir xil tushuncha, ya’ni sinonimlar deb hisoblaydi [4, 19-21-b.].

Qonunchiligimizda onlayn firibgarlik, kiberfiribgarlik, bank kartalaridan foydalanish bilan bog’liq firibgarlik jinoyati tushunchalari to’liq va batafsil yoritilmagan. Hozirda bank kartalaridan foydalanish bilan bog’liq firibgarlik jinoyatini sodir etish holati va usuliga qarab, O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasi 2-qismi “v” bandiga asosan, kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib sodir etilganda, ushbu norma bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Bank kartalaridan foydalanish bilan bog’liq firibgarlik jinoyatining kriminalistik tavsifi tarkibiy elementlari quydagilardan iborat:

- *jinoiy tajovuz predmeti;*
- *jinoyat sodir etish usullari;*
- *jinoyat izlari;*
- *shart-sharoitlar (vaqti, joyi va boshqa holatlar);*
- *jinoyatchining shaxsi haqidagi ma’lumotlar.*

Odatda, pul, qimmatbaho buyumlar, texnika va boshqa ashyolar firibgarlik jinoyatining predmeti sanaladi. Ammo bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyatining bevosita predmeti bu o'zganing mulki, ya'ni o'zgalarning bank karta hisobraqamlarida saqlanayotgan pulidir. Biroq to'g'ridan to'g'ri bank kartasining o'zi jinoyat predmeti bo'la olmaydi, chunki jinoyatchining motiv-maqsadi faqatgina karta hisobraqamlarida saqlanayotgan pulni jabrlanuvchini aldash va ishonchini suiiste'mol qilish yo'li bilan qo'lga kiritish hisoblanadi.

Bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik jinoyatlarini sodir etishning usuli kriminalistik tavsifning markaziy elementidir. Chunki u jinoyatga tayyorgarlik ko'rish, amalga oshirish va jinoyatni yashirish bo'yicha jinoyatchilarning harakatlarini yagona maqsadda bir-lashtiradi.

Bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik jinoyatini sodir etishning bir necha usullari bor. Xususan, amaliyotda keng tarqalgan usullardan biri – bu internet va mobil aloqa vositalari orqali sodir etiladigan firibgarlikdir. Jinoyatchilar jinoiy qilmishni sodir etish vositasi sifatida internet, kompyuter va mobil qurilmalardan foydalanadi.

Material va metodlar

Maqola raqamli izlar bilan ishlash sohasida amalga oshirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar, nazariyotchi olimlar hamda amaliyotchi xodimlar fikr-mulohazalari asosida tayyorlangan. Maqolada sohada yuzaga kelayotgan muammolar tizimli, huquqiy, ilmiy-amaliy jihatdan tahlil etilgan, mualliflik xulosalari shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalari

Fishing

Bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik jinoyatini sodir etish usullaridan biri – bu “fishing”, ya'ni “baliq ovi” usulidir. Bunda IT texnologiya sohasida yetarli bilim va ko'nikmalarga ega firibgarlar tomonidan foydalanuvchining ishonchiga kirib, bank

kartasiga doir maxfiy ma'lumotlari egallanadi [5, 5-b.].

Jinoyatni sodir etish usulining o'ziga xos xususiyati shundaki, jinoyatchi tomonidan masofadan turib aloqa vositalari yoxud soxta veb-sahifalar orqali foydalanuvchining ijtimoiy tarmog'idagi akkaunti, elektron pochta-si yoki uyali aloqa vositalariga sms xabar yuboriladi. Bunda ijtimoiy muhandislik usullaridan foydalaniladi. Bu xususida quyida batafsil tushuntirish keltirib o'tamiz.

“Fishing” bilan shug'ullanuvchi jinoiy gu-ruhlar jabrlanuvchidan shaxsiy ma'lumotlari-ni kiritishni so'rab, turli shaklda xabarnoma jo'natadi. Jabrlanuvchi bank xizmatlaridan foydalanish uchun bankning rasmiy veb-say-tiga kirayotganliklariga ishonadi. Biroq firib-garlar tuzog'iga laqqa tushadilar. Xususan, soxta saytga ism-sharifi, karta rekvizitlari, pin kodi kiritish orqali o'zlari bilmagan holda “fishing”chilar qarmog'iga ilinadi [6, 49–52]. Soxta saytlar yaratish – bu zamonaviy fishing uslublaridan biridir. Bunday fishing saytlari-ni maxsus bilim va ko'nikmalarsiz aniqlash juda mushkul. Bundan tashqari, fishingchilar xuddi shu usulni aloqa vositalari, ya'ni to'g'ri-dan to'g'ri telefon orqali bog'lanib ham sodir etishlari mumkin.

Xuddi shunday holatlar mamlakatimiz-da ham kuzatilib, o'zini “Click xodimi” deb tanishtirgan shaxslar tizimdagi ayrim kam-chiliklarni tuzatish hamda to'lov bilan bog'liq buzilishlarning oldini olish niqobi-da jabrlanuvchiga sms jo'natib, undan sms raqamini aytishini so'rashyapti. SMS raqami aytilishi bilan pul mablag'lari turli plastik kartalar yoki telefon raqamlarga tranzaksi-ya qilinadi. Shundan so'ng Click orqali Qiwi hamyonga o'tkaziladi va jinoiy yo'l bilan un-dirilgan pul mablag'lari (so'm) xorijiy va-lyutaga konvertatsiya qilinadi.

Meros firibgarligi

Jabrlanuvchi nomiga chet eldagi qarindoshidan katta miqdordagi meros qoldiril-gani haqidagi xabar go'yoki uning advokati niqobida beriladi. Shundan so'ng pasport

hamda plastik karta raqamlariga doir maxfiy ma'lumotlar merosni rasmiylashtirish hamda dastlabki to'lovlarni amalga oshirish uchun aldov yo'li bilan olib qo'yiladi.

Xalqaro pochta jo'natmalari

Jabrlanuvchiga ma'lum turdagi qimmatbaho yuk yuborilgani, qabul qilib olish uchun pochta chiqimlarini to'lash bo'yicha turli xil pochta jo'natmalari yorlig'i yoxud jo'natma uning nomiga ekanligini tasdiqlovchi fotosuratlar jo'natiladi. Shu orqali plastik karta raqamiga doir maxfiy ma'lumotlar aldov yo'li bilan olinadi.

Fishing tanlovlar

Ijtimoiy tarmoqlarda soxta tanlovlar tashkil qilish. Bu holatda yutuq sifatida avtotransport vositasi yoki oxirgi rusumli telefon apparati qo'yiladi. E'tiborli jihati shundaki, tashkilotchilar deyarli barcha ishtirokchilarni "Siz lotoreyada g'olib chiqdingiz yoki sovg'alar soni cheklangan, aksiyada ishtirok eting, sovg'ani qo'lga kiriting" kabi yutuq bilan tabriklab yoxud tanlovda ishtirok etishi uchun qiziqtirib xabar jo'natadi. Odatda, fishing tanlovi ishtirokchilari tanlovda bir necha marotaba ishtirok etganidan so'ng ushbu jarayon firibgarlik ekanligiga tushunib yetadi.

Internet-tilanchilik – soxta xayriya jamg'armalari

Internet sahifalari hamda ijtimoiy tarmoqlarga turli xil kasallikka chalingan yoxud og'ir ahvoldagi shaxslarning fotosuratlarini joylashtirib, ularning nomidan moddiy yordam so'rash. Firibgarlar ko'proq insoniylik, rahm-shafqat va ishonuvchanlik his-tuyg'ularini uyg'otuvchi psixologik ta'sir etish usullariga e'tibor qaratadi. Odatda, nomi e'lon qilinayotgan shaxslar ular uchun pul mablag'lari jamg'arilayotgani haqida hech qanday ma'lumotga ega bo'lmaydi. Sababi ehson qilingan har qanday pul mablag'lari to'g'ridan to'g'ri firibgarlarning hisobraqamlariga o'tkaziladi.

Internet do'konlar bilan bog'liq firibgarliklar

Ba'zi firibgarlar qalbaki, sifatsiz tovar yoki mahsulotlar savdosi bilan shug'ullanib, xaridorlarni chuv tushirsa, boshqalari mahsulot uchun oldindan qisman yoki to'liq to'lov qilishni talab qiladi [7, 52-b.]. To'lov amalga oshirilgach, xaridorga tovar yetkazilmaydi.

So'nggi yillarda internet do'konlari bilan bog'liq firibgarlik mamlakatimiz hududida ham o'sib borayotganligi kuzatilmoqda. Xususan, hozirda "OLX.uz" onlayn platformasi orqali amalga oshirilayotgan savdolarda bank plastik kartalaridan pul mablag'lari yechib olinishi bilan bog'liq holatlar mavjud. Firibgarlar jabrlanuvchiga boshqa viloyatda yoki xorijda ekanligini vaj qilib, undan sotib olinishi rejalashtirilgan tovarga to'lov qilish uchun bank karta raqami va yuborilgan smsni aytishni aldov yo'li bilan so'rab olishadi. Shundan so'ng yuqorida ko'rsatilgan protsedura bo'yicha ishlar amalga oshiriladi.

Nikoh firibgarligi

Ijtimoiy tarmoqdagi o'zga shaxslarga tegishli fotosuratlardan foydalanib, ularning nomidan jabrlanuvchilar bilan yozishmalar olib boradi va ishonchiga kiradi. Vaqt o'tishi bilan jabrlanuvchilardan moddiy yordam so'rab, ko'zlangan mablag'ni qo'lga kiritganidan so'ng akkaunt o'chirib yuboriladi.

Frilanserlik xizmatlari

Frilanserlik xizmati – kelishilgan xizmat evaziga buyurtmachiga sayt yaratish, maqola yozish, tarjima ishlari, reklama logotiplari, video meykerlik va boshqa shakldagi onlayn xizmatlari ko'rsitishdir. Ushbu usulning mohiyati jabrlanuvchi (frilanser) buyurtmachiga (firibgar) buyurtmani jo'natish bilan jinoyatchi kelishilgan pulni to'lamasdan g'oyib bo'lishida namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda kuzatilayotgan onlayn jinoyat turlaridan yana biri – bu internet tovlamachilik bo'lib, quyidagi vaziyat bunga yaqqol misol bo'la oladi. Jinoyatchilar internet tarmog'idagi pornografik materiallar, shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi saytlarda o'zlarini huquqni muhofaza qiluvchi organlar yoxud IIV Kiberxavfsizlikka qarshi kurash

bo'limi tomonidan foydalanuvchi ma'muriy javobgarlikka tortilgani va ma'lum bir pul miqdorini belgilangan hisobraqamga ko'chirishi shartligini talab qilishadi. Masalan, "O'zbekiston Respublikasi IIV Kiberjinoyatlarga qarshi kurash bo'limidan bildirishnoma! Siz O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlangan materiallar, ya'ni pedofiliya, zo'ravonlikni targ'ib qilish elementlariga ega bo'lgan pornografiya materiallari mavjud bo'lgan pornografik saytlarga tashrif buyurganligingiz uchun blokirovka qilindingiz. Blokirovkani yechish uchun siz shu plastik hisobraqami yoki davlat hamyoniga 310 000 so'm miqdorida jarima to'lashingiz zarur" [8].

Odatda, bunday noqulay vaziyatdan tezroq chiqish hamda sharmandalik va javobgarlikdan qutulish maqsadida talab qilingan pul summasi tegishli hisobraqamga o'tkaziladi. Biroq, afsuski, IIV Kiberjinoyatlarga qarshi kurash bo'limi hech kimga bunday xabar yubormaydi...

Ushbu holat o'zida firibgarlik alomatlarini ham mujassamlashtirgan. Sababi, birinchidan, jinoyatchi o'zini huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi deb tanishtirib, jabrlanuvchini aldaydi. Ikkinchidan, jinoyatchi jabrlanuvchining internet tarmog'idan foydalanish huquqini muayyan vaqt oralig'ida cheklaydi. Blokirovkani yechish uchun plastik hisobraqami yoki "davlat hamyoni"ga 310 000 so'm miqdorida jarima to'lashi zarurligiga ishonitiradi. Aslida, ushbu holat raqamli qurilmaning vaqtincha bloklab qo'yilganiga ishonitirish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 11-oktabrdagi "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 35-son qaroriga muvofiq, "firibgarlikda yolg'on ma'lumotlarga jabrlanuvchini yanglishtirishga olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday holatlar, jumladan, yuridik fakt va voqealar, mulkning sifati, narxi, aybdorning shaxsi, uning vakolati, niyati (masalan,

aybdor shaxs o'zini mansabdor shaxs yoki huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi sifatida ko'rsatishi) taalluqli bo'lishi mumkin", – deyiladi.

Jinoyat izlari

Bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik jinoyati natijasida qoldirilgan izlarni o'rganish jinoyatni o'z vaqtida aniqlash va tezkor ochish imkonini beradi. Jinoyat izlari kriminalistik tavsif elementlaridan biri bo'lib, hosil bo'lish mexanizmi jinoyatning moddiy va virtual olam bilan o'zaro munosabati xarakteridan kelib chiqadi [9, 64-b.].

Raqamli texnologiyalarning rivojlanib borishi bilan nazariyada "virtual" yoki "raqamli" izlar tushunchalari ilmiy doira vakillari orasida keng muhokamalarga sabab bo'lmoqda [10, 74–76-b.].

Kriminalistik adabiyotlarda "virtual" yoki "raqamli" izlar tushunchasi borasida turli xil qarashlar mavjud. Xususan, V.A. Agibalov, V.A. Mesheryakovlar virtual iz – bu kompyuter tizimi orqali raqamli moddiy tashuvchida qayd qilingan real (fizik) jarayonni tasvirlovchi yoki ushbu jarayonning raqamli shakldagi rasmiy (matematik) modelidir, ya'ni jinoyat bilan bog'liq bo'lgan kompyuter tizimining boshqa harakatlari natijasi deyishadi [11, 17–19-b.]. Bundan tashqari, huquqshunos olimlardan biri I. Astanov ham raqamli izlar va raqamli dalillar sohasida yuqoridagi olimlar kabi bir qancha tadqiqotlar olib borgan [12, 265–266-b.].

Internet orqali sodir etiladigan jinoyatlarda anonimlikni saqlash prinsipial ahamiyatga ega. Shunga qaramay, ushbu jinoyatlarining deyarli barchasida texnik tavsifdagi izlar mavjud. O.Y. Vvedenskaya raqamli izlar ro'yxatiga IP-adreslar, ro'yxatdan o'tgan domen nomlari, foydalanuvchilarning akkaunt ma'lumotlari, log-fayllar, brauzer tarixi, DNS-serverlar bilan bog'liq izlar, xosting-provayderlardagi izlar, reklama veb-sahifalari izlari, jabrlanuvchi raqamli qurilmasida saqlanib qolgan yozishmalar, qabul qilingan

buyurtmalar izlari, bank karta hisobraqamlari, hisobraqamlardagi pul tushumi va chiqimi bilan bog'liq izlarni kiritgan [13, 213-214-b.].

Yuqorida keltirilgan izlar server, tarmoq, jinoyat sodir etgan shaxs va jabrlanuvchilarning kompyuterlari yoxud boshqa texnik qurilmalarida saqlanib qolishi mumkin. Ammo tezkor qidiruv xodimlari tomonidan olib borilgan tezkor tadbirlarda va tergov harakatlari har doim ham ko'zlangan maqsadga erishilmaydi. Buning sababi, jinoyatchilar ko'p hollarda boshqa shaxslarning nomiga olingan abonent raqamlaridan yoki jinoyatga umuman aloqasi bo'lmagan shaxslarning bank kartalari, hisobraqamlaridan yoxud elektron hamyonlardan foydalanishadi. Shu orqali huquqni muhofaza qiluvchi organlarni chalg'itishga urinishadi.

Jinoyatning issiq izidan borishda tergov va tezkor qidiruv xodimlari shaxsga doir ma'lumotlarni to'plash maqsadida aloqa kompaniyalariga, bank yoki elektron to'lov tizimlari operatorlariga so'rov jo'natishadi. Aloqa operatorlari shaxs ro'yxatdan o'tgan sim kartalari, IMEI raqamlari, kiruvchi va chiquvchi qo'ng'iroqlar sms xabarlari haqidagi barcha ma'lumotlarni taqdim etadi. Shu bilan birga, jinoyatchini ushlashda bank tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi [14, 447-b.]. Ushbu ma'lumotlarga banklar tomonidan taqdim etiladigan shaxsga doir ma'lumotlar, pul ko'chirish bilan bog'liq moliyaviy operatsiyalar, onlayn bank ma'lumotlari, valyuta konvertatsiyasi va boshqa ma'lumotlar kiradi.

Bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik jinoyatlarida hodisa sodir etilgan joyni aniqlash masalasi boshqa jinoyatlarga qaraganda ancha mushkul. Sababi bu toifadagi jinoyatlarda jinoyatchi, asosan, boshqa davlatdan turib jinoyat sodir etadi [15, 448-b.]. Ko'p hollarda jinoyatchilar pullarni boshqa pul birligiga konvertatsiya qilib, bir davlat hududidan boshqa davlat hududiga o'tkazib

yuboradi va bu holat ishni yanada chigallashtirib, yurisdiksiya (ekstraditsiya) bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi.

Ushbu jinoyatga qo'l urgan jinoyatchilar jinoyatni sodir etishda aniq vaqt va joy tanlamaydi. Bu turdagi jinoyatchilar biror-bir bino ofisida, o'z uyida, ko'chada yoki avtobus bekatida ham jinoyat sodir etib ketaveradi. Jinoyatchilar o'z manzilini yashirish maqsadida VPN yoki virtual mashinadan foydalanishadi.

Jinoyatchi shaxsi

Bu turdagi jinoyatlar bank xodimlari, sobiq xodimlar, bank va IT-sohasida muayyan tajriba, bilim va ko'nikmaga ega shaxslar tomonidan sodir etiladi. Internet firibgarligi bilan shug'ullanuvchi shaxslarni olim I.M. Ruskov ikkita katta guruhga ajratadi:

birinchi guruhda, o'z mansab vakolati chegarasidan chiqib, jinoyat sodir etadigan xodimlar, ya'ni texnik personal, xizmatchilar, xavfsizlikni ta'minlovchi xodimlar, boshqaruv xodimlari, tashkiliy masalalar bilan shug'ullanuvchi xodimlar. Bundan tashqari, operatorlar, dasturchilar, injenerlar va kompyuter axborotlariga ruxsatsiz kirishi mumkin bo'lgan boshqa shaxslar;

ikkinchi guruhda, kompyuter tizimi xavfsizligi uchun javobgar shaxslar, professional mutaxassislar va yuqori salohiyatga ega dasturchilar. Bu turdagi firibgarlar, odatda, jinoyatga oldindan puxta tayyorgarlik ko'rishi, o'zgacha fikrlashi, kompyuter atamalariga bog'liq lahdada gapirishi bilan boshqa turdagi jinoyatchilardan farq qiladi [16, 207-b.].

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanib borishi yangi munosabatlar vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Biroq ushbu munosabatlarni o'z vaqtida nazorat qilish va tartibga solish muayyan kriminalistik va huquqiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. Aks holda, inson, jamiyat va davlat manfaatlari turli iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy tahdidlar ostida qolishi hech gap emas. Amalda-

gi qonunchilikda onlayn firibgarlik, o'g'rilik va tovlamachilik jinoyatlarini kvalifikatsiya qilish bo'yicha huquqiy bo'shliqlarning mavjudligi huquqni qo'llash sohasida muayyan uslubiy qiyinchiliklarni ham yuzaga keltirmoqda.

Shunga ko'ra, amaldagi qonunchilikni takomillashtirish hamda huquqiy tartibga solishning samarali mexanizmlarini joriy etish bo'yicha quyidagilar taklif etiladi:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida "elektron to'lov tizimlari bilan bog'liq firibgarlik jinoyati", "bank hisob-raqami yoki elektron to'lov tizimlari bilan bog'liq o'g'rilik jinoyatlari" kabi alohida moddalarni belgilash (ushbu moddalar Rossiya Federatsiyasi Jinoyat qonunchiligida mavjud);

2. O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida kiberjinoyatlarni tergov qilish uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha alohida vazifalar belgilash;

3. O'zbekiston Respublikasining "To'lov va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonunida to'lov tashkilotlari (operatori) tomonidan amalga oshirilayotgan onlayn moliyaviy xizmatlar xavfsizligini ta'minlash uchun to'lov xizmatlaridan foydalanuvchini autentifikatsiya qilishning samarali mexanizmlarini joriy qilish maqsadga muvofiq.

Ushbu islohotlar, o'z navbatida, qonunni to'g'ri va o'z o'rnida qo'llash, yuqorida keltirilgan jinoyatlarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi murosasiz kurashishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasida to'lov tizimining rivojlanish bosqichlari [Stages of development of the payment system in the Republic of Uzbekistan]. Available at: <https://cbu.uz/oz/payment-systems/history/>.
2. Huquqbuzarlik. Jinoyat va adolat statistikasi [Offense. Crime and Justice Statistics]. Available at: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2/>.
3. Zikov D.A. Viktimologicheskie aspekti preduprezhdeniya kompyuternogo moshennichestva [Victimological aspects of computer fraud prevention]. Vladimir, 2002, 211 p.
4. Yefremova M.A. Moshennichestvo s ispolzovaniem elektronnoy informatsii [Fraud using electronic information]. *Informatsionnoe parvo – Information law*, 2013, no. 4, pp. 19-21.
5. Shazzo S.K. Sposobi soversheniya moshennichestva v otnoshenii grajdan [Methods of committing fraud against citizens]. *Vestnik Adigeyskogo gosudarstvennogo universiteta – Bulletin of the Adyghe State University*, Series 1 – Jurisprudence, 2008, no. 2, p. 5.
6. Izotov D.S., Bikova N.N. Vidi moshennichestva s bankovskimi kartami [See bank card fraud]. *Vestnik NGIEI – Bulletin of NGIEI*, 2015, no. 3, pp. 49-52.
7. Kozodaeva O.N., Obidenova A.S. Sposobi soversheniya moshennichestva s ispolzovaniem bankovskix kart [Ways to commit fraud using bank cards]. *Uchenie zapiski Tambovskogo otdeleniya RoSMU – Scientific notes of the Tambov branch of Rostu*, p. 52.
8. Bud' ostorozhen! Moshenniki v internete [Be careful! Internet scammers]. Available at: <https://iiv.uz/news/ogoh-boling-internet-tarmogida-firibgarlar/>.
9. Filippov A.G. Kriminalistika [Criminalistics]. Moscow, Spark Publ., 2000, 520 p.
10. Meshcheryakov V.A. Prestupleniya v sfere kompyuternoy informatsii: pravovoy i kriminalisticheskiy analiz [Crimes in the sphere of computer information: legal and forensic analysis]. Voronezh, Voronezh State University, 2001, 320 p.
11. Agibalov V.A., Meshcheryakov V.A. Priroda i sushnost virtualnix sledov [The nature and essence of virtual footprints]. *Voronejskie kriminalisticheskie chteniya – Voronezh forensic readings*, 2010, iss. 12, pp. 17-19.

12. Astanov I.I., Hamidov B. Obshcheteoreticheskie voprosi, svyazannie s elektronnyimi ili sifrovimi dokazatel'stvami: problema i reshenie [General theoretical issues related to electronic or digital evidence: problem and solution]. *Obshchestvo i innovatsii – Society and innovation*, 2021, no. 2, 7/S, pp. 259-278. DOI: 10.47689/2181-1415-vol2-iss7/S-pp259-278/.

13. Vvedenskaya O.Y. Osobennosti sledoobrazovaniya pri sovershenii prestupleniy posredstvom seti internet [Features of trace formation when committing crimes via the Internet]. *Legal science and law enforcement practice*, pp. 213-214.

14. Lavrushkina A.A. Tipichnie sledstvennie deystviya v ramkax metodiki rassledovaniya moshennichestva s ispolzovaniem seti Internet i sredstv mobilnoy svyazi [Typical investigative actions within the methodology for investigating fraud using the Internet and mobile communications]. *Byulleten nauki i praktiki – Bulletin of Science and Practice*, 2018, vol. 4, no. 4, pp. 447-451. Available at: <http://www.bulletennauki.com/lavrushkina-a/> (accessed 15.04.2018).

15. Kriminalisticheskaya xarakteristika lichnosti prestupnika, sovershivshego moshennichestvo v sfere predostavleniya internet-uslug [Forensic characterization of the identity of the criminal who committed fraud in the provision of Internet services]. *Vestnik Krasnodarskogo Universiteta MVD Rossii – Bulletin of the Krasnodar University of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2015, no. 4, p. 207.

UDC: 340.12

ФОРМИРОВАНИЕ ПРИНЦИПА РАВЕНСТВА КАК ОБЩЕГО ПРИНЦИПА ПРАВА

Юсувалиева Рахима Юсуповна,
кандидат юридических наук, доцент, и.о. профессора
кафедры Теория права и государственного управления
Университета мировой экономики и дипломатии
ORCID: 0000-0002-5143-9588
e-mail: uraxima@mail.ru

Аннотация. Статья посвящена становлению и развитию принципа равенства как общего принципа права в правовой системе, понятию и сущности принципа равенства в праве, философским и юридическим толкованиям этого принципа, значению принципа равенства в законодательстве, правоприменении и юридической ответственности, назначении наказания, правовой культуре, общественных отношениях, а также в международном праве. Актуальность темы исследования можно объяснить, прежде всего, тем, что в условиях углубления правовых реформ, проводимых в обществе, повышения правосознания населения, обеспечения прав и свобод человека общие принципы права имеют важное значение. Влияние общих принципов права, таких как справедливость, равенство, гуманизм, законность и демократизм, на развитие отраслей права бесспорно. Перечисленные принципы зафиксированы в настоящее время в Конституции и основных кодексах Республики Узбекистан. Цель работы – исследовать процесс становления принципа равенства, выяснить сущность и содержание данного принципа, различные толкования понятия принципа равенства, влияние принципа равенства на развитие международного права. Исследование опирается на такие методы, как системно-исторический, сравнительно-правовой и статистический анализ, формально-логический, общенаучные и частнонаучные методы научного исследования. Проведенное исследование на основе обзора различных подходов отечественных и зарубежных ученых позволило рассмотреть следующие вопросы: принципы права, понятие и содержание принципа равенства, связь данного принципа с принципами справедливости, законности; влияние принципа равенства на осуществление правосудия, назначение наказания. Результатами исследования можно воспользоваться в научной деятельности, связанной с исследованиями, посвященными общим принципам права, в процессе внесения изменений и дополнений в законодательство, в учебном процессе в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: право, равенство, правовые ценности, справедливость, правовая система, общие принципы права, международное право, правовое государство, гражданское общество.

UMUMHUQUQIY TAMOYIL SIFATIDA TENGLIK TAMOYILINING SHAKLLANISHI

Yusuvaliyeva Rahima Yusupovna,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Huquq nazariyasi va davlat boshqaruvi
kafedrasi professor v.b., y.f.n., dotsent

Annotatsiya. Maqola huquq tizimida umumhuquqiy tamoyil sifatida tenglik tamoyilining kelib chiqishi va shakllanishi, tushunchasi va mohiyati, uning falsafiy va huquqiy talqinlari, ushbu tamoyilning qonun ijodkorligi, huquqni qo'llash, odil sudlov va yuridik javobgarlik, huquqiy madaniyat va ijtimoiy

munosabatlar, shuningdek xalqaro huquqdagi ahamiyatiga bag'ishlangan. Tadqiqot mavzusining dolzarbligi, birinchi navbatda, jamiyatda olib borilayotgan huquqiy islohotlarni chuqurlashtirish, aholining huquqiy ongini oshirish, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda huquqning umumiy tamoyillari muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi. Adolat, tenglik, insonparvarlik, qonuniylik va demokratizm kabi huquqning umumiy tamoyillari huquq tarmoqlarining rivojlanishiga ta'siri shubhasizdir. Sanab o'tilgan tamoyillar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, O'zbekiston Respublikasining asosiy kodekslarida o'z aksini topgan. Ishning maqsadi – tenglik tamoyilining shakllanish jarayonini o'rganish, bu tamoyilning mohiyat va mazmunini aniqlash, tenglik tamoyili tushunchasining turli talqinlari, tenglik tamoyilining xalqaro huquqning rivojlanishiga ta'sirini o'rganishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli-tarixiy, qiyosiy-huquqiy va statistik tahlil, formal-mantiqiy, umumiy va xususiy ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Amalga oshirilgan tahlil natijasida mahalliy va xorijiy olimlarning turli yondashuvlarini ko'rib chiqish asosida huquq tamoyillari, tenglik tamoyili tushunchasi va mazmuni, bu tamoyilning adolat va qonuniylik tamoyillari bilan bog'liqligi, tenglik tamoyilining odil sudlovni amalga oshirish, jazo tayinlashga ta'sirini o'rganish kabi masalalar ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijalaridan huquqning umumiy tamoyillarini tadqiq qilish bilan bog'liq ilmiy faoliyatda, qonunchilikka o'zgartish va qo'shimchalar kiritish jarayonida, shuningdek oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonida foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: huquq, tenglik, huquqiy qadriyatlar, adolat, huquqiy tizim, umumhuquqiy tamoyillar, xalqaro huquq, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati.

FORMATION OF THE EQUALITY PRINCIPLE AS A GENERAL PRINCIPLE OF LAW

Yusuvalieva Rakhima Yusupovna,

Acting Professor of the Department of
Theory of Law and Public Administration of
University of the World Economics and Diplomacy,
Associate Professor, PhD

Abstract. *The article is devoted to the formation and development of the principle of equality as a general principle of law, the concept and essence of the principle of equality in law, philosophical and legal interpretations of this principle, the meaning of the principle of equality in lawmaking, law enforcement and legal responsibility, sentencing, legal culture, public relations and its essence in international law. The relevance of the research topic is explained primarily by the fact that in conditions of deepening legal reforms carried out in society, raising the legal awareness of the population, ensuring human rights and freedom, general principles of law are important. The influence of general principles of law such as justice, equality, humanism, legality and democracy on the development of branches of law is indisputable. The listed principles are reflected in the Constitution of the Republic of Uzbekistan as well as the basic codes of the Republic of Uzbekistan. The purpose of the work is to investigate the process of formation of the principle of equality, clarification of the essence and content of this principle, various interpretations of the concept of the principle of equality, the influence of the principle of equality on the development of international law. In the course of the study, the methods of system-structural, comparative-legal and statistical analysis, formal-logical, general scientific and specific scientific methods of scientific knowledge have been used. As a result of the work carried out, on the basis of a review of various approaches of domestic and foreign scientists, such issues as the principles of law, the concept and content of the principle of equality, the connection of this principle with the principles of justice and legality, the influence of the principle of the right on the administration of justice, the imposition of punishment have been analysed. The research results can be used in scientific activities related to research on the general principles of law and in the classes in higher educational institutions.*

Keywords: law, equality, legal values, justice, legal system, general principles of law, international law, rule of law, civil society.

Введение

Равенство и справедливость в отношениях между людьми и их обеспечение – один из вечных вопросов для любого государственного и общественного строительства. Идеи и представления о равенстве и справедливости менялись вместе с изменением истории человечества. Особую актуальность этот вопрос приобретает в обществах, находящихся в состоянии перехода на новое социально-экономическое устройство. Республика Узбекистан проходит именно такой период, поэтому понятия «равенство» и «справедливость» являются объектом тщательного изучения, осмысления и осуществления.

В части 1 Национальной стратегии Республики Узбекистан по правам человека, которая была принята 22 июня 2020 г., говорится о принятии комплекса мер по дальнейшей демократизации судебно-правовой сферы, обеспечению верховенства Конституции, справедливости, независимости судебной власти, внедрения принципа состязательности в судебный процесс, равенства граждан перед законом, гуманизма, повышения доверия населения к правосудию, расширению осуществления института «Хабеас корпус», усилению судебного надзора за следствием.

Особо нужно отметить Declaration of Principles on Equality – Декларацию принципов равенства, где отмечено, что принципы равенства были согласованы на нескольких этапах консультаций после обсуждения группой экспертов. На конференции «Принципы равенства и развитие правовых стандартов равенства», организованной 3-5 апреля 2008 года в Лондоне Equal Rights Trust и собравшей участников из всех регионов мира, имеющих достаточный опыт в различных сферах, включая практикующих юристов, активистов-правозащитников и ученых, эти принципы были также обсуждены. Участ-

ники обсудили окончательный вариант проекта, содержащий замечания, сделанные к ранней версии документа. Они также представили свои заключения и комментарии. На различных этапах разработки и обсуждения документа принимал участие ряд других экспертов [1].

Становлению и развитию принципа равенства как общего принципа права посвящены научные исследования таких ученых, как: Х.Т. Адилкариев, И.Т. Тультеев, Н.П. Азизов [2], Christiano Thomas [3], Nico Kolodny [4], Jeremy Waldron [5], Г.Н. Комкова [6], К.А. Чернов [6], М.А. Кудрявцев [8], И.С. Семенова [9], М.В. Пресняков [10], А.В. Поляков [11], И.И. Ефремова [12] и других.

Материалы и методы

Цель работы – исследовать процесс становления принципа равенства, выяснить сущность и содержание данного принципа, различные толкования понятия принципа равенства, влияние принципа равенства на развитие международного права.

Исследование опирается на такие методы, как системно-исторический, сравнительно-правовой и статистический анализ, формально-логический, общенаучные и частнонаучные методы научного исследования.

Проведенное исследование на основе обзора различных подходов отечественных и зарубежных ученых позволило рассмотреть следующие вопросы: принципы права, понятие и содержание принципа равенства, связь данного принципа с принципами справедливости, законности; влияние принципа равенства на осуществление правосудия, назначение наказания.

Результаты исследования

Одной из важнейших категорий права являются принципы права, они связывают между собой философскую и юридическую интерпретации права. Раскрывая

и конкретизируя его общее понятие, принципы права непосредственно выражают сущность права. Именно принципы права, выступая моделирующим началом взаимоотношений между субъектами правоотношений, составляют основу конкретных нормативных предписаний. Значимость и важность принципов права всегда приковывают особое внимание к осуществлению принципов права в юридической науке и практике. Принципы обычно рассматриваются в теории права в качестве идей, подлежащих реализации в нормативном регулировании и практике правоприменения. Выражаясь в терминологически сходных понятиях, эти идеи (справедливость, гуманизм, равенство, законность, интернационализм, демократизм, научная обоснованность и т. п.) имели различное содержание в разные исторические периоды.

Ключевой проблемой общественно-политической мысли на протяжении всей истории человечества является выяснение понятия и сущности равенства между людьми и путей его реализации. Пытаясь спрогнозировать такое развитие государственного и общественного устройства, при котором принципы социальной справедливости и равенства получили бы реальное воплощение, многие выдающиеся мыслители стремились сформулировать понятие, природу и признаки идеи равенства.

Форма утверждения и осуществления реальной демократии выражается в социальной ценности личности. И сама демократия основывается в свою очередь, прежде всего, на равенстве. Наделение государством равными правами каждого конкретного человека составляет суть равенства. Но здесь надо учитывать, что каждый человек обладает разными способностями, индивидуальностями и разной степенью свободы [6, с. 6].

Основу принципа равенства составляет идея равенства, которая проходит

несколько этапов развития: возникновение первых представлений о равенстве как об основе правового регулирования; становление и развитие идеологии правового равенства; отражение принципа равенства в ранне-демократических законодательных актах («Декларация прав и свобод человека и гражданина» Франции 1789 г., Конституция США; переход идеи равенства в разряд общечеловеческих ценностей, таких как естественные права человека; расширение сферы правового регулирования предполагает уточнение понятия и сущности идеи и принципа равенства в связи с усилением социальной составляющей права [7, с. 17].

Известные софисты, а затем Платон и Аристотель проявляли большой интерес к проблеме равноправия. Идеи данных и впоследствии других античных философов Древнего Рима и Древней Греции были развиты в трудах ряда философов эпохи Возрождения, таких как Г. Гроций, Ж. Боден, Ш.Л. Монтескье. Особую актуальность и практическую значимость приобрели вопросы о равноправии в эпоху Просвещения у Вольтера (Ф.М. Лруз), Т. Гоббса, Д. Дидро, Б. Спинозы, Ж.Ж. Руссо, Дж. Локка и др. Они, тщательно обосновав идеологическую интерпретацию идеи равноправия, перевели равноправие из философского контекста сначала в политический, а впоследствии – в правовое значение.

Труды социалистов-утопистов таких, как Т. Мор, Т. Кампанелла, А. Сен-Симон, Ш. Фурье и др., послужили фундаментом эгалитарной модели равноправия и имели важное значение для понимания кризиса формальной абстрактной модели равноправия. Социалистическая концепция равноправия, разработанная К. Марксом и Ф. Энгельсом, а также их последователями, легла в основу преобладающей в настоящее время социальной концепции равноправия и имела реша-

ющее значение для развития концепции равноправия [8, с. 15].

Отечественные ученые Х.Т. Адилкариев, И.Т. Тультеев, Н.П. Азизов отмечают [2, с. 201], что принцип равенства граждан перед законом характеризуется следующими признаками:

Во-первых, все граждане имеют одинаковый статус и положение. Также все граждане имеют одинаковые права и обязанности, но использование этих прав осуществляются по-разному. Например, кто-то хочет получить высшее образование и поступает в высшее учебное заведение, а другой гражданин не хочет или может не воспользоваться этим правом.

Во-вторых, данный принцип выражается в равенстве прав для всех граждан. Конституция и другие законы закрепляют эти права. Например, это право граждан избирать и быть избранными, право на местожительство, право на получение образования, право на труд, право на получение медицинской помощи, право на собственность и др.

В-третьих, в одинаковой ответственности граждан перед законом или по закону выражается принцип равенства. Каждое должностное лицо (в том числе и юридическое лицо), каждый гражданин без исключения несет ответственность перед законом или по закону.

Являясь одной из характерных черт демократии, принцип равноправия граждан является развитием принципа справедливости. Принцип равноправия закреплен в статье 18 Конституции Республики Узбекистан. С точки зрения закрепления, равноправие граждан существует в нормативном смысле в двух основных видах – равноправие граждан (ст. 21) и равенство граждан перед законом (ст. 18). Равенство мужчин и женщин (ст. 46), другие формы проявления равенства являются составной частью равноправия граждан.

Закрепление равенства как общего принципа права в Основном Законе Республики Узбекистан явилось толчком для его дальнейшего законодательного закрепления. Принцип равенства закреплен в ст. 5 Уголовного кодекса Республики Узбекистан, ст. 16 Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан, ст. 3 Кодекса Республики Узбекистан об административной ответственности, ст. 9 Кодекса Республики Узбекистан об административном судопроизводстве, ст. 1 Гражданского кодекса Республики Узбекистан, ст. 8 Гражданско-процессуального кодекса Республики Узбекистан, в ст. 7 Экономического процессуального кодекса Республики Узбекистан. Принцип равенства не только отражен в основных кодексах Республики Узбекистан, но и в остальных законах и подзаконных актах.

Российский ученый И.С. Семенова, отмечая, что принцип равенства является юридической категорией, подчеркивает: «Для эффективного выполнения задачи установления подлинной социальной справедливости, а также как философский базис, «равноправие» в качестве правового принципа позволяет вычлени несколько особенностей, которые обязательно должны быть отражены в конкретных правовых нормах и юридической доктрине. Структура равноправия как юридическая категория состоит из следующих элементов: равенство возможностей, равенство прав и свобод, равенство обязанностей, равенство положения, равенство в ответственности, недопустимость дискриминации, поощрения и взыскания, льготы и привилегии, гарантии.

Полное представление о сущности общеправового принципа равноправия состоит из ряда элементов, характеризующих принцип равноправия, раскрывающих сущность и содержание рассматриваемого принципа. К их числу можно отнести:

- равноправие по объему и содержанию составляет формальное и реальное равноправие;

- равноправие в материальном и процессуальном аспектах;

- равноправие в индивидуальном и коллективном аспектах;

- равноправие в территориальном, религиозном, национальном (национально-культурном) и общественно-политическом аспектах;

- равноправие в социально-демографическом аспекте.

Вышеперечисленные элементы помогают составить более основательное и полное представление об отдельных аспектах равноправия как комплексного принципа, а также позволяет расширить и углубить знания о равноправии, а это, в свою очередь, способствует лучшим его теоретической разработке и осуществлению в нормотворчестве, а также и в правоприменительной практике» [9, с. 12].

Концепция правового государства основана на понимании того, что в правовом государстве права человека обеспечиваются наиболее полно и последовательно, право является воплощением справедливости, а равенство всех перед законом осуществляется в деятельности всех органов власти. В правовом государстве нормы права общезначимы, в равной мере адресованы всем людям независимо от их фактических различий и обязательны для всех.

Е.Д. Мелешко, объясняя равенство с точки зрения либертарно-юридической теории права, выделяет следующие особенности данного принципа: «Свобода соотносится с понятием равенства: источником, критерием и олицетворением справедливости, а также как форма (и мера) свободы и равенства является право, обусловленное определенным способом производства, а также уровнем экономического, политического, социального,

культурного развития в его соответствии с законом. Закон, в свою очередь, выступает как официальная форма общеобязательно-нормативного признания или непризнания объективно сложившихся мер этой свободы и равенства. Особенность права, с точки зрения либертарно-правовой теории, состоит из реализации принципа свободы, выражающее формальное равенство, институционально закрепленное в государстве. Государство предстает здесь «как институциональная форма защиты свободы и принципом его деятельности по установлению и обеспечению равенства в процессе применения права (принципом правотворчества и правоприменения)» [13].

Только свободные люди могут быть субъектами права, и там, где нет свободы, не может быть и права. Свобода и независимость друг от друга физически различных людей подразумевает их признание формального равенства. Поэтому и право как систему норм можно рассматривать как равные меры (нормы и формы) свободы по единому масштабу, т. е. общему для всех субъектов и отношений, подпадающих под действие соответствующей нормы. В условиях полной или частичной несвободы (рабство, крепостничество, другие формы личной несвободы) само использование правовой формы (и возможность быть субъектом права) представляет собой привилегию лишь немногих.

Справедливость по своей сути везде и всегда может быть только правовой. Сильная справедливость – это правовая справедливость, т. е. соблюдение требований правового принципа равенства в соответствующих сферах и отношениях социальной жизни. Прямой противоположностью справедливости как выражению принципа всеобщего формального (правового) равенства выступает «справедливость» уравниловки.

Принцип равенства сохраняет важное значение для всех типов государственности и систем действующего права в различных социально-экономических формациях, при всем различии и многообразии конкретно-исторических форм проявления и действия принципов формального равенства (и, следовательно, права как всеобщей и равной меры свободы). Правовыми эти принципы являются собственно лишь в той мере, в какой нормативно выражен и действует принцип формальной свободы и формального равенства [14].

Принцип равенства всех перед законом выступает в качестве основополагающего начала формирования и функционирования правового государства. При этом основными чертами принципа равенства перед законом как принципа правового государства являются следующие [15, с. 10]:

- выражение единства и взаимосвязи права и государства;
- обеспечение единства правоприменения на всей территории государства;
- обладание статусом общепризнанного принципа правового регулирования.

По теории права все принципы взаимодействуют, вытекают друг из друга и тесно взаимосвязаны. Взаимодействие принципов в общей системе можно охарактеризовать следующим образом: общеправовые принципы отражают сущность и предназначение всей правовой системы; они являются непосредственно действующими; они пронизаны и отражены в отраслевых и межотраслевых принципах права.

Принцип равенства в данной системе занимает место общеправового принципа, определяющего в равной степени развитие всех отраслей права и правовых институтов. Изучение и анализ содержания и сущности общеправового принципа равенства имеет большое значение для определения сущности права, успешной реализации права, дальнейшего совер-

шенствования законодательства. Именно поэтому углубленное изучение понятия, системы и содержания принципа равенства не может рассматриваться как нечто абстрактное, далекое от повседневной деятельности субъектов правотворческого и правоприменительного процесса.

Анализируя соотношение понятий «равноправие» и «равенство», С.Б. Жамсуев отмечает, что термином «равноправие» обозначается сразу два начала: «равенство» и «право», поэтому он – термин является юридически более точным. Поэтому он указывает лишь на равенство прав, равенство перед правом, а не на фактическое равенство. Содержание этого принципа сводится к равенству всех в правовом смысле, а не к фактическому равенству людей [16, с. 35].

При определении принципа равенства обосновывается мысль о том, что это – идея, выражающаяся в следующих основных положениях:

- установление и применение юридических фактов, норм права, актов реализации прав и обязанностей для участников общественных отношений, то есть единой системы правовых средств, составляющих основу правового регулирования;
- создание системы изъятий из общего режима правового регулирования для отдельных участников общественных отношений;
- равенство прав, возможностей и обязанностей участников общественных отношений, в том числе конституционных прав и обязанностей;
- системы формирования организационных средств, необходимых для реализации прав и обязанностей участникам общественных отношений.

С.Г. Елисеев, А.Н. Чертков, проводя параллель между принципом права и правовой ценностью, трактуют принцип равенства следующим образом: «Без ценностей, имманентно присущих праву, оно

не сможет существовать как система. Ценности свободы, равенства и справедливости представляют собой имманентное, т. е. соответствующее природе предмета, присущее ему начало права. Так, ценность равенства проявляется в равной силе юридической нормы в отношении равноправных субъектов. Если одна и та же норма будет применяться в отношении равных субъектов неодинаковым образом, исчезнет всякая определенность правового регулирования, правовая система будет разрушена. Круг субъектов, обладающих равными правами, может меняться, но сам подход остается неизменным. Именно фундаментальные правовые ценности видятся системообразующим фактором правовой системы, поскольку в них должны выражаться сущностные характеристики права как социального регулятора. В свою очередь, представления людей о свободе, равенстве и справедливости наполняют формальные свободу, равенство и справедливость фактическим содержанием. Полагаем, фундаментальные ценности права, такие как свобода, равенство и справедливость, выступали основой сущности и назначения права на протяжении многих веков.

В рамках данного ценностного подхода выделяют следующие блоки правовых ценностей: абсолютные ценности – основные (высшие) ценности, под которыми понимается человек и ценности, которые с ним неразрывно связаны и опосредованы его неотъемлемыми правами (жизнь, здоровье, честь, достоинство), свободу, равенство, справедливость, демократию, правопорядок; специальные ценности, которые, будучи в своем большинстве опосредованы также его правами, охватывают безопасность, частную собственность, свободу вероисповедания и т. п.» [17].

М.В. Пресняков объясняет 2 вида равенства: «Фактическое равенство охватывает не только аспект равноправия

или равных правовых возможностей, но и равенство исходных жизненных обстоятельств (половозрастных, социальных, экономических и т. п.). Фактическое равенство, как правило, рассматривается как оппозиция равенству формальному. Правовые неравенства, устанавливаемые законодательством в виде предоставления отдельным категориям субъектов дополнительных льгот и привилегий призваны обеспечить им равные по сравнению с другими гражданами возможности реализации своих прав и скомпенсировать изначальное фактическое неравенство» [10, с. 12].

А.В. Поляков в концепте формального правового равенства выделяет четыре аспекта:

Во-первых, это идея изначального равенства субъектов правовой коммуникации (*коммуникативное равенство*). Такое равенство, основанное на свободе самоопределения субъектов, есть «априори» правовой реальности, которое тем не менее требует своего выявления и осмысления, одним из исторических результатов которого явилось признание равной правоспособности всех людей.

Во-вторых, это *нормативное правовое равенство*, которое вытекает из идеи правовой нормативности (как и любой другой нормативности). Ведь норма права как общее правило поведения отмеряет всем адресатам равную меру свободы, и в этом смысле равенство прав существует в рамках любой правовой системы, в которой действуют общие правила. В сочетании с первым аспектом формальное равенство свободы в предписании правовой нормы должно корректироваться свободой поведения других субъектов (границы моей свободы – свобода другого человека), но также идеей солидарности и справедливости.

В-третьих, это формальное правовое равенство как *правовой идеал*. С этой по-

зации необходимо стремиться к тому, чтобы наделить как можно большее количество людей наибольшими равными возможностями в пользовании своей свободой – признать за ними равные права как можно более широкого диапазона и в самых различных правовых ситуациях. Также необходимо культивировать исполнение своих правовых обязанностей как необходимой гарантии существования самих прав. Здесь формальное правовое равенство выступает как принцип права.

В-четвертых, формальное равенство прав может рассматриваться как принцип эквивалентности, соответствия, равноценности, (например, преступное деяние и уголовно-правовое воздаяние за него) [11].

В качестве сущности и принципа права формальное равенство включает в себя три взаимосвязанных, взаимообуславливающих и взаимодополняющих составных элемента, три сущностных свойства права: всеобщую равную меру (норму), всеобщую справедливость этой одинаково равной для всех формы регуляции и формальную свободу всех адресатов этой равной регулятивной меры (нормы) [18].

В нормативном содержании принципа равноправия можно выделить следующие аспекты: равные возможности собственного развития, которые представляют из себя необходимые предпосылки, процедуры для осуществления тех прав и свобод, которые закреплены в Конституции Республики Узбекистан; равные права, свободы, особо следует выделить равные обязанности; требование законности; единство материальных и процессуальных начал.

Реализация конституционных принципов равенства и справедливости как базовых ценностей демократического социального правового государства и гражданского общества представляет собой противоречивый и сложный процесс фор-

мирования и совершенствования всей системы социально-экономических, политико-правовых отношений на всех уровнях, что сопровождается, в свою очередь, не всегда совпадающими корпоративными, групповыми, индивидуальными интересами, различными формами реализации в этих отношениях.

Одной из ключевых проблем в этом плане является достижение баланса интересов личности, государства и общества в соответствующих сферах государственной и общественной жизни. Процесс по признанию, соблюдению и справедливой защите равных прав и свобод человека и гражданина государством имеет немаловажное значение.

Закрепление равенства и справедливости в юридической норме осуществляется несколькими путями. Самый простой из них – ее непосредственная фиксация в правовом установлении. Когда справедливость прямо не упоминается в нормативном правовом акте, она может закрепляться в нем в различных формах: путем установления определенного соотношения между правами и обязанностями; в виде равенства между участниками общественных отношений; путем индивидуализации санкций; посредством определения соответствующего характера целей и средств правовых норм. Как показатель справедливости, равенство в правовой сфере выражается в равноправии.

Принцип справедливости и равенства может по-разному проявляться в каждой отрасли права, и это многообразие форм только подчеркивает важное значение равенства как показателя справедливости. Своеобразие любой отрасли права проявляется и в том, что каждой из них принадлежит свой набор важнейших юридических ценностей в качественно своеобразном соотношении. Это касается и таких ценностей, как свобода, равенство и справедливость, причем в каждой отрасли

они группируются так, что одна выступает в качестве основной, а две другие – в качестве конкретизирующих [19, с. 14].

Являясь общечеловеческой ценностью, идеалом справедливого общественно-го устройства, принцип равенства прав и свобод человека и гражданина в то же время выступает необходимым условием и основой социальной стабильности, а также прогрессивного бесконфликтного развития государства и общества.

Принцип равноправия включает в себе единство социального и правового содержания, равноправие является и юридической категорией, формальным требованием, и проявлением фактического положения граждан, правовым показателем достигнутого уровня их социального равенства. Сущность равноправия положения человека и гражданина как общеправового принципа ярко выражена, так как главным источником неравенств всегда выступает социальный контекст. Социальная сущность принципа равноправия проявляется в: равных возможностях всестороннего развития членов гражданского общества; устранении образующихся в обществе стратификационных и дистрибутивных неравенств; оказании помощи незащищенным слоям общества: пенсионерам, многодетным семьям, инвалидам и другим категориям неимущих; запрете всякого рода преимуществ; недопустимости насильственного или какого-либо исключения из сферы действий закона.

Принципу равноправия индивидов международное право также придает основополагающее значение. Этот принцип на международном уровне понимается как комплексный, состоящий из ряда относительно самостоятельных принципов, содержание и перечень которых постоянно расширяется. При этом принцип недискриминации играет ведущую роль.

В международном праве в настоящее время четко прослеживается тенденция

перехода от установления в отдельных сферах общественной жизни стандартов равноправия и запрещения отдельных проявлений дискриминации к формированию единого правового статуса индивида на основе его международной правосубъектности как на региональном, так и на всемирном уровне международно-правового регулирования.

Равноправие индивидов в рамках международного права реализуется в процессе гармонизации и унификации их правового статуса на основе наднациональных стандартов. Существует ряд критериев классификации международных стандартов равноправия. Они могут быть классифицированы по следующим основаниям: по кругу субъектов, их подписавших; по кругу вопросов, регулируемых международными актами; по кругу вопросов равноправия, затрагиваемых конкретным международно-правовым актом; по степени обязательности международных актов [20, с. 9].

Российский ученый З.А. Дуллуев [21, с. 15] характеризует следующие особенности принципа равенства: «Социально-правовой режим равноправия граждан Российской Федерации имеет следующие основные признаки:

1) правовая основа – установлен в законодательстве (ст. 19 Конституции России) и, являясь органичной частью демократического режима, обеспечивается государством во всех сферах жизни, является всеобщим, объективно необходимым универсальным, создает особое правовое поле, способствующее благоприятному осуществлению равенства и свобод граждан России;

2) имеет следующую структуру: а) юридические факты, нормы права, акты реализации прав и обязанностей, правоотношения, правоприменение, т. е. всей системы конституционного механизма регулирования в России положения человека и гражданина; б) субъект: вся

система правоприменительных и правотворческих органов в России; в) объект: гражданин Российской Федерации, его конституционно-правовой статус; г) система социально-юридических гарантий равноправия граждан;

3) в содержании конкретных институтов равноправия воплощено нормативное содержание режима равноправия;

4) цель режима равноправия: оптимальное сочетание интересов государства и личности, требований свободы и равенства, материальных и процессуальных начал, входящих в систему стимулирующих и сдерживающих методов регулирования общественных отношений различных отраслей общественной жизни с участием граждан России; правопорядок и обеспечение законности, стабильность в обществе».

Режим равноправия граждан создает благоприятные условия для осуществления и удовлетворения потребностей в равенстве всех граждан России во всех сферах общественной жизни как своего рода правовой режим взаимоотношений человека и гражданина с государством и обществом, действующий на основе благоприятного сочетания демократических ценностей, таких как свобода и равенство (в том числе стимулов в виде льгот, привилегий либо ограничений) [22, с. 189].

Равенство сторон в судебном процессе является одним из важнейших аспектов реализации конституционного принципа равенства перед судом. Правовое положение любого участника конституционного или административного, уголовного, гражданского и арбитражного процесса определяется лишь его процессуальным статусом (обвиняемый, потерпевший, гражданский истец и ответчик, третье лицо и др.) и должно строго соблюдаться судом вне зависимости от фактического положения участника процесса. Так, каждой стороне при рассмотрении гражданских дел должны быть предоставлены

одинаковые процессуальные возможности: истцу не может быть дозволено то, что не разрешено ответчику, и наоборот, – стороны имеют полный паритет в их процессуальном положении [23, с. 7].

В.Г. Федорова уделяет особое внимание на следующие особенности осуществления принципа равенства в сфере применения юридической ответственности:

1. В праве демократических правовых систем, утверждающим равенство людей перед законом и их равноправие путем закрепления в международном и национальном законодательстве единой и одинаковой для всех меры справедливого, свободного и ответственного поведения людей в правовой сфере социальной жизни общества, принцип правового равенства представляет собой общепризнанную и основополагающую идею.

2. Главная особенность взаимосвязи принципа правового равенства и юридической ответственности заключается в том, что под влиянием принципа правового равенства юридическая ответственность приобретает свойства института уравнивания людей в ответственности.

3. В качестве основной идеи как принципа юридической ответственности правовое равенство состоит в утверждении одинаково равного положения дееспособных субъектов перед нормами юридической ответственности (равенство перед законом), а также равенства участников ее охранительных и регулятивных отношений по основанию предмета юридически подотчетного поведения и форм осуществления данных отношений (равноправие) [24, с. 14].

При применении института освобождения от уголовного наказания, в особенности в случаях правильного применения видов освобождения от уголовного наказания, и соблюдения законных условий и оснований освобождения принцип равенства граждан перед законом раскрывается

наиболее четко. Также принцип равенства граждан перед законом распространяется и на основания привлечения к уголовной ответственности, что не исключает ее индивидуализации при назначении уголовного наказания и освобождения от такового.

Рассматриваемый принцип реализуется в полном объеме и в институте освобождения от уголовного наказания. Для этого необходимо правильное соблюдение оснований и условий освобождения от наказания [12, с. 26].

Выводы

Вышеприведенный научный анализ принципа равенства как общего принципа права позволяет выявить существующие проблемы в осуществлении данного принципа:

- принцип равенства часто нарушается в трудовых правоотношениях: при приеме на работу, при переводе на другую работу и увольнении с работы;

- в процессе применения данного принципа в привлечении к юридической ответственности, а именно в уголовно-процессуальных правоотношениях;

- в осуществлении правосудия: нередки случаи ущемления прав женщин, пенсионеров и несовершеннолетних по уголовным и гражданским делам.

Обеспечение принципа равенства имеет непреходящее значение в сфере осуществления прав человека, в связи с этим важно соблюдение данного принципа во всех сферах правовой жизни, а именно:

- выявление недостатков в закреплении данного принципа в правотворческой и законодательной деятельности;

- исследование нарушений данного принципа в сфере применения права;

- проведение социологических исследований по выявлению нарушений применения принципа равенства в осуществлении правосудия;

- имплементация международно-правовых механизмов в сфере обеспечения принципа равенства в национальное законодательство Республики Узбекистан.

Обеспечение принципа равенства перед законом должно быть приоритетным направлением во всей правоприменительной деятельности правовой системы Республики Узбекистан. Для этого необходимо разработать:

- правовой механизм, позволяющий в полной мере осуществление данного принципа;

- правовые стандарты с учетом зарубежного опыта в реализации принципа равенства;

- гарантии обеспечения принципа равенства, закрепленные в соответствующих законах и подзаконных актах и призванные обязать применять принцип равенства в деятельности судов, прокуратуры, Уполномоченного по правам человека в Республике Узбекистан, других правозащитных органов.

Только полная реализация предоставленных органам власти полномочий в деле защиты прав и свобод граждан способна на деле обеспечить воплощение в жизнь общего принципа права – принципа равенства всех перед законом.

REFERENCES

1. Declaration of Principles on Equality. Available at: <https://www.equalrightstrust.org/ertdocumentbank/Pages%20from%20Declaration%20perfect%20principle.pdf/>.

2. Adilkariyev X.T., Tulteyev I.T., Azizov N.P. Teoriya gosudarstva i prava [Theory of state and law]. Textbook edited by H.T. Adilkarieva. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2014, p. 201.
3. Thomas Ch. The constitution of equality: democratic authority and its limits. Oxford, Oxford University Press, 2008.
4. Kolodny N. Rule over none ii: social equality and the justification of democracy. *Philosophy & Public Affairs*, 2014, no. 42 (4), pp. 287-336.
5. Waldron J. One another's equals: the basis of human equality. Cambridge, Massachusetts, *The Belknap Press of Harvard University Press*, 2017.
6. Komkova G.N. Konstitutsionniy prinsip ravenstva prav i svobod cheloveka i grazhdanina v Rossii: ponyatiye, soderjaniye, mexanizm zashity [The constitutional principle of equality of rights and freedoms of man and citizen in Russia: concept, content, protection mechanism]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Saratov, 2003, p. 13. Available at: <https://www.dissercat.com/content/konstitutsionnyi-printsip-ravenstva-prav-i-svobod-cheloveka-i-grazhdanina-v-rossii-ponyatie/>.
7. Chernov K.A. Prinsip ravenstva kak obshchepравovoy prinsip rossiyskogo prava [The principle of equality as a general legal principle of Russian law]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Moscow, 2003, p. 17. Available at: <https://www.dissercat.com/content/printsip-ravenstva-kak-obshchepравovoi-printsip-rossiiskogo-prava/>.
8. Kudryavsev M.A. Konstitutsionniy prinsip ravnopraviya v pravovom polozenii lichnosti v Rossiyskoy Federatsii [The constitutional principle of equality in the legal status of the individual in the Russian Federation]. Moscow, 2004, p. 15. Available at: <https://www.dissercat.com/content/konstitutsionnyi-printsip-ravnopraviya-v-pravovom-polozenii-lichnosti-v-rossiiskoi-federatsii/>.
9. Semenova I.S. Prinsip ravenstva pered zakonom v ugovnom prave Rossiyskoy Federatsii [The principle of equality before the law in the criminal law of the Russian Federation]. Saratov, 2004, p. 12. Available at: <https://www.dissercat.com/content/printsip-ravenstva-pered-zakonom-v-ugovnom-prave-rossiiskoi-federatsii/>.
10. Presnyakov M.V. Konstitutsionniy prinsip spravedlivosti: yuridicheskaya priroda i normativnoye soderjaniye [Constitutional principle of justice: legal nature and normative content]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Saratov, 2010, p. 12. Available at: <https://www.dissercat.com/content/konstitutsionnyi-printsip-spravedlivosti-yuridicheskaya-priroda-i-normativnoe-soderzhanie/>.
11. Polyakov A.V. Priznaniye prava i prinsip formalnogo ravenstva. [Recognition of law and the principle of formal equality]. *Pravovedeniye – Jurisprudence*, 2015, no. 6 (323), pp. 57-77. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/priznanie-prava-i-printsip-formalnogo-ravenstva/>.
12. Yefremova I.I. Prinsip ravenstva grazdan pered zakonom v institute osvobojdeniya ot nakazaniya [The principle of equality of citizens before the law in the institution of exemption from punishment]. *Voprosy ekonomiki i prava – Issues of Economics and Law*, 2014, no. 10, p. 26.
13. Meleshko Ye.D. Svoboda i ravenstvo kak sennostnye osnovaniya libertarno-pravovoy teorii [Freedom and equality as value foundations of libertarian legal theory]. Available at: [https://www.bsu.edu.ru/upload/iblock/460/N%202\(173\)%20%D0%B2%D1%8B%D0%BF%2027.pdf/](https://www.bsu.edu.ru/upload/iblock/460/N%202(173)%20%D0%B2%D1%8B%D0%BF%2027.pdf/).
14. Muhamadiyeva Ye.M. Status prava: spravedlivost i prinsip formalnogo ravenstva [Status of Law: Justice and the Principle of Formal Equality]. Available at: <http://sun.tsu.ru/mminfo/000063105/308/image/308-30.pdf/>.
15. Zubakin V.Yu. Konstitutsionniy prinsip ravenstva vseh pered zakonom v Rossiyskoy Federatsii [The constitutional principle of equality of all before the law in the Russian Federation]. Abstract of PhD thesis. Saratov, 2006, p. 10. Available at: <https://www.dissercat.com/content/konstitutsionnyi-printsip-ravenstva-vsekh-pered-zakonom-v-rossiiskoi-federatsii/>.
16. Jamsuyev S.B. Konstitutsionniy prinsip ravnopraviya kak osnova pravovogo statusa cheloveka i grazhdanina v Rossiyskoy Federatsii [The constitutional principle of equality as the basis of the legal status of a person and a citizen in the Russian Federation. Moscow, 2010, p. 35. Available at: <https://>

www.dissercat.com/content/konstitutsionnyi-printsip-ravnopraviya-kak-osnova-pravovogo-statusa-cheloveka-i-grazhdanina/.

17. Yelisseyev S.G., Chertkov A.N. Svoboda, ravenstvo i spravedlivost v sisteme pravovykh sennostey [Freedom, equality and justice in the system of legal values]. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/svoboda-i-ravenstvo-kak-tsennostnye-osnovaniya-libertarno-pravovoy-teorii/viewer/>.

18. Grafskiy V.G. Printsipi zakonnosti i spravedlivosti v istorii zakonodatelstva rossii i zapadnoevropeyskix gosudarstv [Principles of legality and justice in the history of the legislation of Russia and Western European states]. *Proceedings of the Institute of State and Law of the Russian Academy of Sciences*, 2019, vol. 14, no. 6. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/printsipy-zakonnosti-i-spravedlivosti-v-istorii-zakonodatelstva-rossii-i-zapadnoevropeyskih-gosudarstv/pdf/>.

19. Djantuxanov V.Z. Ravenstvo i spravedlivost kak konstitutsionniye sennosti grazhdanskogo obshchestva [Equality and justice as constitutional values of civil society. Abstract of diss. candidate of legal sciences]. Abstract of PhD thesis. Mahachkala, 2006, p. 14. Available at: <https://www.dissercat.com/content/ravenstvo-i-spravedlivost-kak-konstitutsionnye-tsennosti-grazhdanskogo-obshchestva/>.

20. Jigachev A.V. Zashita konstitutsionnogo printsa ravenstva prav i svobod cheloveka i grazhdanina Konstitutsionnym sudom Rossiyskoy Federatsii [Protection of the constitutional principle of equality of rights and freedoms of man and citizen by the Constitutional Court of the Russian Federation]. Abstract of PhD thesis. Saratov, 2005, p. 9. Available at: <https://www.dissercat.com/content/zashchita-konstitutsionnogo-printsipa-ravenstva-prav-i-svobod-cheloveka-i-grazhdanina-konsti/>.

21. Dulluyev Z.A. Realizatsiya printsa ravenstva pered zakonom i sudom v sovremennoy Rossii [Implementation of the principle of equality before the law and the court in modern Russia]. Moscow, 2010, p. 15. Available at: <https://www.dissercat.com/content/realizatsiya-printsipa-ravenstva-pered-zakonom-i-sudom-v-sovremennoi-rossii/>.

22. Kapranova Yu.V. Konstitutsionnye osnovi ravnopraviya grazhdan Rossiyskoy Federatsii [Constitutional foundations for the equality of citizens of the Russian Federation]. Abstract of PhD thesis. Rostov-on-Don, 2001, p. 189. Available at: <https://www.dissercat.com/content/konstitutsionnye-osnovy-ravnopraviya-grazhdan-rossiiskoi-federatsii/>.

23. Malyasov R.A. Konstitutsionniy printsa ravenstva cheloveka i grazhdanina pered sudom v sovremennoy Rossii [The constitutional principle of equality of man and citizen before the court in modern Russia]. Abstract of PhD thesis. Saratov, 2005, p. 7. Available at: <https://www.dissercat.com/content/konstitutsionnyi-printsip-ravenstva-cheloveka-i-grazhdanina-pered-sudom-v-sovremennoi-rossii/>.

24. Fedorova V.G. Printsip pravovogo ravenstva i yuridicheskaya otvetstvennost [The principle of legal equality and legal responsibility]. Abstract of PhD thesis. Volgograd, 2003, p. 14. Available at: <https://www.dissercat.com/content/printsip-pravovogo-ravenstva-i-yuridicheskaya-otvetstvennost/>.

UDC: 92(042)(571.1)

BUYUK G'ALABA YO'LIDA O'ZBEKISTONLIK LAR NING FRONT ORTIDAGI MATONATI

Azimov Hakimali Imomovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti professor v.b., tarix fanlari nomzodi

ORCID: 0000-0001-5331-0588

e-mail: khakimaliazimov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqimizning fashizmga qarshi janglarda qahramonlik namunalarini ko'rsatibgina qolmay, balki front ortida ham fidoyilarcha mehnat qilib, frontni uzluksiz ravishda kerakli ashyolar bilan ta'minlaganliklari haqidagi ma'lumotlar o'z aksini topgan. Zero, Buyuk g'alaba fashizmga qarshi kurashda ishtirok etgan barcha xalqlar qatorida O'zbekiston xalqining ham g'alabasi edi. Darhaqiqat, O'zbekiston xalqi Ikkinchi jahon urushining g'alaba bilan yakunlanishi uchun bor imkoniyatlarini ishga soldi. Bir so'z bilan aytganda, xalqimiz urush yillarida frontni front orti bilan mustahkamlashga ham salmoqli hissa qo'shdi. Maqolada aynan ushbu masalalar atroflicha tahlil qilishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: front, front orti, evakuatsiya, harbiy texnika, Chkalov nomli aviasozlik zavodi, 9-may – Xotira va qadrlash kuni, fashizm, diviziya, polk, posilka, mudofaa fondi, harbiy eskadrilya, tinchlik, ezigulik, harbiy eshelon.

ГЕРОИЗМ УЗБЕКИСТАНЦЕВ В ТЫЛУ НА ПУТИ К ВЕЛИКОЙ ПОБЕДЕ

Азимов Хакимали Имамович,

кандидат исторических наук, и.о. профессора

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В этой статье описано то, как узбекский народ проявил героизм в борьбе с фашизмом, самоотверженно работал в тылу и обеспечивал фронт необходимыми продуктами. Победа над фашизмом была триумфом в том числе и узбекистанцев, наряду со всеми другими народами, участвовавшими в борьбе с фашизмом. Одним словом, наш народ во время войны внес значительный вклад в укрепление фронта. В статье была предпринята попытка тщательно проанализировать именно эти проблемы.

Ключевые слова: фронт, за фронтом, эвакуация, авиационный завод имени В.П. Чкалова, военная машина, завод Ростсельмаш, дивизия, полк, западный фронт, посылка, фонд обороны, военная эскадрилья, военное оборудование, чрезвычайная ситуация, фашизм, годы войны, 9 мая – День памяти и почестей, мир, добро, зло, высшие эшелоны.

HEROISM OF THE UZBEK PEOPLE IN THE HOME FRONT ON THE WAY TO A GREAT VICTORY

Azimov Hakimali Imamovich,

Acting Professor of Tashkent State University of Law,

Candidate of Historical Sciences

Abstract. *This article describes how our people showed heroism not only in the fight against fascism but also selflessly worked behind the front and provided the front with the necessary supplies. After all, the victory over fascism was a triumph of the Uzbeks, among all the peoples who participated in the fight against fascism. In a word, our people during the war made a significant contribution to strengthening the front. In the article, an attempt was made to carefully analyze these problems precisely.*

Keywords: *front, behind the front, evacuation, V.P. Chkalov Aviation Plant, military vehicle, Rostselmash factory, division, regiment, western front, parcel, defense fund, military squadron, military equipment, emergency, fascism, years of war May 9 is a day of memory and honors, peace, good, evil, higher echelons.*

***Fashizm ustidan qozonilgan buyuk g'alabaning 77 yilligiga,
ota-bobolarimizning front ortida ko'rsatgan jasoratiga,
shuningdek 9-may – Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlanadi.***

Ikkinchi jahon urushi yillarida fashistlar Germaniyasini yengish va g'alabani qo'lga kiritishda xalqimiz salmoqli hissa qo'shdi. Yurtdoshlarimizning front ortida ko'rsatgan buyuk matonati tarix sahifalaridan munosib joy oldi. Zero, bu buyuk g'alabada sobiq Ittifoqning barcha xalqlari qatori O'zbekiston xalqining ham teng munosib hissasi bor. Shuni alohida qayd etish joizki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 9-may kuni Buyuk G'alabaning 75 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda ta'kidlaganlaridek: **“Olovli urush yillarida butun O'zbekiston xalqi “Hamma narsa – front uchun”, “Hamma narsa – G'alaba uchun!” degan hayotiy e'tiqod bilan yashadi. Mamlakatimiz front ortidagi mustahkam ta'minot bazasiga aylandi. O'zbekiston xalqi jang maydonlariga katta miqdorda qurol-yarog', oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon va boshqa zarur mahsulotlarni yetkazib berdi. Ko'p millatli aholimizning fidokorona mehnati bilan respublikamizdagi 300 ga yaqin korxonada harbiy mahsulotlar ishlab chiqarildi. Shu davrda front hududlaridan yurtimizga 151 ta zavod ko'chirib keltirildi va g'oyat qisqa fursatda ishga tushirildi. Ming-minglab urush qatnashchilari mamlakatimizda tashkil etilgan harbiy gosptallarda davolanib**

shifo topdilar”. O'zbekistonliklar fashizmga qarshi janglarda qahramonlik namunalarini ko'rsatibgina qolmay, balki front ortida ham fidoyilarcha mehnat qilib, frontni uzluksiz ravishda kerakli ashyolar bilan ta'minladilar. Ezgulikni hayot mazmuni deb bilgan xalqimizning madadkor eshlonlari frontga uzluksiz ravishda jo'natib turildi.

Respublikamizga front chizig'idan ko'chirib keltirilgan sanoat korxonalarini joylashtirish, ularni qiyin bir sharoitda tezda ishga tushirish, evakuatsiya qilingan aholiga g'amxo'rlik ko'rsatish, yarador jangchilarga yordam berish, front uchun qurol-yarog', kiyim-kechak, oziq-ovqat tayyorlash va yetkazib berish, yangi qismlar tuzib, frontga safarbar etish, jangchilarning oilasiga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish, qisqasi, front uchun, g'alaba uchun nimaiki kerak bo'lsa, o'zbekistonliklar barcha ishni amalga oshirdilar. Front orti ham janggoh kabi jasorat maydoniga aylandi.

Darhaqiqat, O'zbekiston xalqi Ikkinchi jahon urushining g'alaba bilan yakunlanishi uchun bor imkoniyatlarini ishga soldi. Front uchun zarur bo'lgan o'q-dori, harbiy texnika va boshqa anjomlar yetkazib berishda tinimsiz mehnat qildi. Urush davrining eng murakkab vazifalaridan biri iqtisodiyotni harbiy izga solish edi. Front yaqinidagi hududlardan ko'chirilayotgan aholi, sanoat korxonalari, o'quv yurtlari

va boshqalarning aksariyati O'zbekistonga yuborildi. Keltirilgan korxonalarni qabul qilish va joylashtirish hamda bir vaqtning o'zida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun 1941-yil 25-avgustda O'zbekiston KP(b) Markaziy Qo'mitasining birinchi kotibi U. Yusupov rahbarligida maxsus komissiya tuzildi.[6, 136-b.] Bu ishlarni tashkil etishda, unga rahbarlik qilishda Y. Oxunboboyev, A. Abdurahmonov, V.A. Bilbas, Ye. Ortiqboyev va boshqalarning xizmatlari katta bo'ldi.

1941-yil iyuldan 1941-yil noyabrga qadar Sharqqa 1360 yirik harbiy korxona [7, 19-b.], shundan O'zbekistonga 104 ta zavod-fabrikalar evakuatsiya qilindi. Jumladan, Toshkentga Moskvadan Chkalov nomli aviasozlik (1941-yil noyabrda), "Elektrokabel", "Podyomnik", "Krasniy put" zavodlari, Leningraddan "Vulqon" zavodi sexi, to'qimachilik va mashinasozlik zavodlari (1941-yil avgustda), Rostovdan "Rosselmash" zavodi (1941-yil kuzda), Xarkovdan Arqon zavodi (1941-yil oktabrda) (shu zavod asosida Toshkent "Kinap" yigiruv tikuv fabrikasi vujudga keldi) va boshqa shaharlardan ko'plab zavod va korxonalar ko'chirib keltirildi. 1941-yil dekabrga kelib, Toshkentdagi 63 ta korxona va respublikadagi boshqa 230 ta korxona mahsulotlar bera boshladi. Shuningdek, urush yillarida O'zbekistonda 280 ta yangi korxonalar barpo etilib, ishga tushirildi. [18, 444-445-b.] Barpo etilayotgan korxonalarning aksariyati to'liq jihozlanmasdan majburiy sur'atda tezkorlik bilan ishga tushirilib, front uchun mahsulot bera boshlagan edi.

Respublikaga ko'chirib keltirilgan sanoat korxonalarida ishlash va front uchun mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash maqsadida mehnatga layoqatli aholidan o'smirlar, nafaqaxo'rlar, ayollarni safarbar etish hisobiga ishchi-xizmatchilar soni oshirildi. Bu haqda Rossiya Federatsiyasining O'zbekistondagi Favqulodda va Muxtor elchisi bo'lib ishlagan F.M. Muxametshinning urush yillarida yurtdoshlarimizning front va front ortidagi jasorati to'g'risida aytgan fikrlarini keltirib o'tish

o'rinlidir: "G'alaba uchun o'zbek xalqining farzandlari katta hissa qo'shdi. Ular jasorat va qahramonlik namunalari ko'rsatdi. Respublika g'alabani iqtisodiy jihatdan ta'minlashda ham ishtirok etdi. Sanoatning asosiy qismi qurol va harbiy texnika ishlab chiqarishga o'tkazildi. Zavod va fabrika, shaxta va elektr stansiyalar jamoasi tun-u kun uzluksiz ishladi, minglab ayollar erkaklarga xos bo'lgan sohani egallab, frontga ketgan erkaklar o'rnida yuksak faoliyat ko'rsatdilar" [8].

Korxonalarning ko'pchiligi dastlabki oylardayoq frontga mahsulot bera boshladi. Masalan, 1941-yil 10-sentabrda Sumidan Chirchiqqa keltirilgan mashinasozlik zavodi qirqinchi kuni o'qdori, zarur qismlar, bir necha oydan so'ng esa minomyotlar ishlab chiqara boshladi. 1941-yil 20-noyabrda Moskva ostonalaridan Toshkentga V.P. Chkalov nomidagi aviatsiya zavodi anjomlari yuklangan eshelon yetib keldi. Oradan 40 kun o'tganidan so'ng 1942-yil 7-yanvarda aviasozlar birinchi O'zbekistonda ishlab chiqarilgan jangovar PS-84 va 1942-yil sentabrda esa yangi Li-2 nomi bilan yaratilgan samolyotlarni frontga jo'natdilar. Zavod ishchilari ba'zi kunlari 2-3 tadan harbiy samolyotlar ishlab chiqardilar. Zavod bilan birgalikda yuborilgan injener-texniklardan I.T. Uskov, M.M. Kunakov, V.N. Sivets, S.M. Yegorov va mahalliy millat vakillaridan A. Ibragimov, M. Shokirov, X. Shermammedov, Z. Samikov va boshqalar yelkama-yelka turib xizmat qildilar. 1942-yil boshlarida bu zavodga qo'shimcha yana ikki mingga yaqin mahalliy aholi ishga jalb qilindi [9, 364-365-b.]. Shuni aytish kerakki, urush yillarida sobiq Ittifoq miqyosidagi aviatsiya zavodlari 108 ming harbiy mashinalar ishlab chiqardi. Shu yillarda fashistlar Germaniyasi esa 78,9 ming samolyot ishlab chiqargan edi [8]. Demak, sobiq Ittifoq miqyosida fashistlar armiyasidagiga nisbatan ko'p harbiy mashinalar ishlab chiqarildi. Albatta, bunda O'zbekistonning ham katta hissasi borligidan dalolatdir.

1941-yilning noyabr oyi boshlarida O'zbekistonga Rostovdan evakuatsiya qilingan "Rosselmash" zavodi bir haftadan keyin minomyot snaryadlarini ishlab chiqara boshladi. Ushbu zavodning qurol-aslahalar, "katyusha" va minomyot snaryadlari ishlab chiqarish rejalarining bajarilishi qat'iy nazoratda bo'lib, 1941-yil 18-28-dekabrda O'zbekiston Respublikasi hukumati va KP(b) MQ tomonidan qabul qilingan qarorda o'z aksini topgan edi. Qabul qilingan qarorlar har qanday sharoitda ham qat'iy bajarilishi zarur edi.

1942-yil fevralga kelib, minomyot snaryadlarining birinchi partiyasi frontga jo'natildi. Bu qurol-yarog'lar bilan bir qatorda O'zbekiston hukumati front uchun tanklar ishlab chiqarishni ham ko'paytirishni yo'lga qo'yish masalasiga e'tibor qaratdi va 1941-yil 9-dekabrda bu haqda maxsus qaror qabul qildi. Unga ko'ra, front uchun, g'alaba uchun xalqimiz o'z hisobidan, yillar davomida yaxshi niyat bilan to'plagan mablag'lari evaziga "O'zbekiston kolxozchisi", "O'zbekiston komsomoli", "O'zbekistonning 20 yilligi" nomi ostida tank kolonnalari, "O'zbekiston avia-eskadriliyasi", "Sanitariya-aviatsiya polki" kabilar ishlab chiqarilib, frontga o'zbek xalqi nomidan yuborildi. Ular jang maydonlarida yuksak mahorat ko'rsatib, g'alabani tezlashtirishda munosib hissa qo'shdilar. Shuningdek, "O'zbekiston komsomoli" nomli bronepoyezd ham qurilib, 1944-yil Leningrad frontiga jo'natildi. Haqiqatan ham, O'zbekistondan qurol-aslaha, oziq-ovqat va kiyim-kechak ortilgan eshelon ketidan eshelon frontga jo'nab ketardi.

Vaziyatning murakkabligiga qaramasdan, xalqimiz o'z jangchilari haqida o'yladi. Ayniqsa, o'zbek paxtakorlarining frontdagi yurtdoshlariga yo'llagan maktubi jangchilarga qanot bag'ishladi. Ular askarlarga qarata shunday xat yozishgan edi: "Urush maydoni bizdan bir necha ming kilometr narida bo'lsa ham, to'p va avtomatlarning ovozi bizga eshitilib turibdi. Bu to'p va avtomatlar-

dan otish uchun bizning paxtamiz kerak. Armiyaning yaxshi, issiq kiyingan jangchi va komandirlarini ko'rib turibmiz. Ularning kiyimboshlari uchun ham bizning paxtamiz kerak. Yarador bo'lgan jangchilarga mehrshafqat ko'rsatib, uning yarasini bog'layotgan hamshirani ham ko'rib turibmiz. Uning qo'lidagi doka ham bizning paxtamizdan to'qilgan. Biz barcha paxtakorlar paxtakor respublikalarni front uchun ko'proq paxta berishga chaqiramiz" [10]. Ko'rinib turibdiki, O'zbekiston paxtasiga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'lgan. Buning ortida esa og'ir mashaqqatlar turar edi. Bu so'zlar mehnatkash o'zbek xalqining dilso'zi edi. Buning zaminida O'zbekistonning fashizmni yengish uchun qilgan mehnati, o'zbek xalqining g'alaba uchun hech narsani ayamaganligi, fashizm balosidan qutulish uchun ko'rsatgan beminnat mehnati yotar edi.

Har bir xonadonga yopirilib kirgan urush qabohati odamlarni og'ir sinovlarga, mahrumliklar va azob-uqubatlarga mubtalo qildi. Shaharda ishchilar va xizmatchilarga kuniga 400-500 grammdan, qaramog'i ostidagilariga esa 300 grammdan non berish belgilangan edi. Amalda esa belgilangan me'yordan kam olishar edi [11]. Me'yorlangan taqsimot qishloq aholisiga tatbiq etilmadi. Natijada qishloq aholisi urush yillarida og'ir ahvolda yashadi. O'zbekiston dehqonlari qiyinchiliklarga qaramasdan, fidokorona mehnat qildilar. Urush yillarida respublika dehqonlari front ehtiyojlari uchun 4 mln 148 ming t paxta, 82 mln pud g'alla, 54067 t pilla, 195 ming t sholi, 57 ming 444 t meva, 36 ming t quritilgan meva, 159 ming 300 t go'sht, 22 ming 300 t jun va boshqa ko'pgina mahsulotlar yetkazib berdi. Respublikamizning barcha viloyatlari va Qoraqalpog'iston mehnatkashlari ushbu tadbirni amalga oshirish borasida faol ishtirok etdilar [12, 89-91-b.].

1942-yilda Samarqand viloyati ahli frontga 6,75 t mayiz, 22,3 t quruq meva, 5,9 t sabzavot, 5077 l vino, 38 s shirinlik,

1034 kg guruch, 13 s moy va 24 ming so'm pul yubordilar. G'arbiy frontda jang qilayotgan, otaliqqa olingan general M.A. Siyazov qo'mondonlik qilayotgan 12-gvardiyachi diviziyaga 25 vagon sovg'a jo'natdilar. Unda 10 vagon vino, 3 vagon go'sht, 5 vagon quruq meva, 1 vagon guruch va 6 vagon boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bor edi. Sovg'a-salomlarni yetkazish uchun borgan delegatsiya tarkibida bo'lgan akademik Vohid Abdullayev keyinchalik bu haqda "Madadkor eshelon" nomli kitob yozgan edi (Toshkent, Yosh gvardiya, 1984).

Front uchun Surxondaryo viloyati 14 mln so'm pul, 300 t go'sht, 550 t don, 50 t yog', 180 t quruq meva, 55 ming dona issiq kiyim jo'natdi. Qurshovda qolgan Leningrad mudofaachilari uchun esa 13 vagon qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan birga, 800 ming so'm pul va katta miqdordagi kiyim-kechak yetkazib berdilar [12, 89-91-b.] O'zbekiston ahli urushning dastlabki 6 oyi mobaynida frontga 421,5 mingta turli issiq kiyimlar yubordi. Yakka tartibda va jamoat yo'li bilan yuborilgan posilkalar va oziq-ovqatlar bunga kirmaydi [13, 114-116-b.] Shuningdek, respublika korxonalari 34 xil mahsulot chiqarib, 1941-1945-yillar mobaynida jangchilar uchun 7518,8 mingta gimnastyorka, 2636,7 mingta paxtali nimcha, 2861,5 mingta armiya etigi va boshqalarni tayyorlab berdilar [13].

Jangchilar uchun respublikadan sovg'alar tinimsiz yuborib turildi. 1942-yil 28-yanvarda O'zbekiston Xalq Komissarlari Kengashi va O'z KP(b) MQ 164-son qaror qabul qildi [14, 72-b.] Ushbu qaror sovg'alar to'plashni tashkil etish haqida bo'lib, alohida o'rnak ko'rsatgan jangchilarga yakka tartibda ham sovg'alar tayyorlash kerakligi nazarda tutilgan edi. Birgina 1942-yil 15-may oyidagi ma'lumotga ko'ra, O'zbekistondan jangchilar uchun turli frontlarga, Rossiya shaharlarining harbiy gospitalariga 1941-yil 9-sentabrdan 1942-yil 9-mayiga qadar yuborilgan sovg'alar 415 vagonni tashkil etgan edi. Bulardan tash-

qari, O'zbekiston XXKning 1942-yil 5-iyundagi 2766-R-son farmoyishiga asosan, 1942-yil 11-iyunda 154-o'qchi diviziyasi uchun 480016 raqamli vagonda quyidagi mahsulotlar jo'natildi: 5041 kg guruch, 2523 kg kishmish, 248 kg quruq olma, 244 kg yong'oq va hokazolar [15, 2-b.].

O'zbekistonning frontga bu kabi keng miqyosda ko'rsatgan iqtisodiy yordami shundan dalolat beradiki, respublikamiz urush yillarida frontni o'q-dori, qurol-aslaha bilangina emas, balki iqtisodiy jihatdan ham ta'minlovchi maskanga aylangan edi. Albatta, buning ortida xalqimizning og'ir mehnati yotardi. Ammo xalqimiz shuni bilardiki, armianing – harbiylarning iqtisodiy jihatdan to'q bo'lishi g'alabani ta'minlovchi omillardan biridir. Bir so'z bilan aytganda, xalqimiz urush yillarida frontni front orti bilan mustahkamlashga ham salmoqli hissa qo'shdi.

Jangovar diviziyalar, harbiy kemalarda gi askarlar otaliqqa olinib, ularga sovg'alar yuborib turishga respublika hukumati jiddiy e'tibor berdi. O'zbekiston mehnatkashlari tomonidan otaliqqa olingan "Marat" linkori, 5-o'qchi Orlov diviziyasi, 162-O'rta Osiyo – Novgorod – Shimol o'qchi diviziyasi va boshqa diviziyalarga sovg'alarni muntazam yetkazib berib turdilar. Bulardan tashqari, xalqimiz frontga harbiy texnikalar yetkazib berishga ham munosib hissa qo'shdi. Shu xususda bir misol keltirib o'tish o'rinlidir. O'zbekistondan jo'natilgan tanklarning katta guruhi Polsha hududlariga ham keltirilib, gvardiyachi panfilovchilar diviziyasi jangchilariga topshirilgan: "Eshelonlarda 400 dan ortiq tank, o'ziyurar to'p, bronetransportyor va broneviklar olib kelindi. Bu po'lat otlar o'zbek xalqining frontdagi azamat jangchilarga yuborgan sovg'asi edi... O'zbekistonning 20 yilligi tanklari 1945-yil 2-may kechqurun Maklenburg viloyatidagi Vismer shahriga kirdi [16]".

1943-yilda Toshkent shahar mehnatkashlari frontga harbiy-texnika bilan yordam ko'rsatish maqsadida o'zlarining

shaxsiy jamg'armalaridan tank kolonna-si, jangovarsamolyotlareskadrilyasiqurishuchun 34 million 210 ming so'm ajratdilar. Umu-man, urush yillari mobaynida O'zbekiston mehnatkashlari mudofaa fondiga jami 649,9 mln so'm miqdorida mablag' hamda 22 kg oltin va kumush (zargarlik buyumlari) topshirib, g'alaba uchun katta hissa qo'shdi-lar [17, 217-b.]

O'zbekiston xalqi Ikkinchi jahon urushi-ning g'alaba bilan yakunlanishi uchun bor im-koniyatlarini ishga soldi. Front uchun zarur bo'lgan o'q-dori, harbiy texnika va boshqa anjomlar yetkazib berishda tinimsiz mehnat qildi. Natijada O'zbekiston 1941–1945-yil-lardagi urush davomida frontga 2100 ta sa-molyot, 17342 ta aviamotor, 2138 ming dona aviabomba, 17100 ta minamiyot, 4500 bir-likdan iborat minalarni yo'q qiluvchi qurol, 60 mingga yaqin harbiy-kimyoviy appa-ratura, 22 mln dona mina va 560 ming dona snaryad, 1 mln dona granata, dala radio-stansiyalari uchun 3 mln radiolampa, qari-yb 300 mingta parashyut, 5 ta bronepoyezd, 18 ta harbiy-sanitariya va hammom kir yu-vish poyezdi, 2200 ta ko'chma oshxona va boshqa ko'pgina harbiy anjomlar yetkazib berdi [18, 444-445-b.].

Bular o'zbek xalqining og'ir va tinimsiz mehnati, ko'z qorachig'idek yaxshi kunlari uchun asrab-avaylab saqlagan mablag'lari evaziga yuzaga kelgan edi. Urush res-publikamiz iqtisodiyotiga, aholining ijtimoiy ahvoliga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Urush qabohati har bir xonadonga balo-qazodek yopirilib kirdi. Frontlardan kelib turgan qora xatlar hech bir xonadonni chetlab o'tmadi. Jang maydonlarida qahramonona halok bo'lgan farzandlari haqida kelib turgan qora xatlar onalar yuragini larzaga soldi. O'z jigar go'shalarini yo'qotishi, undan judo bo'lishi xalqimiz boshiga yanada musibatli kunlarni soldi. Ammo matonatli, irodali xalqimiz har qanday sinovlarga bardosh berdi, o'zligini yo'qotmadi. Shu tariqa urush xalqimizni og'ir sinovlardan o'tkazdi.

Darhaqiqat, xalqimizning front ortida-gi matonati tarix zarvaraqlaridan munosib o'rin egalladi va manguikka daxldor bo'lib qoldi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyo-yev 2021-yil 9-may kuni Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda ta'kidlaganidek: "Hayot qonuniyatiga ko'ra, vaqt o'tishi bilan ko'p narsa unutiladi, esdan chiqadi. Lekin bu yorug' dunyoda ulug' bir haqiqat borki, u hech qachon o'zgarmaydi, hech qachon eskirmaydi. Ya'ni **Vatan va xalq ozodligi, kelgusi avlodlarning baxt-u saodati yo'lida mardlik va jasorat ko'rsatgan insonlar xotirasi hamisha barhayot ya-shaydi**" [5].

G'alaba front orti ishlarining mustah-kam asosda tashkil etilishi va mashaqqat-li mehnatning natijasi bo'ldi. O'zbekis-tonliklarning murakkab, favqulodda holatda yanada mustahkam jipslashuvi natijasida qisqa muddatda barcha moddiy va ma'naviy kuchlar dushmanga qarshi safarbar etildi. Respublikamiz harakatdagi qurolli kuchlarni qurol-aslaha, o'q-dori, kiyim-kechak, oziq-ovqat bilan ta'minlovchi mustahkam harbiy bazalardan biriga aylandi. Frontni front orti bilan mustahkamlashga bor imkoniyatlari-ni safarbar etdi. Shunday ekan, g'alaba ham hammaniki bo'ldi. Fashizm ustidan qozonil-gan g'alaba barcha tinchlikparvar kuchlar g'alabasi edi. Yovuz kuchlarning ezgulik ol-dida taslim bo'lishi o'z ahamiyati jihatidan kishilik taraqqiyotini halokatdan saqlab qol-di. Bu g'alaba insoniyatni olg'a odimlashiga yo'l ochib bergan olamshumul tarixiy voqea bo'ldi. Ushbu qo'lga kiritilgan g'alaba fa-shizmga qarshi kurashda ishtirok etgan bar-cha xalqlar qatorida O'zbekiston xalqining ham g'alabasi edi. Zero, insoniyatni fashizm balosidan qutqarib qolishda O'zbekiston xalqi ham munosib, teng hissa qo'shdi. Shu ma'noda olib qaraganda, o'sha suronli yillar tariximizni atroflicha o'rgansak, O'zbekiston xalqining g'alabani ta'minlashga qo'shgan munosib hissasini yanada teranroq anglay-miz.

Darhaqiqat, Xotira va qadrlash xalqimizga xos bo'lgan azaliy qadriyatlarimizdan sanaladi. Tinchlikni qadrlash, uni doimo

ko'z qorachig'idek asrab-avaylash har birimizning muqaddas burchimizga aylanmog'i kerak.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 9-may kuni Buyuk G'alabani 75 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi [Speech by President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev on May 9, 2020 at the solemn ceremony dedicated to the 75th anniversary of the Great Victory and the Day of Remembrance and Honor]. *Xalq so'zi – People's Word*, 2020, May 10.
2. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 23-oktabrdagi "Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabani 75 yilligini munosib nishonlash to'g'risida"gi qarori [President Shavkat Mirziyoyev on October 23, 2019. Resolution "On the worthy celebration of the 75th anniversary of the victory in World War II"].
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 9-may – Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi [Speech by President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the solemn ceremony dedicated to May 9 - the Day of Remembrance and Honor]. *Xalq so'zi – People's Word*, 2018, May 10.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi [Speech by President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the solemn ceremony dedicated to the Day of Remembrance and Honor]. *Xalq so'zi – People's Word*, 2019, May 10.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi [Speech by President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the solemn ceremony dedicated to the Day of Remembrance and Honor]. *Xalq so'zi – People's Word*, 2021, May 10.
6. Usmonov Q., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi (1917–1991-yillar) [History of Uzbekistan (1917–1991)]. Tashkent, 2002, p. 136.
7. Karimov Sh. G'alabaga qo'shilgan hissa [Contribute to the victory]. Tashkent, 1990, p. 19.
8. Trud Newspaper, 2005, April 28 – May 4.
9. Fashizm ustidan qozonilgan g'alabada O'zbekistonning tarixiy hissasi (1941–1945 yy.) [Historical contribution of Uzbekistan to the victory over fascism (1941–1945)]. Tashkent, Fan Publ., 1996, pp. 364–365.
10. *Front haqiqati – Front Fact*, 1945, March 16.
11. *Qizil O'zbekiston – Red Uzbekistan*, 1946, January 16.
12. Sultonov N. Surxondaryo urush yillarida [Surkhandarya during the war]. *O'zbekistonda ijtimoiy fanlar – Social sciences in Uzbekistan*, 1995, no. 4, pp. 89–91.
13. UzR. PDA. Fund 58, list 18, vol. 177, pp. 114–116.
14. *Qizil O'zbekiston – Red Uzbekistan*, 1946, Mart 4.
15. Postanavleniye №164 SNK UzSSR i TSK KP(b) Uzbekistana ot 27–28 yanvarya 1942 goda «Ob organizatsii sbora yubileynykh podarkov k dnyu 24-y godovshchiny Krasnoy armii» [Decree No. 164 of the Council of People's Commissars of the Uzbek SSR and the Central Committee of the Communist Party (b) of Uzbekistan dated January 27–28, 1942 "On organizing the collection of jubilee gifts for the day of the 24th anniversary of the Red Army"]. MDA of the Republic of Uzbekistan, fund 837, list 32, coll. 3263, p. 72.
15. MDA RU. Fund 837, list 32, vol. 2767, p. 2.

16. *Qishloq haqiqati – Rural reality*, 1994, May 6.

17. *Uzbekskaya SSR v gody Velikoy Otechestvennoy voyny (1941-1945 gg.)* [Uzbek SSR during the Great Patriotic War (1941-1945)]. Tashkent, 1985, vol. 3, p. 217.

18. *O'zbekistonning yangi tarixi* [New history of Uzbekistan]. The second book. Uzbekistan during the Soviet era. Tashkent, Sharq Publ., 2000, pp. 444-445.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2 / 2022

BOSH MUHARRIR:

Nodirbek Salayev

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 05.05.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 20,88 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 14.

TDYU tipografiyasida chop etildi.